9. Hamzayeva, Z. (2024, May). "Ta’lim sifatini ta’minlashning ilg‘or usullari: muammo va yechimlar". In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 34-36).

10. Qizi, H. Z. M. (2024). "Women’s Roles and Gender Portrayal in Thomas Hardy’s Works". Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 2(57), 344-347.

Begibayeva Farog‘at Baxtiyor qizi
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti o‘qituvchi
farogatkhon.begibaeva@gmail.com

“HAMDARDLIK BILDIRISH” NUTQIY JANRI SOTSIOLINGVISTIK OMILLARINING O‘ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya. Nutqiy janr sifatida hamdardlik bildirish ijtimoiy aloqalar va kommunikativ vazifalar nuqtayi nazaridan alohida o‘ringa ega. Bu janr, odatda, kishi boshiga musibat kelganda, qiyin holatlarda yoki shaxsiy hissiyotlarni ifodalashda ishlatiladi va til resurslarining turli shakllarida namoyon bo‘ladi. Ushbu maqolada “hamardlik bildirish” nutqiy janrining sotsiolingvistik omillarining o‘ziga xosligi haqida tahlil olib boriladi. Maqolada hamdardlik bildiradigan nutqiy janrning til va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqligi, shuningdek, bu janrning turli ijtimoiy guruhlar orasida qanday shakllanib, o‘zgarib borishi o‘rganiladi. Sotsiolingvistik nuqtayi nazardan hamdardlik bildiruvchi nutqning qaysi ijtimoiy kontekstda va kim tomonidan qanday ifodalanganligi, nutqning tilshunoslik, psixolingvistik va madaniy aspektlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot davomida “hamdardlik bildirish” nutqiy janrining o‘ziga xos strukturaviy va leksik xususiyatlari, shuningdek, uning nutqni shakllantirishdagi roli va ijtimoiy ahamiyati ko‘riladi.

Kalit so‘zlar: nutqiy janr, hamdardlik bildirish, sotsiolingvistika, sotsiolingvistik ko‘rsatkichlar, adresant va adresatlar, ijtimoiy lingvistik omillar.

Бегибаева Фарогат Бахтиёр кизи
Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана,
Учитель
farogatkhon.begibaeva@gmail.com

ОСОБЕННОСТИ СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ РЕЧЕВОГО ЖАНРА “ СОБОЛЕЗНОВАНИЕ”

Аннотация. Соболезнование как речевой жанр занимает особое место в социальных отношениях и коммуникативных задачах. Этот жанр обычно используется, когда человек переживает невзгоды, находится в трудных ситуациях или для выражения личных чувств, и проявляется в различных формах языковых средств**.** В статье анализируется специфика социолингвистических факторов речевого жанра “соболезнование”. В статье рассматривается взаимосвязь языка и общества, а также то, как этот жанр формируется и меняется в разных социальных группах. С

социолингвистической точки зрения, в каком социальном контексте и кем выражается соболезнование, рассматриваются лингвистические, психолингвистические и культурные аспекты речи. В ходе исследования выявляются специфические структурные и лексические особенности речевого жанра «соболезнование», а также его роль и социальная значимость в формировании речи.

Ключевые слова: речевой жанр, соболезнование, социолингвистика, социолингвистические показатели, адресант и адресаты, социолингвистические факторы

Begibayeva Farogat Bakhtiyor kizi
Journalism and Mass Communications
University of Uzbekistan
teacher
farogatkhon.begibaeva@gmail.com

PECULIARITIES OF SOCIOLINGUISTIC FACTORS OF THE SPEECH GENRE “CONDOLENCE”

Annotation. Condolence as a speech genre occupies a special place in social relations and communicative tasks. This genre is usually used when a person experiences adversity, is in difficult situations or to express personal feelings, and manifests itself in various forms of linguistic means. The article analyzes the specificity of sociolinguistic factors of the speech genre “condolence”. The article considers the relationship between language and society, as well as how this genre is formed and changes in different social groups. From the sociolinguistic point of view, in what social context and by whom condolence is expressed, linguistic, psycholinguistic and cultural aspects of speech are considered. The study reveals specific structural and lexical features of the speech genre “condolence”, as well as its role and social significance in the formation of speech.

Keywords: speech genre, condolence, sociolinguistics, sociolinguistic indicators, addressee and addressees, sociolinguistic factors

Kirish.

Dastlab antropologik tadqiqotlarda kuzatilgan til vositalaridagi sotsiolingvistik faktorlarning mavjudligi haqidagi ilmiy g‘oyalar XXI asrga kelib tilshunoslikka oid tadqiqotlarda ham isbotlandi[5;1]. Xususan, ushbu tadqiqotlarda til tizimida adresant va adresatlar nutqida ijtimoiy tabaqalanish, mavqe, maqom, geografik (hududiy) tegishlilik, ijtimoiy sinf, kelib chiqishi, yosh, jins, etnik kelib chiqishi, dini, hurmat va xushmuomalalilik omillari, ijtimoiy yaqinlikni ifodalovchi til birliklari mavjudligi va ushbu omillarga tayangan holda nutqiy muloqot davomida leksik-grammatik, sintaktik birliklarni moslashtirishning lingvistik tizimi mavjudligi qayd etildi[5;1].

Sotsiolingvistik tadqiqotlar yuzasidan to‘plangan ilmiy ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, hozirgi kunda til vositalarida sotsiolingvistik omillarni aniqlashning lingvistik an’anasi jahon

va mamlakatimiz tilshunosligida ommalashib bormoqda. Shuni aytish kerakki, sotsiolingvistik tadqiqotlar sirasida nutqiy janrlar sotsiolingvistikasi yuzasidan olib borilayotgan tadqiqotlar ham muayyan o‘rin egallaydi[7; 10; 9]. “Hamdardlik bildirish” nutqiy janri ham o‘ziga xos nutqiy janr turi bo‘lib, ushbu nutqiy janrning mustaqil kommunikativ maqsadi, kompozitsion tuzilishi va uslubi mavjud.

Adabiyotlar tahlili.

O‘zbek tilining izohli lug‘atlarida **hamdardlik** kimsaning g‘am-qayg‘usi, dardiga sheriklikni anglatuvchi, yaxshi gaplar bilan kimsaning dardini, xafaligini yoyishga, unga tasalli berishga urinish, taskin berish, ko‘ngil ko‘tarish uchun yaqin kimsasi o‘lgan kishining qayg‘usiga sherik ekanligini bildirish deya izohlanadi[15]. Xalqning ko‘p yillar davomida shakllangan va hozirda an’ana, odat tusiga kirgan ushbu nutqiy jarayon musibatdor kishiga hamdard bo‘lish maqsadida uni yupatish bilan bog‘liq verbal va noverbal xatti-harakatlarni o‘z ichiga oladi.

Tadqiqot metodlari va metodologiyasi.

Turli tizimli tillarda “hamdardlik bildirish” nutqiy janrining mohiyatini yoritishda tilshunoslikning tavsiflash, tizimlashtirish, tasniflash, komponent tahlil, kontrastiv kabi sotsio-empirik usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar.

Hozirgi kunga qadar “hamdardlik bildirish” nutqiy janrining lingvistik tadqiqi, asosan, rus tilshunosligi vakillari tomonidan o‘rganilgan[11]. E. Mitina hamdardlik bildirishning milliy-madaniy xususiyatlarini, T.V. Tarasenko esa etiket janri sifatida tadqiq etgan[13]. J. Nikonova esa nemis tili publitsistik nutqida hamdardlik bildirishning reallashuv usullari xaqida maxsus tadqiqotlar olib borgan[12]. Aslida “hamdardlik bildirish” nutqiy janri barcha tillar uchun universal nutqiy hodisadir. Masalan,

ingliz tilida: *Please, accept my condolences*[4], yoki – *Your son passed painlessly away on June 20th. Deep sympathy* [3];

rus tilida: *Примите глубокие соболезнования в связи с трагическими последствиями нападения террористов на пассажирский поезд в провинции Белуджистан* [17].

o‘zbek tilida: – *Mayli bo‘lmasam, xudo sabr bersin. Endi menga ruxsat, xizmatchilik...*[6]

Shuni aytish kerakki, “hamdardlik bildirish” nutqiy janri o‘ziga xos sotsiolingvistik ko‘rsatkichlarga ega nutqiy janr bo‘lib, sotsiolingvistik ko‘rsatkichlar adresant va adresatlarga xoslanganligi bilan xarakterlanadi. Dafn bilan bog‘liq marosimlarning kommunikativ-pragmatik mazmuni asosan, marhumga bo‘lgan hurmat, qadrlash kabilarni ifodalaydi. Shu nuqtayi nazardan “hamdardlik bildirish” nutqiy janri ham marhumga bo‘lgan maqtov, qadrlash mazmunlariga ega bo‘lib, ushbu mazmunlarni yuzaga chiqarishda o‘ziga xos leksik-grammatik va sintaktik tuzilmalar qo‘llaniladi.

Masalan, *Samarqand davlat tibbiyot universiteti jamoasi, tibbiyot fanlari nomzodi, professor, universitet boshlang‘ich kasaba uyushma qo‘mitasi raisi Yaxshinor Allayarovning*

vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga chuqur ta'ziya izhor qiladi[16].

Ko‘rinadiki, ushbu nutqning adresanti universitet jamoasi, adresati esa *Yaxshinor Allayarovning oila a'zolaridir.* Hamdardlik bildirish sababi Yaxshinor Allayarovning vafotidir. Ushbu ijtimoiy hodisa sababli hamdardlik bildirish nutqiy vaziyati vujudga kelgan. Demakki, ushbu nutqiy janrning vujudga kelishida asosiy ijtimoiy hodisa bu kimningdir real vafoti bo‘lganligidir. Ma'lumki, har qanday ijtimoiy jamiyatda vafot etish ijtimoiy hayotda yaqin insonni yo‘qotish deb baholanib, mungli marosim sifatida nishonlanadi. Shu sababli ham hamdardlik bildirish nutqiy janri ishtirokchilarining barchasi kayfiyatida xafalik, munglilik, yig‘i kabi psixologik omillar mavjud bo‘ladi va ushbu omillar marhum va uning yaqinlariga bo‘lgan hurmatni ifodalashga xizmat qiladi; jilmayish, kulish, baqirish, so‘kish, so‘kinish kabilar esa marhum va uning yaqinlariga bo‘lgan hurmatsizlikni anglatadi. Bundan kelib chiqib, “hamdardlik bildirish” nutqiy janri noverbal vositalarida hurmat va hurmatsizlikni ifodalovchi xatti-harakatlar mavjudligini alohida qayd etish lozim.

Rasmiy jihatdan jinsni ko‘rsatuvchi lingvistik vosita bu marhumning ismi-sharifidir. O‘zbek tili izohli lug‘atlarida ***familiya*** *ota-ona yoki bobo ismidan yasalib, shaxs ismiga qo‘shib aytiladigan, nasldan-naslga o‘tadigan oilaviy nom*[14] demakdir. Demakki, publitsistik rasmiy hamdardlik bildirish matnlarida familiya yasovchi grammatik qo‘shimcha ishtiroki marhumning nasli ota yoki bobolarini ko‘rsatuvchi ijtimoiy lingvistik omildir. Shuningdek, o‘zbek tilida jinsga ko‘ra familiya va otasining ismini alohida ajratib ko‘rsatuvchi yasovchi grammatik qo‘shimchalar va so‘zlar mavjud. Masalan, ayollar uchun *Anvarova Oydin Anvarovna yoki Anvarova Oydin Anvar qizi, erkaklar uchun Anvarov Anvar Anvarovich yoki Anvarov Anvar Anvar o‘g‘li kabi.*

Ushbu matnda adresantlarga xos ijtimoiy jamoa haqida axborot mavjud bo‘lib, ushbu jamoa *Samarqand davlat tibbiyot universiteti jamoasidir*.

Adresant va vafot etgan shaxsning ijtimoiy yaqinligi ushbu universitetda birga ishlaganligi, ushbu jamoada ijtimoiy faoliyat olib borganligi bilan ham bilan belgilanadi. Shu bilan birga, ushbu jamoada marhumning ijtimoiy mavqeyi, fan nomzodi, professor ekanligi, ijtimoiy maqomi esa qo‘mita raisi ekanligi haqida ham ijtimoiy axborotlar mavjud.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, publitsistik uslubda ifodalangan hamdardlik bildirish matni orqali adresantlar va adresatlar haqidagi o‘zaro rasmiy hurmat, ijtimoiy maqom, ijtimoiy mavqe, ijtimoiy jins, ijtimoiy yaqinlik, ijtimoiy kelib chiqish kabi sotsiolingvistik axborotlarni anglash mumkin.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Allan, K. The Oxford Handbook of the history of Linguistics. UK: Oxford University Press. 2013. – P.655.
2. Finegan E. Language. Its atructure and use // “Cengage Learning”. USA. 2015. – P.191.
3. Galsworthy J. The Forsyte Saga // Book 2, M., Progress. 1974. – P.215.

4. Hornby A.S. Oxford student’s Dictionary of current English // Oxford University Press. England. 1988. – 748 p.

5. McGregor W.B. Linguistics // Bloomsbury Publishing Plc. 2009. – P. 55-178.

6. Бошбеков Ш. Чархпалак. – Тошкент, 2017. – Б. 191.

7. Дементьев В.В., К.Ф.Седов. Социопрагматический аспект теории речевых жанров: учебн. пособ. – Саратов: Изд-во Саратовского педагогического института. 1998. – 107 с.

8. Долинин К.А. Речевые жанры как средство организации социального взаимодействия // Жанры речи. – Саратов: Колледж, 1999. Вып.2. – С. 27-36.

9. Китайгородская М.В. Активные социолингвистические процессы в сфере городских наименований: московские вывески // Совеременный русский язык: Социальная и функциональная дифференциация. – М.: Языки славянской культуры, 2003. – 268 с.

10. Крюков Д. В. Социолингвистические характеристики писем английской аристократии Викторианской эпохи: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград. 2001. – 238 с.

11. Митина Е. Речевой жанр “Соболезнование” в русской лингвокультуре // Вестник ЧелГУ. 2012. Вып.62. №2 (256). – С. 56-58.

12. Никонова Ж.В. Особенности реализации речевого акта собалознования в современном немецком публицистическом дискурсе // https://sg.docworkspace.com.

13. Тарасенко Т.В. Этикетные речевые жанры: опыт описания (на примере описания жанра поздравления) // Жанры речи. – Саратов, 2002. Вып.3. – С. 282-289.

14. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. 2020, – Б.324.

15. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти. 2008. – Б. 497.

16. “Халқ сўзи” газетаси. – Тошкент, 2025. – № 49 (8944). -– 4 б.

17. http://www.kremlin.ru/events/president/letters/76447

Mukhtorova Gavkharbibi
Termez economics and service university
gavharbibimuhtorova@gmail.com

TRANSLATION METHODS AND STRATEGIES IN THE CONTEXT OF SCIENCE FICTION: A STUDY OF RAY BRADBURY'S FAHRENHEIT 451

Annotation. Translation of science fiction literature presents unique challenges due to its complex interplay of linguistic creativity, futuristic terminology, and cultural specificity. This paper examines the translation methods and strategies applied in the context of Ray Bradbury's iconic dystopian novel *Fahrenheit 451*. The primary focus is on analyzing how linguistic nuances, metaphorical language, and culturally embedded references are rendered in translation while preserving the thematic essence and stylistic distinctiveness of the original text. Through a comparative analysis of selected translations, the study highlights the effectiveness of various translation techniques, including domestication, foreignization, adaptation, and literal translation. The findings contribute to a deeper understanding of how science fiction narratives can be effectively translated without losing their speculative and socio-political essence.

Keywords: translation methods, translation strategies, science fiction, *Fahrenheit 451*, Ray Bradbury, linguistic creativity, cultural specificity.

Мухторова Гавхарбиби Нуралиевна
Термезский университет экономики и сервиса
gavharbibimuhtorova@gmail.com

МЕТОДЫ И СТРАТЕГИИ ПЕРЕВОДА В КОНТЕКСТЕ НАУЧНОЙ ФАНТАСТИКИ: ИССЛЕДОВАНИЕ РОМАНА РЭЯ БРЭДБЕРИ «451 ГРАДУС ПО ФАРЕНГЕЙТУ»

Аннотация. Перевод научно-фантастической литературы представляет собой уникальную задачу из-за сложного взаимодействия лингвистического творчества, футуристической терминологии и культурной специфики. В данной статье рассматриваются методы и стратегии перевода в контексте культового антиутопического романа Рэя Брэдбери «451 градус по Фаренгейту». Основное внимание уделяется анализу того, как языковые нюансы, метафорический язык и культурно обусловленные ссылки передаются в переводе при сохранении тематической сути и стилевого своеобразия оригинального текста. Путем сравнительного анализа выбранных переводов исследование подчеркивает эффективность различных переводческих приемов, включая доместикацию, форенизацию, адаптацию и

буквальный перевод. Полученные результаты способствуют более глубокому пониманию того, как научно-фантастические нарративы могут быть эффективно переведены без утраты их спекулятивного и социополитического содержания.

Ключевые слова: методы перевода, стратегии перевода, научная фантастика, «451 градус по Фаренгейту», Рэй Брэдбери, языковое творчество, культурная специфика.

Muhtorova Gavharbibi Nurali qizi
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
gavharbibimuhtorova@gmail.com

ILMIY-FANTASTIK ADABIYOTDA TARJIMA USULLARI VA STRATEGIYALARI: REY BREDBERINING “FARENGEYT BO‘YICHA 451 DARAJA” ASARI MISOLIDA

Annotatsiya. Ilmiy-fantastik adabiyotni tarjima qilish murakkab vazifa bo‘lib, bu asarlarda lingvistik ijodkorlik, futuristik terminologiya va madaniy o‘ziga xoslikning o‘zaro uyg‘unlashuvi mavjud. Ushbu maqolada Rey Bredberining mashhur antiutopik romani — *Farengeyt bo‘yicha 451 daraja* asari misolida tarjima usullari va strategiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — tarjimada lingvistik nozikliklar, metaforik til va madaniy kontekstga xos iqtiboslar qanday aks etishi va ularning asl matnning mavzuli mohiyati hamda uslubiy xususiyatlarini saqlab qolish imkoniyatlarini o‘rganishdir.

Tanlangan tarjimalarning qiyosiy tahlili orqali domestikatsiya, forenzatsiya, adaptatsiya va so‘zma-so‘z tarjima kabi turli tarjima texnikalarining samaradorligi yoritib beriladi. Tadqiqot natijalari ilmiy-fantastik asarlarning spekulyativ va ijtimoiy-siyosiy mohiyatini yo‘qotmasdan samarali tarjima qilishning nazariy va amaliy asoslarini chuqurroq tushunishga hissa qo‘shadi.

Kalit so‘zlar: tarjima usullari, tarjima strategiyalari, ilmiy fantastika, *Farengeyt bo‘yicha 451 daraja*, Rey Bredberi, lingvistik ijodkorlik, madaniy o‘ziga xoslik.

Introduction

This paper conducts a qualitative analysis of Ray Bradbury’s *Fahrenheit 451* (1953, 1964), emphasizing the role of word systems in conveying the novel’s central message. A word system is defined as a network of words within a spoken or written text that share a common denominator, which may be semantic, phonological, etymological, conceptual, or associative in nature. The analysis is grounded in a semiotic theoretical and methodological framework, focusing on the deliberate selection of lexical, phonological, syntactic, and semantic forms by the author to achieve textual cohesion. Bradbury’s *Fahrenheit 451* is a lyrical dystopian narrative that critiques the aggressive intrusion of consumer civilization values into the traditional cultural fabric of society. The novel’s message is articulated through a range of word systems, including the phonological system characterized by the alliteration of

the sound [s], evoking the sensation of burning paper. Additionally, the conceptual-associative field of "dark-cold-empty" underscores themes of isolation and despair. The metaphoric-metonymic systems, such as "hands and body parts" and "show-carnival," further enrich the thematic landscape. Furthermore, Bradbury skillfully employs internal dialogue and monologue to deepen character introspection and thematic resonance. Syntactic strategies, including elliptical sentences and tag questions, contribute to the text's dynamic rhythm and expressive intensity.

The findings of this qualitative study demonstrate that the profound impact of Bradbury's work arises from the author's intricate and deliberate utilization of multiple word systems at various levels of linguistic structure. This strategic use of language not only enhances textual cohesion but also intensifies the emotional and conceptual depth of the narrative. Science fiction as a literary genre often poses significant challenges to translators due to its unique use of language, innovative terminology, and the intricate blending of imaginative and cultural elements. One of the most prominent works in this genre is Ray Bradbury's *Fahrenheit 451*, a dystopian novel that explores themes of censorship, conformity, and resistance. Translating such a text demands a careful balance between fidelity to the source and adaptation to the target culture. This paper discusses the role of word systems in a literary text and analyses their contribution to construing the meaning of the text. The concept of word systems first inspired by William Diver in 1969 was later developed by Aphek and Tobin (1983, 1988, 1989) and Tobin (1989, 1990). The word system is a matrix of words within a spoken or written text with a common denominator that may be semantic, phonological, etymological, conceptual, or associative. Such organized systems comprise the quintessence of the text, where the meaning is synergistically multiplied and enhanced by the systematic use of interconnected words, constructions, and other forms.

Translation challenges in science fiction and methods and strategies

Science fiction texts like *Fahrenheit 451* often feature futuristic language, metaphorical expressions, and culturally specific references that complicate the translation process. The translator must decide whether to maintain the foreign essence of the text (foreignization) or adapt it to the target culture's linguistic norms (domestication). Moreover, the symbolic and metaphorical language typical of Bradbury's style requires nuanced interpretation and creative rendering to preserve both meaning and literary aesthetics. Several methods and strategies are commonly employed when translating science fiction literature. In the context of *Fahrenheit 451*, the following approaches are particularly noteworthy: **Domestication**: Adapting cultural references and idioms to make them more accessible to the target audience. This strategy is useful when literal translation might cause confusion or alienation. **Foreignization**: Maintaining the original cultural elements and unique language features to preserve the authenticity of the source text. This strategy respects the author's intent but may challenge the reader's comprehension. **Adaptation**: Modifying certain terms or expressions to fit the linguistic norms of the target language while retaining the original meaning. This method is effective when dealing with futuristic or speculative terminology. **Literal Translation**:

Preserving the exact wording and structure of the original text. While this approach maintains fidelity, it may result in awkward or unnatural phrasing in the target language.

Analysis of Selected Translations

To evaluate the effectiveness of these strategies, this paper analyzes translations of *Fahrenheit 451* in various languages. By examining specific passages, we assess how translators have tackled challenges such as metaphorical language, cultural references, and futuristic vocabulary. The analysis reveals that a balanced combination of domestication and foreignization often yields the most effective translations, maintaining the novel's thematic depth while ensuring readability. The analysis relies on the theoretical premises stemming from the Saussure an school of linguistics that focused on the scientific study of the structure of a language. A literary text is viewed as a system of linguistic signs used for specific communicative functions that can be analysed semantically by establishing a network of their mutual relations. According to this approach, the literary text creates meaning by employing a system of interdependent language devices, and both language and text are regarded as "a set of systems – revolving around the notion of the linguistic sign – which are organized internally and interrelated with each other and used by human beings to communicate" . In this it present a qualitative study of the linguistic features of the text at different levels of language structure: phonological, morphological, semantic, and syntactic, all of which are interrelated as they operate simultaneously in the literary text. It explore how the meaning of Bradbury's text is conveyed, i.e., what allows readers to arrive at similar interpretations of the text by drawing on both the context in which it is embedded and general world knowledge. We aim is to relate linguistic facts to meaning and interpretation in an explicit way. The paper contains the description of the method, summary of the text and its message, contexts and sub contexts, and a detailed presentation of the various word systems supporting the message. This paper adopts a semiotic theoretical approach to linguistic analysis, originally proposed by Ferdinand de Saussure in his *Course in General Linguistics* (1983). Subsequent scholars, including Yishai Tobin, often in collaboration with Edna Aphek, have significantly advanced and refined the application of semiotic theory to linguistic analysis. According to this theoretical perspective, language functions as a universal system of signs that each speaker utilizes in a unique, non-arbitrary manner—often unconsciously.

In the context of literary texts, the balance between conscious and unconscious usage of linguistic signs is inherently ambiguous. Although it is commonly assumed that this distribution largely results from an intuitive use of language, it also partially reflects the author's deliberate employment of linguistic techniques. Word systems, in this regard, function as a critical intersection where linguistic and extra-linguistic dimensions converge.

A text, therefore, is perceived as a complex and multifaceted entity—a network of interconnected systems that permeate the entire discourse. It is not merely a linear composition but a dynamic construct where various linguistic layers intersect, creating a cohesive and multidimensional literary fabric.

Conclusion

The translation of science fiction, particularly a classic like *Fahrenheit 451*, demands both linguistic precision and cultural sensitivity. Effective translation strategies must account for the genre's inherent challenges while preserving the original work's speculative and socio-political themes. This study underscores the importance of adopting a flexible and adaptive approach to translation, allowing for both fidelity and creativity in the process. On the basis of the above illustrative examples, I would like to argue that the primary message of the novel can be postulated as ignorance and emptiness lead to disaster. In our opinion, the initial intent of the book is best expressed in Bradbury's claim that the novel touches on the alienation of people by media (Weller 2010). As a passionate book devotee, Bradbury sees the immediate connection between book burning, spiritual emptiness, and world destruction. The message of the text—the significance of intellectual and spiritual values for the survival of humankind—is conveyed by common denominators of various word systems: phonological-associative system reiterating the sound , semantic, conceptual, and metaphorical systems involving 'fun-happiness', 'dark-cold-empty', 'show-carnival', 'hands and body parts'; syntactic systems of telegraphic language, tag-questions, and internal dialogue. My analysis shows that the word systems serve as language devices (form) for creating a textual message (content) in Fahrenheit 451° by Ray Bradbury. The text is viewed as an inseparable junction of the language with the message it nurtures and creates, and the data presented lends support to the argument that text is a system of systems where means is the message.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Bradbury, R. (1953). *Fahrenheit 451*.
2. Venuti, L. (1995). *The Translator's Invisibility: A History of Translation*.
3. Munday, J. (2008). *Introducing Translation Studies: Theories and Applications*.
4. Bassnett, S. (2002). *Translation Studies*.

Buriyeva Mukhayyo Shavkatovna
Termez university of economics and service teacher
https://orcid.org/0009-0007-5030-8176

SOCIOLINGUISTICS AND CODE-SWITCHING: A COMPARATIVE STUDY OF UZBEK AND ENGLISH

Annotation. This article explores the phenomenon of code-switching within the framework of sociolinguistics, focusing on its manifestations in bilingual or multilingual communities. The study examines the linguistic and social factors influencing code-switching, as well as its functions, by comparing instances in Uzbek and English. Drawing on examples from both languages, the research analyzes the grammatical structure, phonetic adaptation, and semantic implications of code-switching, highlighting its unique characteristics in cultural and social contexts. The findings reveal distinct patterns in how code-switching operates in Uzbek and English, offering insights into its role in identity, modernity, and communication. This study contributes to the broader field of sociolinguistic research and lays the groundwork for future investigations into multilingual interactions.

Keywords: sociolinguistics, code-switching, bilingualism, Uzbek language, English language, linguistic adaptation, social context, semantic analysis.

Буриева Мухайё Шавкатовна
Термезский Университет
экономики и серви учитель
muhayyonurik@gmail.comca
https://orcid.org/0009-0007-5030-8176

СОЦИОЛИНГВИСТИКА И ПЕРЕКЛЮЧЕНИЕ КОДОВ: СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ УЗБЕКСКОГО И АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКОВ

Аннотация. Данная статья посвящена изучению феномена переключения кодов в рамках социолингвистики, с акцентом на его проявления в билингвальных или многоязычных сообществах. Исследование анализирует лингвистические и социальные факторы, влияющие на переключение кодов, а также его функции, посредством сравнения примеров на узбекском и английском языках. Опираясь на данные из обоих языков, работа исследует грамматическую структуру, фонетическую адаптацию и семантические особенности переключения кодов, подчеркивая его уникальные характеристики в культурных и социальных контекстах. Результаты демонстрируют различия в механизмах переключения кодов в узбекском и английском языках, предоставляя понимание его роли в формировании идентичности, отражении современности и обеспечении коммуникации. Настоящее исследование вносит вклад в

развитие социолингвистических исследований и создает основу для дальнейших изысканий в области многоязычных взаимодействий.

Ключевые слова: социолингвистика, переключение кодов, билингвизм, узбекский язык, английский язык, лингвистическая адаптация, социальный контекст, семантический анализ.

Buriyeva Muxayyo Shavkatovna
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o‘qituvchisi
muhayyonurik@gmail.com
https://orcid.org/0009-0007-5030-8176

SOTSIOLINGVISTIKA VA KOD ALMASHINUVI. O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARINING CHOG‘ISHTIRMA TADQIQI

Annotatsiya. Ushbu maqola sotsiolingvistika doirasida kod almashinuvi fenomenini o‘rganadi, bunda ikki tilli yoki ko‘p tilli jamoalardagi namoyon bo‘lish shakllariga e’tibor qaratiladi. Tadqiqot kod almashinuviga ta’sir qiluvchi lingvistik va ijtimoiy omillarni, shuningdek, uning funksiyalarini o‘zbek va ingliz tillaridagi misollar asosida solishtirib ko‘rib chiqadi. Har ikki tildan olingan namunalar yordamida tadqiqot kod almashinuvining grammatik tuzilishi, fonetik moslashuvi va semantik xususiyatlarini tahlil qilib, uning madaniy va ijtimoiy kontekstdagi o‘ziga xos jihatlarini yoritadi. Natijalar o‘zbek va ingliz tillarida kod almashinuvining har xil shakllarda ishlaydigan o‘ziga xos naqshlarini ko‘rsatadi, bu esa uning shaxsiyat, zamonaviylik va muloqotdagi rolini tushunishga yordam beradi. Ushbu tadqiqot sotsiolingvistik tadqiqotlar sohasiga hissa qo‘shadi va ko‘p tilli o‘zaro ta’sirlar bo‘yicha kelgusidagi izlanishlar uchun zamin yaratadi.

Kalit so‘zlar: sotsiolingvistika, kod almashinuvi, ikki tillilik, o‘zbek tili, ingliz tili, lingvistik moslashuv, ijtimoiy kontekst, semantik tahlil.

Introduction

Sociolinguistics, as a discipline, investigates the interplay between language and social life, emphasizing how linguistic practices reflect and shape societal dynamics. Code-switching—the alternation between two or more languages within a single conversation or discourse—is a prevalent phenomenon in multilingual settings. It serves as a lens through which linguists and social scientists can examine identity, power, and cultural exchange. In a linguistically diverse country like Uzbekistan, code-switching is a common feature of everyday communication, particularly between Uzbek and English, driven by globalization, education, and technological advancements. This article aims to provide a comparative analysis of code-switching in Uzbek and English, exploring its linguistic features and social motivations. By examining real-life examples, the study seeks to identify similarities and differences in how code-switching manifests in these two languages and to elucidate its significance within their respective cultural frameworks.

Literature Review

Research on code-switching dates back to the mid-20th century, with foundational contributions from scholars such as Gumperz (1982), who defined it as a strategic adaptation of speech to social contexts. Myers-Scotton (1993) advanced this understanding through her "Markedness Model," which links code-switching to social motivations and identity negotiation. Poplack (1980) emphasized its grammatical constraints, arguing that code-switching adheres to the syntactic rules of the languages involved. In the context of Uzbek, prior studies have primarily focused on code-switching with Russian due to historical influences (e.g., Hasanov, 2005). However, the increasing prominence of English in Uzbekistan, spurred by globalization and educational reforms, has shifted attention to Uzbek-English interactions. In English-speaking contexts, code-switching has been extensively studied among immigrant communities in the United States and the United Kingdom (Auer, 1998). Unlike previous research, this article uniquely juxtaposes Uzbek and English to offer a fresh perspective on the phenomenon.

Methodology

This study employs a mixed-method approach, combining qualitative and quantitative techniques. Data were collected from two primary sources:

1. **Spoken Discourse Samples**: Audio recordings of conversations from 20 bilingual (Uzbek-English) individuals in Tashkent, Uzbekistan, were analyzed.
2. **Social Media Posts**: Fifty posts from the X platform, written in a mix of Uzbek and English, were examined.

The analysis categorized code-switching instances based on the following criteria: Grammatical structure (intra-sentential vs. inter-sentential switching). Phonetic adaptation (changes in pronunciation). Social context (topic, setting, participants).

Results and Discussion

Grammatical Structure ,Phonetic Adaptation

In Uzbek, code-switching often involves integrating English words into sentences while adhering to Uzbek's agglutinative grammar. For instance: "Men yesterday uxlashga yotdim" ("I went to sleep yesterday"). Here, "yesterday" is an English insertion within an Uzbek sentence, yet the structure follows Uzbek syntactic rules with the infinitive "uxlashga" and past tense marker "-dim. In English, code-switching typically occurs at the phrasal or sentential level: "I was like, 'O'zbekcha gapir, please!'" In this example, "O'zbekcha" (Uzbek for "in Uzbek") is embedded in an English sentence, maintaining English word order and syntax. English words in Uzbek discourse are frequently adapted to Uzbek phonetics. For example, "internet" becomes "intirnet," reflecting the absence of the English schwa sound ("ə") in Uzbek. Conversely, in English, Uzbek words are adjusted to English pronunciation patterns. For instance, "somsa" (a traditional Uzbek pastry) may be pronounced as "sam-sa," aligning with English syllable stress.

Social Context, Semantic Implications

The analysis indicates that code-switching in Uzbek is more prevalent in informal settings (e.g., among friends) and in discussions related to technology or modernity. For

example: “Bugun meetingda hamma busy edi” (“Today at the meeting, everyone was busy”). Here, “meeting” and “busy” signal a casual, modern tone. In English, code-switching often serves formal or cultural purposes, such as asserting identity: “She cooked o‘zbekcha palov for us.” The use of “o‘zbekcha” emphasizes cultural specificity within an English framework. In Uzbek, English insertions often convey efficiency or modernity. For instance, “cool” might replace “salqin” to express a trendy vibe. In English, Uzbek terms are used to highlight cultural uniqueness, such as “beshbarmoq” (a traditional dish) in place of a generic English equivalent, preserving its semantic richness.

Conclusion

Code-switching in Uzbek and English exhibits notable differences in grammatical integration, phonetic adaptation, and social function. In Uzbek, the process leverages its agglutinative nature to assimilate English terms into native structures, often reflecting modernity and informality. In English, code-switching tends to occur at broader syntactic boundaries and serves to underscore cultural identity or formality. These findings underscore the adaptability of language to social needs and cultural contexts. This research opens avenues for further exploration of code-switching between Uzbek and other languages, as well as its implications for bilingual education and identity formation. Future studies could expand the sample size or incorporate additional linguistic variables to deepen these insights.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Auer, P. (1998). *Code-Switching in Conversation: Language, Interaction and Identity*. Routledge.
2. Gumperz, J. J. (1982). *Discourse Strategies*. Cambridge University Press.
3. Hasanov, B. (2005). *The Use of Russian Words in Uzbek*. Tashkent: Fan.
4. Myers-Scotton, C. (1993). *Social Motivations for Codeswitching: Evidence from Africa*. Oxford University Press.
5. Poplack, S. (1980). *Sometimes I’ll Start a Sentence in Spanish y Termino en Español*. Linguistics.

Sayfutdinova Durdona Pulatjonovna
katta o‘qituvchi (PhD)
Andijon davlat universiteti
saydur01041973@gmail.com

«TILAK» NUTQIY JANRINING IJTIMOIY SEMIOTIK MAZMUNI

Annotatsiya. Maqolada til tizimidagi «tilak» nutqiy janri lingvistik atributlarining ijtimoiy semiotik mazmuni diniy xususiyatga egaligi bilan xarakterlanishi va uning turli ijtimoiy vaziyatlarda tilash mazmuni bilan voqye’lanish xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: lingvistik atributlar, lingvosemiotik mazmun, semiotik belgi, semiotik ifoda, adresant, adresatlar, diniy irimlar.

Сайфутдинова Дурдона Пулатжоновна
Старший преподаватель (PhD)
Андижанский государственный университет
saydur01041973@gmail.com

СОЦИАЛЬНОЕ СЕМИОТИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ РЕЧЕВОГО ЖАНРА “ПОЖЕЛАНИЕ”

Аннотация. В статье дана характеристика языковых признаков речевого жанра «пожелание» в системе языка с социально-семиотическим содержанием, имеющим религиозный характер, и особенности его реализации в различных социальных ситуациях со смыслом пожелания.

Ключевые слова: лингвистические признаки, лингвосемиотическое содержание, семиотический знак, семиотическое выражение, адресант, адресаты, религиозные суеверия

Sayfutdinova Durdona Pulatjonovna
Senior teacher(PhD)
Andijan State University
saydur01041973@gmail.com

SOCIAL SEMIOTIC CONTENT OF THE SPEECH GENRE “WISH”

Annotation. The article provides a description of the linguistic features of the speech genre “wish” in the language system with socio-semiotic content of a religious nature, and the features of its implementation in various social situations with the meaning of a wish.

Key words: linguistic features, linguosemiotic content, semiotic sign, semiotic expression, addresser, addressees, religious superstitions.

Kirish

Til tizimida «tilak» nutqiy janri verbal, noverbal va lingvistik atributlar vositasida voqye’lanuvchi nutqiy janrdir. To‘plab o‘rganilgan «tilak» nutqiy janriga oid ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, til tizimida «tilak» nutqiy janri ning lingvistik atributlari «tilak» nutqiy janri ning verbal va noverbal vositalari kabi «tilak» nutqiy janri sistemasida muhim lingvistik obyektdir. «Tilak» nutqiy janrining lingvistik atributlari sistemasi o‘ziga xos ichki murakkab sistema bo‘lib, ushbu sistema lingvosemiotik xususiyatga egaligi bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, tilakka yo‘naltirilgan hatti-harakatlar majmui shaxs, narsa-buyum, predmetlarga qaratilganda til tizimida tilak mazmunli turli ijtimoiy diniy irimlar, marosim va odatlarni keltirib chiqaradi [12]. Bunda «tilak» nutqiy janrining lingvistik atributlari lingvosemiotik mazmunida tilakning kimgadir yoki nimagadir yo‘naltirilganligi xususiyati bilan xarakterlanadi.

Adabiyotlar tahlili

O‘zbek tilshunosligida ijobiy istak mazmunini ifodalovchi nutqiy birliklarning leksik, grammatik, sintaktik kabi xususiyatlari yuzasidagi masalalar [5]da «tilak» nutqiy janrining ayrim xususiyatlari yoritilgan bo‘lsa-da, uning alohida nutqiy janr sifatidagi lingvsitik xususiyatlari maxsus tadqiqotlar obyekti bo‘lgan emas.

Tadqiqot metodlari va metodologiyasi

O‘zbek tilida «tilak» nutqiy janrining mohiyatini yoritishda tilshunoslikning tavsiflash, kontrastiv va component tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

«Tilak» nutqiy janrida tilak mazmunli lingvistik atributlar kimga yo‘naltirilishidan qat’iy nazar uning mazmunida tilak nutqiy maqsadi asosiy o‘rinni egallaydi [1]. Masalan, halq orasida farzandli bo‘lish tilagining lingvistik atributi shaxsni ifodalashi mumkin. Tilak mazmunli hatti-harakatlar muayyan nutqiy vaziyatda muayyan ijtimoiy jamiyatda kishilarning ijtimoiy diniy jihatdan tartiblashtirilgan hatti-xarakatlarni belgilangan tartibda amalga oshirishi natijasi hisoblanadi [2]. Masalan, hozirda farzand tilash orqali tug‘ilgan farzandlarga xalq orasida *Inoyatxon, Inomjon, Tilaboldi, Xudoberdi, Olloberdi, To‘htasin* kabi ismlar qo‘yilishi «tilak» nutqiy janrining shaxslarga yo‘naltirilgan lingvistik atributi deb nomlash mumkin. Chunki bu ismlar mohiyatiga qaralsa, uzoq kutilgan, niyat qilingan va tilaklar ortidan tug‘ilgan farzandlarga bu turdagi ism berish ommalashgan. Bunday bolalar odatda sochlari orasidan kokil qo‘yish odati shakllangan. Shu nuqtai nazardan kokil muayyan ijtimoiy semiotik mazmun kasb etadi [12].

Aytish mumkinki, har qanday jamiyat o‘zining yillar davomida sayqallanib odat shakliga kirgan, mazmunida tilak ifodalanuvchi turli xil irim, marosim va odatlariga ega. Nafaqat, bola sochi, ya’ni kokil bilan bog‘liq irimlar, balki kishilarning shifo topish istagida ziyoratgohlardagi suvlardan niyat, tilak aytib iste'mol qilishlari, mushkulkushod diniy marosimida paxtani niyat va tilaklarini aytib suvga oqizishlari, niyat va tilak aytib zam-zam suv ichishlari, ayniqsa, sotsial jihatdan namuna hisoblangan kishilarning choylaridan ichishlari, duo olishlari kabi irimlar «tilak» nutqiy janrida suv, choy, kokil, soch kabilarning semiotik belgiga aylanishining asosidir [7].

Til tizimida bunday lingvistik atributlar qamrovi keng bo‘lib, tilak bilan bog‘liq odatlar va marosimlarning mustaqil tizimi shakllangan [11]. Bunga yana bir misol, armiyaga ketayotgan o‘g‘ilga non tishlatish marosimi nonini qolgan qismini yeyishga qaytib kelishi tilagining semiotik ifodasidir.

Masalan, *Odamlar to‘dasidan bobom chiqib keldi.*

-Obke!-dedi Oqsoqol.

Allaqayoqdan oyim paydo bo‘ldi.

-Chop qizim!-dedi shivirlab.-Patirni obchiq!

Oyog‘imni qo‘lga olib bostirmaga yugurdim. Hali tandirdan uzayotganimizda oyim singib pishgan, yuziga sedana sepilgan kattakon patirni qo‘limga tutqazib, buyurgan edi: “Tayinli joyga bekitib qo‘y, so‘raganimda olib kelasan!”. Bostirmaga kirdimu eski sandiq ustidagi dastrxonga o‘ralgan patirni oldim. Patir hali issiq edi... Dasturxon qatini ochishim bilan dimog‘imga oftob, bug‘doy, yer hidi urildi. Xuddi Kimsan akamning yuzidan anqib turadigan isga o‘hshash bo‘y... Odamlar orasidan o‘tib kelib, nonni bobomga berdim. Bobom xuddi chaqaloq bolani avaylab ko‘targandek ikki qo‘llab ko‘ksiga bosgancha supa oldiga olib bordi-da, Oqsoqolga uzatdi. Oqsoqol patirni boshi ustida baland ko‘tardi.

– Haloyiq!-dedi ovozi titrab. – Dunyoda nondan tabarruk narsa yo‘q! Nondan yuz o‘girgan imondan yuz o‘giradi. Ke, o‘g‘lim, tishla! – U patirning ikki chetidan tutib turdi. Kimsan akam xiyol egilib bir chekkasini tishladi. – Barakalla, -dedi Oqsoqol. – ***Tuz-nasibang uzilmasin****! Iloho Omin [4].*

Tilak lingvistik atributini semiotik kodlashda ishtirok etuvchilar nutqiy vaziyat ishtirokchilari bo‘lgan adresant, adresatlardir [6]. Adresat tilakni qabul qiluvchi, adresant tilakni yo‘llovchi vazifasini bajaradi. Bunda adresant, ya’ni tilak so‘zlovchi ijtimoiy diniy jihatdan muqaddaslashtirilgan shaxslar: mulla, pir, avliyo, oqsoqol, keksa, go‘dak, musofir, ehtiyojmand kishilar kabilar bo‘lishi mumkin.

Shuni aytish kerakki, til tizimidagi «tilak» nutqiy janrining lingvistik atributlari Xudo va unga pragmatik mazmunda bog‘lanuvchi shaxs, predmet, makon, voqyea kabi, Xudo va unga ilohiy jihatdan tegishli predmetlar: non, tuz, kitob, ro‘molcha, ko‘zmunchoq, qorakuya surkash (chillali farzandlarga qorakuya surkab ko‘chaga olib chiqish, tushdan keyin beriladigan sutga korakuya tashlash kabi), Xudo va unga ilohiy jihatdan tegishli makon, joy: ziyoratgoh, pirli avtoulov kabi, Xudo va unga ilohiy jihatdan tegishli voqyea: fotihada non sindirish kabilar vositasida ijtimoiy semiotik mazmunga ega bo‘ladi. «Tilak» nutqiy janrining yuqoridagi vositalari «tilak» nutqiy janrining verbal va noverbal vositalari bilan birga amalga

oshiriladi. Masalan, avliyolar mozoridan niyat qilib, kokil olishda farzandli bo‘lay, farzandli bo‘lsin kabi jumlalar ishtirokidagi gaplar marosim qatnashchilari tomonidan aytilishi va niyat qilinishi talab qilinadi. Bundan tashqari muqaddas buloqqa tanga tashlash, daraxtlarga ro‘molcha tugish, jonliq so‘yib, exson qilish, turli diniy marosimlarning (mushkulkushod kabi) ayrim qismlarida paxtani niyatlari va tilagini aytib, suvga oqizish kabilar «tilak» nutqiy janrining diniy irimlar bilan bog‘liq semiotik mazmunlarini yuzaga keltirib, bu irimlarni ado etishda adresant va adresatga muayyan diniy talablar qo‘yiladi. Masalan, adresant va adresatning aqli raso bo‘lishi kabi.

Shuni aytish kerakki, yuqoridagi misollar ijobiy «tilak» nutqiy janri lingvistik atributlari uchun xarakterli, ammo til tizimida salbiy tilaklarning ham lingvistik atributlari mavjud bo‘lib, ularga muqaddas kitobni ushlab, qarg‘anish, yomon tilaklar asosida turli predmetlarga afsun duolar o‘qish kabilar semiotik mazmunda ramzlashadi [9].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, «tilak» nutqiy janrining lingvistik atributlarini ilohiy qudrat timsoli bo‘lgan Xudo bilan bog‘lanishini alohida ta’kidlash kerak [8]. Masalan, *Abdurahmon tabib har subhi sodiqda Ollohdan bandalariga imon tilaydi, hidoyat tilaydi, dil qulflarini ochmoqlikni so‘raydi...[3]*. Shu sababli ham «tilak» nutqiy janri ning lingvistik atributlari e’tiqodiy jihatdan o‘ziga xos farqlarga ega. Ular muayyan e’tiqoddagi predmet, voqyea, hodisa, joy, makon jihatdan boshqa predmetlar bilan semiotik jihatdan bog‘lanishi mumkin. Masalan, qadah so‘zi nutqiy janrida tilaklarning qadah vositasida aytilishi qabul qilingan. Bunda qadah ilohiy ichimlik sifatida baholanadi. Shu sababli aytish mumkinki, «tilak» nutqiy janrining lingvistik atributlari e’tiqodiy jihatdan turlicha predmet kabilarni ko‘rsatishi mumkin. Ateist va dinsizlarda esa ushbu vositalar mavjud bo‘lmaydi [10].

Turli marosim va odatlarda «tilak» nutqiy janrining lingvistik atributlari deyarli «tilak» nutqiy janri modusi sifatida ham ishtirok etadi, masalan, paxtani suvga oqizishda aytiladigan tilaklar kabi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, «tilak» nutqiy janri lingvistik atributlarining qo‘llanilish doirasi keng, ularning ijtimoiy semiotik mazmuni diniy xususiyatga egaligi bilan xarakterlanadi. «Tilak» nutqiy janrining lingvistik atributlari turli ijtimoiy vaziyatlarda tilash mazmuni bilan voqe’lanadi.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Бахтин М.М. Проблема речевых жанров. Литературно-критические статьи. – Москва.: Художественная литература, 1986. – С. 428-472.

2. Дементьев В. Теория речевых жанров (Коммуникативные стратегии культуры). – М.: Знак, 2010. – 584 с.

3. Малик Т. Шайтанат. 3-китоб. – Тошкент:Шарқ, 1997. - 220 б. https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/tohir-malik/

4. Ҳошимов Ў. Икки эшик ораси. – Т.: Янги аср авлоди. – 688 б.

5. Pulatjonovna, S. D. (2023). LINGUISTIC ANALYSIS OF ARTISTIC TEXT. PEDAGOG, 6(11), 305-308.

6. Nabieva, D., & Nurmanova, D. (2022). Manifestation Of The Generality-Specificity Dialectic In The Vowel System Of The Uzbek Language. Journal of Positive School Psychology, 6(8), 1765-1771.

7. Pulatjonovna, S. D. (2024). Lingvosemiotic Content ofLinguistic Features ofThe Speech Genre “Wish”. Global Scientific Review, 26, 96-99.

8. Sayfutdinova, D. (2024). IJOBIY TILAKLARNING FUNKSIONAL SEMANTIK TABIATIGA OID AYRIM MULOHAZALAR. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 1(3), 155-158.

9. Сайфутдинова, Д. (2024). Ijobiy va salbiy tilaklarning funksional xususiyatlari. Зарубежная лингвистика и лингводидактика, 2(1/S), 504-508.

10. Sayfutdinova, D. (2024). LINGUISTIC FEATURES OF THE SPEECH GENRE “WISH” IN THE OFFICIAL POLITICAL STYLE. Builders Of The Future, 4(04), 160-164.

11. Сайфутдинова, Д. П. (2024). TILAK NUTQIY JANRIDA ADRESAT NUTQINING VERBAL VA NOVERBAL VOSITALAR ORQALI IFODALANISHI. *ББК 74+ 81я431 П78*, 43.

12. Pulatjonovna, S. D. . (2024). Positive and Negative Wishes as a Social Ritual. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 3(7), 159–162. Retrieved from https://journals.academiczone.net/index.php/jiphr/article/view/3231

Firuza Buriyeva
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
feruzaburiyeva79@mail.ru

SONET JANRI TAKOMILIDA AN’ANA VA NOVATORLIK

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek she’riyatiga XX asr boshlarida kirib kelib, bugungi kunda barqaror milliy janrga aylanib ulgurgan sonet janri nazariyasi va uning tadrijiy rivoji xususida so‘z yuritiladi. Darhaqiqat, jahon adabiyotida ushbu janrni ilk bora o‘z ijodida qo‘llagan italyan shoiri Dante ham, keyinroq asosan ishq-muhabbat mavzusidagi she’riyati bilan mashhurlikka erishgan Petrarka ham o‘z sonetlarini go‘zal ayollarga bag‘ishlaydilar. Shuningdek, sonetning qat’iy shakl qoidalariga ega bo‘lishi ham tadqiqotlarda uni g‘azal janri bilan qiyoslab o‘rganishga undaydi. Ammo, nazarimizda, mazkur janrning yuzaga kelishi haqida “taqlidan yaratilish” fikri G‘arb she’riyati originalligini inkor etish kabidir. Zero, bu boradagi ko‘plab tadqiqotlar ham sonet janrining o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni haqida anchayin kengroq yondashmoq lozim ekanligini ko‘rsatadi. Jumladan, o‘rganishlar keyinchalik ushbu janrning mavzu jihatdan qamrovi kengayib, hatto shaklan ham ayrim istisnoli o‘zgarishlarga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi. Maqolada shu kabi ilmiy-nazariy xulosalar bilan birga janrning Usmon Nosir, Cho‘lpon, Rauf Parfi, Xurshid Davron, Faxriyor kabi o‘zbek adabiyoti namoyandalari ijodida tutgan o‘rni, janrning takomilida mazkur shoirlar uslub va maneralari, an’ana va novatorliklari qay tariqa o‘rin tutganligi masalalariga to‘xtalinadi.

Kalit so‘zlar: an’ana va novatorlik, sonet, katren, terset, sonetlar turkumi, erkin she’r, adabiy oqim, poetik vosita, terset, individual uslub, modernizm.

Фируза Буриева
филологические науки Доктор философии (PhD),
Узбекско-Финский педагогический институт
feruzaburiyeva79@mail.ru

ТРАДИЦИЯ И НОВАТОРСТВО В РАЗВИТИИ ЖАНРА СОНЕТА

Аннотатция. В статье рассматривается теория и постепенное развитие жанра сонета, вошедшего в современную узбекскую поэзию в начале XX века и ставшего сегодня устойчивым национальным жанром. На самом деле, и итальянский поэт Данте, который первым в мировой литературе использовал этот жанр, и Петрарка, который впоследствии прославился в основном своей поэзией на тему любви, посвящали свои

сонеты прекрасным женщинам. Кроме того, тот факт, что сонет имеет строгие правила формы, побуждает исследователей изучать его в сравнении с жанром газели. Однако, по нашему мнению, идея «творчества по подражанию» о возникновении этого жанра равносильна отрицанию самобытности западной поэзии. Действительно, многочисленные исследования по этой теме показывают, что необходим гораздо более широкий подход к роли жанра сонета в узбекской литературе. В частности, исследования показывают, что тематический охват этого жанра в дальнейшем расширялся и даже претерпевал исключительные изменения в форме. Наряду с такими научно-теоретическими выводами в статье рассматривается роль жанра в творчестве таких представителей узбекской литературы, как Усман Насир, Чолпон, Рауф Парфи, Хуршид Даврон, Фахриёр, а также то, какую роль сыграли стиль и манера, традиции и новаторство этих поэтов в развитии жанра.

Ключевые слова: традиция и новаторство, сонет, четверостишие, терцина, сонетный цикл, свободный стих, литературное направление, поэтический прием, терцина, индивидуальный стиль, модернизм.

Firuza Buriyeva,
Doctor of Philosophy (PhD) in Philology,
Uzbek-Finnish Pedagogical Institute, Samarkand
feruzaburiyeva79@mail.ru

TRADITION AND INNOVATION IN THE IMPROVEMENT OF THE SONNET GENRE

Annotation. This article discusses the theory and gradual development of the sonnet genre, which entered modern Uzbek poetry at the beginning of the 20th century and has become a stable national genre today. Indeed, both the Italian poet Dante, who first used this genre in his work in world literature, and Petrarch, who later became famous mainly for his poetry on the theme of love, dedicate their sonnets to beautiful women. Also, the fact that the sonnet has strict rules of form encourages research to study it in comparison with the ghazal genre. However, in our opinion, the idea of "creating by imitation" about the emergence of this genre is tantamount to denying the originality of Western poetry. After all, many studies in this area also show that it is necessary to take a much broader approach to the role of the sonnet genre in Uzbek literature. In particular, studies show that later the thematic scope of this genre expanded and even underwent some exceptional changes in form. Along with such scientific and theoretical conclusions, the article discusses the role of the genre in the work of such representatives of Uzbek literature as Usman Nasir, Cholpon, Rauf Parfi, Khurshid Davron, Fakhriyor, and how the style and mannerisms, traditions, and innovations of these poets played a role in the development of the genre.

Keywords: tradition and innovation, sonnet, quatrain, tercet, sonnet series, free verse, literary movement, poetic device, tercet, individual style, modernism.

Yangi o‘zbek adabiyotida adabiy an’ana va novatorliklar ayniqsa she’riy janr-shakllar rivojida ko‘zga tashlanadi. Buni XX asr boshlaridayoq Usmon Nosir, Cho‘lpon kabi shoirlar ijodi orqali kirib kelgan sonet janri tadrijiy takomilida ham ko‘rishimiz mumkin. Mazkur janr nazariyasi haqida so‘z yuritar ekan, jumladan, adabiyotshunos va shoir Abdulla Sher shunday deydi: “Sonet haqida ko‘pchilik umumiy tasavvurga ega. Sonetning faqat o‘n to‘rt qatorli she’r emas, balki murakkab hamda nihoyatda yuksak mahorat talab qiladigan she’riy shakl ekanini hamma ham bilmaydi. Zero, sonet buzilmas qonun asosida yaratiladigan g‘oyaviy-badiiy lirik asardir”.[18] Shuningdek, olim sonet “g‘azalga taqlidan yaratilgan she’riy shakl”[18] ekanligi haqidagi fikrlarni ilgari suradi. ”G‘arb sonetshunosligi badiiy tajribalarni an’anaviy yo‘sinda tashkil etib, ijtimoiy muammolarni ham ifodalab kelgan bo‘lsa, o‘zbek milliy sonetnavisligida ushbu masalalarni yanada kengroq miqyosda aks ettirishga intilish kuchayib bordi, ya’ni hayotning deyarli barcha muammolarini qamrab olish va tasvirlashga intilish sezildi”[16].

She’riyatning davr bilan hamohanglikda rivojlanishi, adabiy oqimlarga moslashib takomil topishi, aytish mumkinki, eng avval janrlar tarkibi va poetik vositalarning yangilanishida o‘z aksini topadi. Ya’ni mumtoz va yangi o‘zbek she’riyati; an’anaviylik va novatorlik tushunchalari sarhadlarining belgilanishi dastlab she’r badiiyatini yuzaga keltiruvchi poetik vositalar hamda janr-shakllarga bog‘liqdir. O‘zbek she’riyatining XX asr boshlaridagi poetik xarakteri jadid adabiyoti namoyandalarining, xususan, Cho‘lponning ijodi bilan o‘lchanadi. Tadqiqotchilikda shoir adabiy qarashlari borasida so‘z yuritilar ekan, uning mumtoz adabiy an’analarni inkor etmagan holda G‘arb bilan Sharq she’riyatini bog‘lovchi “oltin ko‘prik” izlagani aytiladi. Demakki, shoir o‘zida g‘arbona erkinlik, mushohadorlik hamda Sharq nazmidagi musiqiylik, jo‘shqin hissiyot va hikmatlililkni uyg‘unlashtiruvchi bir she’riyatga ehtiyoj sezgan . Zero, Cho‘lpon hali shakllanishning ilk bosqichida bo‘lgan zamonaviy she’riyatni “o‘zigacha ko‘rilmagan yangi yo‘lga solib yubordi, u o‘zbek nazmiga Yevropa she’riyatini ijodiy payvand qilgan holda XX asr o‘zbek she’riyatiga asos soldi”[8.6] O‘zbek she’riyati haqidagi ayrim tadqiqotlarda modernizmning paydo bo‘lishining ham jadidchilik adabiyotiga daxldorligi aytib o‘tilsa-da, ko‘plab ijodkorlar individual ijodiy shakllanishi va asarlari haqidagi tadqiqotlar uning to‘laqonli zuhur topishi o‘tgan asrning 80-yillariga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi. Zero, ma’lum adabiy davr, xususan modern she’riyati xususida ham so‘z yuritilganda, mavjud janrlar rivoji, poetik yangilanishlari hamda taranformatsiyasi masalalariga to‘xtalmoq taqozo etiladi.

Ta’kidlash lozmki, o‘tgan asr boshlarida o‘zbek she’riyati janr-shakllar jihatidan nihoyatda rang-baranglashdi. Buni Cho‘lpon, Usmon Nosir, Fitrat kabi shoirlar ijodidagi verlibr, sonet, oq she’r, nasriy she’rlarning dastlabki, ammo badiiy mukammal namunalari yaratilganligidan ko‘rish mumkin. Shuningdek, she’riy janrlarningning qat’iy nazariy qoidalardan chetga chiqib universallik xususiyatini namoyon etishi ham aynan mana shu davr she’riyatidan boshlanadi.

Chunonchi, adabiyotshunoslikda sonet janrning o‘zbek she’riyatida ilk bora paydo bo‘lishi Usmon Nosir ijodi bilan bog‘lanadi. Darhaqiqat, shoirning “Yana she’rimga” she’rining sarlavhasi ostiga “sonet” deya janrga mansublik ochiqlanadi. Mana shuning o‘zi

ham hali shoir ijodiga qadar sonetning o‘zbek she’riyatida keng qo‘llanmaganligi, balki bir tajriba, novatorlik ekanligini bildiradi. Bu kabi ilovalanish asr boshlaridaga ayrim yangi janrlarning qo‘llanila boshlaganligidan dalolat berishini, xususan, Cho‘lponing ham ba’zi she’rlariga “erkin she’r”[9.44, 46] ekanligiga ishoralardan ham ko‘rish mumkin.

E’tibor berilsa, ko‘pgina olinma adabiy janrlarlar tadrijiy rivoji uchun paydo bo‘lish, milliy barqaror janrga aylanish hamda zamonaviylashish bosqichi xosdir. Xususan, adabiyotshunoslikda sonetning o‘zbek adabiyotiga kirib kelishi Usmon Nosir ijodi bog‘lansa-da, baraqaror, “to‘la huquqli”[7.192] milliy janr darajasida takomil topishi Barot Boyqobilov ijodi bilan belgilanadi. Zero, shoir zamonaviy o‘zbek she’riyatida eng ko‘p sonet yozgan ijodkordir. Uning birgina sonetlar kitobiga 421ta sonet kiritilganligi, Samarqand”, “Oltin to‘y”[1.188] , “Sevgilimga guldasta”[3.81-107], “Jangovar sonetlar”[3.141-147] kabi bir qancha sonetlar turkumi yaratganligi va yana turli yillarda chop etilgan she’riy to‘plamlari tarkibidagi mazkur janrdagi ko‘plab she’rlar bundan dalolat beradi. Shu jihatdan qaralsa, adabiyotshunoslikda “Barot Boyqobilov – o‘zbek sonetining asoschisi”[1.188] deya e’tirof etilishi tushunarlidir. Bu paytga kelib ko‘pgina shoirlarimizning sonet janriga murojaat etganligi va sonet milliy janr sifatida yashash tarzini boshlaganligi ko‘zga tashlanadi. Shuningdek, shoir Xurshid Davron ijodida ham mazkur janrning mazmun va shakl tomondan burmuncha yangilanishlarga yuz tutgani ko‘zga tashlanadi. Chunonchi, shoirning ”Qaqnus” to‘plamiga kiritilgan “Qisqa sonet”[4.40] nomli she’rini sonetning kompozitsion tuzilishi borasidagi o‘ziga xos novatorlik deyish mumkin.

Sonet janrining o‘zbek adabiyotidagi hayotining uchinchi bosqichi esa, hech shubhasiz, modernizm bilan aloqadordir. Ko‘pgina tadqiqotchilar sonet qonuniyatlariga shaklan va mazmunan yangiliklar kirita olgan shoir deb “she’riyatimizga tasvirning o‘ziga xos, modern ko‘rinishlarini olib kirgan ijodkorlardan biri”[14] Rauf Parfini e’tirof etadilar.[10.74-78; 5.] Darhaqiqat, shoir ijodida sonet o‘zgacha o‘rin tutgan janrlardan hisoblanadi. Uning turli yillarda nashr etilgan to‘plamlari tarkibida mustaqil va turkum shakldagi ko‘plab sonetlar mavjud bo‘lib, shu bilan birga ular mavzu jihatdan g‘oyat rang-barangdir.

Sonet janrining modern alomatlarni namoyon etishi haqida fikr yuritiladigan bo‘lsak, avvalo, tahlillarga asoslangan holda janrning qat’iy shakllanish (katren va terset bandlardan iborat 14 satrlik) qoidasi har doim ustuvor belgi bo‘lganligini ta’kidlashimiz lozim. Faqat yangi o‘zbek shoirlari ijodida 15 sonetdan tarkib topuvchi sonetlar turkumi-magistral tuzish qoidalariga har doim ham amal qilinmagan. Xususan, Rauf Parfi ijodidida “Og‘riq”[13.2], “Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon”[13.4-5], “Ona tilim”[13.13], “Ona Turkiston”[13.22-23] kabi sonetlar turkumlari tarkibida uchtadan sonet mavjud bo‘lsa, shoir Faxriyorning “sonetlar turkumi”i ham o‘n beshlik tamoyili asosida emasligi ko‘rinadi. Masalan, shoir qalamiga mansub “Nomozshomgul”[11.193-197] besh sonetdan, “Sensizlik”[12.84-90] o‘n sonetdan iborat she’riy turkumlardir. Lekin ularning bu kabi shakllanishi ham, mavzu jihatdan turfalanaish ham hali sonetga modern janr tushunchasini bera olmaydi. Umuman olganda, o‘zbek adabiyotida modernistik she’riyati bosqichigacha mavjud bo‘lgan biror bir janrga nisbatan “modern janr” istilohining ishlatilishi o‘rinli bo‘lmasdan, ulardagi oqimga xoslik faqat modern alomatlarni ifoda eta boshlaganligi bilan

belgilanadi. Hatto o‘zbek modern she’riyatining yetakchi vakillari hisoblangan shoirlarimiz Rauf Parfi ijodida ham, Faxriyor ijodida ham muhabbat mavzusida yozilgan ko‘plab sonetlar ushbu janrning italyan shoirlari ijodida paydo bo‘lgan ilk mumtoz namunalariga ergashish, demakki o‘ziga xos adabiy an’ana ekanligi ayondir. Yoxud har ikkala shoir ijodida Sharq mumtoz she’riyati ruhi ufurib turgan sonetlarni modernlik oqim nuqtayi nazaridan qarab tahlil etish ham to‘g‘ri bo‘lmas. Ammo G‘arb adabiyotidan kirib kelgan sonet, rondel, oktava, shuningdek, yapon milliy she’riyatiga xos xokku, tankalarning aynan modern she’riyat vakillari ijodida ko‘proq qo‘llanilgani ularni shartli holda modern she’riyatga mansub janr-shakllar sirasida sanash uchun asos bo‘ladi. Holbuki, ushbu shoirlarning sonetlardagi ifoda usuli, pafos va noan’anaviy tashbeh, metamorfozik allegoriyalar, tiniq va hissiy kechinmalarga qorishiq peyzajlar ularning umumshe’riyatiga xos xususiyatlardir.

Zamonaviy o‘zbek she’riyatida umumijodi, individual uslubiga ko‘ra modern adabiyot vakili hisoblanuvchi ijodkor, Faxriyor sonet janri orqali iste’dodining yangi qirralarini namoyon etadi. Shoirning ishqiy, falsafiy, ijtimoiy va boshqa mavzularda yozilgan ko‘plab sonetlari mavjud bo‘lib, chunonchi, uning muhabbat, hijron va visol, sog‘inch mavzularidagi sonetlari lirik ifodaviyligi, poetik vositalar va hatto so‘zlik jihatiga ko‘ra ham an’anaviy mumtoz she’riyatni eslatishi bilan o‘ziga xosdir. Chunonchi, shoir muhabbat mavzusidagi sonetlarida yorga murojaat etarkan, ko‘pincha *malak, laylo, sanamjon, mohim, gulim* kabi so‘zlardan foydalanadi, uning sifatlari uchun ham mumtoz an’anaviy poetik vositalarni qo‘llaydi:

Ko‘ngil soching kabi qoradir,
qaylardasan, ko‘zlari qambar,
qoshingga qay yo‘ldan boradir?[11.186]

Yoki

Artgim keldi ko‘z yoshlaringni,
ham boshingga yelkamni tutdim.
Hilol kabi tim qoshlaringning
qoq bag‘rimga botmog‘in kutdim.

Ko‘ngil cho‘mdi oqar yoshingga,
qoshlaring bag‘rimga botmadi.
Toshlari botdimi boshingga?[11.193]

Faxriyor ijodida sonetlar miqdori oshib borgani sari janrning yangi-yangi imkoniyatlari namoyon bo‘la bordi. Xususan, shoir boshqa janrdagi she’rlarida u qadar ko‘zga tashlanmagan hamd, tazarru, munojot ohanglari ifodasi uchun ham aynan sonet janrini tanlaydi. Shoir ijodidagi “Sulik”[11.21], ”Osmon yaratganning moviy ko‘zidir”[11.188] deb nomlanuvchi sonetlari yuqoridagi fikrimiz misol bo‘la oladi. Ijodkorning ayriliqning manguligi, muhabbatning munglug‘ saodat, “bitmas jarohat”, “hayot – musibatlar chekmoq imkoni”[11.179] ekanligi kabi meditativ fikrlari, hissiy mushohadalari ham aynan sonetlarda o‘z ifodasini topgandir.

Shoir sonetlaridagi lirik qahramon ham xuddi mumtoz g‘azallardagi kabi sabr etuvchi va xokisor, g‘amgusor va ko‘nuvchan – Yaratganning cheksiz qudrati oldida o‘zini taslim his etgan iymoni but insondir. Butun borliqni: insoniyat, hayvonot, nabototni *so‘zidan, yoshidan, toshidan* yaratgan Ollohga o‘ziga berilmay qolgan “*birgina visol”* uchun hamd-u sano aytadi. Shoir o‘zining bu kabi ilohiy hislarini ifoda etish uchun poetik vositalar va so‘zlarni san’atkorona injohlik bilan tanlaydi. Xususan, she’rning birinchi, ikkinchi katren bandlarida “*yaratdi borliqni xudo”* va ta’kid uchun *ham* yuklamasining takror keltirilishi Ollohning buyuk qudratiga, Uning cheksiz marhamatiga ishoradek tasavvur uyg‘otadi:

Osmon yaratganning moviy ko‘zidir,
ko‘zidan yaratdi borliqni xudo.
Tog‘ ham, bog‘ ham, zog‘ ham uning so‘zidir,
so‘zidan yaratdi borliqni xudo.
Yomg‘irlar sim-simlab yerlarga singdi,
yoshidan yaratdi borliqni xudo.
Chaqmoqlar chaqildi, toshlari sindi,
toshidan yaratdi borliqni xudo.[11.188]

Darhaqiqat, diniy-mifologik qarashlarda “borliq ilohiy “Kun!” (ma’nosi: “Yaral!” yoki “Paydo bo‘l”) xitobidan keyin bunyod bo‘lgan, deb ham aytiladi”.[15] She’r muallifi ham o‘ziga kechayotgan ilohiy hislarni ifodalash uchun aynan shu so‘zni tanlagani esa asarga o‘ziga xos ruhiyat bag‘ishlab, uni badiiy jihatdan mukammal nazm namunasiga aylantirgan. She’rning dastlabki terset bandida esa bunday poetik vazifa *berdi* so‘ziga yuklanadi:

Ko‘ngilga dog‘ berdi, diydalarga – yosh.
Kuymoqqa dil berdi, sevmoqqa – ayol.
Cho‘kmoqqa tiz berdi, egmoq uchun – bosh.[11.188]

Albatta, ijodidada yo‘nalishida modernlik ustuvor bo‘lgan shoirning ushbu uslubning xususiyatlarini yaqqol namoyon etuvchi sonetlari ham mavjuddir. Hatto shoir sonetlarining birida modernizm haqidagi adabiy-estetik qarashlarini bildirib o‘tganligining ham guvohi bo‘lamiz:

…Nigohingday sassiz bir tovush,
Nafrat kabi zamxirar chilla.
Modern qofiyaday kovushi
Poyma-poy va yirtiq bir millat.[11.173]

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek adabiyotiga o‘tgan asr boshlarida kirib kelgan sonet janrining yangi o‘zbek she’riyatidagi takomili quyidagicha voqelandi: a)sonetning ayrim shoirlar ijodidagi uch katren va bir ikkilikdan va qisqa (Xurshid Davron “qisqa sonet”) shakllari uchrasa-da, uning ikki katren va ikki tersetdan iborat 14 misralik kompozitsion tuzilishida qat’iy tarkiblanishi saqlanib qoldi; b) she’riyatimizga o‘tgan asrning boshlarida kirib kelgan ushbu janr bugungi kun ijodkori uchun ham qiziqarli va ohorli hisoblanadiki, bu esa bugungi adabiy jarayonning zabardast vakili Faxriyor ijodidagi sonetlarning salmoqli o‘rin tutganidan ko‘rinadi; c) o‘zbek she’riyatida sonet mavzu jihatdan chegaralanmadi, ammo Muhammad Ali va Faxriyor kabi shoirlar ijodida uning ishq-muhabbat tarannumiga

bag‘ishlangan go‘zal namunalari ham yaratildi. d) Faxriyor ijodida sonetlar ifoda tarzi xilma-xil maneralarda namoyon bo‘ladi. Chunonchi, shoirning “Sensizlik”, “Nomozshomgul”[11.193-200] sonetlar turkumida an’anaviy mumtoz hamda noan’anaviy, modern poetik vositalarning uyg‘unlashuvining namoyon bo‘lishi o‘ziga xos novatorlik sifatida baholash mumkin.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Адабий турлар ва жанрлар. Лирика. Уч жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Фан, 1982. – 248 бет.
2. *Асқад Мухтор. Шеър – шоирнинг ижтимоий виждони // Шеър – шоир виждони. – Т.: “MUMTOZ SO‘Z”, 2011. 160 б.*
3. Барот Бойқобилов. Висол ва ҳижрон. Шеърлар. Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – 392 бет.
4. Даврон Х. Қақнус. – Тошкент: “Ёш гвардия” нашриёти, 1987. – 104 бет.
5. Imomova R. Rauf Parfi sonetlarining shakily manbalari. Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies Hosted online from Paris, France. Date: 19 th March, 2024 ISSN: 2835-3730.
6. Рауф Парфи, Сакина. Шеърлар. – Тошкент: «Muharrir» нашриёти. 2013. – 376 бет.
7. Шукуров Н. Бу олам саҳнида. Тошкент, Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1982, – 248 бет.
8. Чўлпон, Абдулҳамид, Гўзал Туркистон. Шеърлар. /Сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Б.Дўстқораев/. – Т.: “Маънавият”, 1997. – 128 бет.
9. Чўлпон Асарлар: уч жилдлик. Шеърлар, драмалар, таржима. Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. – 448 бет.
10. Quvvatova D., Tashova D. Rauf Parfi sonetlari. Rauf Parfi ijodining ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati. Respublika ilmiy-nazariy anjumani, 19.09.2023. – B. 74-78.
11. Фахриёр. Аёлғу. Шеърлар ва достонлар. – Т.: “Шарқ”, 2000. – 256 бет.
12. Фахриёр. Геометрик баҳор. (Ўнгарилган тушлар): Шеърлар .– Т.: “Маънавият”, 2004. – 192 бет.
13. www.ziyouz.com kutubxonasi. Rauf Parfi. Ona Turkiston. 2007. – B. 22-23
14. https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/sadulla-quronov-modern-sheriyatda-tasvir.html. 22.11.2018.
15. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/suhbatlar/matnazar-abdulhakim-so-z-avvalo-amaldir. 08.02.2014.
16. https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/rauf-parfi-ilk-sonetlar-rauf-parfi-ijodida-sonet.html. 23.09.2021
17. https://qomus.info/oz/encyclopedia/a/assotsiatsiya-2/. 23.06.2024
18. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/abdulla-sher-sonet-sirlari-2009. 07.07.2014
19. https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/rauf-parfi-ilk-sonetlar-rauf-parfi-ijodida-sonet.html. 23.09.2021.

Xudoyorova Nigora Nuriddinovna
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti o‘qituvchisi

NAVOIY FORSIY SHE’RIYATINING G‘OYAVIY-BADIIY QIMMATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiy forsiy she’riyatining g‘oyaviy-badiiy qimmati, uning o‘ziga xos jihatlari, adabiy-estetik xususiyatlari tahlil qilingan. Navoiy o‘zining forsiy devonlarida Sharq adabiy an’analari va falsafiy qarashlarini mujassamlashtirgan bo‘lib, uning she’riyati ma’rifat, insonparvarlik va ezgulik g‘oyalarini ilgari suradi. Shuningdek, maqolada shoirning forsiy tilda ijod qilgan asarlarining o‘zbek adabiyoti hamda jahon madaniyatidagi o‘rni va ta’siri haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, forsiy she’riyat, badiiy-estetik qimmat, adabiy an’analar, falsafa, insonparvarlik, ma’rifat, adabiy ta’sir.

Худоёрова Нигора Нуриддиновна
Преподаватель Термезского государственного инженерно-агротехнологического университета

ИДЕЙНО-ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ЦЕННОСТЬ ПЕРСОЯЗЫЧНОЙ ПОЭЗИИ НАВОИ

Аннотация. В данной статье анализируется идейно-художественная ценность персоязычной поэзии Алишера Навои, её уникальные черты, литературно-эстетические особенности. Навои в своих персидских диванах воплотил восточные литературные традиции и философские взгляды, пропагандируя идеи просвещения, гуманизма и добродетели. Кроме того, рассматривается место и влияние его персидскоязычных произведений в узбекской литературе и мировой культуре.

Ключевые слова: Алишер Навои, персидская поэзия, художественно-эстетическая ценность, литературные традиции, философия, гуманизм, просвещение, литературное влияние.

Khudoyorova Nigora Nuriddinovna
Lecturer at Termez State University of Engineering and Agrotechnologies

THE IDEOLOGICAL AND ARTISTIC VALUE OF NAVOI’S PERSIAN POETRY

Annotation. This article analyzes the ideological and artistic value of Alisher Navoi’s Persian poetry, its unique aspects, and literary-aesthetic features. In his Persian divans, Navoi

embodies Eastern literary traditions and philosophical views, promoting the ideas of enlightenment, humanism, and virtue. Furthermore, the article discusses the place and influence of his Persian-language works in Uzbek literature and world culture.

Key words: Alisher Navoi, Persian poetry, artistic and aesthetic value, literary traditions, philosophy, humanism, enlightenment, literary influence.

Kirish.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda Alisher Navoiy ijodining tadqiq etilishi muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, shoirning forsiy tildagi she’riyati o‘zining g‘oyaviy-badiiy qimmati bilan ajralib turib, Sharq adabiy an’analarining rivojlanishida alohida o‘rin tutadi. Navoiy o‘zining forsiy devonlarida insonparvarlik, adolat, ma’rifat va muhabbat kabi olijanob tushunchalarni yuksak badiiy mahorat bilan ifodalagan.

Alisher Navoiy forsiy she’riyatining o‘ziga xos jihatlari shundaki, u nafaqat an’anaviy g‘azal janrida, balki falsafiy, didaktik va lirika yo‘nalishlarida ham betakror asarlar yaratgan. Shoirning forsiy tilda ijod qilgan asarlari o‘zbek adabiyoti rivojiga ulkan ta’sir ko‘rsatgan bo‘lib, uning poetikasi Sharq she’riyatining eng yuksak namunalari qatoridan joy olgan.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi hozirgi kunda Navoiy merosining forsiy she’riyatdagi ahamiyatini tahlil qilish va uning o‘zbek hamda jahon adabiyotiga ta’sirini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shoirning forsiy asarlari faqatgina badiiy ijod mahsuli emas, balki ma’rifat va insoniy qadriyatlarni targ‘ib etuvchi falsafiy yondashuv hamdir.

Ushbu tadqiqot Alisher Navoiy forsiy she’riyatining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini o‘rganish, uning Sharq adabiyotidagi o‘rnini aniqlash hamda zamonaviy adabiy jarayonlarga ta’sirini tahlil qilishga qaratilgan. Shu asosda ilmiy asoslangan xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili. Alisher Navoiy ijodining tadqiq etilishi adabiyotshunoslik va madaniyatshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, uning forsiy tildagi she’riyati alohida ilmiy qiziqish uyg‘otmoqda. Navoiy forsiy tilda yozgan devonlari nafaqat badiiy-estetik jihatdan yuksak asarlar bo‘lib, balki ular Sharq adabiyotining rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

Navoiy forsiy she’riyatining o‘ziga xos jihatlarini aniqlash maqsadida olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, uning ijodida insoniy kamolot, muhabbat, adolat, ilmu ma’rifat targ‘ib qilinadi. O‘z davrining yetuk mutafakkiri bo‘lgan Navoiy g‘azallari va ruboiylarida komil inson konsepsiyasini ilgari surgan. Tadqiqotchilar shoirning forsiy she’riyati orqali o‘zbek adabiy an’analari va fors-tojik madaniyati o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganib, uning she’riyati Sharq mumtoz adabiyotida alohida o‘rin egallashini ta’kidlaydilar [1, B.125].

Sharq adabiyotida Navoiy ijodining o‘rni va uning forsiy devonlarining g‘oyaviy-badiiy qimmatini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, shoirning forsiy she’riyati nafaqat o‘zbek, balki butun musulmon Sharqi madaniyatiga chuqur ta’sir o‘tkazgan. Jumladan, Rashidiy va Safiy kabi olimlar Navoiy she’riyatining forsiy va turkiy mumtoz adabiyot o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustahkamlashdagi rolini alohida ta’kidlaydilar [2, C.178].

Navoiy ijodining badiiyati haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, uning forsiy she’riyatida poetik san’atlar – tashbeh, isti’ora, tazod kabi badiiy vositalarning keng qo‘llanganligi ilmiy manbalarda qayd etilgan. Tadqiqotchilar shoirning forsiy g‘azallarida metaforik tasvirlar va falsafiy mazmun uyg‘unligi mavjudligini ta’kidlaydilar [3, B.145]. Shuningdek, Navoiy asarlarida sufiyona tasavvurlar, ilohiy ishq va ma’rifat g‘oyalari yuksak badiiy shaklda ifodalangan [4, C.92].

So‘nggi yillarda Navoiy forsiy she’riyatining falsafiy va badiiy xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Xususan, shoirning forsiy asarlarining mazmuniy va lingvistik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan izlanishlar uning ijodidagi an’anaviy va yangilikka intilgan jihatlarni yoritishga xizmat qilmoqda [5, B.203].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Alisher Navoiy forsiy she’riyati Sharq mumtoz adabiyotining muhim qismidir. Shoirning badiiy yondashuvi, poetik mahorati va g‘oyaviy yo‘nalishlari uning forsiy she’riyatini nafaqat estetik, balki falsafiy jihatdan ham yuksak darajaga olib chiqqan. Shu sababli, ushbu tadqiqot Navoiy forsiy she’riyatining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini tahlil qilish va uning adabiyot tarixidagi o‘rnini belgilashga qaratilgan.

Muhokama. Alisher Navoiy ijodining forsiy she’riyatda egallagan o‘rni, uning g‘oyaviy-badiiy qimmati haqida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, shoir nafaqat o‘zbek, balki butun Sharq adabiy merosiga ulkan hissa qo‘shgan. Forsiy she’riyatida Navoiy axloqiy, falsafiy va tasavvufiy g‘oyalarni o‘ziga xos uslubda ifodalagan bo‘lib, bu uning ijodiy yondashuvining betakrorligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, Navoiy o‘z forsiy she’rlarida komil inson tarbiyasiga alohida e’tibor qaratgan. Uning g‘azallarida ishq falsafasi, ma’rifat, adolat va axloqiy poklik kabi mavzular ustuvor bo‘lib, ular inson ruhiy olamini yuksaltirishga xizmat qiladi. Vygotskiy nazariyasi asosida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, shoirning ijodi nafaqat badiiy-estetik, balki tarbiyaviy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega.

Forsiy she’riyatida poetik san’atlar va badiiy tasvir vositalarining keng qo‘llanilishi uning ma’nodorligini yanada oshiradi. Xususan, Navoiy she’rlarida tashbeh, tazod, isti’ora va tajnis kabi san’atlar g‘oyaning yanada yorqin va ta’sirchan ifodalanishiga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, shoirning forsiy she’riyati mazmun va shakl uyg‘unligi, poetik nutqning yuksak darajasi bilan ajralib turadi.

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar va ilmiy izlanishlar Navoiy forsiy she’riyatining yangi qirralarini ochib bermoqda. Elektron kutubxonalar va raqamli adabiyotshunoslik metodlari orqali shoirning forsiy devonlari chuqur o‘rganilib, yangi ilmiy xulosalar berilmoqda. Shuningdek, zamonaviy adabiy tahlil usullari Navoiy forsiy she’riyatining badiiy-estetik jihatlarini chuqurroq o‘rganish imkonini bermoqda [6].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadi, Navoiy forsiy she’riyati Sharq adabiyotining eng yuksak badiiy namunalaridan biri bo‘lib, uning falsafiy va ma’naviy g‘oyalari bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Kelgusida ushbu mavzu bo‘yicha yanada chuqur ilmiy izlanishlar olib borish, Navoiy forsiy she’riyatining zamonaviy adabiy jarayondagi o‘rnini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va natijalar. Alisher Navoiy ijodining forsiy she’riyatdagi g‘oyaviy-badiiy qimmatini tahlil qilish davomida uning Sharq adabiyotiga qo‘shgan hissasi har tomonlama o‘rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadi, Navoiy forsiy she’riyatida insoniy kamolot, tasavvufiy qarashlar va ijtimoiy adolat kabi mavzularni chuqur badiiy ifodalashga erishgan[7].

Tahlil jarayonida Navoiy forsiy she’riyatining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari bir nechta muhim yo‘nalish bo‘yicha baholandi. Tadqiqot ishtirokchilari ikkita guruhga ajratilib, turli metodlar asosida tahlil olib borildi:

- Birinchi guruh – Navoiy ijodining tasavvufiy jihatlariga e’tibor qaratgan tadqiqotchilar.
- Ikkinchi guruh – Shoir forsiy she’riyatining badiiy-uslubiy xususiyatlarini o‘rgangan adabiyotshunoslar.

Birinchi guruh natijalari:

- Navoiy she’riyatidagi tasavvufiy g‘oyalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, shoirning forsiy g‘azallarida ilohiy ishq, komil inson tushunchasi va ruhiy poklanish motivlari yetakchi o‘rinni egallaydi.
- Shoirning tasavvufiy g‘oyalari uning turkiy she’riyatidagi g‘oyalarga uyg‘un bo‘lib, umumiy falsafiy qarashlarining mukammallashgan shakli sifatida namoyon bo‘lgan.
- Navoiy forsiy she’riyatida axloqiy va ma’rifiy tamoyillar poetik obrazlar orqali chuqur ifodalangan[8].

Ikkinchi guruh natijalari: Navoiy forsiy she’riyatida poetik san’atlarning keng qo‘llanilishi aniqlangan. Jumladan, tashbeh, isti’ora, tazod, tajnis va boshqa badiiy vositalar shoir she’riyatining estetik qiymatini oshirgan. Shoir o‘z forsiy she’riyatida an’anaviy fors-tojik adabiyotining uslubiy xususiyatlarini rivojlantirib, o‘zbek va fors adabiy an’analarini uyg‘unlashtirgan. Navoiy she’riyatining ma’naviy qimmati shundaki, unda insoniy komillikka intilish, ruhiy poklanish va adolat g‘oyalari yuksak poetik mahorat bilan ifodalangan.

Bu natijalar shuni ko‘rsatadi, Navoiy forsiy she’riyati nafaqat badiiy yuksaklikka, balki ma’naviy-falsafiy chuqurlikka ham ega bo‘lib, Sharq adabiyotida alohida o‘rin egallaydi. Ayniqsa, uning she’riyati inson ruhiyatini tarbiyalash, ma’rifat va axloqiy qadriyatlarni targ‘ib qilishda muhim ahamiyat kasb etadi[9].

Shuningdek, tadqiqot davomida Navoiy forsiy she’riyatining o‘rganilishi jarayonida yuzaga keladigan muammolar ham aniqlangan:

- Navoiy forsiy she’riyatini to‘liq qamrab olgan mukammal ilmiy tadqiqotlar yetishmasligi.
- Shoirning forsiy va turkiy she’riyatini solishtirish va ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur o‘rganish zarurati.
- Zamonaviy adabiy tahlil usullaridan foydalanish bo‘yicha tadqiqotlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi.

Bu muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Navoiy forsiy she’riyatini har tomonlama o‘rganish uchun ilmiy anjumanlar va maxsus tadqiqot loyihalarini tashkil etish.

2. Shoir ijodining falsafiy va badiiy xususiyatlarini zamonaviy adabiy tahlil metodlari orqali tadqiq qilish.

3. Raqamli texnologiyalar va elektron kutubxonalar asosida Navoiy forsiy she’riyatining to‘liq matnlarini ilmiy tahlil qilish.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari Navoiy forsiy she’riyatining g‘oyaviy-badiiy qimmatini chuqur yoritishga xizmat qiladi. Kelgusida shoirning forsiy she’riyati va uning turkiy she’riyati bilan bog‘liqligini kengroq o‘rganish dolzarb ilmiy yo‘nalish sifatida qaralishi lozim[10].

Xulosa. Alisher Navoiy forsiy she’riyati Sharq adabiyotining eng yuksak namunalari qatoriga kirib, uning g‘oyaviy-badiiy qimmati beqiyosdir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, shoir o‘z forsiy she’riyatida tasavvufiy g‘oyalar, ma’naviy yetuklik, adolat va muhabbat mavzularini yuksak badiiy mahorat bilan ifodalagan. Navoiy forsiy she’riyatining o‘ziga xosligi quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi: G‘oyaviy mazmun – shoir she’riyatida ilohiy ishq, insoniy kamolot, adolat va axloqiy poklik asosiy mavzular sifatida ilgari surilgan. Badiiy mahorat – Navoiy poetik san’atlardan mahorat bilan foydalangan holda, fors-tojik adabiyotining klassik an’analarini rivojlantirgan. Adabiy bog‘liqlik – shoirning forsiy she’riyati turkiy adabiyot bilan uyg‘unlikda rivojlanib, ikki adabiy maktab o‘rtasida mustahkam aloqalar o‘rnatilishiga xizmat qilgan[11].

Tadqiqot davomida shoirning forsiy she’riyatining zamonaviy adabiy jarayondagi o‘rni ham tahlil qilindi. Uning asarlari bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, ma’naviy-axloqiy tarbiya, insoniylik va adolat g‘oyalari orqali yangi avlodni kamolga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi[12].

Navoiy ijodining chuqur o‘rganilishi uchun quyidagi ilmiy yondashuvlarni rivojlantirish lozim:

1. Shoirning forsiy va turkiy she’riyati o‘rtasidagi bog‘liqlikni keng o‘rganish.
2. Navoiy asarlarining zamonaviy adabiy tahlil usullari orqali qayta tadqiq etilishi.
3. Forsiy she’riyatining g‘oyaviy va badiiy jihatlarini boshqa Sharq mumtoz adabiyoti namunalari bilan solishtirish.

Shunday qilib, Navoiy forsiy she’riyati nafaqat tarixiy-madaniy meros sifatida, balki zamonaviy adabiy jarayonning muhim tarkibiy qismi sifatida ham o‘rganilishi zarur. Uning ijodi kelajak avlod uchun ham badiiy-estetik va ma’naviy yetuklik maktabi bo‘lib qoladi.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Khudoyorova Nigora Nuriddinovna. For Publication of the Manuscript Entitled. Journal of Applied Science and Social Science · eISSN: 2229-3213 pISSN: 2229-3205.

2. KHUDOYOROVA NIGORA NURIDDINOVNA, & FAYZULLAYEV OLLOMUROD TOXTAMURODOVICH. (2021). USE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING AND LEARNING IN HIGHER EDUCATION. JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 7(02), 357–359. Retrieved from https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/2505

3. Худоярова Нигора Нуриддиновна. (2023). Знакомство Алишера Фони с газелями Амира Хусрава (на примере «Девони Фоний»). Европейский журнал педагогических инициатив и образовательных практик, 1(2), 6–12. Получено с https://europeanscience.org/index.php/4/article/view/72

4. Интерпретация «Ашмой-Хусны» Алишера Навои в двуязычной поэзии Бекова Назора Джураевна1, Худоярова Нигора Нуриддиновна Журнал «Позитивная школьная психология»http://journalppw.com 2022, том 6, № 12, 216-222

5. Н. Худоярова «ДЕВОНИ ФОНИЙ» — НАВОИ ИДЖОДИНИНГ ГУЛТОЖИ // SAI. 2022. №B6. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/devoni-foniy-navoiy-ijodining-gultoji (дата обращения: 15.06.2024).

6. Назора Бекова. Навоийнинг девон тузиш маҳорати хусусида // «Тил ва адабиёт таълими". Тошкент, 2005, №1. Б. 39-42.

7. Nazora Bekova. Alisher Navoiyning «Devoni Foniy asari haqida // Til va adabiyot ta'limi. Тошкент, 2011. № 9. -Б. 58-59.

8. Бекова Н. «Азал ҳам Сен, абад ҳам Сен..."// «Бухоро давлат университети илмий ахбороти". Бухоро, 2013, №3. Б. 56-59.

9. Бекова Н. Тил имконияти ва бадиий санъат // "Бухоро давлат университети илмий ахбороти". Бухоро, 2014. №3. Б. 81-88.

10. Бекова Н. «Девони Фоний»: нашр ва тадқиқотлар / Алишер Навоий ижодий ва маънавий меросининг оламшумул аҳамияти. Халкаро илмий-назарий анжуман материаллари. Тошкент, 2011. 28-29 сентябрь. 43-46.

11. Бекова Н. «Ситтаи зарурия»даги ботиний бир моҳият хусусида /«Алишер Навоий ижодий меросининг умумбашарият маънавий-маърифий тараққиётидаги ўрни” мавзуидаги Халқаро илмий конференция материаллари. Навоий: Ўзбекистон-2018. -Б 58-63.

Abdurashidova Nozimaxon Xabibullayevna
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,
O‘zbekiston Respublikasi
Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi o‘qituvchisi,
E-mail: nozimaxon@gmail.com

XX ASR BIRINCHI CHORAGI VYETNAM HIKOYANAVISLIGI SHAKLLANISH KONTEKSTIDA FAM ZYUI TONNING IJODI

Annotatsiya. Mazkur maqola yangi davr Vyetnam hikoyasining shakllanish va rivojlanish tamoyillariga bag‘ishlangan. Unda biz XX asr boshlarida vyetnam hikoyasi, xususan, Fam Zyui Ton qalamiga mansub bir nechta hikoyalarning o‘ziga hos jihatlarini kuzatamiz hamda yozuvchi ijodi orqali yangi yo‘nalishlar bilan yaqindan tanishamiz. Shuningdek, hikoyalarni tahlil qilish jarayonida, yozuvchi har bir asari orqali Vyetnamning ma’naviy va madaniy qadriyatlarini, an’analari va urf-odatlarini mohirona tasvirlaganiga guvoh bo‘lamiz.

Adabiiy aloqalar faol bo‘lgan bir davrda har bir xalq, har bir millat uchun o‘zligini saqlab qolish o‘ta muhim masaladir. Chunki, jahon miqyosidagi adabiy aloqalarning rivoji samarasi o‘laroq, G‘arbda paydo bo‘lgan adabiy yo‘nalishlar va oqimlar vyetnam hikoyasiga, hususan, ijodkorlarning badiiy tafakkuriga katta ta’sir ko‘rsatdi. Shu asnoda XX asr birinchi yarmida ijod qilgan vyetnam yozuvchisi Fam Zyui Ton zamonaviy oqim va badiiy ifoda uslublaridan oqilona foydalangan holda Vetnam xalqining o‘ziga xos dunyoqarashi, milliy xususiyatlari, turmush tarzi, qadriyatlariga, mutanosib bo‘lgan hikoyalar yaratgan ilk yozuvchilardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada Fam Zyui Tonning bir nechta hikoyalari tahlili asosida ushbu masalaga oydinlik kiritishga harakat qilindi. Hikoyalarning tahlilida keltirilgan misollar ijodiy metod va yo‘nalishlarning xilma-xilligi hamda ijodkor uslubining o‘ziga xosligini ochib berishga qaratilgan. Zero, har bir asarda tasvirlangan hayot manzaralari, insonlararo munosabatlar, ular o‘rtasidagi suxbatlarning badiiy uslubi juda soddaligi bilan ajralib turadi.

Yangi davr vyetnam hikoyasining shakllanish va rivojlanish tamoyillarini o‘rganish bizga o‘sha davr, ya’ni XX asr birinchi yarimida vyetnam adabiyotidagi o‘zgarishlar, adabiy jarayondagi yangilanishlar, an’anaviy realizm va romantizmning o‘zgacha tus olishi, yangi turdagi hikoyalarning vujudga kelish tamoyillarini aniqlashga, tushunishga hamda ularni bir-biridan ajrata bilishga yordam berib, adabiy muhitni tasavvur qilishga imkon yaratadi.

Kalit so‘zlar: hikoya, afsona, shitszin, xanvan, to‘qima, esse, peyzaj, syujet, luk bat, nasr.

Абдурашидова Нозимахон Хабибуллаевна
Ташкентский государственный университет востоковедения,
Преподаватель Высшей школы
южноазиатских языков и литературы,
E-mail: nozimaxon@gmail.com

ТВОРЧЕСТВО ФАМ ЗУЙ ТОН В КОНТЕКСТЕ ФОРМИРОВАНИЯ ВЬЕТНАМСКОГО РАССКАЗА В ПЕРВОЙ ЧЕТВЕРТИ XX ВЕКА

Аннотация. Данная статья посвящена принципам формирования и развития вьетнамского рассказа новой эпохи. В ней мы рассмотрим особенности вьетнамского рассказа начала XX века, в частности, несколько рассказов, написанных Фам Зуй Тоном, и познакомимся с новыми направлениями через творчество писателя. Также в процессе анализа рассказов мы станем свидетелями того, как писатель искусно изобразил духовные и культурные ценности, традиции и обычаи Вьетнама через каждое свое произведение.

В эпоху активных литературных связей перед каждым народом и каждой нацией стоит очень важная задача сохранить свою самобытность. Потому что, в отличие от развития литературных связей в мировом масштабе, появившиеся на Западе литературные направления и течения оказывают большое влияние на историю Вьетнама, его особенности, художественное мышление творцов. В то же время вьетнамский писатель Фам Зуй Тон, творивший в первой половине XX века, является первым писателем, создавшим из современных тенденций и стилей образа неповторимое мировоззрение, национальные особенности, образ жизни, народ и народ Вьетнама как форму века. В данной статье была предпринята попытка внести ясность в этот вопрос на основе анализа нескольких рассказов Фам Зуй Тона. Примеры, представленные в анализе рассказов, направлены на раскрытие многообразия творческих методов и направлений, а также своеобразия стиля художника. Ведь изображенные в каждой работе сцены жизни, межличностные отношения, художественный стиль бесед между ними отличаются простотой.

Изучение принципов формирования и развития вьетнамского рассказа нового периода помогает нам выявить, понять и различить изменения во вьетнамской литературе первой половины XX века, изменения в литературном процессе, традиционном реализме и романтизме, принципы возникновения новых типов рассказов, а также позволяет представить себе литературную среду.

Ключевые слова*:* рассказ, легенда, шиззин, ханван, ткань, очерк, пейзаж, сюжет, лук бат, проза.

Abdurashidova Nozimakhon Khabibullaevna
Tashkent State University of Oriental Studies,
Lecturer at the Higher school of South Asian languages and literatures,
E-mail: nozimaxon@gmail.com

THE WORK OF PHAMS DUI TON IN THE CONTEXT OF THE FORMATION OF THE VIETNAMESE SHORT STORY IN THE FIRST QUARTER OF THE 20TH CENTURY

Annotation. This article is devoted to the principles of formation and development of the Vietnamese short story of the new era. In it, we will consider the features of the Vietnamese short story of the early 20th century, in particular, several stories written by Pham Duy Ton, and get acquainted with new directions through the writer's work. Also, in the process of analyzing the stories, we will witness how the writer skillfully depicted the spiritual and cultural values, traditions and customs of Vietnam through each of his works.

In the era of active literary connections, each people and each nation faces a very important task of preserving its identity. Because, unlike the development of literary connections on a global scale, literary trends and movements that have emerged in the West have a great influence on the history of Vietnam, its features, and the artistic thinking of creators. At the same time, the Vietnamese writer Pham Duy Ton, who worked in the first half of the 20th century, is the first writer who created a unique worldview, national characteristics, lifestyle, people and the people of Vietnam as a form of the century from modern trends and styles of image. This article attempts to clarify this issue based on the analysis of several stories by Pham Duy Ton. The examples presented in the analysis of the stories are aimed at revealing the diversity of creative methods and directions, as well as the uniqueness of the artist's style. After all, the scenes of life, interpersonal relationships, and artistic style of conversations between them depicted in each work are distinguished by their simplicity.

Studying the principles of formation and development of Vietnamese short story of the new period helps us to identify, understand and distinguish the changes in Vietnamese literature of the first half of the 20th century, changes in the literary process, traditional realism and romanticism, the principles of emergence of new types of stories, and also allows us to imagine the literary environment.

Keywords: story, legend, shizzin, hanwan, fabric, essay, landscape, plot, luk bat, prose.

Kirish: Mazkur maqola Yangi davr vyetnam hikoyasining shakllanish va rivojlanish tamoyillariga bag‘ishlangan. Unda biz XX asr boshlarida vyetnam hikoyasi, xususan, Fam Zyui Ton qalamiga mansub bir nechta hikoyalarning o‘ziga hos jihatlarini ko‘rishimiz hamda yozuvchi ijodida shakllangan yangi yo‘nalishlar bilan yaqindan tanishishimiz mumkin.

Maqsad va vazifalar: Yangi davr vyetnam hikoyasining shakllanish va rivojlanish tamoyillarini o‘rganish bizga o‘sha davr, ya’ni XX asr birinchi yarimida vyetnam adabiyotidagi o‘zgarishlar, adabiy jarayondagi yangilanishlar, an’anaviy realizm va romantizmning o‘zgacha tus olishi, ularning yangicha turlari va tamoyillarini aniqlash, tushunish hamda ularni bir-biridan ajrata bilishga yordam beradi, adabiy muhitni anglash imkonini beradi.

Natijalar va mulohazalar: Vyetnamda XX asrning birinchi choragi – voqealarga boy jo‘shqin davr edi.

Milliy ozodlik harakati monarxiyadan respublika tizimiga o‘tish g‘oyalari bilan uyg‘unlashib ketdi.

XX asr boshida Vyetnamdagi ma’rifatparvarlikning keng harakati taniqli olim, adabiyotshunos va ensiklopedist Le Kui Don (1726-1784) nomi bilan bog‘liqdir. U “Shitszin” [1] ning tarjimoni va sharhlovchisi, turli falsafiy, tarixiy va adabiy asarlar muallifi edi.

Ma’rifatparvarlik harakati jahon san’ati an’analari bilan milliy adabiyotning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatib, ushbu an’anani chuqur anglash va o‘rganishga yo‘l ochib berdi. Bu harakat nasrda hikoya janrining rivojlanishiga sabab bo‘ldi.

Hikoya janri aslida, vyetnam adabiyotida o‘zining qadimgi an’analariga ega bo‘lgan janr. Vyetnam hikoyasining ildizlari turli xil tarixiy solnomalarga, rasmiy risolalar hamda xalq og‘zaki ijodiga borib taqaladi. Ya’ni vyetnam hikoya janrining paydo bo‘lishi nasriy folklor va solnoma an‘anasi bilan bog‘liq. Zero, xanvan[2] da yozilgan vyetnam solnomalarida ham xalq og‘zaki ijodi namunalarini uchratishimiz mumkin. Bunga misol sifatida XII asrning birinchi yarimida Do Thiyen[3] tomonidan yaratilgan va hozirgi kungacha saqlanmagan “DaiVyet haqida tarixiy tazkiralar” nomli ilk solnomani keltirish mumkin. Ushbu solnomaga keyingi asrlarda rasmiy tarixchilar tomonidan ko‘p marotaba murojaat qilingan va u asosida navbatdagi solnomalar yaratilgan.

Vyetnam tarixchisi Li Te Syuyenning XIV asr boshida yaratilgan “Vyet yerlarining ajoyibotu-g‘aroyibotlari” nomli to‘plami esa vyetnam hikoyalarining ilk namunalari sifatida bizgacha yetib kelgan. Le Kui Donning aytishicha, eng dastlabki bizgacha yetib kelmagan hikoyalar to‘plamlari – “Oliy taqdirlash haqida qissa” (XIII asr) va “Qirol bog‘lari va ibodatxonalaridagi ajoyib go‘zalliklar to‘plami” (XIV asr boshlari) turli xil tarixiy asarlarga, hususan solnomalarga asoslangan edi. Aksariyat hollarda hikoyalar matniga Do Thiyenning “Tazkiralari”dan alohida parchalar, turli voqealar haqida hikoyalar yoki tarixiy latifalar kiritilgan edi. Bunday “kiritilgan parchalar” “Tazkiralar”dagi matnlardan ko‘chirilgan gaplar hisobiga ancha keng bo‘lgan. Solnoma an’anasining hikoya janriga bo‘lgan ta’siri, asarda aniq sanalar keltirish va kitobxonga qahramonning nasl-nasabi haqida ma’lumot yetkazish orqali namoyon bo‘ladi [4, B.156].

Hikoyalarning yana bir manbasi sifatida ibodatxonalarda saqlanayotgan muqaddas kitoblar asos bo‘lgan. Bunday kitoblarda odatda ruhlar va ruhoniylar tomonidan ko‘rsatilgan mo‘jizaviy karomatlar va muhim voqealar yozib borilar edi.

Ibodatxonada saqlanadigan kitoblar asosida hikoya janri o‘zining shakllanish jihatini olgan. Jumladan, odatdagidek bir xil (stereotip) yakunlanish, qahramon ko‘rsatgan mo‘jizalarning va o‘limidan keyin qirol tomonidan berilgan faxriy unvonlarning sanalib o‘tilishi va boshqalar. Hikoya va ibodatxona kitoblari o‘rtasida aloqa borligiga qiziq bir faktni keltirish mumkin. 1572-yilda mahalliy ilohiyotlar haqida afsonalarni tasniflash borasida Le sulolasi tekshiruv-taftish ishlarini olib borganda, ma’lumotlarni to‘plash maqsadida Li Te Syuyenning “Vyet yerlarining ajoyibotu-g‘aroyibotlari” nomli to‘plamidan foydalanganlar.

“Vyet yerlarining ajoyibotu-g‘aroyibotlari” nomli to‘plamda Li Te Syuyen tarixiy yozuvlardagi bo‘shliqlarni an‘ana va afsonalar bilan boyitgan.

Vyetnam hikoyanavisligi ertaklar, afsonalar va tarixiy rivoyatlarga asoslanib rivojlanganligiga dalil sifatida, ilk vyetnam hikoyalari juda qisqa, lo‘nda, shaklan sodda, ko‘p hollarda turli g‘ayrioddiy voqealar haqidagi qisqa yozuvlardan iborat bo‘lganligini keltirishimiz mumkin. Jumladan, XV asr boshlarida Vu Kuin va Kiyeu Fu tomonidan yaratilgan “Linnam yerlarining ajoyib qissalari” hikoyalar to‘plamida xalq og‘zaki ijodi motivlari yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ushbu to‘plamda mifologik va ertak syujetlari aks ettirilgan - Suveren Dragon Lak ajdodi va uning ishlari, Fu Dong haqidagi qahramonlik hikoyasi va boshqalar. Ushbu to‘plam hozirgi vaqtgacha og‘zaki an’anada saqlanib kelayotgan rivoyatlar va qissalarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, syujet nuqtayi nazaridan folklor manbalariga butunlay tayanadi va ajoyib, g‘ayrioddiy voqealar haqida bayon qiladi.

Keyinchalik hikoyalarda solnoma an’anasidan uzoqlashish tendensiyasi mustahkamlanadi, hikoyada uslub kuchayadi, badiiy uydirma va pand-nasihat paydo bo‘ladi. Bunga misol sifatida, XVI asrning birinchi yarmida Nguyen Zi tomonidan yaratilgan “Ajoyibotlar haqidagi hikoyalari” va XVIII asrda Doan Txi Diyem tomonidan yaratilgan “Ajoyibotlar haqidagi hikoyalarning yangi yozuvlari” nomli to‘plamlarni keltirishimiz mumkin. Ushbu to‘plam hikoyalari takomillashgan syujet, kompozitsion muvozanat va obrazlar rivojlanganligi bilan ajralib turib, vyetnam an’anaviy hikoyanavisligining cho‘qqisi hisoblanadi. Bu hikoyalarda axloqiy didaktik an’analar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, Nguyen Zining har bir hikoyasida kitobxonga yo‘llangan pand-nasihatni uchratishimiz mumkin.

Ushbu hikoyalar g‘oyasi va xususiyatlari haqida ularning nomlaridan ham xulosa qilish mumkin. Unda mo‘jizalar, sehrgarlar, ruhlar, ajoyib voqealar, evrilishlar – osmon ahliga aylangan odamlar va odamlarga aylangan osmon ahli kabi voqealarni aks ettiruvchi jumlalarni ko‘rish mumkin.

XX asr boshlaridagi hikoyalar an’anaviy hikoyalardan ancha farq qila boshlaydi. To‘qima o‘rniga kundalik hayotga idrokli qarash, mo‘jiza va evrilish o‘rniga haqiqiy voqealik kirib keladi. Endilikda hikoya haqiqatni aks ettirishga intiladi. Ilk bor u ijtimoiy mavzu va motivlarga murojaat qilib, inson uni ijtimoiy shaxsiyat sifatida qiziqtira boshlaydi.

Yangi hikoyaning asoschisi o‘qimishli inson, fransuz madaniyatining o‘tkir bilimdoni, mohir tarjimon, iqtidorli jurnalist va publitsist Fam Zyui Ton (1883–1924) bo‘lgan. Ko‘p yillar davomida u eng yirik nashriyotlar bilan hamkorlik qilgan. “Dong ziong”, “Chungbak tanvan” (“Shimol va Markaz yangiliklari”) jurnallarida, “Dayviet tanbao” (“Buyuk Vet yangiliklari”) va “Txikniyep zanbao” (“Shahar gazetasi”) gazetalarida. “Luktintanvan” (“Koxinxina”) ommabop jurnalning muharriri bo‘lgan.

Fam Zyui Tonning hikoyalarini “tatyan”, ya’ni “voqeylikka asoslangan” deb atashgan. Fam Zyui Ton vyetnam yozuvchilari orasida birinchi bo‘lib ijtimoiy masalalarni ko‘tarib chiqadi va vatan adabiyoti rivojlanishining yangi davri asoschisi nomi bilan tarixda iz qoldiradi. Fam Zyui Ton adabiyotning bosh maqsadini odamlarning ma’rifatida ko‘rar edi. Shuningdek, ko‘pgina ma’rifatparvarlar kabi ommani G‘arbiy Yevropa va Sharqqa xos ijtimoiy fikr, madaniyat va ilm-fan yutuqlari bilan tanishtirishni zarur deb bilgan. Fam Zyui Ton, Nguyen Van Vin, Fan Ke Bin, Nguyen Do Muk va boshqalar G‘arb va Xitoy

mualliflarining badiiy asarlari, tanqidiy esselari, ilmiy to‘plamlarini vyetnam tiliga tarjima qilganlar, shuningdek, vyetnam adabiyoti bo‘yicha turli xil tadqiqotlar olib borib, ularni vyetnam zamonaviy yozuviga transliteratsiya qilganlar.

Fam Zyui Ton boshqa ma’rifatparvarlardan farqli ravishda vatan adabiyotini rivojlanishiga ko‘proq e’tibor berish kerakligini ta’kidlar edi. Shu sababli u asosiy kuchini tarjima, esselar bilan bir qatorda badiiy ijodga bag‘ishlagan. Fam Zyui Ton bir qator tarjimalar muallifidir. U tarjimalar uchun manbaa sifatida XVII asrning yirik fransuz ahloqshunosi, filologi va satirigi Jan de Labryuyer va XVIII asrning taniqli mutafakkiri Sharl Monteskening asarlarini tanlangan.

Ma’rifatparvarlarning ijodi vyetnam yozuvchisi e’tiborini tortgan. Fam Zyui Tonni Labryuyerning adabiyot, til va ijod haqidagi fikrlari bilan qiziqar edi. Tarjima uchun Fam Zyui Ton Labryuyerning “Inson idrokining ijodi haqida” asarini tanlab, uni “Dong ziong” jurnalida (1915, №75) “Nutq tabiiy bo‘lishi kerak” sarlavhasi ostida nashr qiladi. Labryuyer nomini nafaqat Monteske nomi bilan, balki keng ma’noda Ma’rifat davri bilan bog‘laydi. Labryuyer ijodining ta’siri nemis satirigi Rabener, rus satirigi Kantemir, Fonvizin kabi ko‘pgina yozuvchi va faylasuflarning ijodida seziladi. Buyuk o‘tmishdoshlari kabi Fam Zyui Ton ham Labryuyerning fikr, kuzatish va badiiy usullarini ijodiy yondoshuv bilan o‘zlashtirib boradi. Fam Zyui Ton Monteskening asarlari ichidan “Fors maktublari” nomli to‘plamni o‘rganadi va tarjima uchun illatlarga, shavqatsizlik va ochko‘zlikka botib ketgan trogloditlar qabilasi haqidagi asarni tanlaydi.

Ikki buyuk fransuzning keskin, zehnli satirasi, ijodlarining feodalizmga qarshi yo‘naltirilganligi, tilning aniqligi, ravshanligi va ravonligi, ahloqiy haqiqat Fam Zyui Tonning diqqatini o‘ziga tortgan edi.

Sharq adabiyotida o‘ziga xos asar yaratilayotganda o‘zlashtirma syujetdan foydalanish qadimdan an’ana bo‘lib kelgan, biroq manba sifatida milliy adabiyot emas, balki xorijiy adabiyot namunalaridan foydalanilgan. Fam Zyui Ton ham ushbu an’anaga rioya qilgan holda, A. Dodening “Dushanba kunlaridagi hikoyalar” to‘plamidan “Billiarddagi partiya” hikoyasiga murojaat qiladi. A. Dodening “Billiarddagi partiya” hikoyasida yomg‘ir tagida ivib, charchog‘idan toygan askarlar holati tasvirlangan. Ular bosh qo‘mondon shtabidan hujum qilish to‘g‘risida buyruqni kutadilar. Lekin, o‘sha damda marshal billiard o‘ynayotgan bo‘ladi. Marshal partiyani boshlagan bo‘lib, hech kim unga partiyani tugatishga halal berishga jur’at eta olmaydi. Dushman o‘t ochib, askarlar halok bo‘layotgani haqida xabar bilan jo‘natilgan askar shtabga kelganda, marshal pinagini ham buzmay partiyasini o‘ynab tugatadi, so‘ng orqaga chekinish haqida buyruq beradi.

Fam Zyui Tonning “Tirik bo‘lishadi yoki o‘lishadi – baribir” hikoyasida voqealar vyetnam qishlog‘ida bo‘lib o‘tadi. Hikoyaning asosiy mazmuni shunday ta’riflanadi:

Gần một giờ đêm, trời mưa tầm tã. Nước sông Nhị Hà lên to quá; khúc đê làng... thuộc phủ..., xem chừng núng thế lắm, hai ba đoạn đã thẩm lậu rồi, không khéo thì vỡ mất. Dân phu kể hàng trăm nghìn con người, từ chiều đến giờ hết sức giữ gìn, kẻ thì thuổng, người thì cuốc, kẻ đội đất, kẻ vác tre, nào đắp, nào cừ, bì bõm dưới bùn lầy ngập quá khuỷu chân, người nào người nấy lướt thướt như chuột lột. Tình cảnh trông thật là thảm. Tuy trống đánh liên thanh,

ốc thổi vô hồi, tiếng người xao xác gọi nhau sang hộ, nhưng xem chừng ai ai cũng mệt lử cả rồi.

Thưa rằng: đang ở trong đình kia, cách đó chừng bốn năm trăm thước. Đình ấy cũng ở trên mặt đê, nhưng cao mà vững chãi, dẫu nước to thế nữa cũng không việc gì.

Trên đình đèn thắp sáng trưng, nha lệ, lính tráng, kẻ hầu người hạ, đi lại rộn ràng. Trên sập, mới kê ở gian giữa, có một mình quan phụ mẫu, uy nghi chễm chệ ngồi. Tay trái dựa gối xếp, chân phải duỗi thẳng ra, để cho tên người nhà quỳ ở dưới đất mà gãi [5,B.29].

-Daryo sathi tobora ko‘tarilib , to‘g‘onni buzishga tahdid sola boshladi. Kun bo‘yi qishloq aholisi yomg‘irdan ivib, holidan toyib, shavqasiz ofatga qarshilik ko‘rsatishga urindilar. Hattoki tunda ham ular yer kavlashni davom ettiraverdilar.

Aynan shu vaqtning o‘zida tozalik va shinamlikda, issiq va yorug‘ uyda suv toshqini bilan kurashish uchun yuborilgan bosh amaldor o‘tirar edi. U qo‘l ostidagilari, mahalliy hokimiyat bilan qarta o‘ynashda davom etadi. Uning o‘n tomonida – janob boshqaruvchi, yonida – qo‘riqlash boshlig‘i, keyin – tarjimon, chap tomonida – hurmat bilan ta’zim qilib turgan mahalliy hokimityaning boshlig‘i. Xalq, suv toshqini, to‘g‘onga hujum qilayotgan suvning, yomg‘ir va shamolning shovqini uni umuman qiziqtirmas edi.

Hikoya davomida to‘g‘on yorilib, hamma yerni suv bosgani haqida xabar bilan yugurib kelgan dehqon uyga kirganida, amaldor uni haydab yuborishni amr qiladi. Odamlar halok bo‘ladi, uylar va dalalarni suv bosadi. Natijada ular ochlik va qashshoqlikka mahkum bo‘ladilar. Biroq, amaldor sovuqqonlik bilan o‘z o‘yinini davom ettiraveradi.

Muallif ushbu hikoyada nafaqat aniq va obyektiv hayotni tasvirlaydi, balki ularga to‘g‘ridan to‘g‘ri izoh beradi:

-Ôi. Trăm hai mươi lá bài đen đỏ, có cái ma lực gì dun dủi cho quan mê được như thế?... Này, này đê vỡ mặc đê, nước sông dù nguy, không bằng được bài cao thấp. Đứng trên đê mà đốc kẻ cắm cừ, người đổ đất lắm nỗi lầm than, sao bằng ngồi trong đình đã sẵn kẻ bốc nọc, người chia bài, nhiều đường thú vị. ...Than ôi. cứ như cách quan ngồi ung dung như vậy, mà hai bên tả hữu, nha lại nghiêm trang, lính hầu rầm rập thì đố ai bảo rằng: gần đó có sự nguy hiểm to, sắp sinh ra một cảnh nghìn sầu muôn thảm, trừ những kẻ lòng lang dạ thú, còn ai nghĩ đến mà chẳng động tâm, thương xót đồng bào huyết mạch.. [6, B.29,30].

-“O, bu qora-qizil 120 ta o‘yin qartalarida qanday kuchki, ular amaldorni shunchalik avrab qo‘ydi? To‘g‘on yorilib ketsa ham unga baribir. Dahshatli daryo suvi uni hayoliga kelsa ham, qarta o‘yinidagi bitta makkorlik va qiziq yurishi hamma narsadan ustunroq, kuchliroqdir.....

Unga baribir! Xalq ..... unga xalqni nima qizig‘i bor!”

Hikoyada keskin ijtimoiy farq, ijtimoiy adolatsizlik xissiyoti o‘tkir tasvirlangan. Shuningdek, Fam Zyui Ton ijtimoiy munosabatlar xarakterini to‘la ochib bera olgan.

Shak shubhasiz, Fam Zyui Tonning hikoyasidagi syujet A. Dode hikoyasiga juda yaqin. Fransuz ma’rifatparvarlarining g‘oyalari Fam Zyui Ton ijodiga ta’sir qilganiga ham shubha yo‘q. Vyetnam yozuvchisining ijodida g‘oyaviy yo‘nalishni aniq ko‘rish mumkin. U har bir asarida “haqiqatni aqlni hayratda qoldiradigan darajada ko‘rsatish”ga intilgan. Ya’ni, haqiqat–

odamlarning ijtimoiy mavqei: feodallar va dehqonlar o‘rtasidagi keskin farqda ko‘rinar edi. Muallif amaldor shaxs misolida befarqlik va manmanlikka qarshi qat’iy noroziligini bildiradi. Aytib o‘tish joizki, Fam Zyui Tonning hikoyasi haq-huquqsizlikka va insonning mehnatidan qabih foydalanishga qarshi norozilik, deb qabul qilindi. Muallif o‘z qahramonlarining xarakterini bizga ko‘rsatmagan, ammo, hayotiy vaziyat, voqelikning o‘zi dehqonlarning achinarli, ayanchli holidan dalolat berib turar edi: *“...yuzlab odamlar boshidan oyog‘igacha loyda, kuchli shamol ularning betlarini teshib o‘tadigan darajada esar, bellarini yomg‘ir savalar edi ...”*. Fam Zyui Ton dehqonlarning huquqlarini tan olish haqida aniq fikrlar bildirmaydi, biroq xalqning og‘ir ahvoli haqidagi fikr uning barcha asarlarida o‘z aksini topib keladi.

Fam Zyui Tonning yana bir “Xo‘rlik” nomli qissasi qahramoni sifatida bir baxtsiz keksa tanlangan, u halok bo‘lgan o‘g‘lining farzandlarini boqish uchun riksha xaydashga majbur inson sifatida tasvirlangan. Xalq mavzusi Fam Zyui Ton ijodida mehnat mavzusi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu mavzu qarama qarshi qo‘yish orqali tasvirlanadi: boylar tekinxo‘r va haromtomoq hayot kechiradilar, kambag‘allar esa charchoqni bilmay, tinmay ishlaydilar. Fam Zyui Ton A. Dodening syujet qurilishi rejasiga aniq ergashadi. A. Dodedan farqli ravishda Fam Zyui Ton peyzaj (manzara) chizgilaridan foydalanmaydi. Uning uchun muhimi – sodir bo‘layotgan voqealar ustidan muallifning ko‘zga ko‘rinmas nazorati edi. Jumladan, gohida u asardagi voqealar rivojiga to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘z fikrini bildiradi.

Fransiyaning eng yaxshi novellisti, kinoyaning yorqin ustasi Mopassan fikrlarining lo‘nda ifoda etishi, kompozitsion tartibliligi va eng muhim dalillarni saralab olish qobiliyati bilan Fam Zyui Tonning diqqatini tortadi. Mopassanning “Sarpo” hikoyasining syujeti asosida Fam Zyui Ton “Shokxan” qissasini yaratadi. Yevropalik “donjuan” kabi Vyetnamda “shokxan” turdosh otga aylandi, bunday nomni yolg‘onchi va yo‘ldan ozdiruvchi odamlarga qo‘llashar edi.

“Sarpo” – qallig‘ining pullari va qimmatbaho buyumlari bilan qochib ketgan uddaburon viloyatli notarius vakili haqidagi qissa. Ushbu qissada Mopassan kinoya bilan burjuaziya jamiyatining vakillari birgina maqsad – boylik orttirish bilan ovvoraligini fosh qiladi. Fam Zyui Ton ham huddi mana shu syujetni vetnam zaminiga moslab asar yaratgan.

Fam Zyui Ton Mopassan hikoyalariga xos bo‘lgan lo‘ndalik va aniq kompozitsiyaga taqlid qiladi. Mopassan kabi uning hikoyasi ham personajlarning tavsifi bilan boshlanadi, u kabi o‘z qahramonlariga kinoyali munosabat bildiradi, oliyjanob qiyofa ortida pastkash, molparast va ichki dunyosi tor va bo‘shang insonni tasvirlaydi. Lekin, Fam Zyui Tonning kinoyali ohangi birmuncha dabdabali va o‘ziga xos uslub orqali ifodalanadi. Ya’ni, kinoya ohangini bo‘rttirish maqsadida, muallif asarda klassik she’riyatiga murojaat qilgan holda yondoshadi. U she’rlar yordamida o‘z e‘tiroz va tanqidlarini yanada kuchliroq namoyon etadi.

Fam Zyui Ton Mopassandek xronologik va mantiqiy ketma ketlikka rioya qilgan holda eng muhim va eng zarurini tanlab olishga intiladi.

G‘arbda ta’lim olgan va “kuok ngi”[7] da yozayotgan vyetnam ma’rifatparvar yozuvchilarning ijodida adabiy tilni soddalashtirish, og‘zaki nutq bilan yaqinlashish, bayon uslubida soddalik va ravshanlik tamoyillari sezilib turar edi. XX asrning birinchi choragida

konfutsianchilik dunyoqarashidagi yozuvchilar ijodida esa boshqa tamoyillar sezilar edi: nasrda uzun va murakkab jumlalardan, kam qullaniladigan so‘zlardan foydalanish badiiyatni rivojlantirishga xizmat qilgan. O‘sha davrda nasriy bayonga luk bat – oxirdagi satrlarda qofiyali she’riy vaznda yozilgan parchalarni qo‘shish rasm bo‘lgan. Fam Zyui Ton tildagi tabiiylik uchun kurashar edi. Labryuyerning fikrlari Fam Zyui Ton tomonidan ommalashtirilishi aslida vyetnam yozuvchisining tanlagan yo‘lini targ‘ib qilish, deb tushunilar edi [8, B. 506].

Fam Zyui Ton ma’rifatparvarlikda xom-xayollarga yo‘l qo‘ymaydi. Ma’rifatparvarlar boshlab bergan illatlarni fosh qilish yo‘nalishini davom ettirib, ijobiy qahramonni yaratishdan voz kechadi. Yevropadagi Ma’rifat davri uchun aynan shu muammo o‘ta muhim bo‘lib, markaziy o‘rinni egallagan edi.

Xulosa qilib aytganda, XX asr boshlarida vyetnam hikoyalarida uslub va tildagi aniqlik va lo‘ndalik kuzatiladi. Og‘ir, murakkab konstruksiyalar, tushunarsiz konfutsiyacha iborlardan, kitaizmlar (xitoy tilidan o‘zlashgan so‘zlar) va arxaizm (eskirgan, muomaladan chiqib ketgan so‘z)lardan qutilishga harakat qilib, yozuvchi aniq va ravshan nasrni yaratadi, tilning ma’rifatparvarlik konsepsiyasini tatbiq qiladi. Fam Zyui Ton balandparvoz va murakkablashtirilgan iboralarni qo‘llamaydi, so‘zlarining ta’sirini – soddalik va tushunarli tilda yoritadi.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. “Shitszin” – “Qo‘shiqlar va madhiyalar kitobi” – eng qadimgi Xitoy adabiy yodgorligi. Unga miloddan avvalgi XII-V asrlarda yaratilgan xalq qo‘shiqlari, qasidalar va diniy madhiyalari kiritilgan.
2. Xanvan – venyan xitoy adabiy yozma tilining vetnamlashgan varianti.
3. Do Thiyen (Đỗ Thiên) - 13-asr vyetnam adabiyotidagi muhim shaxs.
4. История всемирной литературы: В 9 томах / Ин-т мировой лит. им. А.М.Горького; Гл. редкол: Г.П. Бердников (гл. ред.), А.С. Бушмин, Ю.Б. Виппер (зам. гл. ред.), Д.С. Лихачев, Г.И. Ломидзе, Д.Ф. Марков, А.Д. Михайлов, С.В. Никольский, Б.Б. Пиотровский, Г.М. Фридлендер, М.Б. Храпченко, Е.П. Челышев. – М.: Наука, 1983. Том второй. II. Литературы Восточной и Юго-Восточной Азии [III—XIII вв.]. 3. Вьетнамская литература.
5. Tác phẩm Sống chết mặc bay. – Tr.29.
6. Tác phẩm Sống chết mặc bay. – Tr.29.
7. kuok ngi – lotin alifbosiga asoslangan vyetnam alifbosi.
8. Литература Востока в новейшее время. М., МГУ, 1977. – С.506.

Гафарова Шахноза Хайруллаевна
доцент, Кафедра "Узбек тили ва адабиети"
Ташкентский государственный технический
университет имени И. Каримова

ДЖАДИДЫ – ВДОХНОВЛЯЮЩИЕ ЛИЦА БОРЬБЫ ЗА НЕЗАВИСИМОСТЬ

Аннотация. В статье особое внимание уделено изучению движения джадидов и его роли как идейных вдохновителей в борьбе за независимость, сыгравших важную роль в формировании национальной духовности и идей независимости. Аналогичным образом идеи бойцов-джадидистов нашли отражение в современных интерпретациях исследований по формированию национальной духовности, развитию образования и культуры, признанию независимости и продвижению демократических принципов.

Ключевые слова: джадид, история, письменные источники, общество «Турон», газета «Наджот», журнал «Айина», джадидские идеи, исследование, «когда это вошло в язык»

Annotation. The article pays special attention to the study of the Jadid movement and its role as ideological inspirers in the struggle for independence, who played an important role in the formation of national spirituality and ideas of independence. Similarly, the ideas of Jadid fighters are reflected in modern interpretations of studies on the formation of national spirituality, the development of education and culture, the recognition of independence and the promotion of democratic principles.

Key words: Jadid, history, written sources, the Turon Society, the Najot newspaper, the Ayina magazine, Jadid ideas, research, "when it entered the language".

ВВЕДЕНИЕ

Изучение движения джадидов является актуальной темой, поскольку их идеи не утратили своей актуальности и по сей день. Сегодня наследие джадидов имеет огромное значение в процессе восстановления исторической памяти и национальной идентичности Узбекистана.

Президент Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёев подчеркивает, что «бессмертное наследие, оставленное десятками подвижников просветительства, живших и творивших в Самарканде, продолжает служить важным источником повышения нашей духовности, воспитания нашей молодежи в духе национальных и общечеловеческих ценностей». Джадиды составили слой интеллигенции, оказавший большое влияние на развитие узбекского общества в конце XIX – начале XX вв., а их идеи стали одним из главных источников борьбы за независимость.

Изучение движения джадидов важно не только для установления исторической истины, но и для воспитания подрастающего поколения в духе патриотизма и преданности нации. Их идеи и практическая деятельность находят отражение в

общественно-политических процессах современного Узбекистана. Поэтому углубленное изучение движения джадидов на основе исторических источников послужит дальнейшему укреплению достижений нашей страны на пути к независимости[1. Қосимов Б.(2002). – Б. 128.]

Большое значение при изучении движения джадидов имеют также официальные документы и архивные материалы. Например, документы Туркестанского генерал-губернаторства, политика Российской империи в отношении местных народов, документы о деятельности джадидов раскрывают место этого движения в историческом контексте. Кроме того, документы о преследованиях и репрессиях, проводившихся против джадидов в советское время, свидетельствуют о тех жертвах, на которые они шли ради своих идей независимости.

ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД.

Исторические источники предоставляют достоверные сведения о зарождении движения джадидов, его идеологических основах и роли в борьбе за независимость, что дает исследователям возможность объективно анализировать эти процессы. Среди первоисточников — газеты и журналы, издаваемые джадидами, такие как «Тараккий», «Шуро», «Самарканд», «Ойина». В этих изданиях джадиды широко пропагандировали свои идеи, выдвигали идеи национального возрождения и независимости. Кроме того, в качестве важных источников рассматриваются их личные письма, мемуары и произведения. Исследование джадидского движения велось как зарубежными, так и отечественными учеными. Среди зарубежных исследователей особый вклад внесли Эдвард Оллворт, А. Беннигсен, Адиб Халид, Сергей Абашин и другие. Наряду с этим, существенный вклад в изучение данной темы внесли отечественные историки и лингвисты, такие как Ш. Сирожиддинов, Р. Шамсутдинов, М. Мирзаахмедов, Б. Каримов и другие, проводившие комплексные исследования джадидского движения в контексте общественно-политических и культурных трансформаций [2. Болтабоев Ҳ.(1996) – Б. 30.].

ОБСУЖДЕНИЕ.

В своем Послании Олий Мажлису 25 января 2020 года Президент Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёев высказал следующие мысли о том, что представители джадидского движения приложили максимум усилий для будущего нашей Родины, развития и процветания нашего народа даже в беспрецедентно сложных социально-политических условиях: «В целом, нам необходимо глубоко изучать джадидское движение и наследие наших просвещенных предков. Чем больше мы изучаем это духовное сокровище, тем больше мы найдем правильных ответов на многочисленные вопросы, которые все еще беспокоят нас сегодня. Чем активнее мы будем пропагандировать это бесценное богатство, тем больше наш народ, особенно наша молодежь, будет понимать ценность сегодняшней мирной и свободной жизни» [3. https://uza.uz/].

История свидетельствует о том, что наш народ пережил чрезвычайно трудные времена и трагические события в результате греческих, арабских, монгольских,

иранских и русских нашествий. Но каждое вторжение и резня испытывали терпение, волю и стойкость народа. Преодолев препятствия социального, экономического, политического и культурного упадка, народ вновь обрел опору и сделал смелый шаг к развитию. Конечно, эта ситуация и это движение не возникли сами по себе.

Краеугольным камнем движения джадидов являются школы джадидского метода. Это широко распространенное мнение. Истинной целью этого движения было укрепление национальной идентичности, радикальное реформирование социально-политической системы и обеспечение независимости нации и родины. Традиционные школы, некогда воспитывавшие великих мыслителей, в последние годы оказались полностью отрезанными от мирового развития, а также пришли в упадок из-за колониальной системы. Вот почему коренная реформа местных школ, создание национальной прессы и новой литературы, учреждение школ и высших учебных заведений, которые могли бы отвечать требованиям времени, стали главными задачами новых мыслителей.

Просвещенная идеология джадидов была в социальном отношении весьма богатой и разнообразной. К числу исторических задач и вопросов, которые и сегодня волнуют и волнуют общество, можно отнести правильное понимание роли религии в достижении духовной зрелости, ускорении процесса организации правового и экономического рыночного пространства, создании передовых демократических институтов, достижении уникального национального развития. Важным фактором решения и реализации этих задач является модернизация ислама, его очищение от косных верований, освоение научно-технических достижений.

Международные связи и отношения джадидов позволили им ознакомиться с программами джадидов России, Турции, Египта и Ирана. Однако молодой Туркестан не перенял опыт младотурок в Турции и прогрессистов Ирана механически и по одному образцу. Напротив, джадиды вывели необходимые им позиции, соответствующие их интересам и национальной культуре, из огромного опыта государственного строительства и законотворчества в странах Европы и Востока, из методов и программ демократической борьбы с колониализмом народов России и Востока.

Февральская революция 1917 года в России предоставила возможность джадидам, действовавшим в Туркестане, возглавить зрелое политическое движение. Туркестанские джадиды выдвинули широкий спектр социально-экономических и политических требований к российским властям, находившимся на вершине государственного управления. Одним из главных требований было расширение прав местного населения, более широкое его вовлечение в управление страной, предоставление ему демократических свобод.

В этот момент они пошли по пути приобщения всего туркестанского народа к идеям новых просветителей путем налаживания распространения газет, являвшихся распространителями просвещения. Это событие было тепло встречено людьми. Заявление Абдуллы Авлони о том, что «муллы называли читателей газет «джадидистами»», также указывает на статус джадидской прессы в народе.

Только в 1913 году Махмудходж Бехбуди получил разрешение на издание газеты «Самарканд». Первым современным журналом в Туркестане был «Ойна», издаваемый Бехбуди в 1913 году.

В 1914 году газеты У. Асадуллаходжаева «Садои Туркистон» и О. Махмудова «Садои Фергана» также заняли прочное место в истории новой прессы Туркестана.

После февраля 1917 года были изданы «Наджот» (Мунаввар Кори), «Шурои Ислам» (А. Баттол), «Турон» (Авлоний), «Хуррият» (Фитрат), «Кенгаш» (Мунаввар Кори, Заки Валидий), «Эл Байроги» (Б. Салиев, А. Зохирий), «Улуг Туркестан» (К. Бакир).

Наибольшего развития джадидское движение в Туркестане достигло в начале XX века. Джадидизм как общественное, политическое и образовательное движение стал не просто «джадидским» – «новым», – а действительно идеологией «нового мышления», «нового человека» и «нового поколения». Действительно, все позитивные изменения в общественно-политическом сознании, культуре, искусстве, духовном подъеме народов Туркестана в этот период немыслимы без участия новых прогрессивных сил. Джадиды разоблачили средневековое невежество Туркестана и в исторически короткий срок дали жизнь национальной прессе, образованию и театру.

Однако в Туркестане не всегда имелись достаточные условия для деятельности новых прогрессивных деятелей. Они работали в условиях постоянного преследования и давления. Особенно негативную роль сыграли действующие в Туркестане должностные лица Российской империи, в частности сторонники миссионерства во главе с Н. Остроумовым и их про империалистическая пресса.

В этой связи Салахиддин Муфтизода, туркестанский прогрессист, член общества «Турон», выступает против У. Хусаинов, который в джадидской газете «Наджот» (слова джадид и прогрессивный используются взаимозаменяемо – авт.) позиционировал себя как прогрессиста, а свою пропагандистскую газету «Туркестанский курьер» — как газету, обслуживающую прогрессистов. Муфтизода цитирует статьи из «Туркестанского курьера» о миссионерской работе в Туркестане и описывает преданность Хусайнова как «неоспоримую преданность». Он завершает свою мысль словами: «Прогресс устанавливается религией и шариатом» [4. «Наджот» 1917. № 12.–Б.1]

В частности, в № 15 джадидской газеты «Наджот» сообщалось, что в Ташкенте создано общество «Гулистон» для оказания материальной и моральной помощи нуждающейся молодежи, поступающей в средние учебные заведения [5. «Наджот» «Спасение» 1917. № 15. –Б. 4-5; «Наджот» 1917. № 16. –Б. 2], сообщает, что по инициативе молодежи Самарканда (нового поколения – авт.) был назначен отдельный преподаватель и организован вечерний курс на 40–50 человек, и что желающих учиться там было много [5]. «Нажот» 1917. № 15.].

Также в 15-м номере газеты «Наджот» написано, что несколько непредвзятых молодых людей города собрались в Коканде и 3 мая основали новое издательство под названием «Хуррият», и что Али Назар оглу, Имамназар-кори из Коканда, открыл в Коканде библиотеку под названием «Замон», добавив к своим книгам, изданным в

Египте, Стамбуле, Бейруте и татарских изданиях, другие новые книги. В этом выпуске также представлена информация из города Ашхабада в Закаспийском регионе. Он пишет, что в Ашхабаде собралось около 200 жителей-мусульман, которые обсуждали вопросы создания благотворительного общества для мусульман, открытия в городе читальни (библиотеки) и учреждения турецкой газеты в регионе.

Можно сказать, что «Наджот» является важным источником, отражающим образование и его острые проблемы в Туркестане в начале прошлого века. Эта газета является уникальным источником для изучения научных идей великого учителя народа Мунаввара Кори и его вклада в развитие туркестанского образования в этот период.

Другим важным изданием туркестанских джадидов является «Хуррият». С самого первого номера газеты просвещенная национальная интеллигенция стремилась повысить культурный потенциал нашего народа.

В Туркестане выдвигались идеи проведения масштабных политических, экономических и образовательных реформ. В своих многочисленных статьях, опубликованных в таких газетах, как «Самарканд», «Хуррият», «Садои Туркистон», журналах «Ойна», «Хуршид», «Наджот», Махмудходж Бехбуди резко критиковал старые обычаи местного населения, мешающие развитию, «кадимисты»(старожильцы) не способных отказаться от устаревших взглядов, и противников реформ и нововведений.

«Кадимисты» общества обвиняли просвещенных и современных людей в попытках разрушить ценности и унизить мусульман, заклеймив их как неверных. Бехбуди писал в своих статьях: «Нет, это не так, мы тоже мусульмане, мы просто хотим развития, процветания и просвещения». Время уходит, мы отстаем, нам нужно стремиться к новым размышлением, осваивать инновации[6. Алимова Д. (2021) № 2.– С.45],

Из-за нашей отсталости мы стали колонией, нас сделали подчиненными. Теперь, вместо того, чтобы зацикливаться на нашем великом прошлом, нам нужно сделать правильные выводы из своих ошибок и искать пути развития. «Пришло время другим уважать нас, нам вести с ними диалог на равных и нам самим задуматься о том, что нам нужно сделать для защиты интересов мусульман», – выдвинул он свои идеи.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ.

В заключение следует сказать, что джадиды были идейными вдохновителями борьбы за независимость. Восстановление независимости Узбекистана не было случайным или чрезвычайным событием; корни борьбы за нее уходят в глубь веков. Мы добились независимости, свободного и освобожденного Узбекистана, о котором мечтали преданные своему делу молодые интеллектуалы нашей страны. Не осталось ни одной страны, которая не знала бы и не признавала Узбекистан, стертый с карты мира в советское время. Узбекский народ, борющийся за свободу, теперь выходит на мировую арену.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 128.

2. Болтабоев Ҳ. XX аср бошлари ўзбек адабиётшунослиги ва Фитратнинг илмий мероси: fil.fan.dok… дисс. — Тошкент, 1996. – Б. 30.

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси https://uza.uz/

4. Муфтизода С. Таҳқиқсиз садоқат// “Нажот” газетаси 1917 йил 6 май №12. – Б.1.

5. Ҳурриятдан нечук фойдаланамиз//“Нажот” газетаси 1917 йил 24 май №19. – Б.2.

6. Алимова Д. Туркистон жадидларининг мусулмон маданиятга оид қарашлари // Имом ал-Бухорий сабоқлари. 2021.2-сон. – Б.45.

Xamidova Durdona Muxtorovna
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, o‘qituvchi
e-mail: dhamidova10@gmail.com

INGLIZ TILIDAGI IQTISODIY TERMINLARNING ETIMOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ma’lumki, har qanday til o‘z ichki tarkibiga, qonuniyatlariga ega va bu tarkibning asosi tilning lug‘at boyligi hsoblanadi va o‘z navbatida tilning lug‘at tarkibining salmoqli qismini maxsus birliklar – terminlar tashkil qiladi. Terminologik tarkib ijtimoiy hayotning barcha sohalariga oid maxsus leksik qatlamni qamrab oladi. Mazkur maqoladan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad ingliz tili iqtisodiy terminologiyasining taraqqiyot bosqichlarini izchil o‘rganish, sohaga oid terminlarni tartibga solish, ularning adabiy til leksik qatlam birliklari bilan munosabatlarini tahlil qilishdan iborat bo‘lib, ingliz tili terminosistemasining tizimli shakllanishida katta ahamiyatga ega. Ingliz tili terminologiyasining tadqiq etilishi muhim bo‘lgan sohalaridan biri hisoblangan iqtisodiy terminlarning o‘rta asrlarda va undan avvalgi davrlarda qay tarzda tilda paydo bo‘lgani va qanday omillar ta’sirida rivojlanganini tadqiq etishni maqolaning o‘z oldiga vazifa sifatida qo‘yadi.

Kalit so‘zlar: terminologiya, lug‘at, etimologiya, neologizm.

Хамидова Дурдона Мухторовна
Узбексий государственный университет мировых языков
e-mail: dhamidova10@gmail.com

ИСТОРИКО-ЭТИМОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ЭКОНОМИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. Известно, что любой язык имеет свою внутреннюю структуру и законы, и основой этой структуры является лексика языка, а в свою очередь, значительная часть языка состоит из специальных единиц терминов. Основной целью данного исследования является последовательное изучение этапов развития английской экономической терминологии, систематизация терминов, относящихся к данной области, анализ их взаимосвязи с лексическими единицами литературного языка, а также их большая роль в системном формировании английской терминологии. Задача статьи - исследовать, как и под влиянием каких факторов появились в языке в Средние века и более ранние периоды экономические термины, что считается одной из важнейших областей лексикологии.

Ключевые слова: терминология, лексикон, этимология, неологизм.

Khamidova Durdona Mukhtorovna
Uzbekistan State World Languages University, Teacher
e-mail: dhamidova10@gmail.com

HISTORICAL AND ETYMOLOGICAL CHARACTERISTICS OF ECONOMIC TERMS IN ENGLISH

Annotation. It is known that any language has its own internal structure and laws, and the basis of this structure contains vocabulary of the language, and in its turn, a significant part of the language consists of special units – terms. The main aim of this research is to study the stages of development of the economic terminology of the English language consistently, to organize the terms related to the field, to analyze their relationship with the lexical units of the literary language, and to play a major role in the systematic formation of the terminology of the language. The task of the article is to research how economic terms appeared in the language in the Middle Ages and earlier periods and under the influence of factors, which is considered one of the most important areas of lexicology.

Keywords: terminology, vocabulary, etymology, neologism.

KIRISH

Til rivojlanishida uning turli fan tarmoqlari terminlarini o‘z ichiga olgan lug‘at boyligining o‘sishi katta ahamiyatga ega. Maxsus tushunchalarning o‘zgarmasligi va qat’iy asoslarga bog‘langanligi o‘zlarini ifodalab keladigan vositalardan ham xuddi shunday xususiyatlarga ega bo‘lishini talab qiladi. Ma’lumki, tilshunoslar va ular bilan bir qatorda ilm-fanning turli tarmoqlari mutaxassislari muayyan tildagi maxsus tushunchalarni ifodalashda hamda terminologik izlanishlar doirasida duch keladigan masalalarni atroflicha o‘rganishga katta ishtiyoq va kuch sarf etdilar va hozir ham bu sohada qator tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Terminologiya muayyan fan sohasiga tegishli maxsus tushunchalarni ifodalovchi birliklar yig‘indisini o‘rganuvchi tilshunoslik fani bo‘limi bo‘lib, hozirgi davrga qadar ko‘plab olimlar mazkur soha rivojiga o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqdalar. Jumladan, 1933-yilda mashxur termishunos olim Lotte va akademik Kapligin AQSh Fanlar Akademiyasi qoshida keyinchalik Fan va texnika terminologiyasi komiteti deb nomlanuvchi Texnik terminologiya komissiyasini tashkil qiladi [1, B.36]. Mazkur komitet ingliz va boshqa tillar terminologiyasini atroflicha o‘rgandi va terminologiyaning, xususan, ingliz tili terminologiyasining etimologiyasi va tarixiy taraqqiyotini bosqichlarga bo‘lib tadqiq etdi. Shuningdek, Eynar Haugenning klassik qarashlaridan [2] tortib, Bessi Antiya [3]da ko‘rib chiqilgan o‘nlab modellar va Nensi Hornbergerning [4] integrativ modeligacha bo‘lgan tilni modellashtirish taraqqiyoti va uning o‘zgaruvchanlik darajasini tadqiq qilgan har bir izlanishlar tildagi ilmiy-texnik terminologiyani yuzaga kelish sharoitlari va tizimlashtirish bosqichlarini to‘liq qamrab olmagan. Shuningdek, o‘rta asrlarda yuzaga kelgan multilingvizm ta’sirida ko‘plab terminlar etimologiyasida bir vaqtning o‘zida bir necha fikrlar ilgari suriladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ta’kidlash joizki, har qanday davlat va jamiyat vujudga kelar ekan, undagi iqtisodiy sohaning qay darajada rivojlanganligi uning tarixiy taraqqiyotini ta’minlovchi omillardan biri hisoblanadi. O‘z navbatida, davlatchilik siyosatida savdo-iqtisod sohasining tarqqiyoti sohaga oid terminologiyaning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro aloqalar va turli bosqinchilik siyosati natijasida tilda o‘zlashma so‘zlar salmog‘i orta boshlaydi. Bunga yana bir sabab, avvalo, mamlakatning demografik joylashuvi va hududda tashkil topgan davlatlarning o‘zaro savdo-sotiq aloqalaridir. Bundan tashqari, terminlarning muayyan tilga o‘zlashtirilishida asosiy omillardan biri sifatida fan-texnika sohasidagi yangi buyumga nom topish zarurati ekanligi ta’kidlanadi [5, B.181]. O‘zga tillardan terminlar tildagi bo‘shliqlarni to‘ldirish maqsadida olib kirilgan degan qarash ko‘p olimlar tomonidan qo‘llab-quvvatlangan. Qay sohada bo‘lmasin so‘z o‘zlashtirish zarur tushunchaning mahalliy tilda yetishmasligidan kelib chiqadi, yangilik talab qilingan ijtimoiy va siyosiy sharoitlarda o‘zgarishlar yuz beradi degan qarash ilgari suriladi [6]. Bu yerda so‘z o‘zlashtirish bir xil ildizga ega deb qaraladi. Bu holatga ikki xil izoh berishimiz mumkin. Birinchidan, muayyan tushunchaga nom topishdan ko‘ra, uni nomlashda boshqa tildagi tayyor leksik birlikdan foydalanish osonroq, ikkinchidan esa, muayyan sohada kashf etilgan biror jarayon yoki obyekt boshqa tillarga original nomi bilan birga kirib boradi. Bu borada H.Madvaliyev quyidagi fikrni ilgari suradi: “Terminlarning qo‘llanish, tarqalish ko‘lami muayyan terminologik sistema bilan cheklangan bo‘lib, ular insonning faoliyati doirasidagi aniq uslubda harakat qiladi, voqelanadi” [7,B.6].

XIII asrda Angliyada sud-huquq, savdo-sotiq, soliqlar, to‘lovlarga oid matnlar, qonunlar fransuzcha terminlar bilan yuritilgan. Bu sohalarda boshqalariga qaraganda ko‘proq terminlar o‘zlashtirilgan. Chunki, fransuzcha qonunlarni inglizchaga o‘girishda har bir tushuncha uchun yangi termin topishga harakat qilinmagan. Ular fransuz tilidan foydalanishining yana bir sababi lotin va ingliz tilidan farqli o‘laroq fransuz tili XIII asrda butun mamlakat bo‘ylab tushunarli, dialektal variantlilikdan xoli lingvistik vosita hisoblangan

Tilda sodir bo‘ladigan o‘ziga xos jarayonlar olimlarni iqtisodiyot terminologiyasini ham chetlab o‘tmadi, natijada, tilda yangi kiritilgan yoki ma’nosi o‘zgartirilgan terminlar va ular ifodalagan tushunchalar o‘rtasidagi munosabatlarni talqin qilish tizimi shakllantirildi [8,B.57]. Iqtisodiyot terminlari tarixiy taraqqiyoti bosqichlarini o‘rganar ekanmiz, mavjud so‘zlarning ma'nosini qayta aniqlash yoki kengaytirish, ularni yangi tushunchalarga moslashtirish soha terminologiyasini yaratishda keng tarqalgan amaliyot ekanini aniqlandi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlarda terminologik resurslarining yangi, maxsus ma'nolarga e'tibor qaratadigan ta'riflarga ega bo‘lishi zarurligi ta'kidlanadi.

TADQIQOT METODLARI

Ingliz tilidagi iqtisodiy terminlarning tarixiy taraqqiyoti, etimologiyasini, ularning tilda qay tarzda paydo bo‘lgani va bugungi kundagi ma’nosi bilan asos bo‘lgan negiz o‘rtasida semantik aloqalarning saqlanib qolgani yoki yo‘qolib ketgani kabi masalalar, o‘zga tillardan so‘z olish natijasida tilda yuzaga kelgan variantdoshlik hodisasi, davr o‘tishi bilan o‘z mohiyatini yoki samaradorligini yo‘qotish orqali determenlashuv jarayonining ro‘y berishi yoki terminning arxaik birlikka aylanib qolish holatlarini tarixiy – qiyosiy, tarixiy-farqlash

metodlaridan foydalangan holda tadqiq etildi, shuningdek, tildagi olinma so‘zlar ko‘lamini aniqlash maqsadida statistik metodga ham murojaat etdik.

Mavjud terminologik lug‘atlarning qiyosiy tahlili, shuningdek, leksikografik adabiyotlarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, leksikografik parametrlar o‘rtasida ma’lum munosabatlar mavjud bo‘lib, ba’zi parametrlarni amalga oshirish boshqalarni amalga oshirish shakliga ta’sir qilishi mumkinligida namoyon bo‘ladi.

Biroq, parametrlarning umumiy ro‘yxati ushbu parametrlar bilan tugamaydi. Demak, uslubiy so‘zlamaga manzil yo‘nalish parametrlari (o‘quvchi manzili), tavsifning til darajasi (so‘z yasalishi, semantika va boshqalar), lug‘atga kiritish uchun maxsus lug‘atni tanlash tamoyillari va mezonlari kiradi. Makrokompozitsiya elementlariga quyidagilar kiradi: lug‘atning yordamchi bo‘limlari tarkibi, terminologik iboralarni taqdim etish va omonimiyani ifodalash tamoyillari.

Mikrokompozitsiya elementlariga termin haqidagi turli xil ma’lumotlar kiradi – rasmiy (imlo, talaffuz, grammatik ma’lumotlar, variantlar), etimologik (tilda paydo bo‘lish vaqti, rivojlanish bosqichlari), atributiv (ma’lum bir mavzuga tegishli, leksik maqom), atama (nomenklatura birligi, kod shakli, sohasi, stilistik mansubligi), izohli (tarjima usullari), assotsiativ (leksik muhit – umumiy, o‘ziga xos, ekvivalent atamalar, omonimlar, antonimlar, hosila atamalar), pragmatik (xronologik va me'yoriy holat, foydalanish).

Tasvirlangan atamaning illyustrativ (kontekst va grafik tasvirlar) xususiyatlari, shuningdek, mikrostruktura parametrlari (maqola tuzilishi, mos yozuvlar apparati va uning joylashuvi, foydalanilgan shriftlar va boshqalar).

Adabiy til leksikasi qonuniyatlari negizida shakllangan terminologik leksika tarixini o‘rganishda davlat va ijtimoiy hayotda, mamalakat tarixiy taraqqiyotida hamda tilning bugungi kungacha bo‘lgan rivojanish yo‘lida yuz bergan muhim o‘zgarishlarga asoslanib, bir necha davrlarga bo‘lib olindi.

Mazkur davrlarning har biri o‘ziga xos tarixiy taraqqiyot, ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarni guvohi bo‘lgani natijasida har bir davrda tilda o‘ziga xos tarzda o‘zgarishlar yuz bergan. Mazkur o‘zgarishlar ko‘lami, ularning til rivojlanishida tutgan o‘rni bayon, statistik, distributiv, semantik-stilistik izoh, leksik-semantik (mantiqiy-semantik), qiyoslash metodlaridan foydalanilgan holda tadqiq etildi.

NATIJALAR VA MUNOZARALAR

O‘rganilgan materiallar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ingliz tili boshqa tillardan juda ko‘plab lug‘aviy birliklarni o‘zlashtirgan. Zamonaviy ingliz tili iqtisodiy terminologiyasining asosini o‘rta asrlarning boshiga qadar qadimgi ingliz tili Anglo-Sakson tili muomalada bolgan davrda lotin, grek, arab tillaridan o‘zlashgan terminlar tashkil qilgan. Bu davrda iqtisodiyot terminlari boshqa sohalar terminlari kabi ingliz tiliga o‘zlashganini ko‘rish mumkin. Xususan, arab tilidan ingliz tiliga asosan geografiya *(nadir – quyi, qoya osti),* geodeziya *(megahertz – megagers),* kimyo *(alkali – sheloch gidrooksidi, bismuth – vismut, zenith - zenit)* va matematika *(cipher – kodlamoq, son, zero – nol)*ga oid terminlar; lotin tilidan tibbiyot/anatomiya *(cervix – tomoq, brain – miya),* arxitektura *(corbel – o‘ymakor naqli xoshiya),* matematika/geometriya *(bicentenary – 200nchi, circle – doira),* din *(purification –*

gunohlardan forig‘ bo‘lish)) va boshqa sohalarga oid terminlar hamda umumiste’mol so‘zlari ko‘plab kirib kelgan. Iqtisodiy terminlar sifatida quyidagi birliklar kirib kelgan: *sakk (arab)* – *cheque* – *chek*, cent (lot.) – yuz, past qiymatli pul miqdori(o‘.i).

Bu davrda yaqin geografik hududda istiqomat qilgan xalqlar tillari o‘zaro qo‘shnichilik aloqalari tufayli bir-birlarining lug‘aviy birliklarini o‘zlashtirish hisobiga boyib borgan. Quyida bir necha o‘zlashma terminlarni etimologik tahlil qilamiz:

Lotin tilidagi *feudum* terminidan o‘zlashgan *feud* (to‘lov) o‘zagi asli lotin tiliga V asrdan g‘arbiy german qabilalarida muomalada bo‘lgan qadimgi frank tilidagi *fehu* (chorva mollari) so‘zidan olinganligi manbalarda qayd etiladi. Lotin tilidagi *allodum* (mol-mulk) termini ta’sirida *-d-* tovushi orttiriladi [9]; *feodum* variant esa lotin tilida o‘rta asrlarda qo‘llana boshlagan. Yana bir ehtimol bu termin frank tilidagi *fehu-ôd* so‘zidan kirgan undan *feudal* (feodal, katta yer egasi), *feudary/ feodary* (mulkchilikka aloqador), *feudatory* (feudal vassal, feodaldan ijaraga olingan yerga to‘lanadigan haq) terminlari derivatsion usulda hosil qilingan. Mazkur termin o‘rta asrlargacha ko‘plab tillarda muomalada bo‘lgan: avstriya tilida – *feudu*, qadimgi yunon tilida – *φέουδον (féoudon)*, qadimgi fransuz tilida – *feud*, Italian tilida – *feudo*, ispan va portudal tillarida – *feudo* shaklarida yer, mol-mulkka aloqador ma’nolarni ifodalagan.

O‘rta asrlarga kelib ingliz tili iqtisodiy terminologiyasida asta-sekin sezilarli o‘zgarishlar yuz bera boshladi. Normandlar istilosidan (1066) keyinoq ingliz tiliga fransuzcha so‘zlar keng ko‘lamda kirib kelmagan. “O‘rta asrlarda Angliyada uchta til amalda bo‘lgan: ingliz, fransuz va lotin. Bu vaziyat 1966-yildagi normandlar istilosi yanada keskinlashishi natijasida Angliyada yangi davrning drammatik tarzda boshlanishi edi. Tabiatan hujjatlar uchun mos bo‘lgan lotin tili yozuv tili maqomida qolgan bo‘lsa-da, so‘zlashuv tilini ingliz va fransuz tillari egalladi” [10]. Mahalliy aholidan tayinlangan amaldorlar asosan fransuz tilida so‘zlashgan. Sekin-astalik bilan fransuzcha so‘zlar ham o‘zlashish darajasi oshib, 1251 – 1400-yillar oralig‘ida bu jarayon juda kuchaygan [11].

XIII asr o‘rtalarigacha fransuzcha olinma terminlar O‘rta asrlar ingliz tili yozma matnlarda sezilarli darajada ko‘p bo‘lmagan [12]. Fransuz tiliga tegishli bo‘lgan o‘zlashma terminlarning ingliz tiliga kirib kelishida quyidagilarni farqlashimiz mumkin:

1) sof fransuz tiliga tegishli o‘zlashgan terminar:

money **–** *moneye, moneie, money* anglo-norman ***muneie*** so‘zidan olingan, ingliz tilida shu ma’noda qadimdan qo‘llangan ***feoh*** (fee) termining o‘rnini egallagan. Money termini Rimdagi zarbxona joylashgan Juno Moneta ibodatxonasi nomidan olinga. lotin tilida ***monet,*** rus, turkman tillarida ***manat*** ko‘rinishida shakllangan [9, B.147];

2) o‘zga til elementlarini olib o‘zlashgan fransuzcha terminlar:

marketplace – *market* (fr.) + *place* (ing) – bozor, bozor maydoni, savdo [9, B.78];

O‘rta asrlarda Angliyada Normand sulolasi vakillari nisbatan tartibli boshqaruv olib borgan hamda boshqa davlatlar bilan savdo munosabatlarini yo‘lga qo‘ygan. Ingliz tili lug‘at tarkibi lotin, german, ispan, uelz, irland va boshqa tillardan yangi-yangi lug‘aviy birliklar hisobiga ham o‘sib borgan. Ular ingliz tiliga fransuz tili orqali yoki to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘zlashgan.

1) fransuz tili orqali kirib kelgan o‘zga til terminlari:

wage *(*o‘rta asr lot. – *wadium), (*shim.fr.*wage)* – *maosh* [9,B.82, 357,1032];

2) to‘g‘ridan to‘g‘ri kirib kelgan o‘zga til terminlari:

magnate (lot. “*magnus”* – katta, buyuk) – magnat, katta obro‘, mol-mulk, va biznes tarmoqlariga ega shaxs;

guarantee (isp. *“garante/garrant”* – himoyachi) – xavfsizlikka kafolat beruvchi shaxs, XVIII asrdan boshlab *“guarant”* – ***guarranty*** – kafolat ma’nosida qo‘llana boshlagan, bu terminning qadimgi fransuz tili ta’siriga uchragan ***warranty*** shakli ham mavjud. Ingliz tiliga qo‘shni xalqlar tillaridan so‘zlar “rang-baranglik” uchun olingan bo‘lsa, ispan tilidan olinishi “zarurat”dir [13, B.139].

Ilk kapitalistik munosabatlar vujudga kelgan davrgacha (XV asr) bo‘lgan iqtisodiy terminlarda ishlab chiqarish sohasi asosiy o‘rinni egallagan.

Bu davrda sof inglizcha terminlar ham ingliz tili terminologik tarkibining muayyan kichikroq qismini tashkil qilgan:

Ko‘plab tarixchilar ta’kidlashicha, savdo va tijoratning yoyilishi , yaqin va uzoq hududlar bilan savdo aloqalar o‘rta asrlar feudal tuzumining yemirilishiga yagona muhim sabab bo‘lgan. Natijada, dastlabki kapitalistik g‘oyalar paydo bo‘la boshlagan. Savdo-sotiq ishlari, xususan, tashqi savdo hukmron qatlam bo‘lgan fransuslar va ular tayinlagan mahalliy amaldorlar qo‘lida bo‘lgan va ular fransuz tilida so‘zlashishgan. Quyi sinf vakillari bo‘lgan mahalliy aholi esa, kundalik iste’molda o‘z tili hisoblangan ingliz tilidan foydalanishni afzal deb bilgan. Shu bois ingliz tilida tilda terminlarning variantdoshlari paydo bo‘la boshladi: *commerce (fr.) – trade (ing.); purchase (fr.) –buy (ing.); revenue fr.) – income (ing.); vend fr.) - sell (ing.).*

Kelib chiqishga anglo-sakson lahjasiga tegishli bo‘lgan so‘zlar fransuzcha o‘zlashmalarga solishtirilganda aniqroq tushuncha ifodalaydi. Fransuz tilidan o‘zlashgan terminlar ko‘pincha mavhum tushunchani ifodalagani uchun ham kundalik iste’mol so‘zlari sifatida ko‘p qo‘llanmaydi: *commerce – tijorat, finance – moliya, treasure – xazina, money – pul, tax –soliq, liberalism – liberalizm, capitalism – kapitalizm.*

Bu davrda adabiy til tarkibi kabi barcha sohalar maxsus lug‘at tarkibi turli tillar aralashmasidan tashkil topgan edi. O‘sha davr biznes yozishmalarida sof ingliz tili qo‘llanmagan. O‘rta asrlar va ilk modern davrida savdo-iqtisod ish yuritish hujjatlari anglo-frank va ingliz yoki lotin va ingliz tillarida olib borilgan.

XV asr boshlaridan XX asr oxirlarigacha bo‘lgan katta davrda mamlakat iqtisodiyoti turli yangi ta'limotlarni boshdan kechirdi, jumladan, merkantilizm, klassik iqtisodiyot, fiziokratizm,va sanoat inqilobi (Qarang: Angliya tarixi) natijasida yangi iqtisodiy tushunchalar ham paydo bo‘la boshladi. Iqtisodiy siyosat ta'limotida muomala (savdo, pul aylanmasi) sohasidagi iqtisodiy qonuniyatlarni izlashdan iborat bo‘lgan, ya'ni avvalgi davrdagi g‘oyalardan keskin farq qilgan [14, B.237]. XVI asrning boshlaridan qadimgi, yemirilib boryotgan feudal tartiblar va ko‘tarilib borayotgan yangi kapitalizm o‘rtasidaaniq chegara paydo bo‘ldi. Iqtisodiyot sohasi ko‘plab o‘zgarishlarga yuz burdi, jumladan, ishlab chiqarish jarayonlarini tartibga slogan va ijtimoiy hayotga ham katta ta’sir ko‘rsatgan ishchilar sinfi

paydo bo‘ldi [Hunt, 1991; 17]. Tilning ichki imkoniyatlaridan foydalanib, derivatsion usulda va so‘zlarni qo‘shish orqali yangi terminlar yasaldi.

XX asrda o‘zga tillardan so‘z o‘zlashtirish o‘rta asrlardagiga qaraganda ancha kamaydi. Ingliz tili Britaniya va Amerika variantlari farqlari yaqqol sezilib qola boshladi. Amerika ingliz tilida og‘zaki nutq elementlarini mujassam etgan terminlar iste’molga kirib keldi. Jumladan, ***gimmick*** –xaridorlar e’tiborini jalb qilishda qo‘llaniladigan reklama usuli, magic, gimcrack so‘zlari anagrammasidan yasalgan [15].

XXI asr ingliz tili iqtisodiy terminologiyasi bozor munosabatlarining mohiyati, shakllari, ular o‘rtasidagi nisbat ham doimo o‘zgarib turadi. Bu davrga kelib ingliz tili xalqaro til sifatida butun dunyoda iqtisodiyot va biznes tiliga aylandi. Endilikda tilda yangidan yangi tushunchalar asosan o‘z ichki imkoniyatlari asosida paydo bo‘la boshladi, ya’ni tilda mavjud bo‘lgan o‘z yoki o‘zlashagn qatlamga tegishli bo‘lgan lug‘aviy birliklardan terminlar hosil qilindi, masalan: micromanage – ish joyidagi mayda detallarni ham qamrab olgan nazorat,

Yuqorida o‘zga tillardan o‘zlashgan iqtisodiy terminlarning ingliz tiliga kirib kelishini davrlashtirib o‘rganib chiqdik. Aytib o‘tilganidek bunda ingliz tilining ijtimoiy-siyosiy omillar ta’sirida turli o‘zgarishlarga uchrab o‘ziga xoslik kasb etishi bilan bog‘liq xususiyatlariga ko‘ra qadimgi ingliz tili, o‘rta asrlar ingliz tili va zamonaviy ingliz tili tarzida bo‘linishini asos qilib oldik, shuning dek, mamlakatda siyosiy va diplomatik aloqalarning rivojlanib borishi iqtisodiy terminlar rivojida muhim o‘rin egallashiga amin bo‘ldik.

Misollardan ma’lum bo‘ldiki, sodda bir o‘zakli ingliz tili iqtisodiy terminlarining qatta qismini o‘zlashma qatlam tashkil qiladi. Birikmali terminlar esa, asosan, so‘nggi ikki davrda tilda hosil qilingan bo‘lib, ular tarkibiy qismlarining o‘z yoki o‘zlashma qatlam ekanligiga ko‘ra farqlanadi. Shuningdek, fan-texnika rivoji va globallashuv jarayoni XXI asr ingliz tili terminologiyasining xalqaro terminlar bilan boyishishiga katta hissa qo‘shdi.

XULOSA

Ko‘rib chiqilgan tarixiy tarqqiyot davrlarining har birida o‘ziga xos terminologik rivojlanishlarni kuzatar ekanmiz, qadimdan genetik jihatdan qarindosh va qarindosh bo‘lmagan tillardan so‘zlar olish hisobiga ingliz tili o‘z lug‘at tarkibini boyitib borgani va har davrda terminologik resurslar dominantaligi o‘zgarib turganiga guvoh bo‘ldik.

Interaktiv dizayn tushunchasi, avvalo, foydalanuvchining tizim bilan o‘zaro aloqasini eng yaxshi darajada ta’minlashni ko‘zda tutadi. HCI sohasida faoliyat yurituvchi bir nechta olimlar, masalan, Norman (1988) va Shneiderman (1998), tizim dizaynida insonning ehtiyojlari va xatti-harakatlarini tushunishni va ularga moslashtirishni ta’kidlaganlar. Ularning tadqiqotlari interaktiv tizimlarni ishlab chiqishda ergonomika, vizual dizayn, va foydalanuvchi qulayligi kabi faktorlarning ahamiyatini ko‘rsatadi.

Foydalanish qulayligi (usability) esa foydalanuvchining tizimdan qanday foydalanishini, bu jarayonda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni va tizimning samaradorligini o‘rganishga qaratilgan. Jakob Nielsen (1993) tomonidan ishlab chiqilgan foydalanish qulayligi prinsiplari, ya’ni tizimni oson o‘rganish, samarali ishlatish, va foydalanuvchi xatolarini kamaytirish, bu sohaning asosiy o‘lchovlari sifatida qabul qilinadi.

Shuningdek, foydalanish qulayligining samarali baholash metodlarini ishlab chiqish bo‘yicha bir qator tadqiqotlar mavjud. Foydalanish qulayligini o‘lchashning ko‘plab usullari mavjud bo‘lib, bu metodlar asosan foydalanuvchi tajribasini yaxshilash uchun foydalaniladi. Masalan, Jakob Nielsen tomonidan taklif qilingan "usability testing" usuli, foydalanuvchilarga real tizimni taqdim etib, ularning reaktsiyalarini va tizimni qanday ishlatishini tahlil qilishga asoslanadi. Bu usul foydalanuvchilarning tizimni qanday qabul qilishi va ularning ehtiyojlariga qanday javob berishiga asoslanadi.

Bundan tashqari, interaktiv dizayn va foydalanish qulayligining zamonaviy tendensiyalari ham ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda yoritilgan. Masalan, mobil qurilmalar va veb-ilovalar uchun dizaynni ishlab chiqishda responsivlik va adaptivlikni hisobga olish zaruriyati ko‘rsatildi. Foydalanuvchilarning turli qurilmalarda va turli sharoitlarda tizimni ishlatish imkoniyatlarini yaxshilashga qaratilgan ilmiy ishlar, interaktiv dizaynning doimiy ravishda rivojlanayotganligini va yangi talablarga moslashishini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, adabiyotlar sharhi ko‘rsatadiki, inson-kompyuter aloqasi va foydalanish qulayligi sohalaridagi ilmiy ishlanmalar nafaqat dizayn tamoyillarini, balki foydalanuvchi ehtiyojlari va tizim samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan metodlarni ham o‘z ichiga oladi. Bu sohadagi tadqiqotlar foydalanuvchi tajribasini yaxshilash, tizimlarni samarali va qulay qilishda muhim o‘rin tutadi.

Natijalar.

Tadqiqot natijalari interaktiv dizayn va foydalanish qulayligining foydalanuvchi tajribasiga ta’sirini aniq ko‘rsatdi. O‘tkazilgan tajribalar va testlar orqali interaktiv dizaynning samaradorligi, foydalanuvchining tizim bilan o‘zaro aloqasini yaxshilashdagi roli va foydalanish qulayligining tizimning umumiy ishlashiga qanday ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi.

Birinchi tajribada foydalanuvchilarga turli xil veb-ilovalar va mobil ilovalar taklif etildi. Ilovalar dizayni va foydalanish qulayligi jihatdan turlicha edi: ba’zilari intuitiv tarzda qurilgan bo‘lib, foydalanuvchi interfeysi soddalashtirilgan, boshqalari esa murakkab va ko‘p qadamli jarayonlarni o‘z ichiga olgan edi. Tajriba davomida foydalanuvchilardan ilovalarni ishlatishdan oldin va keyin interaktiv dizayn va foydalanish qulayligi haqida fikr bildirishlari so‘raldi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, foydalanuvchilar oddiy va intuitiv dizaynlarga yuqori baho berdilar. Bu shuni anglatadiki, foydalanuvchilarning tizimni tezda o‘rganishi va undan samarali foydalanishi uchun dizaynning soddaligi va tushunarli bo‘lishi muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchi tajribada, foydalanuvchilarning tizimga bo‘lgan qoniqish darajasi va xatolarini kamaytirish bo‘yicha interaktiv dizaynning ta’siri o‘rganildi. Foydalanuvchilar birinchi testda murakkab interfeys bilan ishlagach, ikkinchi testda yanada optimallashtirilgan va qulay interfeysga o‘tkazildilar. Bu test natijalariga ko‘ra, foydalanuvchilarning tizimga bo‘lgan ishonchi va qoniqish darajasi sezilarli darajada oshdi. Xatolar soni kamaydi va foydalanuvchilar tizimni tezroq o‘rganib, undan samarali foydalana boshladilar. Bu shuni ko‘rsatadiki, interaktiv dizaynning soddaligi va foydalanuvchining ehtiyojlariga mosligi tizimning samaradorligini oshirishga olib keladi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, interaktiv dizaynning samarali bo‘lishi uchun uning foydalanuvchining tabiiy xatti-harakatlariga mos kelishi zarur. Bunday dizayn foydalanuvchilarni ko‘proq qoniqtirib, tizimdan samarali foydalanish imkoniyatlarini yaratadi. Foydalanish qulayligi metodlari yordamida tizim samaradorligi va foydalanuvchi tajribasini yaxshilash mumkin bo‘ladi, bu esa ilgari surilgan dizayn tamoyillarining haqiqiy va amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi.

Tadqiqotning umumiy natijalari, shuningdek, interaktiv dizayn va foydalanish qulayligining o‘zaro bog‘liqligini va ularning foydalanuvchi tajribasiga ta’sirini yanada chuqurroq tushunishga imkon beradi. Bu soha bo‘yicha olingan natijalar, shuningdek, foydalanuvchi ehtiyojlarini yanada samarali qondirish uchun dizayn metodlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Muhokama.

Tadqiqot natijalari, inson-kompyuter aloqasida interaktiv dizayn va foydalanish qulayligi (usability)ning foydalanuvchi tajribasiga ta’sirini yaxshilashdagi ahamiyatini ko‘rsatdi. Olingan natijalar, interaktiv dizayn va foydalanish qulayligining o‘zaro bog‘liqligini, shuningdek, foydalanuvchilarning tizimdan maksimal darajada foydalanishlarini ta’minlash uchun zarur tamoyillarni belgilashni ta’minladi. Ushbu natijalar, o‘z navbatida, ilgari surilgan nazariy asoslarni amaliyotda sinovdan o‘tkazish va ularning samaradorligini tasdiqlash imkonini berdi.

Birinchi tajriba natijalari, oddiy va intuitiv dizaynlarning foydalanuvchi tajribasini yaxshilashda qanday muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdi. Bu dizaynlar foydalanuvchilarga tizimni o‘rganishda kamroq vaqt sarflashga imkon yaratdi, bu esa foydalanuvchi qoniqishini oshirdi va tizimdan samarali foydalanishni ta’minladi. Murakkab va ko‘p qadamli jarayonlarni o‘z ichiga olgan tizimlar esa foydalanuvchilarda qiyinchiliklar va chalkashliklarni keltirib chiqardi, natijada tizimdan foydalanish samaradorligi pasaydi. Bu tajriba natijalari interaktiv dizaynning soddaligi va foydalanuvchining ehtiyojlariga mosligi samarali tizim ishlab chiqish uchun muhim ekanligini tasdiqlaydi.

Ikkinchi tajriba natijalari, foydalanuvchi xatolarining kamayishi va tizimdan foydalanish samaradorligining oshishi orqali interaktiv dizaynning foydalanuvchi ishonchi va

qoniqishini qanday yaxshilashini ko‘rsatdi. O‘zgartirilgan interfeysning foydalanuvchiga ko‘proq qulaylik yaratishi, foydalanuvchi tajribasining sifatini oshirishga yordam berdi. Bu shuni anglatadiki, foydalanuvchilarning tizimni o‘rganish va undan samarali foydalanish darajasi yuqori bo‘lishi uchun dizaynning soddaligi, qulayligi va intuitivligi muhim omillardir.

Tadqiqotda taqdim etilgan interaktiv dizayn va foydalanish qulayligi baholash metodlari, shuningdek, tizimlarni foydalanuvchi ehtiyojlariga moslashtirishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan samarali yondashuvlarni ko‘rsatdi. Ushbu metodlar, dizayn jarayonida foydalanuvchi xatti-harakatlarini o‘rganish, testlash va tizimni doimiy ravishda yaxshilashni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, foydalanuvchilarga moslashgan tizimlar yaratish, ularning tizimdan foydalanish jarayonini soddalashtiradi va yanada samarali natijalarga olib keladi.

Tadqiqot natijalari, interaktiv dizayn va foydalanish qulayligining zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa mobil ilovalar va veb-saytlar uchun ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. Bu soha doimo rivojlanib borayotganligi sababli, yangi yondashuvlar va innovatsion metodlarni ishlab chiqish zaruriyati mavjud. Kelajakda interaktiv dizayn va foydalanish qulayligining yanada takomillashtirilgan metodlari foydalanuvchi tajribasini optimallashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa.

Ushbu tadqiqot inson-kompyuter aloqasida interaktiv dizayn va foydalanish qulayligining foydalanuvchi tajribasiga ta’sirini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, interaktiv dizaynning soddaligi va intuitivligi foydalanuvchilarni tizimni tez o‘rganishga va undan samarali foydalanishga imkon beradi. Foydalanish qulayligi esa tizimning samaradorligini oshirib, foydalanuvchining tizimdan foydalanish tajribasini yaxshilaydi. Soddalashgan va intuitiv interfeyslar foydalanuvchi ishonchini oshiradi, xatolarni kamaytiradi va tizimdan maksimal darajada foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Bundan tashqari, tadqiqotda taqdim etilgan metodlar va yondashuvlar interaktiv dizaynni baholashda samarali bo‘lib, foydalanuvchi ehtiyojlariga mos tizimlar yaratishda qo‘llanilishi mumkin. Ushbu metodlar tizimlarni foydalanuvchi uchun qulay va samarali qilishga yordam beradi, bu esa zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishiga va yangi interaktiv tizimlar yaratishga turtki beradi.

Tadqiqotning cheklovlari ham mavjud bo‘lib, uning natijalari faqat bitta guruh foydalanuvchilar bilan amalga oshirilgan. Kelajakda tadqiqotni kengaytirish va turli foydalanuvchi guruhlarini o‘rganish, metodlarni yanada takomillashtirish va uzoq muddatli tajribalar o‘tkazish tizimlarning haqiqiy samaradorligini yaxshiroq o‘lchash imkonini beradi.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Ergashev, O. (2023). ANDROID PLATFORMASIGA DASTUR TA’MINOT YOZISHDA DASTURLASH TILINI TANLASH AHAMIYATI. Engineering problems and innovations.

2. Ergashev, O. M., & Ergasheva, S. M. (2023). Foydalanuvchi interfeyslarida multimedia imkoniyatlari, axborot namoyish etish shakllari. International Journal of Contemporary

Scientific and Technical Research, 179-181.
3. Эргашек, О. М., & Абдукодиров, А. А. У. (2023). СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СРЕД СОЗДАНИЯ WEB-ПРИЛОЖЕНИЙ. Universum: технические науки, (12-2 (117)), 38-39.
4. Mirzapulatovich, E. O., Eralievich, T. A., & Mavlonjonovich, M. M. (2022). Mathematical model of increasing the reliability of primary measurement information in information-control systems. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(5), 753-755.
5. Mirzapo‘latovich, E. O. (2024). OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA ONLINE-ELEKTRON TA’LIM TIZIMIDAN FOYDALANISHNING IMKONIYAT VA ISTIQBOLLARI. Miasto Przyszłości, 47, 210-215.
6. Ergashev, O. (2023). OLIY TA’LIM TIZIMIDA ELEKTRON ISHLANMALARNING QO ‘LLANILISHI VA SAMARASI. Journal of technical research and development, 1(2), 265-271.
7. Sobirovich, K. V., Mirzapulotovich, E. O., & Mirzaolimovich, S. M. (2023). Advantages of using LMS as a System for Monitoring, Evaluating and Monitoring Learning Outcomes.

Toshpo‘latov Azizbek Ikromjon o‘g‘li,
Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi.
ORCID: 0009-0000-6818-3999
E-mail: azizbektoshpulatov1907@gmail.com

AHMAD TABIBIY MURABBA’LARIDA VAZN, G‘OYA VA BADIIY TAFAKKUR MUTANOSIBLIGI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ahmad Tabibiy murabba’larida qo‘llangan aruz vazni, shoir murabba’larida ilgari surilgan g‘oyasi, badiiy tafakkuri qanday ifodalanganligi haqida fikr-mulohazalar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: Aruz vazni, hazaj, ramal, murabba’, adabiy muhit, she’riy san’at, badiiy tafakkur, shakl va mazmun uyg‘unligi, badiiy tasvir

Ташполатова Азизбек Икромжон угли,
Независимый исследователь Наманганского государственного университета.
ORCID: 0009-0000-6818-3999
E-mail: azizbektoshpulatov1907@gmail.com

ГАРМОНИЧНОСТЬ СТИХОТВОРНОГО РАЗМЕРА, ИДЕИ И ХУДОЖЕСТВЕННОЙ МЫСЛИ В МУРАББАХ (ЧЕТВЕРОСТИШЬЯХ) АХМАДА ТАБИБИ

Аннотация. В данной статье представлены мнения о стихотворном размере аруз, использованного в мураббах (четверостишиях) Ахмада Табиби, идее, продвигаемой в мураббах (четверостишиях) поэта, и как в них выражена его художественная мысль.

Ключевые слова: стихотворный размер аруз, хазадж, рамал, мурабба, литературная среда, поэтическое искусство, художественное мышление, гармония формы и содержания, художественный образ

Azizbek Toshpulatov Ikromjon ugli,
Independent researcher at Namangan State University
ORCID: 0009-0000-6818-3999
E-mail: azizbektoshpulatov1907@gmail.com

PROPORTION OF METER, IDEA, AND ARTISTIC THINKING IN AHMAD TABIBI'S MURABBA POEMS

Annotation. This article presents thoughts and considerations on the use of aruz in Ahmad Tabibi's murabba poems, the ideas put forward in the poet's murabba, and how his artistic thinking is expressed.

Keywords: Aruz, hazaj, ramal, murabba, literary environment, poetic art, artistic thinking, harmony of form and content, artistic depiction

Kirish.

Xorazm adabiy muhitida ko‘plab badiiy barkamol asarlar ijod etilgan. Darhaqiqat, o‘zbek madaniy hayotida bu adabiy muhitning o‘rni beqiyos. Aynan Ahmad Tabibiyning ijodda kamol topishida ana shunday an’analarga ega muhitning ta’siri katta bo‘lgan.

Mumtoz adabiyotida aruz vazni shuaro mahoratini belgilaydigan muhim adabiy-estetik omillardan biri hisoblanadi. Chunki “...she’riy asarda tanlangan vazn va shoirning undan foydalanishdagi mahoratini kashf etish ijodkorning badiiy salohiyati darajasini belgilashga imkon berishi shubhasiz. Zero, har qanday she’riy asarda vazn tasodifiy tanlanmaydi. Ijodkor o‘z g‘oyaviy-badiiy niyatidan kelib chiqqan holda o‘zi ifodalamoqchi bo‘lgan g‘oyalar, tasvirlamoqchi bo‘lgan lirik yoki epik timsollar, asarda aks ettiriluvchi voqealar, hissiyotlarni yuksak badiiyat bilan jilolantirishga qo‘l keladigan she’riy o‘lchovlarga murojaat etadi, ularning ritm-ohang imkoniyatlari zaminida ta’sirchan, mazmundor va nafis misralar, baytlar, bandlar yaratadi” [1, 4]. Lirik asarlari tadqiqi Ahmad Tabibiy ham o‘z ijodida aruz vazni imkoniyatlaridan samarali foydalanganini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili.

Shoir ijodidagi janr, vazn va badiiyat bilan bog‘liq o‘zgachaliklar milliy she’riyatimiz rivojiga qo‘shilgan ulkan ulushdir. Tabiiyki, mumtoz poeziyamizning barcha bosqichlarida g‘azal asosiy janr hisoblangan. G‘azalga qaraganda kichik janrlarga kamroq murojaat qilingan.

Tabibiy ijodining ham asosiy qismini g‘azallar tashkil etadi. Shunday bo‘lsa-da, shoir lirik merosi ko‘lamdorligi va janrlar xilma-xilligida musammat shakllari salmoqli o‘rin egallaydi. ma’lumki, mumtoz adabiyotimizda g‘azaldan keyingi eng foal janrlardan biri musammat hisoblanadi. Ma’lumki, musammat shakllari deganda qofiyalanishida g‘azal tizimini saqlagan holda muayyan misralarni jamlovchi bandlardan tashkil topgan murabba’, muxammas, musaddas, musabba’, musamman, mutassa’, muashshar tushuniladi. Bunday she’r shakllari yordamida ijodkorning lirik mahorati, badiiy-g‘oyaviy imkoniyatlari yanada yorqinroq ochiqlanadi. Tahlillar shoirning novatorlik qobiliyati uning murabba’ va musaddaslarida yorqin aks etganini ko‘rsatadi. Shoir turkiy devonlari tarkibidan o‘rin olgan murabba’lari soni 15 tani, musaddaslari esa 20 tani tashkil qiladi.

Nazariy manbalarda keltirilishicha, tasmit tarkibini tashkil qiladigan she’r shakllaridan eng faoli murabba’, muxammas va musaddaslardir. Tabibiyning ”Munisu-l-ushshoq” devonida murabba’lar soni 4 ta, musaddaslari esa 7 tani tashkil qiladi.

Murabba’ning turkiy adabiyotda ommalashishi, urfga aylanishi borasidagi quyidagi fikr ahamiyatlidir: “Navoiydan keyin uzbek klassik she’riyatida musammat yozish keng tarqaldi. Avvallari ko‘proq muxammas, musaddas kabi janrlarda she’rlar bitilgan bo‘lsa, Mashrabdan (XVII asr) boshlab murabba’ janri ham salmoqli o‘rin oldi”[2, 115].

Bundan tashqari, ko‘blab nazariy adabiyotlarda murabba’ haqida fikrlar keltirib o‘tilgan. Jumladan, bu haqda M.Yuldasheva quyidagilarni yozadi: “…murabba’ning birinchi namunalari g‘azaliyotda Fuzuliy ijodida uchraydi. O‘zbek she’riyatida esa ilk murabba’larni Ogahiy yaratgan, Muqimiy va Avaz esa bu an’anani davom ettirgan. Ba’zi ishlarda murabba’ning XX asrda ikki yo‘l bilan – xalq og‘zaki ijodi ta’siri orqali va Fuzuliy ijodi ta’sirida rivojlangani qayd qilinadi. Nazarimizda, murabba’ning folklorda yaratilishi biroz ilgari davrlarga mansubligi mantiqqa yaqindir. Chunki xalq qo‘shiqlari bilan ko‘p jihatdan mushtarak bo‘lgan bu janr namunalari XVII - XVIII asrlarda Xorazmda keng tarqalgan “Oshiq” dostonlari tarkibida ham uchraydi”[3, 18].

Ataullloh Husayniy murabba’ tuzilishida o‘zgacha fikr bildiradi: “Murabba’ andin iborattirkim, to‘rt misra yoki to‘rt bayt aytilur, yozilganda ham bo‘yiga, ham eniga o‘qisa bo‘lur” [4, 108].

Tabibiyning “Munisu-l-ushshoq” devonidan o‘rin olgan murabba’ va musaddaslarida aruzning ramal (1 murabba’, 2 musaddas), hazaj (3 murabba’, 3 musaddas), muzori’(2 musaddas) bahriga oid ijod namunalari uchraydi.

Demak, shoir ijodida ramal bahridan unumli foydalangan. Jumladan, ijodkor murabba’ va musaddaslarining 3 tasi ramali musammani mahzuf vaznida bitilgan.

Tabibiy lirikasida ramal bahriga doir lirik asarlar ham anchagina. Shoir “Munisu-l-ushshoq” devonidan o‘rin olgan birinchi murabba’si ramal bahrida bitilgan. She’r o‘n banddan iborat bo‘lib, u ishq-muhabbat mavzusidadir:

Soqiyi gulchehra ilkida mayi gulfomidur,
Mutribi xushlahjaning jonbaxsh zeru bomidur,
Borchaning bu bazmda bu kecha hosil komidur,
Ey parivash, ushbu dam kelkim, shabob ayyomidur.

Band taqti’si quyidagicha: foilotun, foilotun, foilotun,foilun
—V — —/ —V — —/ —V — —/ —V —

Hazrat Navoiyning “Mezon ul-avzon” asarida ushbu vaznning musiqiy va advor ilmiga benihoya muvofiq ekani aytiladi [5, 581]. Bobur “Muxtasar” asarida ramal bahri haqida quyidagilarni bayon qiladi: “Bu vazn forsiyda va turkiyda ko‘p shoyi’dur. Mavlono Abdurahmon Jomiy bu vaznda bisyor aytibtur. Mir Alisher Navoiyning xud jami’ o‘zga vaznda aytqon ash’ori bila bu vaznda aytqon ash’orining loshah borg‘ay. Sulton Husayn Mirzoning devonida ushbu vazndan o‘zga vazn yo‘qtur” [6, 145-146]. Adabiyotshunos Dilnavoz Yusupovaning aniqlashicha: “Ramali musammani mahzuf vazni turkiy she’riyatda eng ko‘p qo‘llanilgan bo‘lib, “Xazoyin ul-maoniy”dagi 2600 g‘azaldan 1101 tasi ushbu o‘lchovda bitilgan” [7, 44]. Tabibiy ham ijodida ushbu vazndan unumli foydalangani sababini ham ana shu holat bilan izohlash mumkin.

Shoir ijodida sermahsul foydalangan vaznlaridan yana biri hazajdir. Tabibiyning “Munisu-l-ushshoq” devonidagi murabba’ va musaddaslaridan 6 tasi ayni shu vaznda yozilgani buning isbotidir. Shoirning quyidagi matla’ bilan boshlanuvchi murabba’si fikrimizga misol bo‘la oladi:

Chekib javring ko‘ngul otlig‘ aloxonu alomonim,

Firoqingda yonar har lahza hasrat o‘tig‘a jonim,
Zamirimda sango ma’lumdur paydovu nihonim,
Anisim, munisim, yorim, muhabbatpesha jononim.
Taqti’si quyidagicha: mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun
V — — —/ V — — —/ V — — —/ V — — —

Zahiriddin Bobur o‘zining “Muxtasar” asarida hazaj bahri haqida “…hazajning 105 ko‘rinishi mavjud. Shulardan 61 tasi musta’mal (iste’moldagi), 44 tasi muxta’radir (ixtiro qilingan)”[8, 76], – tarzidagi fikrlarni keltirsa, Anvar Hojiahmedov: “Hazaji musammani solim vazni Alisher Navoiy “Xazoyin ul-maoniy”sida ancha keng qo‘llanib, ushbu bahr vaznlari ichida birinchi o‘rinni egallaydi”,[9, 202] – degan ma’lumotni keltirib o‘tadi.

Adabiyotshunoslikka oid lug‘atlardan birida hazaj bahri haqida quyidagilar zikr qilinadi. “Hazaj o‘zbek mumtoz she’riyatida eng faol bahrlardan biri sanaladi. Jumladan, “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotiga kiritilgan g‘azallarning 669 tasi (taxminan 22 foizi) hazajda yozilgan. O‘zbek she’riyatida hazaj bahrining, asosan, sakkiz va olti ruknli o‘ttizdan ortiq vaznidan keng foydalaniladi” [10, 399]. Xuddi shunday ko‘lamdorlikni Tabibiy murabba’ va musaddaslarida ham kuzatishimiz mumkin.

Mumtoz she’riyatda muayyan ijodkor asaridagi asosiy g‘oya, shakl va mazmun uyg‘unligi ham shoirning poetik mahoratani belgilovchi muhim omillardan biri sanaladi. Ma’lumki, lirik asar o‘zida ifodalayotgan mazmun orqali o‘quvchi qalbiga ta’sir etadi, kitobxon undan ma’rifat oladi. Ijodkor badiiy niyati, asarlari g‘oyasi haqida adabiyotshunos Izzat Sultonov shunday yozadi: “Badiiy asardagi g‘oya san’at asarining mazmuniga asos bo‘lgan umumlashtiruvchi, emotsional obrazli fikrdir. Oddiy g‘oyalardan farqli o‘laroq, adabiy asardagi g‘oya “badiiy g‘oya” deb ataladi. Badiiy g‘oya obrazli fikrdir. U faqat obyektiv tasvir etilgan hayot manzarasi, kishilar taqdiri, voqealar mantiqi va mohiyatidan kelib chiqadi” [11, 96]. Shunga ko‘ra, shoirning badiiy mahoratini belgilashda, qaysi janrda yozilgan bo‘lmasin, she’rlarida shakl va mazmun, asar g‘oyasi, obrazlardan to‘g‘ri foydalana bilishi asosiy omillaridan hisoblanadi.

Lirikada g‘oya va badiiy tafakkur uyg‘unligi asarning ta’sirchanligini ta’minlovchi asosiy omillardan. Lirik asarlarida muallif o‘z his-tuyg‘ulari, kechinmalari, o‘y-fikrlarini bevosita ifoda etishga intiladi. Bu jarayonda u ichki dunyosini, ruhiy holatlarini tasviriy vositalar, obrazlar, turli badiiy san’atlar yordamida ifodalaydi. Aynan badiiy tafakkur shu vositalarni tanlab ishlatish orqali g‘oyani yorqin ochib berishga xizmat qiladi.

Tabibiy ijodida ham yuqoridagi xususiyatlarning hammasi bir asarda voqelanganini ko‘rishimiz mumkin. Ta’kidlash kerakki, shoir g‘azalga yoki nisbatan kichikroq janrga sig‘magan o‘y-kechinmalarini, fikrlarini murabba’, muxammas va musaddas kabi shakllarda akslantirgan. Ana shunday shakllardan biri “Munisu-l-ushshoq” devonidagi 11 bandli to‘rtichi murabba’ bo‘lib, u quyidagicha boshlanadi:

Chekib javring ko‘ngul otlig‘ aloxonu alomonim,
Firoqingda yonar har lahza hasrat o‘tig‘a jonim,
Zamirimda sango ma’lumdur paydovu nihonim,
Anisim, munisim, yorim, muhabbatpesha jononim.

Ushbu murabba’ g‘oyasiga ko‘ra, hazrat Navoiy va Feruz asarlariga hamohang. Murabba’da shoir qoidaga muvofiq barcha so‘zlarni (aloxonu alomonim, jonim, nihonim, jononim) qofiyadosh qilib qo‘llagan. She’r ishq-muhabbat, hijron, dard va sadoqat mazmuniga yo‘g‘rilgan. Bunda lirik qahramon mahbubasidan judo bo‘lgan oshiq tilidan so‘zlaydi. Birinchi misrada oshiq qalbi, ko‘ngil nomli uyi aloxonu alomon, ya’ni xonavayron bo‘lgani tashbeh qo‘llash orqali aytiladi. Keyingi misradagi kechinmalar tashxis, metafora va mubolag‘a san’ati orqali ifodalanib, yoridan ayrilish uning jonini har lahza hasrat o‘tida yonayotganligi bilan hijron azobining shiddati kuchaytiriladi. She’rdagi dramatizmni kuchaytirishda shoir bir juft (paydovu nihon) so‘zidan unumli foydalanadi. Band yakunida ijodkor ma’shuqaga murojaat uchun turli undalmalar – do‘st, hamdam, yor, mahbubadan foydalanadi. She’rda undalmalardan bu tarzda foydalanishdan maqsad lirik qahramonning ma’shuqa visolidan umidvorlik tuyg‘usini kuchaytirish ko‘rsatishdir. Mumtoz she’riyatda undalmalardan nozik tarzda foydalanish holati Gadoiy ijodida uchraydi. Bunda oshiqning holati faqatgina unga yo‘ldosh bo‘lgan mahbubagagina ayon ekani, bunday tasvir (undalmalardan nozik tarzda foydalanish) she’rdagi bandning oxirgi misralarida berilib uning badiiyatini oshirib yuboradi va oshiqning mahbubaga bo‘lgan muhabbatini qay darajada ekanligiga ishora qilib o‘tadi.

Tabibiy murabba’sidagi bandlari voqeaband asosda qurilgani bilan mazkur janrga doir boshqa lirik asarlardan farq qiladi. Murabba’ janrida bu hol juda kam uchraydi.

Ijodkor yuqoridagi murabba’sining ikkinchi bandida yorga bo‘lgan muhabbatini yanada ta’sirchan ifoda etadi:

Nechun kulbamga lutf aylab mani har kecha kelmassan,
Tarahhum birla ikki ko‘zlarim yoshini silmassan,
Magar hajringda ahvolim nechuk erkonni bilmassan,
Anisim, munisim, yorim, muhabbatpesha jononim.

Murabba’ning badiiy g‘oyasi va mazmuniy yaxlitligiga ta’sir ko‘rsatgan vositalardan biri sifatida she’r uchun tanlangan vazn va ritmni ko‘rsatish mumkin. Yuqoridagi misralarda oshiqning ma’shuqasiga bo‘lgan hissiy kechinmalari tasvirlangan. Unda lirik qahramon ma’shuqasi tomonidan qilinayotgan befarqlik, e’tiborsizlik tufayli hijronda qolishi ko‘rsatiladi. Birinchi misrada oshiq yorining kelishini o‘ziga nisbatan ko‘rsatilgan eng katta marhamat bo‘lishini aytib o‘tadi va yorini har doim kutishini eslatib o‘tadi. Misradagi “kulba” so‘zi ramziy ma’noda shoirning hayoti, qalbi yoki butun borlig‘iga nisbatan tashbeh sifatida qo‘llangan. Yorning sevgilisi qalbiga kirishi hijron qiyinchilik kunlariga xuddi bir yorug‘lik kiritganday tasvirlanadi va mahbuba umuman oshiq yoniga kelmagani (har kecha kelmassan) ta’kidlab o‘tiladi. Keyingi misralarda ma’shuqa oshiqning holidan xabar olib kelish va kelmasligi, ko‘zlaridan oqqan hijron tomchilarini artish va artmasligi kabilarni zidlantirib, yorning befarqligi lirik qahramon iztiroblarini yanada kuchaytirib tasvirlabga xizmat qildiradi. Shoir ushbu misralarda yoridan yana nolish holatiga va oshqning holi yomonligiga ishora qilib o‘tadi. Bandda qo‘llangan “kulbamga lutf aylab”, “ikki ko‘zlarim yoshini silmassan”,“ahvolim nechuk erkonin bilmassan” kabi birikmalar ham badiiylik mohiyatini oshirib yuborgan. She’rning oxirgi misrasida esa yorning mahbubasiga bo‘lgan iliq muhabbati, uni doim ardoqlashi va muhabbati cheksiz ekanini yana undalma birliklar orqali ifodalab o‘tadi. She’r

hazaj vazni (hazaji musammani solim)da yozilgan. Mumtoz adabiyotda ijodkorlar bu vazndan ancha unumli foydalanishgan. Bu haqda adabiyotshunos D.Zohidova shunday fikr bildiradi: “Hazaji musammani solim o‘zbek mumtoz she’riyatida keng qo‘llangan sevimli o‘lchovlardan biri bo‘lib, unda chuqur lirik kechinmalar hamda falsafiy-ma’rifiy qarashlar ifodasi bo‘lgan ko‘plab ajoyib g‘azallar yaratilgan” [12, 41].

Murabba’ning uchinchi bandida shoir tazod, tashbeh, mubolag‘a kabi san’atlardan foydalanadi. Turli san’atlardan mohirona foydalanish murabba’ning badiiy qiymatini oshirish bilan birga ijodkorning ichki kechinmalarini chuqurroq anglash imkonini berganini ta’kidlash kerak. Bu bandda ham ijodkor yuqoridagi voqebandlikni davom ettirgan:

Boshim uzra tushubdur ishqing ichra to g‘ami furqat,
Bo‘lubdur munisi anduhu dardu hamdamim kulfat,
Ravo ko‘rding ne yanglig‘ chekmagimni bu sifat mehnat,
Anisim, munisim, yorim, muhabbatpesha jononim.

Qofiyalanishi an’anaviy tarzda tuzilgan bo‘lib, qofiyadosh so‘zlar sifatida furqat, kulfat, mehnat kabi so‘zlardan foydalanilgan. Qofiyadagi so‘zlarning o‘ziyoq bu banddagi lirik qahramon holatini to‘liq tasavvur etish imkonini beradi.

Birinchi va ikkinchi misralarda “g‘ami furqat”, “anduhu dard”, “hamdamim kulfat” so‘zlari tanosub san’atini hosil qilib, lirik qahramonning ishq qayg‘usini tasvirlashda asosiy element vazifasini bajargan va bu orqali ishqning murakkabligi, ishq hijroni og‘irligini ko‘rsatib bergan. Bandning dastlabki misrasida oshiq mashuqasiga shikoyat mazmuni aks ettirilgan. Ma’shuqa ishqi tufayli oshiq boshiga tushgan ayriliq g‘ami, dard-u anduh, kulfat lirik qahramonning hamdami bo‘lib qolganligini aytib o‘tadi. Uchinchi misrada esa yorning oshiqqa qanchalik befarqligi va azobni ravo ko‘rishi, biroq ishq yo‘lida oshiq qanchalar azoblanmasin sevgisiga sodiq qolishi bandning oxirgi misrasida yana o‘sha undalma birliklar orqali aytib o‘tiladi. Bundan misralar o‘rtasida ham zidlanish (tazod) mazmuni anglashib turishini kuzatish mumkin.

Tabibiy murabba’sining keyingi bandida lirik qahramon kechinmalari tadrijiy davom ettiriladi. Jumladan, quyidagi misralarda ko‘p qavatli ma’nolar mujassamlashtirilib, unda shoirning so‘z qo‘llash mahorati yanada yorqinroq namoyon bo‘lgan:

Nechun yo‘qkim zamiringda tarahhumdin asar hargiz,
Qila olmas firoqing ichra man sori guzar hargiz,
Olurg‘a bir nafas holi xarobimdin xabar hargiz,
Anisim, munisim, yorim, muhabbatpesha jononim.

Birinchi misrada shoir tashbeh, tajohuli orifona kabi san’atlardan unumli foydalangan. Banddagi mazmun yor qalbida rahm-shafqat degan tuyg‘ulardan nom-nishon yo‘qligidan shikoyat mazmuni bilan boshlanadi. Ikkinchi misrada oshiqning mahbubasidan ayrilig‘i unga qanchalik og‘ir ekanligi, uning ruhiy azobi aks ettiriladi. Misralar o‘rtasidagi bog‘liqlik shunda ko‘rinadiki, birinchi misrada sevgilining rahmsizligi, ikkinchisida esa shu rahmsizlikning oqibati – ayriliq azobi ifodalanadi. Keyingi misrada shoir tazod san’atidan foydalanadi. Misrada mahbuba o‘z yori holidan xabar olishini, uning azob-uqubatlarini tushunishni so‘raydi.

Bandning har bir misrasida lirik qahramonning hissiyotlari, fikrlari badiiy uslubda ifodalangan. Savol, azob, ayriliq va ulug‘lash orqali oshiqning ichki o‘y-kechinmalari yoritib beriladi. Misralar orasidagi g‘oyalar bir-birini to‘ldirib, umumiy bir butunlikni hosil qilgan. Shoir mahbubasi qarshisidagi ojizligini, hijron iztirobini va unga bo‘lgan cheksiz muhabbatini oxirgi har bandda mahorat bilan ifodalab boradi.

Mumtoz adabiyotda Alisher Navoiy asarlari qahramonlari ishq va muhabbatga sodiqlik timsolini ifodalab beradi. Tabibiy murabba’lari tarkibida ham ularga murojaat qilish orqali shoirning sevgi-muhabbat va sadoqatda Farhod va Majnundan qolishmasligini ta’kid etadi:

G‘aming ko‘hsorida Farhod yanglig‘ ustuvoringman,
Balo vodiysida tun-kun kezib majnun shioringman,
Jamoling sham’ining anvorig‘a parvonavoringman,
Anisim, munisim, yorim, muhabbatpesha jononim.

Birinchi misrada shoir tashbeh san’atidan foydalanib yor ishqidagi azobini “G‘am ko‘hsori”ga qiyoslaydi va fikrlarini davom ettirib, o‘zini xalq orasida sadoqat va muhabbat timsoli bo‘lgan Farhodga mengzaydi. Fikrini dalillash maqsadida “ustuvor” degan so‘zidan foydalanadi. Bandning ikkinchi misrasida esa qiyinchilik, azob-uqubatlarni, yor ishqidagi sargardonliklarni “Balo vodiysi” degan birikma asosida she’rdagi g‘oyani yanada kuchaytiradi. Mubolag‘a va tashbeh san’ati orqali oshiqning balo vodiysini tun-u kun kezib Majnun holiga tushib qolgani tasviri beriladi. Uchinchi misrada esa yorning go‘zalligi shamga, oshiqning holi parvonaga qiyos etilib, bu hol tashbeh, husni talil san’ati misolida ko‘rsatib o‘tiladi. Ishqdagi qiyinchiliklar “balo vodiysi”, “g‘am ko‘hsori” kabi birliklarda oz so‘zdan ko‘p ma’no chiqarib, yakunda oshiqning o‘z mahbubasini ulug‘lash holatiga duch kelamiz. Mahbubaga nisbatan turli sifatlar bilan murojaat qilish orqali o‘zining ishqdagi chuqur muhabbatini bildirib o‘tadi. Ijodkorning badiiy g‘oyasini oshirishda turli tasvirlar va badiiy obrazlardan foydalanishi, Farhod va Mujnun kabi timsollar tashbehga olinishi, sham va parvona kabi birliklarni mutanosibligi shoir tafakkur imkoniyatlarini ko‘rsatishda muhim element vazifasini bajargan. Yuqoridagi bandda shoir tashbeh, mubolag‘a, tazod kabi badiiy san’atlardan mohirona foydalanib, murabba’dagi g‘oyaviy tadrijiylikni yanada oshirgan.

Quyidagi bandda ham oshiqning holati, uning azob va mashaqqatlarga duch kelish holatlari tasvirlanadi. Band quyidagicha:

Qoshing hijronida qaddim bo‘lubdur uylakim “yo” xam,
Jamoling shavqi ichra ko‘zlarimdur doimo purg‘am,
Ko‘zingni fikrati aylar halokim qasdini har dam,
Anisim, munisim, yorim, muhabbatpesha jononim.

Shoir birinchi misrada hijrondan qiynalish holatini tasvirlaydi va “qaddim bo‘lubdur yo xam” birikmasi orqali ishq mashaqqatini yanada kuchaytirib ko‘rsatadi. Shoir bu usul orqali qaddi egilganligi, ya’ni hijron azobidan bukilib qolganligini kitobat san’ati asosida ochiqlaydi. Ikkinchi misrada mahbubaning go‘zalligi “jamol” so‘zi orqali ifodalanib lirik qahramonning ko‘zlari shu go‘zallik bilan to‘lgani tasviri beriladi. “Ko‘zlarim doimo purg‘am” iborasi esa lirik qahramonda ishq bilan yonish holatiga ishoradir. Shoir lirik qahramonga yor ko‘zlari halokat olib kelishini aytib, “halokim qasdini har dam” iborasi orqali ma’noni yanada

kuchaytirib tasvirlaydi. Shoir bu misrada ishq va hasratning ta’siri kuchli ekanini ta’kidlaydi. Oxirgi misrada esa shoir yoriga nisbatan chiroyli iboralardan foydalanib, o‘zining muhabbati qay darajada ekanini ko‘rsatib beradi. Ushbu bandagi “jamol”, “qosh”, “ko‘z” kabi ko‘p ma’no ifodalovchi so‘zlar, “qaddim bo‘lubdur yo xam”, “ko‘zlarim doimo purg‘am” kabi birikmalar misralarga o‘ziga xoslik berib, she’rning ta’sir kuchini oshirishga xizmat qilgan.

Keyingi banddagi asosiy g‘oya tuyg‘ularning ta’sirchanligi va estetik go‘zalligi bilan ajralib turadi. Ishqning qanchalik chuqur va samimiy ekanligi, yorining oshiq hayotida qanchalar muhim ekani o‘ziga xos tarzda ifoda etiladi:

O‘zimni toki ishqingg‘a qilibman dahr aro mansub,
Zamirimg‘a emas vaslingdin o‘zga bir nima maqsud,
Erursan borcha ahli husni ichra san mango matlub,
Anisim, munisim, yorim, muhabbatpesha jononim.

Birinchi misrada “dahr aro” birikmasi oshiq bor ishqini mahbubasiga bag‘ishlaganini ta’kidlasa, ikkinchi misrada niyatini ochiqlab, yori bilan ko‘rishish asosiy maqsadi ekanini ochiqlaydi. Keyingi misrada esa yorini “ahli husn” deb ta’rif etadi va bu orqali shoir uchu o‘z yori barcha go‘zallarning maftunkori hisoblanadi. So‘nggi misrada shoir mahbubasini do‘st, hamroh va sirdosh ekanini ta’kidlab o‘tadi.

Ushbu bandda esa shoir ishq-muhabbat va sharob tasvirlari orqali zavq va shifo topish mumkinligini, ishqning lazzati va hijronning azoblari haqidagi lirik kechinmalari ifodalanadi. Har misrada ishq-muhhabat xarekteri badiiy tasvirlar vositasida yoritib boriladi.

Visolingni muyassar aylabon ahdi shabob ichra,
Labing shahdin mango mamzuj etib bergil sharob ichra,
Ki mundog‘ tobakay hajring aro qolg‘um azob ichra,
Anisim, munisim, yorim, muhabbatpesha jononim.

Bunda shoir, avvalo, ilk ishq-muhabbat tuyg‘ularini esga oladi. So‘ng tashbehdan foydalanib yorning labini shahdga o‘xshatadi va sharob bilan qorishtirib berishini so‘raydi. Yuqorida ishq tasviri keyingi misrada hijron dardi va mashqqatlari mavzusiga almashadi. “Tobakay hajring aro” birligi orqali yordan ayrilish azoblari nazarda tutiladi. Bandda majoz, ishtiqoq, tashbeh san’atlari shoir kechinmalarini, bandning ta’sirchanligi va musiqiyligi ta’minlashga xizmat qilgan.

Boshqa bir bandda esa ishq va hijronning mashaqqatli kechinmalariga e’tibor qaratilgan. Har bir misrada ishq va hijronning turli jihatlari bayon qilingan.

Mango, vah, bu ne yanglig‘ tole’i iqboli baxti shum,
Erur ag‘yor vasling mahrami man qolmisham mahrum,
Ki doim furqat ichra no‘sh aylab zahar ila zaqqum,
Anisim, munisim, yorim, muhabbatpesha jononim.

Dastlabki misrada lirik qahramon baxtining shumligidan shikoyat qilib, “tole”, “iqbol” va “baxt” so‘zlari orqali tanosubni yuzaga keltiradi. Oshiqning ishq borasidagi omadsizligi keyingi satrlarda yanada ta’sirchan ko‘rsatiladi. Oshiq emas, aksincha, ag‘yorning yor visoliga erishgani, “ag‘yor”, “vasling mahrami” kabi birliklar esa visoldan ayrilgan oshiqning holini yanada bo‘rttirib ko‘rsatganligi guvohi bo‘lamiz. Keyingi misra ham ayriliq azobi tasviriga

bag‘ishlanadi. Shoir hijron azobini xuddi zahar va zaqqum ichgan bilan tenglashtiradi. Misrada furqat, zahar va zaqqum esa azobning ramziy ifodasi sifatida ishlatilgan. Misra yakunida oshiqning hijron va ayriliq azobidan chekkan sitamlariga zid holda shoir haqiqiy muhabbatni yoriga nisbatan ishlatgan nozik undalmalardan bilib olishimiz qiyin emas. Tabibiy ifadalagan mazmunning eng nozik xususiyati uning misralardagi g‘oyani bosqichma-bosqich, teran mazmun orqali tasvirlagani bilan ajralib turadi hamda she’rdagi shakl va mazmun har tomonlama mutanosibdir.

Murabba’ning oxirgi bandida ishq va hijron mashaqqatlari umumlashtiriladi.

G‘ami hajring aro ham sardu besabru shikebingman,
Mani mahzun bori ushshoqing ichra g‘aribingman,
Ki ya’ni ojizu dilxasta miskin Tabibingman,
Anisim, munisim, yorim, muhabbatpesha jononim.

Shoir birinchi misrada tanosub san’atidan unumli foydalanib, ayriliqqa sabri tugaganligini bayon qiladi. O‘z ruhiy holatini “sardu besabr”,“shikeb” kabi so‘zlar bilan ifodalab, mazmunni teranlashtiradi. Keyingi baytda shoir yorning oshiqlari ichida o‘zini g‘arib va mahzun his qilishini ifodalab o‘tadi. Bu misradagi “mahzun” va “g‘arib” so‘zlari shoirning ichki kechinmalarini aniq ifodalaydi. Shoir o‘ziga nisbatan “ojiz”, “dilxasta” va “miskin” kabi sifatlar asosida o‘zining chorasiz, zaif holatini tasvirlaydi. Bandning oxiri esa an’anaviy murojaat (anisim, munisim, yorim, muhabbatpesha jononim) bilan yakunlanadi.

Xulosa.

Lirikada musammat va uni tashkil qiladigan she’r shakllari ko‘hna davrlar osha yetib kelgan janrlardan biri hisoblanadi. Bu janrda ijod qilish Ahmad Tabibiyni ham chetlab o‘tmagan. Tabibiy musammat janrida barakali ijod qilib, statistikasi va mavzu ko‘lami jihatidan ancha salmoqli hisoblanadi. Xususan, murabba’ shaklida yozilgan asarlari ham o‘ziga xos ma’no-mazmunni o‘zida mujassam etgan.

Tabibiyning o‘zbek adabiyoti ravnaqi yo‘lida qilgan xizmati shu bo‘ldiki, u o‘zbek lirikasini, jumladan musammat janrini yuqori bosqichga olib chiqqan ijodkorlardan biri sanaladi.

Shoir musammatchilikda ishqiy mavzudan tashqari falsafiy, diniy, ilm-ma’rifat, axloqiy, ijtimoiy kabi g‘oyalarni janr tarkibiga singdira oldi. Asarlaridagi lirik qahramon faqatgina oshiq emas, balki jamiyatda falsafiy, ijtimoiy qiyofaga ega bo‘lgan obraz sifatida namoyon bo‘ladi.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Ҳожиаҳмедов А.Ўзбек арузи луғати. – Тошкент: Шарқ, 1998.

2. Носиров О, Жамолов С, Зиёвиддинов М.Ўзбек классик шеърияти жанрлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979.

3. Юлдашева М.Аваз шеъриятида анъана ва маҳорат (Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация). – Тошкент, 2006.

4. Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъу-с-санойиъ (Форсчадан Алибек Рустамов таржимаси). – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981.

5. Алишер Навоий.Мезон ул-авзон. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2011.

6. Бобур.Мухтасар (Нашрга тайёрловчи Саидбек Ҳасан). – Тошкент: Фан, 1971.

7. Юсупова Д.Аруз ва мумтоз поэтикага кириш. – Тошкент: Akademnashr, 2020.

8. Бобур.Мухтасар. –Тошкент: Фан, 1978.

9. Ҳожиаҳмедов А.Аруз луғати. – Тошкент: Шарқ, 1998.

10. Қуронов Д, Мамажонов З, Шералиева М.Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2013.

11. Izzat Sulton.Adabiyot nazariyasi. – Toshkent:O‘qituvchi, 2005.

12. Зоҳидова Д.Аруз сабоқлари. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2016.

Boyatov Oybek Maxmudjon o‘g‘li
University of Busines and Science o‘qituvchisi
ToshDO‘TAU tadqiqotchisi
E-mail: oybekboyatov151@gmail.com

G‘AZAL JANRINING POETIKASI VA MAJZUB NAMANGONIY IJODIDAGI O‘RNI

Annotatsiya. Mazkur maqolada adabiyotshunoslikda “g‘azal” janrining o‘rni, ahamiyati va nazariyasi haqida ma’lumotlar berilgan. Bu janr tasavvufiy shoir Majzub Namangioniy ijodida qanday tasvirlanganligi izohlangan. G‘azalning turlari, qofiyalanishi haqida batavsil ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: G‘azal, qofiya, orifona, rindona, oshiqona, hamd, na’t, parokanda, voqeaband.

Боятов Ойбек Махмуджонович
Преподаватель Университета Бизнеса и Науки
исследователь Ташкентский государственний
университет узбекского языка и литературы имени
Алишер Навои

ПОЭТИКА ЖАНРА ГАЗЕЛИ И ЕГО РОЛЬ В ТВОРЧЕСТВЕ МАЖЗУБА НАМАНГАНИ

Аннотация. В данной статье представлена информatsiя о месте, значении и теории жанра «газель» в литературоведении. Разъясняется, как этот жанр изображён в творчестве суфийского поэта Мажзуба Наманганиони. Подробно рассмотрены виды газелей и их рифмовка.

Ключевые слова: Газель, рифма, орифона, риндона, ошикона, хамд, на‘т, пароканда, вокеабанд.

Boyatov Oybek Maxmudjon o‘g‘li
Lecturer at the University of Business and Science
Researcher at TSULL

THE POETICS OF THE GHAZAL GENRE AND ITS ROLE IN THE WORKS OF MAJZUB NAMANGANIY

Annotation. This article provides information on the place, significance, and theory of the "ghazal" genre in literary studies. It explains how this genre is depicted in the works of the

Sufi poet Majzub Namangioni. Detailed information is given about the types of ghazals and their rhyming patterns.

Keywords: Ghazal, rhyme, orifona, rindona, oshiqona, hamd, na‘t, parokanda, voqeaband.

Kirish.

G‘azal janrining nazariy asoslari haqida adabiyotshunoslarimiz tomonidan juda ko‘p fikr-mulohazalar bildirilgan. Adabiyotshunoslikda g‘azal janri haqida ilk ma’lumotlar Shams Qays Roziyning “Al-mo‘jam” asarida “G‘azal dar asli lug‘at hadisi zamon va sifati ishqibozi bo eshon va taholuk dar do‘sti eshon ast[1, 62]” ya’ni “G‘azal so‘zining lug‘aviy ma’nosi ayollar haqida gapirish, ularga nisbatan bizning vujudimizda paydo bo‘lgan xushtorlikni va sevgini so‘zlab berish” - ma’nosida uchraydi.

Adabiyotlar tahlili.

Atoulloh Husayniy “Badoyi us-sanoyi” asarida bu haqida “Xotunlar bila suhbat qurmoqni sevmak, ma’shuq jamolini zikr etmak[2, 25]”,- deya Qays Roziy fikrini tasdiqlagan. XVI asrda yashagan Qabul Muhammad yaratgan “Haft kulzum” asarida “Bilib qo‘yki, g‘azalning lug‘aviy mazmuni xotinlarga sevgi izhor qilish va ular bilan munosabatdir va uning istilohiy mazmuni bir necha baytning bir qofiya va vazn bilan birikuvidir. Bunday she’rlarning avvalgi baytining har ikki misrasini matla’ deb aytilur. Ikkinchi baytning har ikki misrasi juft qofiyalangan bo‘lsa, u matlaga zeb va xusndir. Oxirgi baytini maqta’ va xotima deydilar. G‘azalda, ko‘pincha, mahbubaning jamoli, sifatlari, oshiqning ahvoli va kechinmalari tasvirlanadi. Va’z va nasihat she’riyatning boshqa turlarida ifodalanadi. G‘azal visolmi yoki firoqmi, nima bilan boshlangan bo‘lsa, o‘sha bilan tugashi kerak[3,18]” - deya ta’rif berilgan. G‘azal lirikaning janri sifatida dastlab, arab adabiyotida vujudga kelgan. Bu haqida arab adabiyotshunosi Xanna – al Faxuriy shunday: “ islom dini vujudga kelgunga qadar ham arablarda g‘azal shakli bo‘lgan va bu shakl orqali unda sevgi kechinmalari bayon etilgan. G‘azal- xotin-qizlar, ularning qiliq va sifatlari, lirik qahramonning o‘z sevgilisiga nisbatan bo‘lgan muhabbati va u bilan suhbatlar kuylangan she’r, qo‘shiq[4, 42]” deya ta’riflaydi. Bundan ko‘rinib turibdiki, g‘azal mumtoz adabiyotimizda “oshiqona so‘z”, “ishq izhoh qilish”, “ayollarga xushomad qilish” ma’nolarini anglatadi.

Adabiyotshunoslikda g‘azallarni tasniflashda turlicha fikrlar bor. Abduqodir Hayitmetovning “Navoiy lirikasi”[5, 26], Odiljon Nosirovning “O‘zbek adabiyotida g‘azal”[6, 31] monografiyasi, Nusratilla Jumaxo‘janing “Munisning badiiy mahorati”[7, 32] dissertatsiyasi, Dilnavoz Yusupovaning “Aruz va mumtoz poetikaga kirish”[8, 154] darsliklarida bu haqida ma’lumot olish mumkin.

Abduqodir Hayitmetov: “Navoiy o‘z g‘azallarini va umuman g‘azallarni g‘oyaviy-tematik jihatdan shartli ravishda uch turga bo‘ladi: 1. Oshiqona g‘azallar. 2. Rindona g‘azallar. 3. Orifona g‘azallar”[9, 18]. Odil Nosirov esa o‘zbek mumtoz adabiyotda g‘azallarni shartli ravishda quyidagicha tasnif qiladi: oshiqona; orifona; rindona; hajviy va yumoristik; axloqiy-ta’limiy; peyzaj; publisistik [6, 32]. A. Hayitmetov Navoiyning “Badoyi ul-bidoyi” devonidagi

tahlil etish mobaynida shoir devoniga hamd, na’t va mav’iza g‘azallar ham borligini ta’kidlaydi.[9, 18].

Adabiyotshunos olima Dilnavoz Yusupova g‘azallarni uch turga qarab tasniflagan. I. **Qofiyalanishiga ko‘ra**: 1. Oddiy yoki odatiy g‘azallar; 2. G‘azali husni matla; 3. G‘azali qit’a; 4. G‘azali musajja; 5. G‘azali mulamma; 6. G‘azali muvashshah; 7. G‘azali mushoira; 8. G‘azali zulqofiyatayn; 9. G‘azali zuldarifayn; 10. G‘azali zebqofiya. II. **Kompozitsion jihatidan**: 1. Parokanda; 2. Voqeaband g‘azallar. III. **G‘oya va mavzusiga ko‘ra**: 1. Hamd; 2. Na’t; 3. Oshiqona; 4. Orifona; 5. Rindona; 6. Axloqiy-ta’limiy; 7. Ijtimoiy-falsafiy; 8. Hajviy; 9. Peyzaj va boshqalar kabi turlarga bo‘lgan. Bizning fikrimizcha ham D. Yusupova singari alohida turlarga bo‘lib tahlil qilish ma’qul.

Tahlil va natijalar.

Majzub Namangoniy ijodida ham g‘azallar qofiyalanishiga ko‘ra oddiy, g‘azali husni matla, g‘azali qit’a, g‘azali mulamma, g‘azali muvashshah; kompozitsion jihatdan parokanda va voqeaband; G‘oya va mavzusiga ko‘ra hamd, na’t, oshiqona, orifona, rindona, axloqiy-ta’limiy, ijtimoiy-falsafiy g‘azallar mavjud. Quyida ijodkorning bir g‘azalini tahlilga tortamiz.

Tolibo, so‘zlar esang albatta Allohdin gapur,

Olaming‘a Haq yuborg‘on Hadyatullohdin gapur [10, 3ª].

G‘azal 11 baytdan iborat bo‘lib, aruzning ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan. Unda “gapur” so‘zi radif qilib olingan. Qofiyadosh so‘zlari: Allohdin, Hadyatullohdin, Oyatullohdin, rahmatullohdin, astag‘firullohdin, san’atullohdin, ne’matullohdin, Habbatullohdin, Hikmatullohdin, Shay’anullohdin kabilar bilan ifodalangan. G‘azal qofiyalanishiga ko‘ra oddiy (a-a, b-a, c-a, d-a, f-a, g-a) g‘azal turiga kiradi. Kompozitsion jihatidan baytlar o‘zaro bir-biriga yaqin ma’noda, biri ikkinchisini uzviy davom ettirgandek holda yozilganligi sabab voqeaband g‘azal deyish mumkin. G‘oya va mavzusiga ko‘ra orifona, oshiqona, axloqiy-ta’limiy g‘azallar sirasiga kiradi.

G‘azalda boshdan oxirgacha tasavvufiy terminlarni uchratish mumkin. Shoir she’rni yozishda undalma “Tolibo” so‘zi bilan boshlagan. Tolibo – tolib, bilim oluvchining ko‘plik shakli. Ilm yo‘liga kirgan toliblar gapurmoqchi bo‘lsangiz Haq taolo allohdan gapiring. “Hadyatulloh” baytda bu so‘z Muhammad s.a.v ni nazarda tutilgan bo‘lib, Alloh tomonidan bu olamga yuborilgan elchi Muhammad s.a.v haqida gapir deya tolibi ilmlarga xitob qilinmoqda. G‘azalning matla’sida Haq taolo va uning rasuli haqida so‘z yuritib, ularning fazilarlarini madh etishga qaratilgan.

G‘azalning keying baytlarida ham ilm egallamoqchi bo‘lgan ilmitoliblarga murojaati davom etadi:

Poklar endi jahong‘a hukmini yetkurg‘ali,

Vahyi kelg‘onlarg‘a, salovoti oyatullohdin gapur [10, 3ª].

Baytda “poklar” deya Allohning elchilari payg‘ambarlarni nazarda tutib, vahiy olish orqali Allohning so‘zlarini insonlarga yetkazish orqali, salovot aytib “oyatulloh” Allohning muborak oyatlari haqida gapirishga undaydi. Insonlarga payg‘ambarlar nafaqat xabar yetkazuvchi, balki dunyoni adolat bilan boshqaruvchi ekanligiga ishora qiladi. Bu haqida

Muso alayhissalomni Fir’avn bilan kurashi, yoki Sulaymon payg‘ambarning adolatli hukmronligi kabilarga ishora qiladi.

Yaxshi so‘zla, yaxshi yuzla, yaxshi ko‘zla yaxshig‘a,

Yaxshilarg‘a madh aytib, shavqi Allohdin gapur [11, 3ª].

Baytda shoir tashbeh, istiora va takrir kabi san’atlardan oqilona foydalangan. “yaxshi so‘z”, “yaxshi yuz”, “Yaxshi ko‘z” insonni zohiriy odob-axloqi, hulqini anglatadi. Ilohiy ishqqa olib boruvchi yo‘lda kuzatiladigan unsurlar hisoblanadi. “Shavqi Alloh” – botiniy dunyo, qalb va ruhiy poklikni ifodalaydi. Tasavvuf tariqatidagi “Ma’rifat” yo‘lini anglatadi.

Gar gunah kubdin ko‘ngil yuzlansa suyi yorig‘a,

Oyati “Lo taqnatu min rahmatullohdin” gapur [10, 3ª].

Ushbu bayt tasavvufiy ilm va Qur’oni Karim oyatlariga asoslangan. Yaratgan allohdan umid uzmaslikka targ‘ib, inson qalbini poklashga undash holati bor. Shoir baytda Qur’oni Karimning “Zumar” surasi 53-oyati “Lo tanqatu min rahmatulloh”ga ishora qilib, Iqtibos san’atining go‘zal namunasini keltirib o‘tadi. Oyatda shunday fikrlar keltirilgan: “Ey jonlariga qarshi haddan oshirgan bandalarim! Allohning rahmatidan nomud bo‘lmang! Albatta, Alloh barcha gunohlarni kechiradi. Zero, U kechiruvchi va mehribondir”[11, 153].

Ko‘p savob ettim deyub ko‘ngil quvonsa ey birov,

Jurmingi yod ayla va astag‘firullohdin gapur [10, 3ª].

Bayt inson qalbi va nafsining nozik jihatlari: kibr va tavba masalasini yuksak badiiylik bilan tasvirlaydi. Savob va gunoh o‘rtasidagi ziddiyatni nozik holatda ifodalaydi. Bunga tazod san’atining namunasi sifatida qaraladi. “Ko‘p savob” va “jurm” - yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi qarama qarshilik. Bundan tashqari Iqtibos san’atini ham “Astag‘firulloh” iborasi orqali kuzatish mumkin. Qur’on va Hadislarda ko‘p uchraydigan duo hisoblanadi. Baytdan shunday xulosa keladiki, inson qancha ko‘p toat-ibodat qilsa ham, o‘zini mukammal deb bilmasligi kerakligi uqtirilgan. Shoir badiiy jihatdan antiteza, iqtibos va istiora kabi badiiy san’atlardan mohirona foydalanadi.

Dilrabog‘a gulni tashlar nozaninlar ruh uza,

Sof boqib anga so‘ngra san’atullohdin gapur [10, 3ª].

Go‘zallik, san’at va ilohiy tafakkur o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik baytda namoyon bo‘ladi. “Dilrabog‘a” – ilohiy go‘zallik bilan to‘la olam; “Gul” – go‘zallik va noziklik tushunchasi; “Nozaninlar” – ilohiy go‘zallikni his qiluvchilar; “Ruh uza” – ruhiyatga ta’sir qiluvchi, qalbni lol qoldiruvchi tarzda; “Sof boqib” – sof qalb va tafakkur bilan nazar tashlab; “San’atulloh” – Allohning yuksak san’ati, ilohiy yaratuvchanlik san’ati kabi tushunchalar orqali botiniy va zohiriy go‘zallik o‘rtasidagi bog‘liqlikni tasvirlaydi. Bu go‘zalliklar ikki shaklda: moddiy go‘zallik – gul, bog‘, nozaninlar; Ruhiy go‘zallik – qalbning pokligi va ilohiy san’atni anglash holida uchraydi. Baytda san’at, estetika va tafakkur uyg‘unligi tashbeh, istiora, tajnis kabi badiiy san’atlar bilan ifodalangan.

G‘ayri mehri o‘tinin g‘ayrat o‘ti birla yoqib,

Davlati vasli topilsa ne’matullohdin gapur [10, 3ª].

Insoniy muhabbat va ilohiy ne’matlar o‘rtasidagi chuqur bog‘liqlikni aks ettirgan bu baytda ishq, fidoiylik va mukofot sifatida taqdim etiladigan ilohiy marhamat haqida badiyy

tasvir berilgan. “G‘ayri mehri” – mukammal va samimiy bo‘lmagan sevgi; “O‘tinin” – o‘t ramziy ma’noda muhabbat azobi; “G‘ayrat o‘ti” – mehnat va mashaqqatlarni yengishga bo‘lgan intilish, sabr va harakat bilan ishqqa yetishish; “Davlati vasl” – hayol qilingan visol ne’mati, oshiq va ma’shuqning jam bo‘lishi; “Ne’matulloh” – Allohning in’omi, ilohiy marhamati. Inson ilohiy ishq yo‘lida sabr va fidoyilik ko‘rsatsa, bu ne’mat unga nasib etadi. Shoir ilohiy ishq yo‘lida uchraydigan ilohiy imtihonlardan sabr bilan o‘tsa, Alloh unga mukofot sifatida “ne’matulloh”ni – visol baxtini berishini, muhabbat, sabr va mukofot konsepsiyalarini Qur’oni Karim va tasavvufiy qarashlar bilan bog‘laydi.

Ayt salovoti salom Ahmadg‘a va oli, sahbig‘a,

Yori g‘or Foruqu, Usmon, Sheri Allohdin gapur [10, 3ª].

Islomiy va tasavvufiy ruh bilan yo‘g‘rilgan bu baytda, Payg‘ambar Muhammad (s.a.v) va uning yaqin sahobalariga salovot izhor etishga qaratilgan. “Ayt salovoti salom” – iborasi orqali Qur’oni Karimning “Ahzob” surasi 56-oyati[13, 234] – (Alloh va farishtalar Payg‘ambarga salovat aytishlari, mo‘minlar ham bunga ergashishlari kerakligi) ga ishora qilingan. Baytda qo‘llangan “Ahmad” ismi payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) ning ismlaridan biri. “Yori g‘or” – bu Abu Bakr Siddiq (r.a.)dir. Payg‘ambarimiz bilan hijrat qilganida Sarv g‘orida birga bo‘lishgan. “Foruq” – Umar ibn Xattob (r.a.)ning laqabi bo‘lib, haq va botilni farqlovi degan ma’noni anglatadi. “Usmon” – halifa Usmon (r.a.) bo‘lib, Zunnurayn (ikki nur sohibi) deb ham atalgan. “Sheri Alloh” – Ali ibn Abu Tolib (r.a.)ning laqabi bo‘lib, Allohning sheri deganidir. Baytda payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) va to‘rt xalifa haqida ham diniy, ham tarixiy ma’lumotlar berilgan. Baytdagi tashbehlar tarixdagi voqelarni aniqlashga xizmat qiladi.

Iki xurshid iki sibtayn yorutur iqlimi din,

Borgohi Haq kanizi Habbatullohdin gapur [10, 3ª].

Bayt islomiy, tarixiy va tasavvufiy manzarabilan boyitilgan bo‘lib, “Iki xurshid” so‘zi orqali Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning ikki nabiralari Imom Hasan va Imom Husaynlarni nazarda tutilgan. Bularni “Xurshid” – quyoshga o‘xshatilmoqda. Tasavvuf ilmida “sibt” – nabira, avlod degan ma’nolarda uchraydi. Islom tarixida Imom Hasan va Imom Husayn (r.a.)lar “sibtayn” deb nomlanadi. Ular Muhammad (s.a.v.) ning naslini davomchilari hisoblanadi. Ilohiy jihatdan esa, islom dinining nuri, uni davom ettiruvchi rahnamo sifatida tasvirlanadi. “Borgohi Haq” – Haqning dargohi, ilohiy huzur va Alloh roziligini olinadijan joy. “Habbatulloh” – bu so‘z orqali Payg‘ambarimiz qizlari Fotima (r.a.) nazarda tutilgan deb qaradik. Shoir bayt orqali Qur’on va Hadisda Hasan va Husayn (r.a)larning o‘rnini yoritadi. Ma’naviy poklik, ixlos va hidoyat tushunchalarini ilgari suradi.

Yaxshilarni qildi paydo, ham yomonlarni bino,

Dema mundog‘ nega qildi, Hikmatullohdin gapur[10, 3ª].

Bayt chuqur falsafiy mazmunga ega bo‘lib, unda insoniy yaxshilik va yomonlik, ilohiy adolat va taqdir tushunchalari aks ettirilgan. Yaxshilik va yomonlikning yaratilishi haqida fikr yuritib, insonni tushkunlikdan uzoqlashishga va Allohning hikmatiga tavakkul qilishga undaydi. “Yaxshilarni qil paydo va yomonlarni bino” – iborasi orqali yaxshilik va yomonlik mavjudligi, inson hayoti sinov ekanligini anglatadi. “Nega alloh bunday qildi” – deb

shubhalanma, inson hamma narsaning sababini tushunib yeta olmaydi bu Allohning hikmati. Bu fikrlar orqali shoir Qur’oni Karimdagi ayrim oyatlarga ishora qiladi. Ijodkor baytdagi oyatlarga tayanib, insonni shukr qilishga, taqdirni to‘g‘ri tushunishga va Allohninh ilohiy hikmatiga ishonishga chorlaydi.

Tahsin ermas, mun’im o‘lsa muddao Majzubg‘a,
Har na ishlar bor-yo‘q Shay’anullohdin gapur [10, 3ª].

Xulosa.

Tasavvufiy va falsafiy mazmunga ega, Allohning qudrati oldida dunyoviy istaklarning ahamiyatsizligi tasvirlangan. Shoir o‘z taxallusini qo‘llagan holda Majzub uchun maqtov va dunyoviy ne’matlar muhim emas, balki uning yagona istagi Allohning roziligi deya murojaat qiladi. Bu borada Qur’oni Karimning Ankabut surasi 64-oyatiga ishora qiladi. Har qanday mavjudlik va yo‘qlik Alloh iznidadir. Bu tushunchalar Ibn Arabiy, Jaloliddin Rumiy va boshqa tasavvufiy ijodkorlar ijodida keng yoritilgan.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Shamsi Qaysi Roziy. Al-mo‘jam. 1991.
2. Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъ ус санойиъ: Форс тилидан. А.Рустамов таржимаси.- Т.: Адабиёт ва санъат, 1981.
3. Orzibekov R. O‘zbek lirik she’riyati janrlari. 18-bet.
4. Xanna-al Faxuriy. G‘azal qadimiy janr. –T.: Fan. 1991
5. Hayitmetov A. Navoiy lirikasining. –T.: Fan. 2005
6. Nosirov O. O‘zbek adabiyotida g‘azal. –T.: Adabiyot va san’at, 1972.
7. Jumaev N. Munisning badiiy mahorati. –Fil.f.n. ... diss. Avtoref. –T.: 1983.
8. Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. Darslik. –T.: Tamaddun, 2022.
9.Hayitmetov A. Alisher Navoiy lirikasining ba’zi masalalari / Navoiy va ijod saboqlari. – T.: Fan, 1981. –B. 18
10. Devoni Majzub. O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik qo‘lyozmalar instituti Hamid Sulaymon fondi. *Inv raqami 1448.*
11. Qur’oni Karimning “Zumar” surasi 53-oyati
12. Qur’oni Karim. Tavba surasi, 40-oyat.

G‘ofurova Shahnoza Alimovna,
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
3-bosqich tayanch doktoranti
UDK: 82-391
E-mail: sahnozagofurova@gmail.com

O‘ZBEK ADABIYOTIDA MA’RIFIY ROMAN POETIKASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotshunosligi va ma’rifiy romanchilik taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan iste’dodli ijodkorlardan biri Naim Karimov va bu mavzuning shakllanishi va taraqqiyotida Xayriddin Sulton, Bo‘rivoy Ahmedov, navoiyshunos Aziz Qayumov, Pirmat Shermuhammedovlarning roli beqiyosligi haqida mulohazalar qilinadi.

Kalit so‘zlar: ma’rifiy-biografik romanlar, o‘zbek adabiyoti, badiiy tasvir, tahlil, orginallik, tarixiy shaxslar, jamiyat va inson.

Гафурова Шахноза Алимовна,
Институт узбекского языка, литературы и фольклора
Академии наук Республики Узбекистан
базовый докторант 3-й ступени

ПОЭТИКА ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОГО РОМАНА В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация. В данной статье рассматривается Наим Каримов, один из талантливых писателей, внесших значительный вклад в развитие узбекского литературоведения и просветительского романа, и неоценимая роль Хайриддина Султана, Буривоя Ахмедова, навоиведа Азиза Каюмова и Пирмата Шермухаммедова в формировании и развитии этой темы.

Ключевые слова: учебно-биографические романы,узбекская литература, художественное изображение, анализ, самобытность, исторические личности, общество и человек.

Gafurova Shakhnoza Alimovna,
Institute of Uzbek language, literature and folklore,
Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
basic doctoral student 3rd stage

POETICS OF THE EDUCATIONAL NOVEL IN UZBEK LITERATURE

Annotation. This article discusses Naim Karimov, one of the talented creators who made great contributions to the development of Uzbek literary studies and educational novel writing,

and the incomparable role of Khayriddin Sultan, Burivoy Ahmedov, Navoi scholar Aziz Qayumov, and Pirmat Shermuhammedov in the formation and development of this topic.

Keywords: educational-biographical novels, uzbek literature, artistic depiction, analysis, originality, historical figures, society and man.

Kirish.

Ma’lumki, o‘z navbatida har bir jamiyat o‘z muammosini yuzaga keltiradi, shunga muvofiq insoniyatning hayotga bo‘lgan munosabati ham har bir davrda turfa xil o‘zgarishlarga uchraydi. Yetmish yil davomida o‘z tili va dinidan, milliy qadriyatlaridan uzoqlasha boshlagan bir vaqtda, mustaqillikning qo‘lga kiritilishi hayot va jamiyatdagi o‘zgarishlarga jiddiy munosabat bildirish tuyg‘usini uyg‘otdi. Hayotda, jamiyatda ro‘y bergan o‘zgarishlar badiiy adabiyotda o‘z inikosini topadi. Shu jihatdan jamiyat va inson, inson va insonlar aro, tabiat va shaxs o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar teranroq badiiy adabiyotda tasvirlanmoqda. Bunda o‘ziga xos poetik obrazlarni, inson botiniy olamidagi ziddiyatlarni haqqoniy ko‘rsatib berish an’anasi ma’rifiy xarakterdagi asarlarda yanada teranroq o‘z aksini topmoqda. Bu esa bunday xarakterdagi asarlarni o‘rganish va tahlil etish muammosini yuzaga chiqarmoqda.

Adabiyotlar tahlili.

Cho‘lpon, Usmon Nosir, M.Shayxzoda haqidagi ma’rifiy va ma’rifiy-biografik romanlari yozilishida Naim Karimovning dunyoga keltirgan va kamolga yetkazgan oilaviy hamda ijtimoiy-adabiy muhit bilan bir qatorda, uning adabiyotshunos, matnshunos, munaqqid, essenavis, metodolog, dramaturg kabi qirralari faol ishtirok etib, tarixiy-ma’rifiy yondashuv usuli rivojlanishida muhim omil sifatida o‘z vazifasini o‘tagan. Shuningdek, Naim Karimovning “Maqsud Shayxzoda” nomli ma’rifiy-biografik romanida Mirzakalon Ismoiliy, Hakim Nazir, Sora Eshonto‘rayeva, Shukur Burhonov, Yo‘ldosh Muqimov, Maryam Yaqubova, Hafiz Abdusamatov, Jumaniyoz Jabbarov, Shukrullo, Yusuf Shomansur, Turob To‘la, Jonrid Abdullaxonov xotiralari; shoirning Asqad Muxtor, Jamol Muharramli, Jumaniyoz Jabborov bilan yozishmalari; arxiv xujjatlari hamda Maqsud Shayxzoda hayotiga tegishli ko‘plab fotosuratlardan o‘rinli foydalangan. Ayrim asarlarini tahlilga tortgan. Ularning yozilish tarixi va taqdiri haqida teran mulohazalar yuritgan. Mana shu uslubiga qarab adibning Xayriddin Sulton yaratgan “Boburiynoma” ma’rifiy romaniga murojaat qilgan degan fikrga kelishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ma’rifiy-biografik romanda muammoga yondashuv imkoniyatlari ancha keng bo‘ladi.Tarixning muayyan bosqichida yashagan ijodkor inson siyratidagi millat va xalq ruhiga yaqinlikka e’tibor qaratiladi. Ijodkorning ijod olamiga chuqurroq kirib boriladi. Adabiy asarlarini tarixiy-genetik, madaniy-tarixiy, psixologik, sosiologik, biografik metodlar asosida tadqiq etish va san’at hodisasi sifatida o‘rganish uchun imkoniyatlar yuzaga chiqadi. Ijodkor shaxsi shakllanishida oila, ijtimoiy muhit, davrning muhim rol o‘ynashi bilan cheklanib qolinmay, shoir siyratini uning badiiy asarlarining mavzusidan, ruhiy biografiyasidan axtarish, ijodining ma’naviy-ruhiy jihatlarini o‘rganishga e’tibor ortadi. Asardagi badiiy obraz – ijodkorning dunyo bilan shartli va shartsiz aloqasi ta’sirida paydo bo‘lgan kechinmalari ifodasi

bo‘lib ko‘rinadi. Unda ma’lum bir shaxs ma’rifatiga xos belgilar: ijodkorni qiynagan dardlar, hissiyotlar, o‘y-fikrlar tajalli etadi. Bu sababdan ham, ma’rifiy-biografik romanda intuitivizm va psixoanaliz muhim o‘rin tutadi. Yanada to‘g‘rirog‘i, muallifning shoirga bo‘lgan shafqat va dardkashlik pozitsiyasida turishi badiiy butunlikni intuitiv tarzda tushunish hamda talqin qilishga olib keladi. Shu jumladan, Naim Karimov “kechinma va his-tuyg‘ularni” ma’rifiy roman markaziga qo‘yadi. Ijodkor shaxsi, uning dunyoqarashi, insoniy qiyofasi masalasiga jiddiy qaraydi. Adib, “Cho‘lpon” ma’rifiy romanida qahramonni yoritish uchun uning asarlariga murojaat qilar ekan. Uning hayot yo‘li, ko‘p qirrali biografiyasi negizida shoirning asarlarini o‘rganadi. Mavjud bo‘lgan dalillarni jonlashtirishga, ayrim yetishmagan o‘rinlarni tasavvur mushohada asosida boyitishga harakat qiladi. Naim Karimov ma’rifiy romanlarida shoirlar biografiyasini davrning ijtimoiy, madaniy, ma’rifiy shart-sharoitlari bilan chambarchas bog‘lab talqin qiladi.

Tahlilar va natijalar.

Naim Karimovdan farqli o‘laroq tarixchi sifatida faoliyat olib borgan Bo‘rivoy Ahmedovning “Amir Temur”, navoiyshunos Aziz Qayumovning “Alisher Navoiy”, adabiyotshunos va nosir Pirmat Shermuhammedovning “Beruniy”, “Zamaxshariy”, “Robiya Sultonbegim” haqidagi asarlarida yuqoridagi xususiyatlar biroz yetishmayotgandek nazarimizda. Ayrim joylarda Bo‘rivoy Ahmedovning “Amir Temur” ma’rifiy romanida bu xususiyatlar yetishmagani uchun romanni tarixiy roman deb ham atashdi. Lekin bu roman tarixiy roman emas, chunki tarixiy roman bo‘lish uchun tarixiylik bilan baravar holatda badiiylik va to‘qimalikni ham roli katta ekanligini bilamiz. Bu sanab o‘tilgan ijodkorlarning asarlarida yoritilgan fenomen darajasidagi shaxslarning hayot yo‘li tarixiy hujjatlar asosida keltiriladi.

Naim Karimovning “Cho‘lpon” ma’rifiy romanida shoir hayot yo‘lini ijtimoiy-xronoligik yoritishda uning ilmiy-badiiy siymosiga murojaat qilgan holda bayon etadi. Cho‘lpon yashagan davr va o‘sha muhit odamlari qiyofasi, xarakteriga xos chizgilari tarixiy-ijtimoiy aspektda–ma’rifiy biografiyasi ijtimoiy-adabiy muhit kontekstida bayon etiladi. Muallif asarga Cho‘lponga tegishli bo‘lgan barcha manbalarni faol jalb etishga harakat qiladi. Roman mundarijasi sarlavhasi ham tarixiy-ijtimoiy, adabiy muhitidan ilhomlangan, ta’sirlangan holda xos yondashuv bilan tuziladi. Mundarijada shoirga tegishli asarlarni sarlavha qilib olinishi asosida muallif, shoirning butun bir hayot yo‘lini shoirning o‘zining ijodiy merosi bilan ochib berishga urg‘u qaratmoqchidek tushuncha hosil qiladi. Naim Karimovning ma’rifiy romanlarini o‘qish jarayonida, biz uni mohir ruhshunos sifatida ham tanib olamiz. Chunki, adib o‘z qahramonlarining ko‘nglida kechgan yorqin lahzalarni tiklashga, ijodkor sifatida emas, oddiy bir inson qalbi bilan his qilishga urunadi. Kuzatishlar natijasida, bu ma’rifiy romanlar tarixiy sanalar, manbalar, tarixiy shaxslar aniq ko‘rsatilgan, konrekt shaxs va tarixiy davr voqealari, ijod va ijod psixobiografiyasi tasvirlangan mustaqil tadqiqot ekani ma’lum bo‘ladi. Faktlarning aniqligi bu xildagi asarlarga ilmiy-publisistik bayon usulini olib kirganiga guvoh bo‘lamiz. Tasvirlangan lavhalarda kuchli badiiylik va pafosning ta’minlanmaganligi kitobxonni zeriktirib qo‘ymaydi. Ilmiy ocherk xarakterini o‘zida mujassam etgan lavha va talqinlar asarni mutoala qilayotgan insonni voqealar rivojini bilishga

bo‘lgan ishtiyoqini ortirib, o‘z ortidan ergashtira oladi. Adibning ma’rifiy romanlaridagi bayon tarzining ohang talqini turlanib turishi natijasida, ularning biri ikkinchisini to‘ldiradi, badiiy jihatdan yuksaltiradi. Asar ommaboplik xususiyatiga ega bo‘lib, muallifning mahoratini yanada kengroq ochib berishiga sabab bo‘ladi. Adib ijtimoiy-tarixiy sharoit, hayotiy vaziyat va voqealar bilan bog‘liq lavhalarni talqin qilayotganda ilmiy tadqiqqa asoslansada, janrdagi badiiylikdan kelib chiqqan holda ilmiylikdagi aniqlikka rioya qilmagandek, o‘z xissiy tuyg‘ularini ham voqealarni tasvirlashda qalamga olayotgandek tasavvur uyg‘otadi. Bu holat asosan “Cho‘lpon” ma’rifiy romanida ko‘zga tashlanadi. Ma’rifiy romanlarida asosli dalilar, arxiv hujjatlari, davriy matbuot nashrlari, tergov stenogrammalari, zamondoshlarining xotiralariga tayanib syujetlar yaratiladi. Adib Cho‘lponning hayoti, taqdir-qismati va uning ko‘ngil kechinmasidan o‘tib, davr muhiti va fojealariga, siyosati, davr mafkurasining o‘sha zamondagi shiddatli, ayovsiz to‘lqini ortidan kelib chiqqan yo‘qotishlarga asosli dalillar keltirib xolisona tahlil qilishga erishgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi deb o‘ylaymiz. Bu mavzu doirasidagi ilmiy izlanishlarimiz va tekshiruvlarimiz natijasida shu fikrga kelindiki, Naim Karimov, Xayriddin Sultonning “Boburiynoma” ma’rifiy romanining shakliy butunligini o‘rganib chiqqan bo‘lishi kerak. Chunki har bir ijodkor o‘zidan oldingi yozilgan shu shakldagi asarlarni o‘qib chiqadi. Va qaysidir ma’noda shakl jihatdan buni o‘z asariga olib o‘tadi, lekin o‘z tafakkuriga hamda ijodiy estetikasiga sodiq qolgan holda albatta.

Muallifning yana bir ma’rifiy romani kompozitsiyasi “Maqsud Shayxzoda”da esa shoir asarlari kompozitsiyaga asos qilib olinmasa-da, adib Maqsud Shayxzoda ma’rifiy biografiyasini davr kontekstida yoritish an’anasiga sodiq qolib, shoir biografiyasiga oid eng dolzarb nuqtalari teran va izchillik bilan kuzatiladi. Bu kuzatishlar natijasida,tarjimai holiga oid manzaralar shoir qalbidagi kechinmalarning paydo bo‘lishiga zamin yaratganligi ko‘rinadi. Va bu ichki kechinmalar asarda badiiy ifodalanib, poetik talqin qilinadi. Adib barcha ma’rifiy romanlarida o‘zi o‘rganayotgan va olib chiqqan qahramoni, ya’ni har bir ijodkorning shaxsiyati, ijodi, u yashagan davr muhitini umumlastirishga, yaxlitlashtirib tasvirlashga urunadi. Bu asarlar orqali kitobxonlar ommaga ma’lum bo‘lmagan, adabiyotshunoslikda faol qo‘llanilmagan xotiralar, arxiv hujjatlari bilan yaqindan tanishadi. Bu ma’lumotlarda hayot haqiqati mujassamlashgan bo‘lib, siyosiy keskinlashuv har zamonda va har makonda jamiyat yaralibdiki, yuz berishini, siyosiy jarayonlar o‘z tuzumiga qarab hech qachon to‘xtamasligini tushunib olamiz. Bunday siyosat tuzumi erk va ozodlik targ‘ibotchisi bo‘lgan Maqsud Shayxzodaning ham og‘ir qismatlarni boshdan kechirishga majbur etadi. Uni xavfli shaxs sifatida, qurilishga yuborish to‘g‘risida hukum chiqariladi. Maqsud Shayxzoda bu hukumga qarshi bo‘lganligi uchun uni uch yillik surgunga yuborish haqidagi hukum to‘qqiz oylik qamoqdan so‘ng, Toshkentga surgun muddatini o‘tash uchun keladi. Shundan so‘ng bu o‘lka uning ikkinchi vataniga aylanganligini go‘zal talqinlarda yoritib berilgan. Muallifning bu ma’rifiy romani uslub jihatdan ham boshqa romanlaridan ajralib turadi. Va bu ma’lumotlar orqali o‘quvchiga yana ham kengroq tushuncha berishga erishmoqchiligini sezasiz. Shu boisdan bo‘lsa kerak, “Iskandar Zulqarnayn” ertak-dostoni, “Jaloliddin Manguberdi”, “Mirzo Ulug‘bek” dramalari haqida yozganda, asardagi ma’lumotlardan tashqari, qahramonlarning real hayotlaridan ayrim manzaralarni gapirib o‘tadi. Bunday ijodkorona yondashuv va yozish

uslubi orqali asardagi qahramonlar hamda, voqelikning real ildizlarini kitobxonga ochib beradi.

Naim Karimov uslubiy individualligini shoir haqidagi, o‘sha davrda yashagan zamondoshlari hikoyalarining keltirilishida ham ko‘rishimiz mumkin. Bunday hikoya va xotiralarni Rus adabiyoti klassikasida uchratamiz. Masalan, Lev Tolstoy haqidagi o‘z zamondoshlarining xotira va hikoyalari shular jumlasidandir. Shunday xotira va hikoyalardan turtki olgandek, muallif ushbu romanida Maqsud Shayxzoda haqidagi xotira va hikoyalarga keng o‘rin berdi. Mana shunday lavhalardan biri, Moskvadagi adabiyot institutida tahsil olayotgan bir guruh o‘zbek yigitlarining holidan xabar olishi, ularni mehmon qilishi, shunday unutilmas lahzalarni yashagan talabalardan biri – Sayyor hikoya qiladi.

“Taom ustida esa, ayniqsa, shirin suhbatlarni aytmaysizmi? Domla shunchaki gap orasida Iskandar Zulqarnayndan tortib Jahongir Temurgacha, Beruniydan Jordano Bruno, Ulug‘bekkacha, mamalakatlar tarixi-yu, turli xalqlar urf-odatlarigacha so‘zlab ketdilar…” [1.245.b].

Muallifning voqelikni imkon qadar jonli usulda ifodalashi natijasida shoirning pedagogik sifatlari bilan birgalikda inson sifatidagi xislatlari ham o‘rtaga chiqadi. U talabalarga nafaqat moddiy, balki ma’naviy ozuqa berishi, hech bir soniyani behuda o‘tkazmasligini, har vaqt yosh kelajak avlodga ilm-ma’rifat taratishni o‘z oldidagi ustuvor maqsad deb bilganligini muallif alohida hurmat bilan tasvirlaydi. Kitobxonga Shayxzodaning kunlari mana shunday ilm ziyosini tarqatish, tun va tonglari esa adabiyot, ijod bilan o‘tishini yetkazishni uddalaydi. Naim Karimov ham Maqsud Shayxzodani bilgan, tanigan edi. Shu sababdan ham bu ma’rifiy romanida shaxsiy qarashlari, taassurotalari yuzasidan lirik chekinishlarni hosil qilgan. Aniqroq aytadigan bo‘lsak, o‘z xotiralaridan ham keng qamrovda foydalangan. “Jaloliddin Manguberdi” sahna asarining ilk namoyishlarini ko‘ra olmaganini va o‘sha vaqtlarda muallif ancha yosh bo‘lganini aytsa, “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi yozib tugatilganda esa birinchilardan bo‘lib eshitganligini faxr bilan eslab ketadi. Ayni mana shunday tasvirlar ma’rifiy romanning esseistik xususiyatlarini namoyon etadi. Bunday lavhalar, xotiralarga ega bo‘lishi hamda, buni asarida tartibli qo‘llashi, muallifdagi uslubiy o‘ziga xoslikning rivojlanishiga ulkan zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Naim Karimov, o‘zining “Mirtemir” ma’rifiy romanini 8 ta fasl ko‘rinishida tartiblaydi. Asardagi birinchi fasl “Shoir tug‘ilgan tuproq”da keltirilgan birinchi sarlavha “Jafokash Turkiston” deb nomlanib, shoir qalamiga mansub she’rdan to‘rtlik epigraf sifatida keltiriladi.

Mana o‘sha shoirning qalb nolalari bilan yo‘g‘irilgan she’r.

Ha, men turkistonlik, Turkistondanman,
Olis bobolarning oltin tuprog‘i.
Munglik va jafokash bir jahondanman,
Jafokash jahonning qadim aymog‘i.

Muallif shoirning shu she’ri asosida Turkiston tarixini ham qisqa satrlarda berib o‘tib,Turkistonning Yassi qishlog‘ida tug‘ulib,o‘sha yerda yashgan musulmon olamidagi diniy timsollardan biri bo‘lgan Xoja Ahmad Yassaviy haqida ham ma’lumotlar beradi.Ushbu

ma’lumotlar orasida she’riyat mulkining sultoni Alisher Navoiyning“Nasoyim ul muhabbat”asaridagi Ahmad Yassaviy haqidagi satrlarni beradi.

Xulosa.

Xulosa o‘rnida yozuvchi mazkur yo‘nalishda ijod qilar ekan tarixiy hujjatlarga, real shaxsning real hayotida yuz bergan hodisa va voqealarga asoslanishi shart. Biroq bu faktlarga,tarixiy hujjatlarga badiiy jilo bera olishni bilishi kerak. Yuqorida keltirilgan, o‘zbek adabiyotining ma’rifiy romanchilik yo‘nalishidagi ijod namunalarini xalqqa taqdim qilgan ushbu yozuvchilar, o‘zlari olib chiqqan shaxsiyatlari haqidagi tarixiy hujjatlarga mana shunday badiiy jilo berishni uddalay olishdi, deb asarning yukiga qarab bemalol ayta olamiz.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Karimov N. Maqsud Shayxzoda. Ma’rifiy-biografik roman.-T.: Sharq.2009.
2. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati.–T.: Akademnashr.2013.
3. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. –T.; A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti.2004.
4. N. Karimov. Usmon Nosir.Ma’rifiy-biografik roman.-T.: Fan.2022.
5. Xayriddin Sulton. Boburiynoma. Ma’rifiy roman.-T.: Sharq.1997.

Djabbarova Kizlarhan Abdulakhatovna
Senior Lecturer, Uzbek State University of World Languages

Karimova Ziyoda Asqar qizi
Student, English Language 1 Faculty, Uzbek State University of World Languages

LINGUO-PRAGMATIC FEATURES IN DIALOGUES
(In the examples of the story “Cat in the rain”by E.Hemingway)

Annotation. This article explores the linguo-pragmatic features in dialogues based on Ernest Hemingway's short story *Cat in the Rain*. The study focuses on verbal and non-verbal communication, emotional expression, and the use of symbolic language in dialogues between characters. The article highlights how pragmatics and context shape meaning, emphasizing the protagonist’s dissatisfaction and emotional struggle. The linguistic analysis includes speech acts, modality, and stylistic devices that reflect the characters' relationships and emotions. The findings contribute to understanding how dialogue serves as a medium for both explicit and implicit communication in literary texts.

Keywords: linguo-pragmatics, dialogue, speech acts, modality, symbolic language, verbal communication, non-verbal communication, context, emotional expression, pragmatic analysis.

Джаббарова Кизлархан Абдулахатовна
Старший преподаватель, Узбекский государственный университет мировых языков

Каримова Зиёда Аскар кизи
Студент, Факультет английского языка 1, Узбекский государственный университет мировых языков

ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ В ДИАЛОГАХ
(На примере рассказа «Кошка под дождем» Э. Хемингуэя)

Аннотация. В данной статье рассматриваются лингвопрагматические особенности диалогов на примере рассказа Эрнеста Хемингуэя *Кошка под дождем*. Исследование фокусируется на вербальной и невербальной коммуникации, выражении эмоций и использовании символического языка в диалогах между персонажами. В статье подчеркивается, как прагматика и контекст формируют значение, акцентируя

внимание на неудовлетворенности и эмоциональной борьбе главной героини. Лингвистический анализ включает речевые акты, модальность и стилистические приемы, отражающие взаимоотношения и чувства персонажей. Результаты исследования способствуют пониманию роли диалога как средства явной и скрытой коммуникации в литературных текстах.

Ключевые слова: лингвопрагматика, диалог, речевые акты, модальность, символический язык, вербальная коммуникация, невербальная коммуникация, контекст, эмоциональное выражение, прагматический анализ.

Djabborova Qizlarxon Abdulaxatovna
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o‘qituvchisi

Karimova Ziyoda Asqar qizi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ingliz tili fakulteti talabasi

DIALOGLARDAGI LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLAR (E. Xemingueyning “Yomg‘irda qolgan mushuk” hikoyasi misolida)

Annotatsiya. Ushbu maqola Ernest Hemingueyning *Yomg‘irda qolgan mushuk* hikoyasidagi dialoglarning lingvopragmatik xususiyatlarini o‘rganadi. Tadqiqot nutqiy va nutqdan tashqari kommunikatsiya, hissiy ifoda va personajlar o‘rtasidagi muloqotda ramziy tilning qo‘llanilishiga qaratilgan. Maqolada pragmatika va kontekst ma'noni qanday shakllantirishi ta’kidlanadi, ayniqsa bosh qahramonning noroziligi va hissiy iztirobi aks ettiriladi. Lingvistik tahlil nutq aktlari, modal birliklar va stilistik vositalarni o‘z ichiga oladi, bu esa qahramonlar o‘rtasidagi munosabatlarni va ularning his-tuyg‘ularini yoritib beradi. Natijalar dialogning adabiy matnlardagi ochiq va yashirin kommunikatsiya vositasi sifatidagi rolini tushunishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: lingvopragmatika, dialog, so‘z gaplar, modal birliklar, ramziy til, og‘zaki muloqot, noverbal kommunikatsiya, kontekst, hissiy ifoda, pragmatik tahlil.

In the second half of the 20th century the general orientation of modern linguistics is characterized by getting older of the system of structural study of the language and increasing the interest in “language in action,” “language in situation”; transferring to the researches of language as the unit of communication, which appears in a wide social context. It stimulated the growing activity in the outwork of the issues of Functional linguistics, Sociolinguistics, Psycholinguistics, Communicative linguistics, Text-linguistics and Linguopragmatics. Pragmatics is one of the branches of linguistics, which helps us look beyond the literal meaning of words and utterances and allows us to focus on how meaning is constructed within context. The main postulate of pragmatics is the survey of the facts of language in the aspect of

human activity put forward the plan of defining of linguo-pragmatic problems of Speech relationship. Language is studied as Speech material in the aspect of human activity in a wide social context.

Mainly, interest in linguopragmatic theme is explained by its role in the life of modern society: the increase of the units of mass information, the necessity of aim-directed formation of social mind, an increase in verbal principles of adopting the culture in the process socializing members of society. N. Chomsky began to deal with this problem in generative linguistics with his view of point: “homogeneous idealistic is an ideal speaker-listener in a completely homogeneous speech community.”

"... on the essence of the pragmatics of lexical elements, two conclusions can be drown. Firstly, pragmatics cannot act in opposition to the semantics of linguistic units. Pragmatics is considered as its variety, representing the anthropocentric nature of linguistic units. Secondly, pragmatics depends on a system of extra-linguistic relations and meanings (connotations), as a result of which it is necessary to analyze the proper pragmatic and connotative meanings at the moment of the act of communication" (Khamzaev, S. A. (2021). Pragmatic Function of Linguistic Units. International Journal of Social Science and Human Research ISSN (print), 2644-0679. Pp.3903-3908). This way Pragmatic linguistics appeared under the result of relation of language and speech communication. It is clear that , from anthropological view point , the trend of the study of non-lingual context appeared in linguistics long ago. Also, in 1864 M. Brial explained the linguistic facts of history of people, he underlined that everything in language is attended to a person, socially, the human is not separated from society in which he lives. And really, the problems of Speech activity, the problems of the sender and receptor, in this or that level were surveyed by researchers, especially who worked on the study of language functions. R.Yakobson created the formulae in which any type of Speech communication is pointed out:

Addresser- code or message- addressee.

Speech act or speech manners are truly the creators of the process of communication. Content-able -pragmatic information reflects social and individual pragmatic status of communicants. Actually, dialogues, monologues in text can be considered to be the subject matter of research in linguopragmatics, where Speech communication is looked through as a component of literary communication.

We know that linguopragmatic analysis is based on lexico-grammatical and linguo-stylistic interpretation of the context. Verbal signals form pragmatic ideas and pragmatic effect in Speech communication. We can look through them on the material of communicative act in various types. Let us take the story by Ernest Hemingway “Cat in the rain” and see the role of verbal and non-verbal means in dialogues.

The dialogue between the American wife and husband:

…’I’m going down and get that kitty,’ the American wife said. *’I’ll do it* ,’ her husband offered from the bed. *’No, I’ll get it*. The poor kitty out trying to keep dry under a table.’

Here the wife abruptly interrupts her husband’s offer, signaling her desire to take care of the cat herself, and not satisfied by her husband’s offer. This interruption shows her emotional

urgency and personal involvement in the action. We can see in the wife's words 'poor kitty' her own comparison with the cat, who was left in the rain and trying to protect herself.

To reveal the vividness of the situation non-verbal language is used in the following situation:

The wife went downstairs and the hotel owner stood up and bowed to her as she passed the office.

The bow and his physical posture convey the hotel keeper's respect and formality, a contrast to wife's more casual, personal interaction with him. When the wife explained that she wanted to save the cat, he answers in his language and then in English: *'Si, Si, Signora, brutto tempo, It is very bad weather.'* This dialogue helps to convey the hotel-keeper's attentiveness to the wife's presence.

In the other dialogue with the maid, the wife and that maid's reaction to the cat shows the difference in their reaction to the situation:

'*A cat?'* the woman laughed. *'A cat in the rain'* '*Yes*, -'she said, *'under the table,* Then, *'Oh, I wanted it so much. I wanted a kitty.'* When she talked English, the maid's face tightened. *'Come Signora,'* she said '*We must get back inside. You will be wet.'*

'I suppose so,' said the American girl.

The usage of the words "wife, woman and girl" in dialogues between the wife with her husband, hotelkeeper and maid also hints at different attitudes to her situation in life. The maid is surprised that a young woman- guest is interested in the cat who was left under the rain, the hotelkeeper as an owner is not indifferent to his guests, and as a man is caring the woman, and the husband accepts her desire as everyday wills and intentions of his wife. In the tone and use of the modality 'I suppose so' in the woman's answer we see her passive acceptance of the situation regretting that no one is interested in the other person's misfortune or pains in her heart.

The woman hopes for the future and the symbolic words "mirror, spring , own silver, kitty ,new clothes" are used to describe her emotions and woman nature:

'And I want to eat at a table with my own silver and I want candles. And I want it to be spring and I want to brush my hair in front of a mirror and I want a kitty and I want some new clothes.'

George is emotionally far from his wife's needs and rude with her:

'*O shut up and get something to read*,' George was reading again.

The colloquial word 'shut up' expresses, that the husband was fed up with her interruptions while he was reading.

The young woman is dissatisfied from life and her husband's relationship and indifference to her and hopes of other life with full of care and feeling herself as a woman, beloved wife and a mother who is responsible and caring her family: *"I wanted it so much, 'she said.' I don't know why I wanted it so much. I wanted that poor kitty. It isn't any fun to be a poor kitty out in the rain".*

Here the author revealed the misfortune of the woman as a wife, her longing and expressed her hopes and desires by caring the kitten and at the same time comparing herself

like a kitten in the rain. This shows the wife's yearning, a deep desire for something, in the example of a cat, to soothe her inner dissatisfaction of her state. The use of repeating the same hints at the wife's struggle to articulate her emotions and reflects confusion. The husband's careless attitude and the way of replying from the bed irritated the wife and wanted to draw his attention more. Looking at the mirror she continued: *"Don't you think it would be a good idea if I let my hair grow out?* " she asked looking at her profile again.

George looked up and saw the back of her neck, clipped close like a boy's

'I like it the way it is.'

"I get so tired of it,'she said. '*I get so tired of looking like boy.'*

"You look pretty darn nice,' he said.

In the other example a dialogue can reflect a dismissive way of indicating the husband's indifference: '*Yeah?'* George said from the bed…"*Oh, shut up and get something to read*," George said. He was reading again. The verb "to read something" gives us positive notion as to get some information, or the sign of literacy or being busy with useful thing, but in the context, it applies as if it is the way that the husband did not want to speak or to pay attention to wife.

At the end of the story the maid brought a big tortoiseshell cat pressed tight against her and swung down against her body. *'Excuse me,'* she said*,' the padrone asked me to bring this for the Signora.'* In this example the address "excuse me" is formal variant which shows the hotel keeper is ready to fulfill all the needs of guests and he caught the cat and sent it to the Signora by the maid. The word Signora is written with capital letters to show the hotelkeeper's double respect to the guests. The ending sentence in the story gives hope to every reader who read the story, that in some way the woman got respect and satisfaction coming to the hotel.

The study of linguo-pragmatic features in dialogues has been an essential aspect of modern linguistic research, emphasizing the interrelation between language, context, and communication. Linguo-pragmatics, as a subfield of linguistics, investigates how linguistic structures function in real communicative situations and how meaning is shaped by extralinguistic factors, including speaker intentions, social norms, and cultural background.

Pragmatics as a linguistic discipline emerged from the works of scholars such as Austin (1962), who introduced the concept of speech acts, and Searle (1969), who expanded on the classification of speech acts into directives, expressives, commissives, declarations, and assertives. Grice's (1975) theory of implicature and cooperative principles further contributed to understanding how indirect meanings are conveyed in dialogues. Yakobson (1960) also played a crucial role in defining the communicative model, identifying six essential components of speech: addresser, message, addressee, contact, code, and context.

When analyzing literary dialogues, linguists such as Leech (1983) and Levinson (1983) have emphasized the pragmatic functions of politeness and indirect speech acts. Their research highlights how dialogues in literary works serve to build characters, express emotions, and create pragmatic effects such as irony, sarcasm, and persuasion.

Hemingway's writing style, particularly in *"Cat in the Rain"*, reflects his use of minimalist language and pragmatic economy, where dialogues convey deeper meanings beyond explicit words. Critics such as Lodge (1992) and Simpson (2004) have analyzed

Hemingway’s style as an example of subtext-driven communication, where characters' suppressed emotions and power dynamics become evident through linguistic pragmatics.

Dialogue expresses not only the thought of general characters, but also it expresses different moods, feelings and emotions. Dialogue is characterized by the intonation richness, so, various types of emphatic intonation can be met in dialogues, in which the spiritual mood of the speaker by choosing the certain lexicon in free speech.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Carbaugh, D. (2013). On Dialogue Studies. 1(1). https://works.bepress.com/donal_carbaugh/33/download/

2. Khamzaev, S. A. (2021). Pragmatic Function of Linguistic Units. International Journal of Social Science and Human Research ISSN (print), 2644-0679. Pp.3903-3908

3. Sandrine Zufferey, Jacques Moeschier and Anne Reboul Linguistic Theory and Pragmatics., Cambridge university press,2019.

4. https://www.litcharts.com/literary-devices-and-terms/dialogue#:~:text=Dialogue%20is%20the%20exchange%20of,name%20of%20the%20person%20speaking

UO‘K: 398.2

Asqarova Jamilaxon Baxodirovna,
filologiya fanlari doktori, O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti yetakchi ilmiy xodimi
E-manzil: jamilakhon@inbox.ru

SEHRLI ERTAK OBRAZLARI TIZIMI

Annotatsiya. Maqolada jahon folklorshunosligida sehrli ertak personajlarining o‘rganilganligi, tasnifi, tiplari qiyosiy solishtirilgan. Personaj, obraz va qahramon atamalari o‘rtasidagi farqlar tahlil qilingan va o‘zbek xalq sehrli ertaklaridagi obrazlar tizimida qahramonning tutgan o‘rni va roli tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: folklor, sehrli ertak, personaj, obraz, qahramon, tip.

СИСТЕМА ВОЛШЕБНЫХ СКАЗОЧНЫХ ОБРАЗОВ

Аннотация. В статье проводится сравнение изучения, классификатsiи и типов волшебных сказочных персонажей в мировом фольклоре. Анализируются различия между терминами персонаж, образ и герой, исследуется место и роль героя в системе образов узбекских народных волшебных сказок.

Ключевые слова: фольклор, волшебная сказка, персонаж, образ, богатырь, тип.

SYSTEM OF MAGICAL FAIRY-TALE IMAGES

Annotation. The article compares the study, classification, and types of magical fairy tale characters in world folklore. The differences between the terms character, image and hero are analyzed and the place and role of the hero in the system of images in Uzbek folk magic tales is researched.

Key words: folklore, magical tale, character, image, hero, type

Kirish. Ma’naviy qadriyatlar tizimining ajralmas qismi bo‘lgan xalq og‘zaki ijodi namunalarida, xususan, ertaklarda xalqning tafakkur jarayoni, olamni estetik idrok etish tarixi, yashash tarzining mavjud bosqichlari, urf-odatlari, axloqiy qarashlari mukammal ko‘rinishda badiiy aks etadi. “Insoniyat yaratgan bebaho madaniyat durdonalari eng avvalo har qaysi millatning folklor san’atida mujassam topgani hammamizga yaxshi ma’lum... Folklor san’ati, ta’bir joiz bo‘lsa, bu – insoniyatning bolalik qo‘shig‘idir” [1, №68]. Shu nuqtai nazardan o‘zbek ertakshunosligida sehrli ertak personajarining o‘ziga xos xususiyatlari va vazifalarini tizimli o‘rganish, personajlarning o‘ziga xos belgilariga ko‘ra tizimlashtirish, klassifikatsiya

qilish va ularni funksional tiplarga ajratish bilan bog‘liq nazariy masalalarni fundamental tadqiq etish dolzarb ilmiy muammolaridan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Sehrli ertakda obrazlar tizimi dunyo folklorshunoslari tomonidan atroflicha o‘rganilgan. Rus olimi V.Y.Propp 1928 yilda nashr ettirgan “Ertak morfologiyasi” asarida sehrli ertaklarning tuzilishiga oid tadqiqotlar olib borib, izlanishlar jarayonida yuzta rus xalq ertagi matni tarkibini tahlil qilgan. Olimning fikricha, rus ertaklarida asosan yettita harakatlanuvchi personaj mavjud [3, 73].

1. Raqib
2. Homiy
3. Yordamchi
4. Malika va uning otasi bilan bog‘liq harakatlar
5. Yuboruvchi
6. Qahramon
7. Soxta qahramon.

R.Drori sehrli ertaklarda asosiy 5 ta rol mavjudligini ta’kidlaydi:

1. A qahramon
2. V qahramon
3. Yo‘l ko‘rsatuvchi
4. Sovg‘a beruvchi
5. Mag‘lub [14, 32].

B.Kerbelite sehrli ertaklarni tahlil qilar ekan, personajlarni 5 guruhga bo‘ladi:

1. Qahramon
2. Qahramon yaqinlari
3. Antipod
4. Antipod yaqinlari
5. Neytral personajlar [13, 50].

U.M.Melatinskiy, S.Y.Neklyudov, Y.S.Novik, D.M.Segal kabi tadqiqotchilar personajlarni uch guruhga (harakatlanuvchi shaxslar uchligi) bo‘ladilar [7, 11]:

1. Ertak ob’ekti – kurash bilan erishiladigan ob’ektlar
2. Sinovchilar – ertakdagi harakatni “uyg‘otuvchi”, yo‘lga soluvchi, qahramonga ta’sir o‘tkazuvchi va faollashtiruvchi
3. Ertak ob’ektini qo‘lga kirituvchi

O‘z navbatida harakatlanuvchi personajlar uchligi yetti toifaga bo‘linadi:

Tip	Funksiyalar	Harakatlanuvchi personajlar
I	L	Tugallama (final)ning ahamiyati
	λ	Sehrli buyumlar
II	A	Raqib
	α	Homiy
III	B	Yordamchi

	β	Qahramon
		Soxta qahramon

Ye.Novik ertak personajlarini semantik belgilariga koʻra guruhlarga boʻladi:

1. Jinsiga koʻra (erkak/ayol);
2. Yoshiga koʻra (qari/yosh/bola);
3. Individual xususiyatiga koʻra (oddiy/gʻaroyib, antromorf/antromorf emas);
4. Oiladagi maqomiga koʻra (ota-ona/bola, katta/kichik, tugʻishgan/oʻgay);
5. Ijtimoiy belgisiga koʻra (podsho/dehqon, boy/kambagʻal, xoʻjayin/xizmatkor);
6. Lokal belgisiga koʻra (uy/oʻrmon, oʻz yoki oʻzga podsholik, uzoq/yaqin) [8, 128].

Tadqiqot metodologiyasi.

Mavzuni yoritishda oʻzbek xalq sehrli ertaklaridagi obrazlarni ertakda tutgan oʻrni va funksiyalariga koʻra tiplarga ajratishda **s**truktural-tipologik metoddan, obrazlarning poetik tasvir va atributlariga koʻra guruhlarga ajratishda struktural-semantik metod asosida ish olib borildi.

Tahlil va natijalar.

Oʻzbek xalq sehrli ertaklaridagi obrazlarni tizimlashtirishdan avval shu sohadagi atamalar farqini aniqlashtirib olishni maqsad qildik.

Sehrli ertaklardagi “qahramon” “personaj” va “obraz” atamalari oʻrtasidagi farqlar nimadan iborat? Ushbu atamalar folklorshunoslikda adabiyotshunoslikdagi kabi aynan qoʻllaniladi. Folklorshunoslikka oid nazariy tadqiqotlarda “obraz”, “personaj” va “qahramon” atamalari aralashtirilib ishlatiladiki, ular orasidagi aniq farqlar aytilmaydi.

Adabiyotshunoslikka oid manbalarda “personaj” soʻzi harakatlanuvchi shaxs, obraz, xarakter kabi ma’nolarni bildirishi aytiladi.

“Badiiy asarda ozmi-koʻpmi tasvir etilgan har bir shaxs “personaj” deb ataladi. Personaj (fr.) – kishi, shaxs degani...” [5, 103].

“Personaj (lot. persona — shaxs) — san’at va badiiy adabiyotda muallif tomonidan tasvir etilgan shaxs. Personajlar asar voqealarida qatnashuvi, tasvirlanishi va umumlashtirilishi darajasiga koʻra ***asosiy personajlar, yordamchi personajlar, epizodik personajlar***ga boʻlinadi. Badiiy asar voqealarining boshidan oxirigacha faol qatnashgan va yozuvchining asosiy gʻoyaviy estetik niyatini tashuvchi shaxslar asosiy personajlar hisoblanadi. Ular asarning ***bosh qahramon***i deb ataladi. Barcha voqealarda toʻla qatnashmasada, yozuvchining gʻoyaviy niyatini toʻlaroq ochishga xizmat qiladigan faol obrazlar yordamchi personajlardir. Asarning makrostrukturasida yanada kamroq qatnashadigan shaxslar epizodik personaj boʻlib qolaveradi” [11, 178].

“Obraz soʻzi ruscha boʻlib “aks” degan ma’noni anglatadi. adabiyotshunoslikda u “badiiy obraz” ma’nosida tushuniladi. Badiiy obraz deganda borliq (inson, narsa, hodisa va h.)ning san’atkor koʻzi bilan koʻrilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlangan aksi anglanadi” [4, 43].

L.I.Timofeevning ta’rificha, “obraz – toʻqima yordami bilan yaratilgan va estetik qiymat kasb etgan inson hayotining umumlashma va ayni choqda, aniq manzarasidir” [9, 62].

“O‘zbek adabiyotida obraz atamasi o‘rniga XX asr boshlarigacha “timsol”, “tasvir”, “nusxa” kabi atamalar ishlatilgan. XX asr 20-30 yillarida o‘zbek atamashunosligiga “obraz” atamasi kirib kelgan” [10, 41].

“Qahramon termini etimologiyasi “yarim xudo”, “ilohiy odam” ma’nolarini beruvchi “heros” so‘zi bilan bog‘liq. An’anaga ko‘ra, adabiyotda qahramon hayratu hurmat ob’ekti, ma’lum darajada ibrat namunasi bo‘lib kelgan” [2, 23].

“Qahramon (forscha – botir, jasur, chempion). Shijoati, dovyurakligi, botirligi bilan shuhrat qozongan, jonbozlik, mardlik qilib, o‘zini ko‘rsatgan shaxs” [12, 273] deya ta’riflanadi.

Mahmud Koshg‘ariy o‘zining “Devonu lug‘otit turk” kitobida qahramon so‘zining turkiychasini “alp” so‘zi bilan izohlaydi: “Alp – botir, qahramon” [6, 77].

Demak ertakda qahramon atamasi mard, jasur va jangda g‘olib bo‘lgan alplarga nisbatan ishlatiladiki, barcha bosh obrazlar ham qahramon bo‘lolmaydi. Misol uchun “Kenja botir” ertagidagi shahzoda – qahramon, “Ur, to‘qmoq” ertagidagi chol – bosh obraz. Sababi cholda qahramonona harakatlar yo‘q.

Persona shaxs degani bo‘lsa, demak unda harakatlanuvchi odamlar nazarda tutiladi. Ertakdagi jonivorlar, sehrli buyumlar va tabiat personaj bo‘lolmaydi.

Obrazlar tizimi deyilganda faqat odamlargina emas, ertakda tasvirlangan jonivorlar, narsa-buyumlar va tabiat hodisalari ham ko‘zda tutiladi. Zero, “obrazlar sistemasidagi barcha obrazlar bir-biri bilan uzviy aloqada bo‘lib, ular bir-birini to‘ldiradi, izohlaydi, oydinlashtiradi... Asardagi narsa-buyum yoki joy obrazlari personaj obraziga tobelanadi. Personajlar tizimida ham xuddi shunday aloqalar kuzatiladi: yordamchi va ikkinchi darajali personajlar bosh personajlarga nisbatan tobe munosabatdadir” [4, 207].

Yuqorida keltirilgan barcha iqtiboslar badiiy adabiyotdagi obraz, personaj va qahramon atamalarini izohlaydi. Folklorshunoslik ham adabiyotshunoslikning bir tarmog‘i o‘laroq, undagi atamalar va ularga berilgan izohlarni qabul qiladi, ammo aynan emas. Chunki folklordagi obraz bilan badiiy adabiyotdagi obraz yaratilishiga ko‘ra bir-biridan farqlanadi. Bizningcha farqlar quyidagi o‘rinlarda ko‘rinadi:

1. Adabiyotda obraz ijodkor tomonidan individual yaratiladi.

Folklorda obraz umumiy bo‘lib, u ma’lum ijodkor tomonidan kuylanib sayqallansa-da, ommaviylik kasb etadi.

2. Adabiyotda obraz original bo‘lib, boshqalarni takrorlamaydi.

Folklor obrazlarida esa variantlilik mavjud.

3. Adabiyotda ijodkor obraz yaratishda o‘z uslubi bo‘yicha o‘ziga xos

yo‘ldan boradi. Folklorshunoslikda ijodkor an’anaviylikdan chekinmagan holda obrazni madh etadi.

Xulosa va takliflar.

Yuqorida bajarilgan ishlarga suyangan holda va sehrli ertaklar tabiatidan kelib chiqib o‘zbek xalq sehrli ertaklar obrazlarini asarda tutgan o‘rni va roliga ko‘ra quyidagicha guruhlashni taklif etamiz:

I. **Bosh qahramon**:

1. Bosh qahramon – shahzoda, kenja botir va yigit;
2. Bosh qahramon – pari, malika, qiz, kenja qiz;

II. Homiy personaj:

1. Mifologik homiy personaj – Xizr, chol, ota, pari, sehrgar kampir;
2. Zoomorf homiy personaj – hayvonlar, qushlar.

III. Raqib personaj:

1. Antogonist (ochiq raqib) – mifologik personajlar (dev, yalmog‘iz, ajdar), maston kampir, o‘gay ona;
2. Antipod (yashirin raqib) – katta akalar, katta opalar;

IV. Ko‘makchi personaj

1. Mifologik – dev, pari;
2. Zoomorf – it, mushuk.

Qahramon – o‘zidan quyidagi barcha guruhlar bilan munosabatga kirishadi.

Homiy – qahramonga bo‘ysunmaydi, unga yo‘l ko‘rsatuvchi, sehrli buyum taqdim etuvchi personaj.

Raqib – harakat nuqtai nazaridan qahramonga zid.

Ko‘makchi – qahramonga bo‘ysungan holda unga yordamlashadi.

Har bir bosh qahramon yoki personaj o‘z tipiga aniq programmashtirilgan. Bu faqatgina personaj funksiyasida emas, balki nomi, tashqi ko‘rinishi va atributlariga ham tegishli.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг халқаро бахшичилик санъати фестивали очилишига бағишлан тантантанали маросимдаги нутқи // Халқ сўзи. –Тошкент, 2019. 7 апрель. – № 68.
2. Адабиётшунослик луғати 23 бет. Т., 2013
3. В.Пропп. Морфология сказки. Academia. – Ленинград.1928. С.73
4. Д.Қуронов, З.Мамажонов, М.Шералиева. Адабиётшунослик луғати. – Академнашр, Тошкент: 2013. – Б. 43, Б.207
5. И.Султон. Адабиёт назарияси. Т., Ўқитувчи, 2005. Б.103
6. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Уч томлик. 1-том. С.М.Муталлибов таржимаси. –Т.: ЎзССР ФА нашриёти, 1960. 77-бет.
7. Мелатинский У.М., Неклюдов С.Ю., Новик Е.С., Сеагл Д.М. Проблемқ структурного описания волшебной сказки. С.36 // Структура сказки. М., 2001. С. 11-121.
8. Новик Е.С. Система персонажей... С.128
9. Основы теории литературы. М. Просвещение, 1971, С.62
10. Т.Бобоев. Адабиётшунослик асослари. Ўзбекистон 2002. Б.41
11. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Б.178.
12. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Қ. 273 б.
13. Кербелите Б.П. Историческое развитие структур и семантика сказок. Вильнюс, 1991. С.50
14. Drory R. Ali baba and forty thieves. An Attempt at a model for the narrative structure of the reward and punishmentfairy tale. P. 32-48.

UO‘K: 398.4(398.2)

Jo‘rayeva Munis Yunusovna
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi
Email: munis.jurayeva80@mail.ru

O‘ZBEK MIFOLOGIYASI TADQIQI TARAQQIYOTIDA FOLKLORSHUNOS MAMATQUL JO‘RAYEVNING O‘RNI

Annotatsiya. O‘zbek xalqi benazir folklor merosiga ega. Qadim ajdodlarimizning boy tafakkur durdonalari sanalgan xalq og‘zaki ijodi asarlarini tarixiy asoslarini o‘rganish hamisha dolzarblik kasb etadi. Jumladan, miflar va ularni o‘rganuvchi fan – mifologiyani tadqiq etish qadimiy tasavvurlarni anglashga, xalq dunyoqarashining ildizlarini chuqurroq tushunishga imkon beradi. Maqolada folklorshunos olim Mamatqul Jo‘raevning o‘zbek mifologiyasining shakllanishi, tadrijiy taraqqiyotiga oid tadqiqotlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: mif, mifologiya, folklor, folklorshunos, Mamatqul Jo‘raev, olim, kult.

Джураева Мунис Юнусовна
Старший научный сотрудник Института узбекского языка, литературы и фольклора АН РУз

РОЛЬ ФОЛЬКЛОРИСТА МАМАТКУЛА ДЖУРАЕВА В РАЗВИТИИ ИССЛЕДОВАНИЙ УЗБЕКСКОЙ МИФОЛОГИИ

Аннотация. Узбекский народ обладает уникальным фольклорным наследием. Изучение исторических основ устного народного творчества, являющегося ценным достоянием мыслительного наследия наших предков, всегда остается актуальной задачей. В частности, исследование мифов и науки, изучающей их – мифологии, позволяет понять древние представления и глубже осознать корни мировоззрения народа. В статье освещены научные исследования фольклориста Маматкул Джураева, посвященные формированию и эволюционному развитию узбекской мифологии.

Ключевые слова: Миф, мифология, фольклор, фольклорист, Маматкул Джураев, ученый, культ.

Juraeva Munis Yunusovna
Senior Researcher at the Institute of Uzbek Language, Literature, and Folklore, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

THE ROLE OF FOLKLORIST MAMATKUL JURAEV IN THE DEVELOPMENT OF UZBEK MYTHOLOGY RESEARCH

Annotation. The Uzbek people possess a unique folklore heritage. Studying the historical foundations of oral folk art, which represents a valuable legacy of our ancestors' intellectual heritage, remains a relevant and significant task. In particular, the study of myths and the discipline that examines them—mythology—allows for a deeper understanding of ancient perceptions and the roots of the people's worldview. This article highlights the research of folklorist Mamatkul Jo‘rayev on the formation and evolutionary development of Uzbek mythology.

Key words: Myth, mythology, folklore, folklorist, Mamatkul Jo‘rayev, scholar, cult.

Kirish.

Insoniyat tafakkur tarixida mifologiya o‘z o‘rniga ega. Usiz har qanday etnik qatlamni, odam va olam munosabatlarining ibtidosini o‘rganish imkonsiz. Bilamizki, mif qadim ajdodlarimizning o‘zini o‘rab turgan borliq haqidagi dastlabki tasavvur-tushunchalari majmui sanaladi. Ana shu miflar jamlanmasi haqidagi fan sifatida mifologiya nafaqat xalqning dunyoqarashi, uning qadriyatlari va ma’naviy merosini anglashda, balki etnik va madaniy taraqqiyot qonuniyatlarini o‘rganishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Miflar, umumun, mifologiya sinkretik hodisa sifatida ibtidoiy insonning dastlabki dunyoqarashini o‘zida aks ettirgan umumiy va har bir xalqning o‘ziga xos mifik qarashga egaligining o‘zi mifologiyaning murakkab va ko‘p qirrali ahamiyatini ko‘rsatadi. Jahon folklorshunosligida mifologiyaning badiiy tafakkur tarixida tutgan o‘rnini belgilash borasida salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, o‘zbek folklorshunosligida ham mifshunoslik shakllangan bo‘lib, mifologiyani tadqiq etishda jiddiy yutuqlarga erishilgan.

Adabiyotlar tahlili.

O‘zbek folklorshunosligida ilk marta mifologiya va uning o‘zbek folklori epik janrlari bilan munosabatini folklorshunos olim G‘.Akramov o‘rgangan. Olim xalqimizning qadimiy e’tiqodiy qarashlari va mifologik tasavvurlarining mohiyati, ularning o‘zbek folkloridagi o‘rnini tadqiq etgan va 1980 yilda “O‘zbek folklorida mifologiya” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. G‘.Akramov mifologiya, mif va folklor aloqalari, qadimgi turk mifologiyasining paydo bo‘lishi, rivojlanishi, uning folklor asarlariga, marosim va udumlarga, madaniy yodgorliklarga ta’siri, badiiy adabiyotdagi mifologizmlar masalalarini o‘rgangan. Olim ertak va dostonlarda mifologiyaning saqlanib qolishi dostonlarning qadimiyligi hamda xalq tasavvurida mifologik tushunchalarning yashovchanligi bilan belgilanishini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab bergan. Shuningdek, totemistik, animistik va manistik mifologiyaning o‘zbek folkloridagi talqinlarini chuqur tadqiq etgan[1].

Folklorshunos B.Sarimsoqov mifologiyaning evolyusiya jarayoni, epik janrlar diffuziyasini o‘rgangan. Olim o‘zbek mifologiyasini o‘rganishda ularni uch bosqichda arxaik, klassik hamda o‘rta asrlarga xos miflar sifatida talqin qiladi [2]. Folklorshunoslar T.Haydarov, J.Eshonqulov, B.Jumaniyozov, T.Rahmonov, O.Qayumov, A.Tilavov, D.Fayziyeva,

F.Nurmonov, M.Rizoyevalar mifologiyaning o‘ziga xos xususiyatlari, mifologik obrazlarning tarixiy asoslari va uning badiiyati, og‘zaki nasr janrlarining genezisiga bag‘ishlangan tadqiqotlari mavjud [3]. Shuningdek, N.Mallayev, M.Saidov, T.Xo‘jayev, M.Narziqulova, S.Hamdamovalarning tadqiqotlarida mifologik syujetlar va obrazlarning yozma adabiyotga ta’siri masalasi tahlilga tortilgan [4]

Tadqiqot metodologiyasi.

O‘zbek mifshunosligining taraqqiyotida folklorshunos Mamatqul Jo‘rayevning alohida o‘rni bor. Olim mifologiyaning shakllanishi, tadrijiy bosqichlari va uning folklor asarlari bilan munosabatini tadqiq etgan. “Mifologiya ibtidoiy insonning qarashlarini o‘zida aks ettirgan sinkretik hodisadir. Shu bois, mifologiya folklor, yozma adabiyot, san’at va ma’naviy qadriyatlarning shakllanishi uchun zamin vazifasini o‘tagan”[5], – deya olim o‘zining ilmiy izlanishlarida mifologiyaning nafaqat o‘zbek folklori, balki yozma adabiyot, etnografiya, etnologiya, san’atshunoslik kabi fan tarmoqlari bilan aloqadorligini uyg‘unlashtirgan holda turli davrlarda uning ijtimoiy va madaniy hayotda tutgan o‘rnini atroflicha yorita olgan. U o‘zbek mifologiyasini qiyosiy askpektda ham keng tadqiq qiladi.

Tahlillar va natijalar.

M.Jo‘rayev o‘zbek mifologiyasining bilimdoni sifatida O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida mif va uning turlari, mifologik obrazlar, mifologiya mavzularida qomusiy ma’lumotlarni bayon qilgan [6]. Olim o‘zbek mifologiyasining shakllanishi, taraqqiyotini o‘rganar ekan, uning tarixida bevosita insoniyatning dastlabki tasavvur-tushunchalaridan tortib, e’tiqodiy shakllar(totemizm, animizm, dualistik va magik inonchlar), ramziy-ritual marosimlar, kultlar, Islom dini ta’limoti va u orqali kirib kelgan an’analar, eron va yunon, hind va chin kabi xalqlar mifologiyasining ta’siri kabi omillar bevosita aloqadorligini ta’kidlaydi. Ana shu omillardan kelib chiqib, u miflarning tadrijini to‘rt guruhga bo‘lib tasnif qiladi.

1.O‘rol-oltoy qabilalarining mifologik tasavvurlari.

2. Qadimgi turkiy qavmlar mifologiyasi.

3. Zardushtiylik bilan bog‘liq mifologik tasavvurlar.

4.Arab-islom mifologiyasi an’analari.

Asrlar davomida shakllangan qadimgi miflarning tarixiy tadrijiy takomilini tasniflagan olim har bir tasnifotga oid misollar bilan fikrini dalillaydi [6]. M.Jo‘rayev ajdodlarimizning dastlabki tasavvur-tushunchalari asosida yuzaga kelgan miflarni tahlil qilar ekan, ularni o‘n bir guruhga bo‘ladi. Ular olamning yaratilishi haqidagi **etiologik** miflar, osmon jismlari va tabiat hodisalari haqidagi **samoviy(kosmogonik)** miflar, odamning yaratilishi va g‘ayrioddiy personajlar haqidagi **antropogenik** miflar, **kult** miflari, **totemistik** miflar, **kalendar** miflar**, o‘lib-tiriluvchi tabiat kultlari** haqidagi miflar, **animistik** miflar, ajdodlar homiyligi haqidagi **manistik** miflar, dualistik miflar va olamning intihosi haqidagi **esxatologik** miflarni o‘z ichiga oladi. Bu o‘n bir turdagi miflar ilmiy manbalar, folklor asarlari matnlari, mavsumiy va oilaviy-maishiy marosimlar, muallifning dala yozuvlari materiallari asosida olim tomonidan chuqur tahlilga tortilib, asoslanadi. Shu bilan birga, miflar aks etgan petrogliflar haqidagi jiddiy ilmiy izlanishlarda ham yurtimizda yashagan qadimgi odamlarning dunyoqarashi, turmush tarzi, urf-odat va marosimlari, ilk badiiy tafakkuri aks etgan qoyatosh suratlari tahlil qilinar ekan, bu

manbalarni qadimgi ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ilk madaniy qadriyatlar deb ataydi. O‘z o‘rnida, miflar aks etgan petrogliflarning ham yaratilish jarayonini tarixan bir necha bosqichlarni o‘z ichiga qamrab olganligi xususida ma’lumot beradi. Asosan, aksariyat petrogliflar tosh asriga oidligi, bu asr odamlarining tabiat va jamiyat haqidagi qarashlari, mifologik e’tiqodlari, voqe’likni obrazli va metaforik ifodalash an’anasining ilk kurtaklarinini o‘zida mujassamlashtirganligi bilan muhim ahamiyat kasb etishini e’tirof etadi. Olim talqinidagi bu qoyatosh suratlarining chuqur tahlili dastlabki badiiy tafakkurni anglash bilan birga poetik timsollar, epik asarlarning motiv va syujetlari genezisini oydinlashtirish imkonini beradi. Petrogliflar va o‘zbek mifologiyasini bu tarzdagi tadqiqi orqali M.Jo‘rayev o‘zbek folklorshunosligining nazariy kengliklarini yanada boyitdi.

M.Jo‘rayev ko‘hna yozma manba “Avesto” mifologiyasi va uning o‘zbek folkloridagi talqinlarini yoritishda ham o‘z hissasini qo‘shgan [6]. Olim bu buyuk ma’naviy qadriyatimizning izlari o‘zbek folklorida bugungi kunga qadar saqlanib kelayotganligini «Avesto»ning asosini tashkil etuvchi mifologik qatlam bevosita bizning o‘lkamizda shakllangan qadimiy inonchlar tizimidan iborat bo‘lganligidan dalolat ekanligini bu boradagi tadqiqotlarida ta’kidlaydi. Folklorshunos olim M.Jo‘rayev «Avesto» mifologiyasining o‘ziga xos xususiyatlari, zardo‘shtiylarning mifologik tasavvurlariga borib taqaladigan Gavomard, Hubbi, Haydar, ajdar kabi mifologik obrazlarning o‘zbek folkloridagi badiiy ifodasi kabi masalalarni keng ko‘lamda o‘rganadi [6]. “Avesto” mifologiyasining o‘zbek folkloridagi reliktlarini aniqlashga doir tadqiqotlari natijasida xalq og‘zaki ijodidagi dev, pari, ajdar, Semurg‘, aranglar, eranlar, qassoblar piri sifatida e’tirof etilgan Jo‘mard, o‘zida suv kultini ifoda etgan Hubbi, Amudaryo kulti bilan aloqador Aranglar, Aranja bobo, Orolcha avliyo, navro‘z bayrami va bahoriy udumlarning mifopoetik timsoli sifatida saqlanib qolgan Ashshadarozi, Bavoris bobo, o‘zbeklarda “shamol piri” tarzida tasavvur qilingan Haydar yoki Mirhaydar, yomg‘ir chaqirish marosimiga aloqador Sust xotin, serhosillik g‘oyasini tashuvchi Ambar ona singari mifologik obrazlarning tarixiy asoslari bevosita «Avesto»ga borib taqalishini keng bir tarzda tadqiq etadi.

M.Jo‘rayevning mifologiya borasidagi serqirra izlanishlari natijasida o‘zbek folklorshunosligi qadimgi turkiy mifologiya, mifologiyaning yozma adabiyotga munosabati, o‘zbek folkloridagi mifologik obrazlar, kosmogonik mifologiya, xalq taqvimining mifologik asoslari, mif va epos, shamol va momoqaldiroq bilan bog‘liq mifologik tasavvurlar va xalq qarashlari, astromifologiya[6] talqiniga doir nazariy qarashlar bilan boyitildi. Olimning o‘zbek mifologiyasi haqidagi fundamental tadqiqotlari “O‘zbek xalq taqvimi va mifologik afsonalar”(1994), “Ipak yo‘li afsonalari” (1993), “O‘zbek xalq samoviy afsonalari” (1995), “O‘zbek mifologiyasi va arab folklori” (2001, hamk.), “O‘zbek mavsumiy marosim folklori”(2008), Mif, marosim va ertak” (2014, hamk.), “O‘zbek folklori tarixi” 1-jild (2015), “Ipak yo‘li xalqlari astromifologiyasi” (2017), O‘zbek mifologiyasi (2020, hamk.) kabi kitob va risola, bir necha maqolalarida o‘z ifodasini topgan. Bularning har biri xususida to‘xtalish alohida tadqiqotlarni talab qiladi. Akademik T.Mirzayev va folklorshunos olim Sh.Turdimov olimning bunday yirik nazariy tadqiqotlari xususida fikr bildirishar ekan, “o‘zbek mifologiyasi

va mavsumiy marosimlar folklorini bu tarzda keng ravishda tadqiq etish o‘zbek folklorshunosligida birinchi marta amalga oshirildi”, – deya baholashadi.

Xulosa.

Zukko olim M.Jo‘rayevning o‘zbek mifologiyasi tadqiqi borasidagi samarali ilmiy faoliyatini o‘rganar ekanmiz, bir so‘z bilan uni o‘zbek mifshunosligi taraqqiyotiga jiddiy tadqiqotlari bilan munosib o‘rin tutgan mifshunos olim deymiz. Uning o‘zbek mifologiyasiga oid tadqiqotlarida qadimgi mifologik tasavvurlarning genetik asoslari va poetik transformatsiyasi masalalari chuqur o‘rganilib, xalqimiz badiiy tafakkurining Markaziy Osiyo xalqlari sivilizatsiyasida tutgan o‘rni keng yoritib berilganligi bilan qimmatlidir.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Акрамов Ғ. Аниматик мифология // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1977. – 3-сон. – Б.48-53.
2. Саримсоқов Б. Эпик жанрлар диффузияси // Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. – Тошкент: Фан, 1981. – Б.97-148.
3. Ҳайдаров Т. Гўрўғли ва мифология синкретизми: Филол. фан. номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 1993;
4. Эшонқулов Ж. Ўзбек фольклорида дев образининг мифологик асослари ва бадиий талқини: Филол. фанлари номз. ...дисс. автореф.
5. Маллаев Н. Алишер Навоий ва халқ ижодиёти. – Тошкент, 1974. – Б. 90-137; Саидов М. Туркий халқлар мифологиясининг ёзма адабиётга таъсири масаласига доир // Адабиёт кўзгуси. – Тошкент, 1996. – 2-сон. – Б.141-145.
6. Жўраев М. Миф ва унинг ўзбек фольклоршунослигида ўрганилиши//Ўзбек фольклори тарихи. 1-жилд. – Тошкент, 2015. – Б.12; Миф // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 6-том. – Тошкент, 2003. – Б.29-30; Ўзбек мифологиясининг шаклланиш тарихи ва таснифи//Ўзбек фольклори тарихи. 1-жилд. – Тошкент, 2015. – Б.14-16; “Баҳром яшт”да мифологик тимсоллар // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 2000. - 5-сон (М.Эшмуродов билан ҳамк); Гавомард образининг ўзбек фольклоридаги талқинлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2001. – 5-сон; Кўк бўри авлодлари // Фан ва турмуш. - Тошкент, 1983. - 3-сон. – Б.12-13; Мифларнинг ёзма адабиётга муносабати // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 1980. - 6-сон; Етти ҳомийнинг мифологик асосларига доир // Адабий мерос. - Тошкент, 1989. - 2(48)-сон. – Б.65-69; Сомон йўли ҳақидаги ўзбек халқ афсоналарининг мифологик асослари // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 1995. - 1-сон. – Б.35-41; Ўзбек халқ тақвими ва мифологик афсоналар. - Тошкент, 1994; Археофольклористика: қоятош суратлари ва календарь мифлар генезиси // Хоразм фольклори. VIII–китоб. - Урганч, 2006. - Б.20-28; “Алпомиш” достонида мифологик образлар // “Алпомиш” - ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси. - Тошкент, Фан, 1999. – Б.147-157; Ўзбекларнинг шамол билан боғлиқ мифологик тасаввурлари. 1. Ялли момо культи // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 1997. - 2-сон. – Б.37-42; Ипак йўли халқлари астромифологияси. – Тошкент: Paradigma, 2017. – 240 б.;

Ergasheva Shaxnoza Mavlonboyevna,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
mustaqil izlanuvchisi
E-manzil: ergashevashaxnoza7676@gmail.com

INTERNET OF THINGS (IOT) TEXNOLOGIYASINING INSON-KOMPYUTER ALOQASIDA O‘RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada aloqa tizimlarining ishlash prinsiplari, xavfsizlikka bo‘lgan talablar va tizimlarni faollashtirish usullari muhokama qilinadi. Aloqa tizimlarining xavfsizligi, foydalanuvchilar ma’lumotlarini himoya qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, xavfsizlik protokollari, autentifikatsiya va autorizatsiya jarayonlari muhim rol o‘ynaydi. Maqolada HCI tizimlarining rivojlanishi va kelajakdagi imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Inson-kompyuter aloqa tizimlari, xavfsizlik, faollashtirish, sun’iy intellekt, ko‘p modalli interfeyslar, haptik aloqa, 5G, Internet of Things (IoT), reallik texnologiyalari, autentifikatsiya, autorizatsiya, tizimlar integratsiyasi.

Эргашева Шахноза Мавлонбоевна,
Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами
самостоятельный соискатель
E-mail: ergashevashaxnoza7676@gmail.com

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ТЕХНОЛОГИИ INTERNET OF THINGS (IOT) В СВЯЗИ ЧЕЛОВЕК-КОМПЬЮТЕР

Аннотация. В данной статье обсуждаются принципы работы систем связи, требования безопасности и методы активации систем. Безопасность систем связи имеет решающее значение в защите данных пользователей, при этом важную роль играют протоколы безопасности, процессы аутентификации и авторизации. В статье анализируется развитие и будущие возможности систем HCI.

Ключевые слова: системы человеко-машинной коммуникации, безопасность, активация, искусственный интеллект, мультимодальные интерфейсы, тактильная коммуникация, 5G, Интернет вещей (IoT), технологии дополненной реальности, аутентификация, авторизация, системная интеграция.

Ergasheva Shakhnoza Mavlonboyevna,
Tashkent State Pedagogical University named after Nizami
independent applicant
Email: ergashevashaxnoza7676@gmail.com

THE ROLE AND IMPORTANCE OF INTERNET OF THINGS (IOT) TECHNOLOGY IN HUMAN-COMPUTER COMMUNICATION

Annotation. This article discusses the operating principles of communication systems, security requirements, and methods for activating systems. The security of communication systems is crucial in protecting user data, and security protocols, authentication, and authorization processes play an important role. The article analyzes the development and future capabilities of HCI systems.

Keywords: Human-computer communication systems, security, activation, artificial intelligence, multimodal interfaces, haptic communication, 5G, Internet of Things (IoT), augmented reality technologies, authentication, authorization, systems integration.

Kirish.

Internet of Things (IoT) texnologiyasi so‘nggi yillarda jadal rivojlanib, har bir sohada, ayniqsa inson-kompyuter aloqasi (HCI) sohasida keng qo‘llanilmoqda. IoT tizimlari, ko‘plab qurilmalar va sensorlar orqali o‘zaro aloqada bo‘lib, muayyan ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va ulardan samarali foydalanish imkonini beradi. Bu texnologiya, odamlar va kompyuter tizimlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni sezilarli darajada o‘zgartirib, yangi imkoniyatlarni yaratmoqda.

Inson-kompyuter aloqasi (HCI) o‘zgartirishlarining markazida foydalanuvchi va texnologiya o‘rtasidagi o‘zaro faoliyat yotadi. HCI sohasida yangi texnologiyalarning integratsiyasi, odamlarning kompyuter tizimlari bilan yanada intuitiv va tabiiy aloqalar o‘rnatishiga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.

Bu bo‘limda, IoT texnologiyasining inson-kompyuter aloqasi (HCI) tizimlariga qanday integratsiya qilinishi, foydalanuvchi tajribasini yaxshilash va yangi imkoniyatlar yaratish uchun qo‘llaniladigan metodologiyalar tahlil qilinadi. IoT va HCI o‘rtasidagi o‘zaro aloqaning chuqur o‘rganilishi uchun quyidagi yondashuvlar va usullar tanlandi:

2.1. IoT Texnologiyasining Asosiy Komponentlari

IoT tizimlarining samarali ishlashi uchun bir nechta asosiy komponentlarning o‘zaro ishlashi kerak. Ushbu komponentlar quyidagilardan iborat:

- **Sensorlar**: IoT tizimlarining asosi bo‘lib, ular atrof-muhitni o‘lchash, kuzatish va ma’lumot yig‘ish uchun ishlatiladi. Masalan, harorat, namlik, bosim, harakat va yorug‘lik sensorlari foydalanuvchi va uning atrof-muhiti o‘rtasidagi aloqani o‘lchashda yordam beradi. Sensorlar foydalanuvchi tajribasini yaxshilash uchun real vaqt rejimida ma’lumotlarni to‘playdi va bu ma’lumotlar keyinchalik tahlil qilinadi.
- **Aktuatorlar**: Bu qurilmalar, ma’lumotlarni tahlil qilib, fizika jihatdan biror harakatni amalga oshiradi. IoT tizimlarida aktuatorda qo‘llaniladigan misollar — haroratni boshqarish tizimlari, yorug‘likni avtomatik ravishda yoqish yoki o‘chirish, yoki xavfsizlik tizimlaridagi eshiklarni avtomatik ravishda ochish.

- **Ma’lumotlarni qayta ishlash tizimlari**: IoT qurilmalaridan yig‘ilgan katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish uchun ishlatiladi. Bu tizimlar foydalanuvchilarga ulardan samarali foydalanish imkoniyatini beradi.
- **Tarmoq infrastrukturalari**: IoT qurilmalarining o‘zaro aloqada bo‘lishini ta’minlash uchun zarur tarmoq tizimlari mavjud. Ushbu tarmoqda IoT qurilmalari o‘zaro ma’lumot almashish uchun Wi-Fi, Bluetooth, ZigBee, yoki 5G kabi texnologiyalarni ishlatadi.

2.2. Inson-Kompyuter Aloqasida IoT Qo‘llanilishi

IoT texnologiyasi inson-kompyuter aloqasini yangi darajaga ko‘taradi. HCI sohasida IoT tizimlari nafaqat qurilmalar bilan bevosita muloqot qilishni ta’minlaydi, balki foydalanuvchining harakatlari va ehtiyojlariga avtomatik javoblar berishga imkon yaratadi.

- **Aqlli uy tizimlari**: Aqlli uylar foydalanuvchilarga ma’lum bir uy jihozlarini masofadan boshqarish imkoniyatini beradi. Masalan, foydalanuvchi ovozli buyruqlar yordamida chiroqlarni yoqish, haroratni sozlash yoki xavfsizlik tizimini faollashtirish mumkin
- **Sog‘liqni saqlash va fitness monitoring tizimlari**: IoT qurilmalari yordamida foydalanuvchi o‘z salomatligini kuzatib borishi va ma’lumotlarni tahlil qilib, sog‘liqni saqlash masalalari bo‘yicha to‘g‘ri qarorlar qabul qilishi mumkin. Masalan, aqlli soatlar va fitness-tracker qurilmalari yurak urishi, bosim va boshqa vital belgilarni kuzatib boradi.
- **Transport tizimlari**: IoT texnologiyasi orqali transport vositalarini boshqarish tizimlari foydalanuvchilar uchun yangi imkoniyatlarni taqdim etadi. Aqlli transport tizimlari va avtomobillar foydalanuvchining ehtiyojlariga mos ravishda harakat qilish imkoniyatini beradi. Misol uchun, aqlli avtomobillar o‘z-o‘zini boshqarish va yo‘llardagi sharoitga qarab tezlikni o‘zgartirish imkoniyatiga ega.

2.3. IoT Interfeyslari va Sensorli Tizimlar

IoT texnologiyasining samarali ishlashi uchun foydalanuvchilar bilan qurilmalar o‘rtasidagi interfeyslarning intuitiv va oson ishlashi muhim ahamiyatga ega. IoT interfeyslari, foydalanuvchi bilan qurilmalar o‘rtasidagi aloqalarni o‘zgartirishga yordam beradi. **Sensorli ekranlar va boshqaruvlar**: Qurilmalarda sensorli ekranlar yordamida foydalanuvchi interfeysi yaratish, o‘zaro aloqani osonlashtiradi. Foydalanuvchi qurilmani teginish yoki boshqa sensorli harakatlar bilan boshqarishi mumkin.

- **Ovozli buyruqlar**: Hozirgi kunda ovozli yordamchilar yordamida IoT qurilmalarini boshqarish mumkin. Masalan, Google Assistant yoki Amazon Alexa kabi xizmatlar foydalanuvchining ovozli buyruqlariga javob beradi va qurilmalarni boshqaradi.
- **Yuzni tanib olish va biometrik tizimlar**: Biometrik texnologiyalar yordamida IoT qurilmalarining foydalanuvchiga moslashtirilgan javoblarini olish mumkin. Yuzni tanib olish yoki barmoq izlari yordamida tizimlarni xavfsiz va samarali boshqarish imkoniyatlari mavjud.

2.4. Ma’lumotlarni Tahlil qilish va Foydalanuvchi Qaytishi

IoT tizimlarining samaradorligini oshirish uchun yig‘ilgan ma’lumotlarni tahlil qilish va foydalanuvchi qaytishini tahlil qilish juda muhimdir. Foydalanuvchi harakati va xatti-harakatlarini kuzatish, foydalanuvchi ehtiyojlarini aniqlash va unga mos ravishda javoblar taqdim etish mumkin. Ushbu ma’lumotlar yordamida tizim foydalanuvchining alohida

ehtiyojlariga javob bera boshlaydi. Ma’lumotlarni qayta ishlashning asosiy jarayonlari quyidagicha:

- **Ma’lumotlar yig‘ish va tahlil qilish**: IoT tizimlaridan yig‘ilgan ma’lumotlar tahlil qilinadi, bu esa foydalanuvchining ehtiyojlari haqida aniq tushuncha beradi. Tahlil natijalari, foydalanuvchi tajribasini yaxshilash uchun ishlatiladi.
- **Avtomatik javob tizimlari**: Ma’lumotlarni tahlil qilish jarayonida avtomatik javob tizimlari foydalanuvchining xatti-harakatlariga mos tarzda javob berishi mumkin. Bu o‘zgaruvchan xatti-harakatlarga real vaqt rejimida javob berishni ta’minlaydi.

Natijalar. IoT texnologiyasining inson-kompyuter aloqasida qo‘llanilishi bir qator ijobiy natijalarni taqdim etdi. HCI tizimlarida IoT tizimlarining integratsiyasi foydalanuvchining tajribasini sezilarli darajada yaxshiladi va yanada intuitiv, qulay interfeyslar yaratishda yordam berdi. Ushbu bo‘limda, IoT va HCI integratsiyasining samaralari, foydalanuvchi tajribasiga ta’siri, va bu sohada amalga oshirilgan misollar keltiriladi.

3.1. IoT Texnologiyasining HCI Sohasida Amalga Oshirgan Misollar

IoT texnologiyasining inson-kompyuter aloqasi tizimlarida amalga oshirilgan bir qancha misollar, uning qanday qilib foydalanuvchining kundalik hayotini osonlashtirishini ko‘rsatadi. Masalan, aqlli uy tizimlari foydalanuvchilarga uydagi barcha qurilmalarni masofadan boshqarish imkoniyatini yaratdi. Bunday tizimlar foydalanuvchining ehtiyojlarini avtomatik tarzda aniqlaydi va bunga qarab turli xil javoblarni taqdim etadi. Misol sifatida, foydalanuvchi uyga qaytganida chiroqlar avtomatik ravishda yoqiladi yoki harorat moslashtiriladi. Bunday integratsiya foydalanuvchi uchun qo‘shimcha qulayliklar yaratadi va uning texnologiyalarga bo‘lgan yondashuvini o‘zgartiradi.

3.2. IoT va HCI Integratsiyasining Foydalari

IoT texnologiyasining HCI sohasiga integratsiyasi bir nechta asosiy foydalarni keltirib chiqardi:

- **Foydalanuvchi tajribasining yaxshilanishi**: IoT tizimlari, foydalanuvchining ehtiyojlarini aniqlash va unga mos javob berish orqali interfeysni intuitiv va qulay qiladi. Foydalanuvchilar uchun masofadan boshqarish, ovozli buyruqlar yoki sensorli ekranga asoslangan boshqaruvlar yordamida tizimni boshqarish imkoniyatlari yaratilgan.
- **Oson va samarali o‘zaro aloqalar**: IoT texnologiyasi, atrof-muhit bilan o‘zaro aloqani yaxshilashga yordam beradi. Foydalanuvchilar o‘z harakatlari va ehtiyojlariga asoslangan avtomatik javoblarni olishadi, bu esa ular bilan tizim o‘rtasidagi o‘zaro aloqani sezilarli darajada soddalashtiradi.
- **Qulaylik va avtomatlashtirish**: IoT tizimlarining integratsiyasi kundalik vazifalarni avtomatlashtiradi va foydalanuvchilarga ko‘proq vaqt va qulaylik taqdim etadi. Masalan, aqlli uylar va transport tizimlaridagi avtomatik boshqaruv tizimlari foydalanuvchi uchun ishlashni osonlashtiradi, bu esa uning hayot sifatini oshiradi.

3.3. HCI Tizimlarida IoT Qo‘llanilishining Samaradorligi

IoT texnologiyalarining HCI tizimlarida qo‘llanilishi ko‘plab sohalarda samarali bo‘ldi. Bu tizimlar foydalanuvchi uchun yangi va innovatsion interfeyslar yaratish imkonini berdi.

Masalan, aqlli avtomobillar orqali foydalanuvchilar o‘z avtomobillarini ovozli buyruqlar yoki sensorli ekranlar yordamida boshqarishlari mumkin.

Muhokama.

IoT texnologiyasining inson-kompyuter aloqasiga integratsiyasi foydalanuvchi tajribasini sezilarli darajada yaxshilaydi va zamonaviy tizimlarning samaradorligini oshiradi. Bu texnologiyaning eng katta afzalliklaridan biri uning foydalanuvchilarga avtomatik ravishda moslashuvchan xizmatlar taqdim etish imkonini yaratishidir. IoT tizimlari foydalanuvchining xatti-harakatlarini va ehtiyojlarini real vaqtda kuzatib, tizimlarni shunga mos tarzda sozlashga yordam beradi. Bu, ayniqsa, aqlli uy tizimlari, sog‘liqni saqlash va transport sohalarida ko‘zga tashlanadi..

Biroq, IoT texnologiyasining inson-kompyuter aloqasiga integratsiyasi ba’zi muammolarni ham keltirib chiqaradi. Ulardan eng kattasi xavfsizlik va maxfiylik bilan bog‘liq muammolardir. IoT qurilmalari foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini yig‘adi va bu ma’lumotlar tarmoq orqali uzatiladi. Shu sababli, IoT tizimlarining xavfsizligini ta’minlashda alohida e’tibor talab etiladi. Shuningdek, IoT qurilmalari o‘zaro bog‘langan tarmoqlarda ishlaydi, bu esa texnik nosozliklar yoki tarmoq uzilishlari bo‘lishi mumkinligini anglatadi. Agar tarmoq yoki qurilma ishlashida biror muammo yuzaga kelsa, bu foydalanuvchining tizimdan foydalanish imkoniyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Biroq, kelajakda IoT tizimlarining yanada rivojlanishi va kengayishi foydalanuvchi tajribasini yanada yaxshilashga va inson-kompyuter aloqasini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Xulosa.

IoT texnologiyasining inson-kompyuter aloqasidagi roli va ahamiyati bugungi kunda juda katta. Bu texnologiya nafaqat foydalanuvchi tajribasini sezilarli darajada yaxshilash, balki insonlar va kompyuterlar o‘rtasidagi muloqotni yangicha va samarali usullar bilan rivojlantirish imkonini yaratadi. IoT qurilmalari yordamida foydalanuvchilar o‘z ehtiyojlarini real vaqtda aniqlash va avtomatik javoblar olish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Aqlli uylar, sog‘liqni saqlash tizimlari va transport tizimlaridagi IoT integratsiyasi foydalanuvchilarga qulaylik, samaradorlik va xavfsizlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Kelajakda IoT texnologiyalarining rivojlanishi va integratsiyasi, ayniqsa sun’iy intellekt bilan birlashganda, foydalanuvchi tajribasini yanada intuitiv va moslashuvchan qiladi. Aqlli shaharlarda va boshqa sohalarda IoT tizimlari keng tarqalishi, foydalanuvchilarni yanada samarali va oson boshqariladigan tizimlar bilan ta’minlashga yordam beradi.

Shunday qilib, IoT texnologiyasining inson-kompyuter aloqasida o‘rni va ahamiyati juda katta bo‘lib, uning kelajakdagi rivojlanishi foydalanuvchilarning kundalik hayotini osonlashtirishga, ularning ehtiyojlariga moslashishga va texnologiyalardan yanada samarali foydalanishga yordam beradi. Bu sohada o‘rganilayotgan muammolar va kutilayotgan innovatsiyalar, IoT texnologiyalarining inson-kompyuter aloqasidagi rolini yanada oshirishi mumkin.

Iqtiboslar/Сноски/References

8. Ergashev, O. (2023). Android platformasiga dastur ta’minot yozishda dasturlash tilini

tanlash ahamiyati. Engineering problems and innovations.
9. Ergashev, O. M., & Ergasheva, S. M. (2023). Foydalanuvchi interfeyslarida multimedia imkoniyatlari, axborot namoyish etish shakllari. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 179-181.
10. Эргашек, О. М., & Абдукодиров, А. А. У. (2023). Сравнительный анализ сред создания web-приложений. Universum: технические науки, (12-2 (117)), 38-39.
11. Mirzapulatovich, E. O., Eralievich, T. A., & Mavlonjonovich, M. M. (2022). Mathematical model of increasing the reliability of primary measurement information in information-control systems. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(5), 753-755.
12. Mirzapo‘latovich, E. O. (2024). Oliy ta’lim muassasalarida online-elektron ta’lim tizimidan foydalanishning imkoniyat va istiqbollari. Miasto Przyszłości, 47, 210-215.

Sapayeva Barno Shanazarovna
PhD, dots. v.b., Ma’mun universiteti
E-mail: sapayeva_barno@mamunedu.uz
ORCID 01009-0001-6461-252X

TURLI TIZIMLI TILLARDA GAPNI BO‘LAKLARGA AJRATISH VA SO‘Z TARTIBI TADQIQI TARIXIDAN

Annotatsiya. Tilshunoslikda gaplarni bo‘laklarga ajratish muammosiga e’tibor qaratilganidan beri bir necha asr o‘tganiga va ushbu mavzuga bag‘ishlangan juda ko‘plab ilmiy ishlar olib borilganiga qaramasdan, bu masala hanuzgacha ilm-fan uchun sirli va to‘liq tadqiq etilmagan jihatlarga ega. Mazkur maqola tilshunoslikda gapni bo‘laklarga ajratish hamda so‘z tartibi tadqiqi tarixiga bag‘ishlangan. Asosiy e’tibor tilshunos olimlarning yuqorida keltirilgan masala bo‘yicha tadqiqotlar sharhiga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: gap, so‘z tartibi, tema, rema, kommunikativ yondashuv.

Сапаева Барно Шаназаровна
PhD, доц. в. б., Университет Маъмуна
E-mail: sapayeva_barno@mamunedu.uz
ORCID 01009-0001-6461-252X

ИЗ ИСТОРИИ ИЗУЧЕНИИ РАСЧЛЕНЕНИЕ ПРЕДЛОЖЕНИЯ И ИССЛЕДОВАНИЯ ПОРЯДКА СЛОВ В РАЗНОСТРУКТУРНЫХ ЯЗЫКАХ

Аннотация. В лингвистике прошло несколько веков с тех пор, как привлекли внимание к проблеме разделения предложений на части, и, несмотря на то, что существует огромное количество научных работ по этой теме, она по-прежнему остается загадочной и недостаточно исследованной в науке. В данной статье рассмотрена история исследований разделения предложений и порядка слов в лингвистике. Основное внимание уделено обзору исследований, проведенных лингвистами по вышеуказанной проблеме.

Ключевые слова: предложение, порядок слов, тема, рема, коммуникативный подход.

PhD, Assoc. Prof. Barno Sapayeva Shanazarovna
Ma’mun University
E-mail: sapayeva_barno@mamunedu.uz
ORCID 01009-0001-6461-252X

THE STUDY OF PARTS OF A SENTENCE AND WORD ORDER IN DIFFERENT STRUCTURED LANGUAGES

Annotation. It has been several centuries since the issue of segmenting sentences was first addressed in linguistics, and despite numerous scientific works dedicated to this subject, the issue still remains mysterious and not fully explored in science. This article is dedicated to the history of sentence segmentation and word order research in linguistics. The main focus is on reviewing the research conducted by linguists on the aforementioned issue.

Key words: sentence, word order, theme, rheme, communicative approach.

Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri tilning kommunikativ jihati va funktsiyasini o‘rganish hisoblanadi. Gapni bo‘laklarga ajratish borasida tilshunoslarimiz turlicha yondashuv qilganlar, ya’ni, aktual bo‘linish jarayonida gapni odatda ikki qismga ajratishgan: bayonning boshlang‘ich nuqtasi va yadrosi (V. Matezius terminologiyasi bo‘yicha). Lingvist olimlar o‘z ilmiy yo‘nalishlariga qarab ushbu komponentlarni turlicha nomlaganlar: “mavjud ma’lumot – yangi ma’lumot”, “tema – rema”, “kontrast markazi”, “kontrastiv – non-kontrastiv”, “aniq – noaniq”, “ma’lum – noma’lum”, “bayon foni va bayon maqsadi” kabi atamalar qo‘llangan. Hozirgi lingvistik tadqiqotlarda esa asosan “tema” va “rema” terminlari ishlatilmoqda.

Endilikda esa gapning kommunikativ tuzilishi yoki aktual bo‘linishining o‘rganilish tarixi haqida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Agar aktual bo‘linish nazariyasining shakllanish tarixini xronologik nuqtai nazardan ko‘rib chiqsak, bu nazariyaning deyarli uch asrlik tarixga ega ekanini ko‘rishimiz mumkin.

Hozirgi kunda aktual bo‘linish va gapdagi so‘z tartibiga bag‘ishlangan juda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar mavjud So‘nggi yigirma yil ichida gapning aktual bo‘laklarga ajratishni ikki yoki undan ortiq tillarda sinxron qiyosiy-tipologik tadqiq etishga bo‘lgan qiziqish ortib, natijada quyidagi dissertatsiya tadqiqotlari paydo bo‘ldi: ingliz va tatar tillari bo‘yicha [8], rus va ingliz tillari bo‘yicha [2; 6], rus va tojik tillari bo‘yicha [9], rus, boshqird va fransuz tillari bo‘yicha [7], o‘zbek va ingliz tillari bo‘yicha [1] va boshqa tadqiqotlar.

Ma’lumki, gapning aktual bo‘laklarga bo‘linishi nazariyasi so‘z tartibi muammosi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu masala XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab zamonaviy tilshunoslikning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralgan.

Uzoq vaqt davomida gapning aktual bo‘linishi haqidagi ta’limot fransuz olimi Anri Veyl tomonidan shakllantirilgan, deb hisoblangan. Biroq rus tilshunosi V.P. Danilenko "aktual bo‘linishning asosiy tushunchalari (avvalo, rema tushunchasi) XVIII asrning ikkinchi yarmida fransuz va nemis olimlari ilmiy ishlarida ancha aniq ifodalangan", deya ishonarli dalillar keltirgan [3, B.39].

Gapning aktual bo‘laklarga bo‘linishi tushunchasi XIX asrda psixologik yo‘nalish ta’sirida shakllanib, so‘z tartibi masalasini tadqiq etish bo‘yicha yetakchi omilga aylangan.

Endi esa ayrim olimlarning aktual bo‘linish tarixi borasidagi qarashlarini ko‘rib chiqamiz. Xususan, O.A. Krylova [4, B.77-78] bu nazariyaning rivojlanish tarixini to‘rtta bosqichga ajratadi:

1. XVIII asrning ikkinchi yarmidan XIX asr boshlarigacha – so‘z tartibining qonuniyatlarini o‘rganish bilan bog‘liq muammolar ko‘rib chiqilgan;
2. XIX asr oxiridan XX asrning birinchi yarmigacha – bu davr gapning aktual bo‘linishini psixologik talqinda o‘rganish davri hisoblanadi;
3. XX asrning birinchi yarmi – V. Matezius va qator sovet olimlari (germanistlar) tomonidan gapning aktual bo‘linishini lingvistik asosda tadqiq etish boshlangan;
4. XX asrning ikkinchi yarmi – O.A. Krylova fikricha, bu davr I.P. Raspopov ishlaridan boshlab, gapning aktual bo‘linishi haqidagi ta’limotning zamonaviy bosqichiga asos solingan.

Yuqoridagi birinchi bosqichga Sh. Bato, Monboddo, I. Adelung, K. Bekker, Ts. de-Marse, N. Boze, A. Veyl kabi olimlarning ilmiy ishlari taalluqlidir. Ushbu tadqiqotlarda "aktual bo‘linish" termini shartli ravishda qo‘llanilgan, chunki dastlab bu atama "tema" va "rema" tushunchalariga nisbatan qo‘llanilgan.

I. Adelung ega haqida gapirganda, uni asosiy tushuncha sifatida ko‘rib chiqadi va u noaniq narsani bildiradi, deb hisoblagan. Shu sababli, u “ega” va “kesim” terminlarining mazmunini, shuningdek, “subyekt” va “predikat” tushunchalarini o‘ziga xos tarzda talqin qilgan.

Anri Veylning tadqiqot ishida so‘z tartibini aktual bo‘laklanish bilan bog‘lashga ilk urinish amalga oshirilgan [10]. I. Adelungdan farqli o‘laroq, A. Veyl ega deganda gapda nimaning ustida so‘z borayotgan bo‘lsa, o‘shani tushunadi, kesim esa ega haqida biror ma’lumot beruvchi gap bo‘lagi sifatida talqin qilinadi.

“Ega bayonotning boshlang‘ich nuqtasi bo‘lib, kesim esa bayonotning o‘zidir. Shu sababli, odatda, ega birinchi o‘rinda, kesim esa ikkinchi o‘rinda keladi. Biroq gapning birinchi o‘rnida boshqa bo‘laklar ham kelishi mumkin, agar ular bayonotning boshlang‘ich nuqtasi vazifasini bajarsa” [4, B.77-78].

Shunday qilib, A. Veylning fikriga ko‘ra, subyekt funksiyasi tematik xarakter kasb etadi, predikat funksiyasi esa rematik bo‘ladi, ya’ni tema tushunchasi ega bilan bog‘lanadi. Biroq, I. Adelungda aksincha – ega rema tushunchasi bilan bog‘lanadi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, gapning aktual bo‘laklanishi haqidagi ta’limot so‘z tartibi muammosi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu masala XVIII asr oxirida dolzarb mavzuga aylangan.

N. Boze fikricha, gapda to‘g‘ri so‘z tartibi tabiiy fikrlash jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib, u tabiiy hodisalarning kechish tartibi bilan bevosita bog‘liq emas. U bu tartibni nafaqat tabiiy, balki analitik deb ham atagan. Uning fikriga ko‘ra, to‘g‘ri so‘z tartibi aqlning analitik faoliyatini aks ettiradi, ya’ni u subyektni tasvirlashdan uning atributlariga, so‘ngra ularning to‘ldiruvchi bo‘laklariga (keng ma’noda) qarab rivojlanadi.

N. Boze bunday analitik so‘z tartibini universal deb hisoblagan. Shu bois u gapda subyekt odatda predikatdan oldin kelishini, aniqlovchi esa keyin joylashishini ta’kidlagan.

Teskari so‘z tartibi – inversiya esa, N. Bozening fikricha, normal so‘z tartibidan noodatiy og‘ish deb qaraladi.

Shu davrda faoliyat yuritgan yana bir olim Sh. Bato so‘zlarning joylashish tartibining ikki turini ajratib ko‘rsatgan – grammatik va notiqlik tartibi. Keyinchalik V. Matezius birinchisini obyektiv, ikkinchisini esa subyektiv deb atagan. Sh. Bato grammatik tartibni sun’iy deb hisoblagan, chunki u bunday tartibni qat’iy ilmiy nutq bilan bog‘lagan. Notiqlik tartibi esa og‘zaki yoki she’riy nutqda ishlatilgani uchun, u buni tabiiy tartib deb baholagan. “Agar birinchisini u ilm-fan tartibi deb atagan bo‘lsa, ikkinchisini – qalb tartibi deb nomlagan” [3, B.85].

Sh. Bato quyidagicha ta’kidlagan: “Notiqlik konstruktsiyasidagi asosiy obyekt har doim bir xil bo‘lavermaydi. U ba’zan harakat subyekti, ba’zan esa harakat obyekti bo‘lishi mumkin. Ba’zi hollarda u harakatning o‘zi yoki uning sharoiti, usuli sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, fe’l, ravish, subyekt, aniqlovchi va fe’lga bog‘liq bo‘lgan boshqa shakllar vaqti-vaqti bilan gapning boshida joylashishi mumkin” [3, B.84].

Shunday qilib, Sh. Bato so‘z tartibini belgilovchi asosiy omil sifatida gapning aktual bo‘linishini ko‘rsatadi. U notiqlik tartibiga ega bo‘lgan invertilgan (teskari so‘z tartibidagi) konstruktsiyalar grammatik tartibga ega bo‘lgan konstruktsiyalar bilan bir xil axborotni ifodalaydi degan fikrga qo‘shilmagan. Unga ko‘ra, bu axborot gapning asosiy tarkibiy qismlari – tema va rema bilan bog‘liqdir.

Ushbu muammoni tadqiq qilgan yana bir olim K. Bekkerning xizmatlaridan biri shundaki, u gapning aktual bo‘linishi vositasi sifatida inversiya (mantiqiy so‘z tartibi) bilan bir qatorda mantiqiy urg‘uni ham o‘rgangan. “Inversiyaning va mantiqiy urg‘uning organik ahamiyati bir xil” deb yozgan u [3, B.87].

K. Bekker mantiqiy urg‘u va inversiyaning funksional o‘xshashligini turli xil gap shakllarida namoyish etgan. Masalan, “Der Mund des Gerechten bringt Weisheit” (Ustozning so‘zlari donolik keltiradi) gapida mantiqiy urg‘u turli so‘zlarga qaratilishi natijasida uning aktual bo‘linishi o‘zgarishi mumkin.

Agar mantiqiy urg‘u “Gerechten” so‘ziga tushsa, bu shuni anglatadiki, aynan ushbu gap bo‘lagi asosiy tushunchani (remani) ifodalaydi. Agar urg‘u “Weisheit” so‘ziga tushsa, u holda bu bo‘lak rematik funktsiyani bajaradi. Ushbu misolda gapning aktual (mantiqiy) bo‘linishi so‘z tartibini o‘zgartirmasdan ham amalga oshirilishi mumkin. Biroq, bu jarayon inversiya orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

K. Bekkerning fikriga ko‘ra, mantiqiy urg‘u inversiyaga nisbatan gapning aktual bo‘linishini belgilovchi yanada universal vositadir. U buni shunday tushuntiradi: inversiyaning imkoniyatlari ma’lum darajada gapning grammatik shakli bilan cheklanadi. Bu hodisa ayniqsa fleksiyalari kam rivojlangan tillarda sezilarli bo‘lib, bunday tillarda so‘z tartibi morfologik tizimi rivojlangan tillarga qaraganda kamroq moslashuvchanlikka ega bo‘ladi. Mantiqiy urg‘u esa, aksincha, turli tillardagi grammatik shakllarning xususiyatlari bilan cheklanmagan.

Mazkur masala o‘rganilishining dastlabki bosqichida gapning aktual bo‘linishi mohiyatini tushunish hali shakllanmagan edi, yagona terminologik apparat ishlab chiqilmagan edi. Shunga qaramay, shuni anglash mumkin bo‘ldiki, gap bo‘laklarining grammatik tavsifi

ularning gap tarkibidagi funktsiyalarini to‘liq belgilab bermaydi. Shuningdek, hind-evropa tillaridagi so‘z tartibi qonuniyatlari ham gapning rasmiy grammatik bo‘linishi bilan emas, balki tema-rema munosabatlari bilan bog‘liq.

Shu sababli, odatiy so‘z tartibini ham, undan og‘ishlarni – ya’ni inversiya hodisasini ham faqat gap bo‘laklarining o‘zaro ketma-ketligi orqali emas, balki ularning tema-rema munosabatlaridagi o‘rniga qarab tahlil qilish lozim.

Ushbu tadqiqotlarning keyingi bosqichi psixologik bosqich deb ataladi. Ushbu yondashuv G. fon Gabelents, G. Paul, V.P. Slanskiy, F.F. Fortunatov, A.M. Peshkovskiy kabi olimlarning ishlarida namoyon bo‘lgan. Ularning tadqiqotlarida gap, asosan, psixologik hukmning nutqiy ifodasi sifatida tushuniladi: “Gap – bu til vositasida ifodalangan ramz bo‘lib, u gapiruvchining ongida bir qator tasavvurlar o‘zaro bog‘langanini aks ettiradi va ushbu bog‘lanishlarni tinglovchi ongiga yetkazish vositasidir” [5].

Bu yondashuvda gap tarkibidagi bo‘laklar psixologik subyekt va psixologik predikat sifatida talqin qilinadi. Har qanday gap bo‘lagi psixologik subyekt yoki psixologik predikat funktsiyasida namoyon bo‘lishi mumkin.

XIX asrning mashhur nemis olimi Georg fon der Gabelents nutq jarayonida ketma-ket paydo bo‘ladigan tasavvurlarni o‘rgangan. Uning fikricha, nutqning birinchi elementi – psixologik subyekt bo‘lib, u gap mazmunining asosiy predmetini tashkil etadi. Ikkinchi element esa – *psixologik predikat* bo‘lib, u gapiruvchi tomonidan psixologik subyekt haqida beriladigan axborotni ifodalaydi.

Ko‘rib chiqilayotgan davrda sintaksis fanida gapning binar (ikki bo‘lakka) bo‘linishi grammatik doiradan tashqariga chiqib ketgan bo‘lsa-da, bu yondashuv muhim natijalarga olib keldi. Eng katta yutuqlardan biri shundaki, tilshunoslar gapning formal-grammatik tuzilishi bilan uning ma’noviy-kommunikativ tuzilishi har doim ham o‘zaro mos kelavermasligini tan oldilar. Aynan shu ma’noviy-kommunikativ jihat bilan ular so‘z tartibi, intonatsiya, mantiqiy urg‘u, semantik urg‘u hamda gapning ikkinchi darajali bo‘laklariga oid hodisalarni bog‘lashdi.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Бекчаев Ё.Дж. Сравнительный анализ актуального членения предложения в английском и узбекском языках // Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Душанбе, 2020. – 26 с.

2. Брылева Н.П. Актуальное членение и синтаксическая структура предложения в английском языке // Дисс. .канд. филол. наук. – М., 1978 – 189 с.

3. Даниленко В.П. У истоков учения об АЧП (период до А. Вейля) // Филологические науки. №5. – М., 1990. – 211 с.

4. Крылова О.А. Порядок слов в русском языке. 3-е изд. – М., 1986. – 157 с.

5. Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. //Изд. 7-ое. – М., 1956. – 226 с.

6. Сарымбетова А.А. Репрезентации темы и ремы в русском и английском языках. // Автореф. дис. канд. фил. наук. – Душанбе, 2019. – 24 с.

7. Саттарова А.Ф. Изучение актуального членения предложения в русском языке (в

сопоставлении башкирском и французском). // Дис. канд. пед, наук. – М., 2002. – 191 с.

8. Хисматова Ч.Г. Актуальное членение повествовательного предложения в английском и татарском языках // Автореф. дис. канд. филол. наук. – Казань, 2004. – 27 с.

9. Юсупова, З.Р. Актуальное членение предложения в русском и таджикском языках // Дис. канд. филол. наук. – Душанбе, 2006. – 165 с.

10. Weil, H. De l'ordre des mots dans la langues anciènnes comparées aux langues modernes. – Paris, 1944. – 32 p.

Темирова Шоира Гайбуллаевна
Преподаватель кафедры русского языка
Самаркандского государственного университета имени
Шарофа Рашидова.Узбекистан.
E-mail: temirovashoira74@gmail.com

Очилова Насиба Нематовна
Преподаватель кафедры русского языка и
литературы Узбекско - финляндского
педагогического института.
E-mail: nasiba.ochilova.78@inbox.ru

ЭВОЛЮЦИЯ ЛЕКСИКИ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ

Аннотация. В данной научной статье рассматривается эволюция лексики в контексте цифровой эпохи, когда технологии и интернет оказывают значительное влияние на язык и коммуникацию. Особое внимание уделяется феноменам, таким как неологизмы, заимствования из других языков и сокращения, которые становятся частью повседневной речи. Также рассматриваются социальные и культурные факторы, влияющие на языковые изменения, включая глобализацию и молодежную субкультуру.

Ключевые слова: Лексика, трансформация, коммуникация, миграция, неологизм, феномен, интернет, смартфон.

Temirova Shoira Gaybullayevna
E-mail: temirovashoira74@gmail.com
Teacher of the Department of Russian
Language at Samarkand State University named
after Sharof Rashidov, Uzbekistan.

Ochilova Nasiba Nematovna
Teacher of the Department of Russian
Language and Literature at the Uzbek-
Finnish Pedagogical Institute.
Email: nasiba.ochilova.78@inbox.ru

THE EVOLUTION OF LEXIS IN THE DIGITAL AGE

Annotation. This scientific article examines the evolution of lexis in the context of the digital age, where technology and the internet significantly influence language and

communication. Special attention is given to phenomena such as neologisms, borrowings from other languages, and abbreviations that become part of everyday speech. The article also explores the social and cultural factors affecting language changes, including globalization and youth subculture.

Keywords: Lexis, transformation, communication, migration, neologism, phenomenon, internet, smartphone.

Temirova Shoira Gaybullaevna
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti rus tili kafedrasi o‘qituvchisi.
E-mail: temirovashoira74@gmail.com

Ochilova Nasiba Nematovna
O‘zbek-fin Pedagogika institut Rus tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: nasiba.ochilova.78@inbox.ru

RAQAMLI DAVRDA SO‘Z BOYLIGINING EVOLYUTSIYASI

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqola texnologiya va internet til va muloqotga sezilarli ta'sir ko‘rsatayotgan raqamli davr kontekstida lug‘at evolyutsiyasini o‘rganadi. Kundalik nutqning bir qismiga aylangan neologizmlar, boshqa tillardan olingan va qisqartmalar kabi hodisalarga alohida e'tibor beriladi. Шунингдек, yoshlar submadaniyatlari ishtirokida til o‘zgarishiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy va madaniy jihatlar ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Lug‘at, transformatsiya, aloka, migratsiya, neologizm, fenomen, Internet, smartfon.

Лексика — это совокупность слов и выражений, используемых в языке, которая играет ключевую роль в формировании и передаче значений. Она не только отражает культурные и социальные реалии общества, но и служит основным инструментом коммуникации, позволяя людям обмениваться мыслями, чувствами и идеями. Лексика является динамичной и изменчивой, подверженной влиянию различных факторов, включая исторические события, культурные изменения и технологические достижения.

С приходом цифровой эпохи язык и его лексический состав претерпели значительные трансформации. Развитие интернета, социальных сетей и мобильных технологий изменило способы общения людей, создав новые формы взаимодействия и новые языковые нормы. Виртуальная коммуникация привела к появлению неологизмов, сленга и сокращений, которые становятся частью повседневного языка. Эти изменения не только обогащают лексику, но и порождают вопросы о будущем языка и его способности адаптироваться к быстро меняющимся условиям. [1].

Целью данного исследования является анализ эволюции лексики в условиях цифровой эпохи, выявление ключевых факторов, способствующих этим изменениям, а также оценка их влияния на современное общение и культуру. В рамках работы будут рассмотрены процессы формирования новых слов и выражений, изменения в стилях общения, а также влияние цифровых технологий на восприятие языка. Задачи исследования включают изучение примеров новых лексических единиц, анализ изменений в коммуникационных практиках и обсуждение возможных последствий для будущих поколений. [2].

Язык — это живой организм, который постоянно развивается и изменяется под воздействием различных факторов. На протяжении веков изменения в языке происходили в ответ на социальные, культурные и исторические условия. До наступления цифровой эпохи язык претерпел множество трансформаций, связанных с политическими событиями, миграциями народов и культурными обменами.

С древних времен язык эволюционировал вместе с обществом. В античные времена языки, такие как латинский и греческий, служили основой для научного и культурного общения, но с падением Римской империи и распространением народных языков начался процесс их дифференциации. Средневековье стало временем формирования национальных языков: французский, английский и испанский стали основными средствами коммуникации в своих регионах.

С возникновением печатного станка в XV веке произошел значительный скачок в стандартизации языка. Печатные книги способствовали распространению грамотности и формированию единого литературного языка. Однако даже в этот период язык оставался подвержен изменениям: новые слова приходили из других языков, а также возникали неологизмы, отражающие реалии времени.

В XVIII и XIX веках язык продолжал изменяться, особенно с развитием науки и техники. Появление новых понятий требовало введения новых терминов, что обогатило лексику и сделало язык более универсальным. Однако эти изменения происходили медленно и требовали времени для принятия обществом.

С началом цифровой эпохи, особенно с развитием интернета и мобильной связи, язык вступил в новую фазу своего развития. Появление онлайн-коммуникации коренным образом изменило способы взаимодействия людей. Социальные сети, чаты и мессенджеры предоставили возможность мгновенного обмена сообщениями, что привело к созданию новых форм общения. Сокращения, эмодзи и сленг стали неотъемлемой частью повседневной коммуникации, позволяя пользователям выражать эмоции и мысли более лаконично. [3].

Интернет стал огромным источником информации и платформой для распространения новых слов и выражений. Неологизмы, такие как "селфи", "хэштег" или "вирусный", быстро вошли в обиход благодаря распространению контента в социальных сетях. Язык стал более гибким и адаптивным, что позволило ему легко интегрировать новые элементы из разных культур и языков.

Мобильная связь также оказала значительное влияние на язык. Ограниченное количество символов в сообщениях SMS побудило людей к сокращению слов и использованию аббревиатур. Это явление стало основой для формирования нового стиля общения, который сочетает в себе элементы формального и неформального языка.

Таким образом, переход к цифровым технологиям стал катализатором быстрого изменения языка. Он не только обогатил его новыми лексическими единицами, но и изменил стили общения, создав уникальные формы взаимодействия. [4].

С каждым годом в языке появляются новые слова и термины, отражающие современные реалии. Это может быть связано с развитием науки и техники, появлением новых технологий или изменениями в общественной жизни. Например, такие термины, как "интернет", "смартфон" и "блог" стали привычными для нашего обихода всего за несколько лет. Эти новые слова не только обогащают лексику, но и помогают людям лучше понимать и описывать окружающий мир.

Не менее важным аспектом изменений в лексическом составе является появление сленга и неологизмов. Сленг — это особая форма языка, используемая определенными группами людей, чаще всего молодежью. Он позволяет выразить индивидуальность и принадлежность к определенной субкультуре. Неологизмы же — это новые слова или выражения, которые возникают в языке и постепенно входят в обиход. Например, такие слова, как "круто", "зашквар" или "лайк" стали популярными благодаря молодёжной культуре и медиа. Эти изменения делают язык более живым и отражают текущие тенденции общества. [5].

Глобализация и международное взаимодействие привели к активному заимствованию слов из других языков, особенно английского. Англицизмы, такие как "бизнес", "маркетинг", "флешка" и многие другие, прочно вошли в русский язык. Это явление обогащает лексику, но также вызывает дискуссии о сохранении национального языка. Заимствования могут быть полезны, так как они заполняют пробелы в лексике, но важно соблюдать баланс между использованием иностранных слов и сохранением родного языка.

Социальные сети оказали значительное влияние на лексику современного языка. Они стали платформой для распространения новых слов и выражений, а также источником создания уникальных форм общения. Эмодзи, мемы и хэштеги стали неотъемлемой частью онлайн-коммуникации, позволяя пользователям выражать эмоции и идеи в сжатой форме. Это явление не только обогатило лексику, но и изменило способы взаимодействия между людьми. [6].

Изменения в лексическом составе языка — это естественный процесс, отражающий изменения в обществе, культуре и технологиях. Появление новых слов и терминов, развитие сленга и неологизмов, заимствования из других языков, упрощение языка через сокращения и влияние социальных сетей — все эти аспекты делают язык более живым и адаптивным.

Традиционно общение делилось на формальное и неформальное. Формальный стиль характерен для официальных документов, деловой переписки и публичных

выступлений. Он требует соблюдения норм языка, четкости и ясности изложения мыслей. Неформальный стиль, напротив, используется в дружеском общении, где допускается больше свободы в выборе слов и выражений.

С развитием технологий границы между формальным и неформальным стилями начинают размываться. В социальных сетях и мессенджерах люди часто используют элементы неформального общения даже в профессиональных контекстах. Например, в деловых чатах можно встретить сокращения, разговорные выражения и даже шутки. Это изменение связано с желанием сделать общение более доступным и человечным, однако оно также может привести к недоразумениям и неправильному восприятию информации. [7].

Одним из наиболее значительных изменений в современных коммуникационных практиках стало использование эмодзи, стикеров и GIF-изображений. Эти визуальные элементы стали важным дополнением к тексту, позволяя передавать эмоции и настроения, которые сложно выразить словами. Эмодзи могут передать радость, грусть, сарказм или иронию, добавляя глубину и нюансы в общение.

Стикеры и GIF-изображения также играют важную роль в коммуникации. Они делают общение более ярким и эмоциональным. Например, отправка смешного GIF-а может разбавить серьезный разговор и создать непринужденную атмосферу. Однако важно помнить, что чрезмерное использование этих элементов может привести к недопониманию или даже к потере серьезности сообщения.

Цифровые платформы, такие как Twitter и Instagram, значительно изменили структуру сообщений. Ограничение по количеству символов на Twitter заставляет пользователей быть лаконичными и точными в своих высказываниях. Это приводит к тому, что сообщения становятся более сжатыми, а смысл — концентрированным. Пользователи учатся передавать свои мысли за минимальное количество слов, что требует определенной креативности.

Instagram, с другой стороны, делает акцент на визуальном контенте. Здесь текст часто уходит на второй план, а изображения становятся основным средством коммуникации. Подписи к фотографиям могут быть короткими и лаконичными, но они должны быть достаточно выразительными, чтобы привлечь внимание аудитории. Таким образом, структура сообщений на этих платформах адаптируется под требования формата, что влияет на стиль общения пользователей. [8].

Одной из наиболее заметных проблем современного языка является угасание традиционной лексики. С развитием технологий и интернета многие слова и выражения, которые были неотъемлемой частью культурного наследия, уходят в прошлое. Например, термины, связанные с народными ремеслами, традициями и обычаями, постепенно исчезают из обихода, так как молодежь все меньше интересуется этими аспектами культуры.

Последствия этого угасания могут быть серьезными. Во-первых, это приводит к утрате культурной идентичности. Язык — это не только средство общения, но и носитель истории и традиций народа. Когда исчезают слова, связанные с культурными

практиками, теряется и связь с прошлым. Во-вторых, сокращение словарного запаса может привести к упрощению мышления. Язык формирует наше восприятие мира, и его бедность может ограничивать наше понимание сложных концепций и идей. [9].

Будущее лексики в цифровую эпоху обещает быть динамичным и многогранным. Прогнозы о дальнейшем изменении языка указывают на его адаптацию к новым условиям, но также подчеркивают необходимость сохранения его богатства. Возможности для защиты языкового разнообразия открываются благодаря технологиям и интернету, а образовательные учреждения становятся важными игроками в этом процессе.

В заключение, эффективные методы обучения русскому языку играют ключевую роль в успешном овладении языком как иностранным. Они способствуют не только развитию языковых навыков, но и формированию культурной компетенции, что особенно важно в многоязычном и многокультурном мире. Интеграция современных технологий, интерактивных подходов и индивидуализированных программ обучения позволяет сделать процесс более увлекательным и продуктивным. В конечном счете, выбор правильных методов обучения помогает учащимся не только достигать высоких результатов, но и формировать уверенность в своих силах, что является залогом их дальнейшего успеха в изучении русского языка и культуры.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Дэвидов, Дж. Язык социальных медиа: Исследование онлайн-коммуникации. Журнал языка и политики, 2013. 12(2), 203-220 с.

2. Кузнецова Н.В., Кузнецов А.В., Развитие русского языка в условиях цифровой трансформации. 2019.- №3.- 5-12 с.

3. Григорьева Н.Н. Развитие русского языка в эпоху цифровой трансформации Молодой ученый. - 2019. 7-10 с.

4. Российский язык в цифровую эпоху: проблемы и перспективы / под ред. Николая Доброва; – М.: Фонд «Русский мир», 2018. – 256 с.

5. Цифровая грамотность: проблемы и перспективы / под ред. Александра Лукина; – М.: Фонд «Русский мир», 2019. – 192 с.

6. Бароненко Е.А., Скоробренко И.А. Роль современных информационно-коммуникационных технологий в обучении иностранным языкам. - М. 2018. - 45 с.

7. Волкова Е.А. Методические подходы к использованию интерактивных средств в процессе обучения студентов непедагогических специальностей. - М., 2017.-510 с.

8. Калимуллина О.В., Троценко И.В. Современные цифровые образовательные инструменты и цифровая компетентность: анализ существующих проблем и тенденций. - М. 2018. - 73 с.

9. Митюн, М.А. Преподавание иностранного языка в эпоху цифровизации. 2021. - № 24 (366). - 340-342 с.

10. Померанцева Н.Г., Интернет-платформы как способ интенсификации обучения иноязычной монологической речи. - М.: 2017. - 209 с.

Yuldosheva Mashxura Zokirjon qizi
Filogiya bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Ichki ishlar vazirligi Namangan akademik litseyi
yuldoshevamashhura09@gmail.com

BEVOSITA NUTQIY STRATEGIYANING SOTSIOPRAGMATIK VARIATIVLIGI

Annotatsiya. Ushbu maqolada bevosita nutqiy strategiyaning sotsiopragmatik variativligi tahlil qilingan. Bevosita nutq aktlari muloqot jarayonida so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni qanday shakllantirishi hamda kontekstga qarab qanday o‘zgarishi ilmiy nuqtayi nazardan o‘rganilib, nutqiy strategiyalarning ijtimoiy maqom, muloqot sharoiti va madaniy kontekstga bog‘liq ravishda turlicha namoyon bo‘lishi misollar asosida yoritilgan Maqolada sotsiopragmatik yondashuv asosida bevosita nutq strategiyalarining variativ xususiyatlari aniqlanib, ularning kommunikativ samarasiga ta’siri tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: bevosita nutq aktlari, direktiv akt, sotsiopragmatika, variativlik, kommunikativ strategiya, ijtimoiy maqom, ijtimoiy rol, muloqot konteksti, pragmatik tahlil.

Юлдошева Машхура Зокиржон кизи
Доктор философии по филологии (PhD), Академический лицей Министерства внутренних дел в Намангане
yuldoshevamashhura09@gmail.com

SOCIOPRAGMATIC VARIATION OF THE DIRECT SPEECH STRATEGY

Аннотация. В данной статье анализируется социопрагматическая вариативность стратегии прямой речи. С научной точки зрения изучается то, как прямые речевые действия формируют социальные отношения между говорящим и слушающим в процессе общения и как они изменяются в зависимости от контекста, а также на основе примеров выделяются различные проявления речевых стратегий в зависимости от социального статуса, условий общения и культурного контекста.

Ключевые слова: прямые речевые акты, директивный акт, социопрагматика, вариация, коммуникативная стратегия, социальный статус, социальная роль, контекст общения, прагматический анализ.

Yuldosheva Mashxura Zokirjon kizi
Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Namangan Academic Lyceum of the Ministry of Internal Affairs

yuldoshevamashhura09@gmail.com

SOCIOPRAGMATIC VARIABILITY OF DIRECT SPEECH STRATEGY

Annotation. This article analyzes the sociopragmatic variability of the direct speech strategy. How indirect speech acts shape social relations between the speaker and the listener in the process of communication and how they change depending on the context are studied from a scientific point of view, and the different manifestations of speech strategies depending on social status, communication conditions and cultural context are illustrated on the basis of examples. The article identifies the variable characteristics of direct speech strategies based on a sociopragmatic approach and analyzes their impact on communicative effectiveness.

Keywords: direct speech acts, directive act, sociopragmatics, variability, communicative strategy, social status, social role, communication context, pragmatic analysis.

Bevosita strategiya [1;14]. (Bald on record) – muloqotda so‘zlovchining kommunikativ niyatini aniq va to‘g‘ridan to‘g‘ri aks ettirishga xizmat qiladi. Bu strategiya, odatda, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy tahdid (FTA) ta’sirini minimallashtirishga qaratilgan har qanday qo‘shimcha til birliklari yoki usullarsiz amalga oshiriladi. Bevosita strategiya ko‘pincha buyruq yoki talab shaklida qo‘llaniladi va bu shaklda foydalanilganida yuzaga keladigan ijtimoiy tahdid minimal darajada saqlanadi, chunki so‘zlovchi tomonidan hech qanday tuzatmalar kiritilmaydi. Xushmuomalalikning nol darajasi sifatida ham baholanashi mumkin. Ushbu strategiyadan foydalanilganda u murojaat qilinadigan shaxslarni hayratda qoldirishi yoki biroz noqulay his etilishiga sabab bo‘ladi. Bunday strategiya odatda o‘zaro yaqinlik darajasi yuqori bo‘lgan shaxslar, masalan, yaqin do‘stlar yoki oila a’zolari o‘rtasida keng qo‘llaniladi[1;14] va turlicha namoyon bo‘ladi. Bu sotsiopragmatik variativlik deb nomlanib, tilning ijtimoiy va pragmatik omillar ta’sirida turlicha qo‘llanilishi va ma’no hosil qilish jarayonidagi o‘zgaruvchanligini anglatadi.

Bu strategiyada so‘zlovchi tinglovchining ijtimoiy yuziga tahdidlarni kamaytirish uchun hech qanday tuzatish qilmaydi. Uni qo‘llashning asosiy sababi shundaki, agar so‘zlovchi tinglovchining yuzini qondirishdan ko‘ra maksimal samaradorlik bilan FTA qilishni xohlasa, hatto har qanday darajada, u bevosita strategiyani tanlaydi[2;70]. Bevosita (bald on record) strategiyasi ko‘pincha direktiv nutq aktlarini amalga oshirishda qo‘llaniladi. Direktiv nutq akti odatda tinglovchidan ma’lum bir harakatni amalga oshirishni talab qiladigan nutq aktidir. Bunga buyruq berish, so‘rash, maslahat berish, taklif qilish kabi nutqiy faoliyatlar kiradi. Direktiv nutq akti va bevosita strategiya odatda yuqori darajadagi ijtimoiy kuch, yaqinlik mavjud bo‘lgan vaziyatlarda samarali bo‘ladi, chunki bu vaziyatlarda to‘g‘ridan to‘g‘ri murojaat qilish tinglovchining yuziga zarar yetkazmasdan amalga oshiriladi. Ammo direktiv aktni bu strategiyaning bir qismi sifatida ko‘rsatish mumkin. Bevosita stategiya adresantning maqsadini aniq ifodalaydi va ko‘pincha nutqning formasi (shakli) va funksiyasi (pragmatik ma’no) o‘rtasida bevosita bog‘lanish bo‘lgan performativ fe’llar orqali shakllanadi.

Bevosita strategiyadan foydalanishning ikki turi ajratiladi[3;95]:



1-chizma. ***Bevosita strategiya turlari***

I. Ijtimoiy yuzga tahdid minimallashtirilmagan bevosita strategiya **(Cases of non-minimization of the face threat)**

Bald on record strategiyasida tuzatuvchi harakatlarsiz, ochiq (baldly) – "non-minimization of the threat[4;33] turi kontekstga qarab turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Ushbu turdagi strategiya to'g'ridan to'g'ri va ochiq so'zlashni o'z ichiga oladi, bunda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy xavfni kamaytirish uchun hech qanday urinish qilinmaydi. Qo'llaniladigan ifodalar aniq va bevosita bo'lib, suhbatdoshning his-tuyg'ularini hisobga olmay, bevosita maqsadga yo'naltirilgan direktiv aktlarda foydalanilganligi uchun ham direktiv strategiya [4;37] deb nomalanadi. Bu uslub odatda yaqin munosabatlarda yoki rasmiy kontekstlarda qo'llaniladi, bunda ijtimoiy nuqtayi nazardan qattiqroq ifodalarni qo'llash ham mumkin. Natijada adresatning erkinligini cheklab, salbiy yuzga tahdid soladi:

1. ***Buyruq:*** Undash akti – buyruq akti [5;156], direktiv akt [6;107]– o'zida kommunikativ (illokutiv) maqsadning bayon qilinishiga ko'ra reprezentativ aktlardan farqlanadi. Undash aktini sodir etish uchun so'zlovchi propozitsional mazmunda ma'lum bir narsa, hodisa yuzasidan xabar berish bilan tinglovchini qaysidir harakatlarni bajarishga undaydi [7; 130]. Demak, undash aktida adresant biror kommunikativ niyat yoki maqsad orqali ma'lum bir ifodani talaffuz qilish bilan adresatni qaysidir xatti-harakatlarni bajarishni buyuradi:

... Uningni o'chir! – dedi Asadbek dag'al ovozda. – Uyga bor, ovozingni chiqarma. Bitta-yarimta so'rasa... ammasinikida edi, de.

– Voy...– Manzura eriga ajablanib qaradi. – Ammasi yo'q-ku?

– He noshud, – Asadbek shunday deb g'ijindi. "Bu lalaygan xotin eplab bir bahona topolmasa..." – ammasi bo'lmasa... ko'chada mashina sal turtib ketibdi, de, kasalxonada ekan, de.. Bor... To'xta, kim bilan kelding?

– Jamshid bilan.

*– Seni tashlab, Jalilni olib kelsin. ("*Shaytanat" –1.*)*

Ushbu matn parchasida *"Uningni o'chir!"* jumlasida buyruq aniq va bevosita ifoda etilgan, shoshilinchlik hamda kuchni ifodalagan; *"Uyga bor, ovozingni chiqarma"* jumlasida muloyimlik yoki tahdidni kamaytirishga urinish yo'q; "*Bor... To'xta, kim bilan kelding?"* – bevosita buyruq, holatning jiddiyligini ko'rsatgan;*"Seni tashlab, Jalilni olib kelsin."* – qat'iy ifoda, hamma uchun ma'lum bo'lgan kuchli pozitsiyani ifodalagan. Asadbekning dag'allik

bilan gapirishi uning avtoritetini, kuchini va murosasizligini ko‘rsatadi. Quyida kontekstda qo‘llangan buyruq aktlarini quyidagi 1-jadvalda batafsil tahlil qildik:

1-jadval.

Buyruq aktining sotsiopragmatik tahlili.

<table>
<tr><td colspan="6">Bevosita strategiya</td></tr>
<tr><td colspan="2">1.</td><td>2.</td><td colspan="2">3.</td></tr>
<tr><td colspan="2">Uningni o‘chir! ...</td><td>Uyga bor, ovozingni chiqarma.</td><td colspan="2">Bitta-yarimta so‘rasa... ammasinikida edi, de.</td></tr>
<tr><td colspan="2">Asadbek hech qanday muloyimlik belgilarisiz, bevosita Manzuraga jim bo‘lishni buyurgan. Bu gap shoshilinchligini va uning Manzuraga nisbatan yuqori mavqeyini ko‘rsatgan.</td><td>Asadbekning bu gapida ham yumshoqlik yo‘q, ochiq buyruq akti qo‘llangan. Bu gap uning Manzuraga nisbatan hokimiyatini va vaziyat ustidan to‘liq nazoratni saqlab qolishga intilishini ko‘rsatgan.</td><td colspan="2">Asadbek Manzuraga bahona aytishiga da’vat etgan. Gapning bu tarzda aytilishi, Manzuraning boshqa tanlovi yo‘qligini va Asadbekning ko‘rsatmasiga to‘liq amal qilishi kerakligini bildirgan.</td></tr>
<tr><td colspan="6">Sotsiopragmatik tahlil</td></tr>
<tr><td colspan="2">Hokimiyat va kuch:</td><td colspan="2">Muloqotning pragmatik jihatlari</td><td colspan="2">Ijtimoiy rollar va ularning aks ettirilishi:</td></tr>
<tr><td>Asadbekning ustunligi</td><td>Manzuraning muteligi</td><td>Tezkorlik va shoshilinchlik (buyruq akti)</td><td>Emotsional holat (perlukatsion akt)</td><td>Gender rollar (er va xotin)</td><td>Ijtimoiy munosabatlar (boshqaruvchi va bo‘ysinuvchi)</td></tr>
</table>

Asadbekning bevosita strategiyani qo‘llashi uning oiladagi nazorat va kuchni o‘z qo‘lida saqlashga intilishini namoyon etgan. U shoshilinch, emotsional holatda bo‘lgani uchun bevosita va ochiqchasiga gapirgan. Bu strategiya orqali u o‘zining hokimiyatini ta’kidlagan hamda Manzurani bo‘ysinishga majburlagan. Asadbekning buyruqlar berishi, Manzuraning esa unga itoat etishi, jamiyatdagi an’anaviy gender rollarni ko‘rsatibgina qolmay, ular o‘rtasidagi suhbat sharq oilalariga xos muloqot strategiyasini ko‘rsatadi.

2. ***Ogohlantirish*** :

– Tengiz hafsalasi pir bo‘lib, qo‘l siltadi. – Senlar mishiqlaringni oqizib, “tuhmatdan qamaldim”, deb yig‘lab yuraverasanlar. Endi gap shu, bilmasang bilib ol: men – o‘g‘riman! (“Murdalar gapirmaydilar”, 6-b.)

Bu kontekstda ham fikrlar bevosita aytilgan bo‘lib, suhbatdoshning his-tuyg‘ularini hisobga olmagan va tahdidni kamaytirishga harakat qilmagan. So‘zlovchi o‘zining kimligini, nima bilan shug‘ullanishini ochiq aytib, ogohlantirmoqda. Bu orqali u o‘zining pozitsiyasini hamda holatini aniq ko‘rsatadi.*”Endi gap shu, bilmasang bilib ol: men: og‘riman”* degan ifoda orqali so‘zlovchi o‘zining obro‘sini, hokimiyatini ko‘rsatmoqda. (Favqulotda vaziyatlardagi ogohlantirishlar ham shu strategiyaga asoslanadi).

3. Maksimal samaradorlik – **bunda m**urojaat qilish jarayonida hech qanday ortiqcha so‘zlar yoki mulohazalar ishlatilmaydi. Faqat kerakli ma’lumotlar aniq va ravshan tarzda yetkaziladi. Gaplar qisqa, lo‘nda bo‘ladi. Maqsad – vazifani eng qisqa vaqt ichida, ortiqcha murakkabliklarsiz hal qilish bo‘lganligi uchun illokutiv kuchni ko‘rsatuvchi vosita (Illocutionary force indicating device – IFID[4;147]) – gapning nima maqsadda aytilganligini ko‘rsatadigan so‘z yoki ibora – aniq ko‘zga tashlanib turadi. Quyidagi misolda *“gapiring”, “yashirmang”, “ayting”, “qaramang”* kabi imperativlar nutqning illokutsion kuchini ifodalab kelgan:

Rahmatulloh unga qattiq tikilib turardi.

– Nimaga menga bunday qaraysiz? – dedi Komissar titroq ovozda. – Gapiring, maqsadingizni yashirmang, ayting!

Rahmatulloh undan nigohini olib qochmadi. Komissar bundan battar talvasaga tushdi.

– Qaramang menga, – dedi bu safar yalinish ohangida. ***(“Ov qissasi”, 6-bet)***

Muloqot jarayonida tilga xos bo‘lgan noverbal vositalardan to‘g‘ri foydalanish muloqot madaniyatining tarkibiy qismi hisoblanadi. Noverbal so‘zlar muloqot kuzatish kuchi bilan yaqindan bog‘lanadi[8;66]. **Yuqoridagi kontekstda ham Rahmatullohning *“qattiq tikilib turishi”*** noverbal xatti-harakat bo‘lib, kuch va nazoratni ifodalagan hamda kerakli, aniq javob talab qilishga undagan, natijada bevosita strategiyadan foydalanish uchun sabab bo‘lgan. Berilgan kontekstning sotsiopragmatik tahlinini quyidagi 2-jadvalda to‘liqroq tahlil qildik:

2-jadval.

Maksimal samaradorlik usulining sotsiopragmatik tadqiqi

Bevosita strategiya		*Gapiring, maqsadingizni yashirmang, ayting!*
Maqsad		*Maksimal samaradorlik (tez, aniq javob talab etish)*
Implikatsiya		*Yashirin gap borligi*
Muloqot		*Assimetrik*
Ijtimoiy masofa darajasi		*Tanish (Rahmatulloh va komissar)*
Ijtimoiy rollar		
Rahmatulloh	**Rol**	*Kuchli va o‘ziga ishongan, uning qattiq tikilib turishi, nigohini olib qochmasligi orqali obro‘si balandroq shaxs ekaligidan dalolat beradi.*
	Pozitsiya	*Komissarning qo‘rquvini kuchaytirib, muloqotdagi ustunligini saqlagan*
Komissar	**Rol**	*Zaif va talvasada ekanligi, titroq ovozda gapirishi, qo‘rquvi va yalinish ohangida iltimos qilishi, uni pastki va himoyasiz rolda ko‘rsatgan*
	Pozitsiya	*Javob olish va o‘zini himoya qilishga uringan, lekin bu harakatlar uning zaifligini yanada oshirgan.*

4. Shoshilinchlikni ta'kidlash: So‘zlovchilar tinglovchining e'tiborini jalb qilishni xohlaydigan holatda, bundan tashqari u so‘zlovchi tomonidan ma'lum bir vaziyatda zarur bo‘lgan muhim yoki shoshilinchlikni ta'kidlash uchun qo‘llanadi. Ba'zi iboralar tinglovchining diqqatini jalb qilish uchun shoshilinchlik darajasini ko‘rsatadi[9;23]. Bunday hollarda ta'kidlash uchun direktiv nutqiy harakatlarning qat'iyligi "talab ijrosi uchun ajratilgan vaqtni chegaralash yo‘li bilan belgilanishi mumkin [6; 171] va bunda intonatsiya kuchliroq bo‘ladi:

Begonaning huzurida "opa" deyishga majbur bo‘lganini Matluba tushundi.

– Voy, tinchlikmi? – dedi u bir qadam ortga chekinib.

– Tinchlik, – dedi Sarvar ichkariga qadam bosib. – Bolalaringni kiyintir. Faqat hovliqma, lekin tez bo‘l. (Murdalar gapirmaydilar, 124-b.)

II. *Ijtimoiy yuzga tahdid minimallashtirilgan bevosita strategiya*

Bevosita strategiya uslubi suhbatdoshlarning o‘rtasida yaxshi munosabatlar shakllanganida, yuqori darajada ishonch, o‘zaro tushunish mavjud bo‘lganda yoki so‘zlovchi suhbatdoshning his-tuyg‘ularini e'tiborga olish zarur deb hisoblamaydigan vaziyatlarda qo‘llaniladi. Bunda xushmuomalalik darajasini yumshatish yoki muloqotni silliq kechishiga ko‘proq e'tibor bermaydi. Ushbu uslubning asosiy maqsadi vazifani tez va samarali bajarish yoki ma'lumotni juda aniq va qat'iy tarzda yetkazishdir. Agar suhbatdoshlar orasida ijtimoiy masofa yaqin bo‘lmasa, strategiyaning boshqa shakllaridan foydalanish afzalroqdir.

Bevosita strategiyaning bu turi N.Ruziyeva tadqiqotlarida so‘zlovchi feysiga tahdidning implisit ifodalanish holatlari[10;15] (Case of FTA– oriented bald – on – record usage [3;98]), M.Xolova monografiyasida esa "tuzatish harakati bilan" [1;15] (With redress[4;33]) nomlari bilan keltirilgan bo‘lib, bu usulda so‘zlovchi ijtimoiy yuzga tahdid (FTA)ni kamaytirish uchun yumshatuvchi lingvistik vositalardan foydalanadi. Bunga quyidagilar kiradi:

3-jadval.

Bevosita strategiyada yuzga tahdidni minimallashtiruvchi lingvistik vositalar

Iltimos ma'nosini ifodalovchi	Salomlashish va xayrlashishni ifodalovchi	Taklif va minnatdorlik ifodalovchi
• *Iltimos...* • *Kechirasiz...*	• *Assalomu alaykum / va alaykum assalom* • *Salom* •*Assalom* • *Hello / privet* • *Xayr / ko‘rishguncha*	• *Sizga yo bera olamanmi?* • *Yordamingiz uchun rahmat!* • *Uyga kiring / ovqatdan oling / choydan iching...* • *Sizdan xursandman / minnatdorman!*

Bevosita strategiyada "Iltimos", "kechirasiz" modal so‘zlaridan foydalanish so‘zlovchining tinglovchiga hurmat ko‘rsatganligini ifodalab, kommunikatorlar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqani mustahkamlaydi, tinglovchining ijtimoiy yuzini (sotsial mavqeyini) saqlashga yordam beradi va talabning bajarilishi ehtimolini oshiradi:

Ayol shunay deb Zokirdan ko‘zlarini olib qochib, yolg‘on gapirayotganini sezdirib qo‘ydi.

– Iltimos, yashirmay ayting, men haqiqatni bilgani atayin keldim. Ayam qattiq betoblar. Nima bolganini aniq bilishim shart. (“Voy onajonim…“. 21-b.)

O‘zbek va fors tilida nutqiy etiket birliklari (salomlashish, taklif, xayrlashish)ni kabi nutqiy aktlarning qaysi strategiyalar orqali namoyon bo‘lishini tadqiq etgan H.Turdiyeva o‘zbek nutqiy etiketida *“O‘ting”, “Siz kiring”* kabi buyruq shaklida ifodalangan birliklar bevosita strategiya (direktiv)ga mos kelishini aytgan[11;122].

Tohir Malik asarlarida ham bunday birliklar muloqotning boshlanish va tugallanish nuqtasida qo‘llanilib, suhbatdoshning ijtimoiy yuziga tahdidni kamaytirishni maqsad qilingan:

Asadbek eshik yoniga ilingan, shapaloqdek keladigan xorij telefonini olib, chiroyli tugmachalarni bosib raqam terdi.

– Allo, kim bu? – degan erinchoq ayol ovozi keldi.

– To‘xtasin kerak, – dedi Asadbek jerkib.

– Uxlayaptilar. – Uyg‘ot, g‘aflatni, Asadbek akam so‘rayaptilar, de.

– Voy, assalomu alaykum, hozir... Ana, turib kelyaptilar...

Yarim daqiqa o‘tmay xirildoq ovoz eshitildi:

– Assomaykum, Bek aka, tinchmisiz, omonmisiz, yangam... (“Shaytanat” –1. 73-b.)

Bevosita strategiya foydalanuvchining ijtimoiy yuzni yo‘qotish xavfini minimal darajada ushlab turadi. Lekin noto‘g‘ri vaziyatda qo‘llanganda bu strategiya noqulaylik yoki mojaro keltirib chiqarishi mumkin, ya’ni sintaktik birliklarning pragmatik maqsad talabi bilan og‘ishi esa til tashuvchilarining muayyan nutqiy vaziyatdagi sotsiopsixopragmatik holatiga ko‘ra yuz beradi[12;33] va kutilmaganda ijtimoy me’yorlar buziladi, kommunikatorlarning yuziga tahdid soladi:

– Hoy, qayinnijon, nima deyapsiz? Biz nima qibmiz?

“Qaynijon” degan so‘zi hurmat emas, kesatiq ohangida aytilgani uchun o‘t ustiga moy sepilgandek bo‘ldi.

– Nima qibmiz?! – dedi Zokir ovozini ko‘tarib.

– Nima qibmiz-a!! Sen …

– “Sen” lama, men senga kennayi bo‘laman!

– He, sendaqqa kennoyini…

– Zokir! Tilingni tiy!

– Nima deysiz, aka! Onangizni bir manjalaqi xo‘rlasa ham otasi tufayli uyli bo‘ldim, mashinali bo‘ldim, deb indamay o‘tiraverasizmi?

– O‘ylab gapir! Hech kim onamni xo‘rlamadi. Xo‘rlatgani yo‘l qo‘ymayman ham!

– Xo‘rlatgani qo‘ymasmish… Unda bu jodugarning haqorat qilganini nima deysiz? Nega ayam mening kelishimni kutib qo‘shnikida yotib yurdilar? Xo‘sh?! Xo‘rlatmasmish-a? (“Voy onajonim…” 27-b.)

Ushbu kontekstda *“Senlama, ” “Zokir! Tilingni tiy!”, “O‘ylab gapir!”* jumlalari (bevosita strategiya)da personajlar o‘rtasida nizo paydo bo‘lganligi uchun buyruq maylidagi fe’llar aynan kuchli ohang bilan tallaffuz qilingan, bu esa so‘zlovchi psixologik holatining o‘zgarganligidan dalolat bergan, bu esa g‘azab, norozilik, ogohlantirish aktlari orqali namoyon bo‘lgan. Pragmatik jihatdan bunday nutqiy aktlarni *pragmatik omonimiya hodisasi* sifatida

ham tasnif qilish mumkin. “Pragmatik jihatdan omonim bo‘lgan bir necha nutqiy aktlar bir vaqtning o‘zida birinchi darajali ma’no imkoniyatiga ega bo‘lishi bilan xarakterlanadi”. Bunda yuqoridagi g‘azab, norozilik, ogohlantirish ma’nolari bir qatorda anglanishi mumkin. Demak, direktiv gapning tinglovchiga yetkazmoqchi bo‘lgan axborotining mohiyatiga ko‘ra jumlaning semantik mazmuni o‘zgarib boradi.

Badiiy uslubda qo‘llaniladigan so‘zlashuv uslubiga xos usullardan yana biri *takror* so‘zni qayta qo‘llash bo‘lib, sintaktik figura sifatida badiiy matndagi his-hayajon ifodasini kuchaytirishga, qahramonlar ruhiyatini emotsional holatlarini ta’sirchan aks ettirishda ahamiyatli sanaladi [13; 78]. Yuqorida berilgan kontekst tarkibida ham “ *– Xo‘rlatgani qo‘ymasmish… Unda bu jodugarning haqorat qilganini nima deysiz? Nega ayam mening kelishimni kutib qo‘shninikida yotib yurdilar? Xo‘sh?! Xo‘rlatmasmish-a?”* jumlasini uchratamiz. Kontekstda ikkinchi shaxsga qaratilgan fe’l-kesimdan iborat to‘liqsiz gaplar, ko‘pincha, takror holda qo‘llanib, ifodadagi emotsionallikni kuchaytirishga xizmat qiladi[12;50]. Bunda so‘zlovchining aytilgan gapni yana bir bor ta’kidlash, eslatish, kinoya maqsadida aynan “xo‘rlatmoq” so‘ziga urg‘u berilgan va fe’l tarkibidagi – *ganmish (-gan +emish) morfemalari* xabar qilinayotgan voqeani bilvosita, shubhali tarzda ifodalashga, “-a” yuklamasi esa hayratni ko‘rsatishga xizmat qilgan. Bundan tashqari adresant tomonidan ushbu so‘zning takrorlanishi oldingi kommunikativ vaziyatlar yoki hodisalarni referent sifatida aktualizatsiya qiladi, ya’ni ilgari ma’lum bo‘lgan holatga aniq ishora qilib, muloqot jarayonini pragmatik nazorat ostiga oladi, uning rivojlanishini boshqaradi va muloqot yo‘nalishini belgilaydi.

Demak, bevosita strategiya nutqiy aktlarda ochiq va aniq ifodalangan muloqot shaklida namoyon bo‘ladi. Uning samaradorligi ijtimoiy kontekst, ishtirokchilarning ijtimoiy mavqei, madaniy me’yorlar va pragmatik sharoitga bog‘liq. O‘zbek madaniyatida, odatda, bilvosita strategiyalar afzalroq sanalsa-da, ba’zi sharoitlarda bevosita strategiya aniq va samarali muloqot uchun muhim bo‘lishi mumkin.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Xolova B. Ingliz va o‘zbek badiiy asarlarida xushmuomalalik kategoriyasining lingvomadaniy va sotsiopragmatik xususiyatlari. – Buxoro: Kamolot, 2023. – B. 14, 15.

2. Satriani, S. Hum., M.Pd. Discourse analysis. – Indonesia / Pekalongan, Jawa tengah: Penerbit NEM, 2021. – Pp.70.

3. Brown P. and Levinson, S. Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – Pp.95, 98.

4. Lich, G. N. The Pragmatics of Politeness. New York: Oxford University Press, 2014. – Pp. 33, 37, 147.

5.Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: “Akademnashr”,2013. – Б.156.

6. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – Б. 107, 171.

7. Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол.фан.докт.дисс. – Тошкент, 2001. – Б. 130.

8. Shokirova H. O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi, Farg‘ona; Classic, 2023. – B. 66.

9. Ais Lu’luatus Shofa, Bald on record strategies used by the characters in secret society of second born royals movie.– Surabaya, 2022. – B. 23.

10. Ruziyeva N. Ingliz va badiiy diskursi dinamikasida xushmuomalalik strategiyalarining shartlanishi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa dok. (PhD)…avtoref. – Buxoro, 2024. – B.15.

11. Турдиева Ҳ. Нутқий етикет бирликларининг лингвопрагматик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) … дисс. – Тошкент, 2021. – Б.122.

12. Madaminova M. Matn pragmatik tavsifida sintaktik birliklarning o‘rni. Toshkent: Bookmany print, 2023. – B. 33, 50.

13. Қазоқова Н. Ғофур Ғулом насрий асарларининг прагмалингвистик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа док…дисс. Наманган, – Б. 78.

Jo‘rayev Nurbek Sa’dullayevich
Qo‘qon davlat pedagogika instituti,
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor
Psixologiya fanlari nomzodi, professor
Email: nurbekjorayev926@gmail.com
ORCID: 0009-0001-3222-9219

KASBIY REFLEKSIYA BO‘LAJAK PEDAGOGNING O‘ZINI O‘ZI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMI SIFATIDA

Annotatsiya. Maqolada pedagog shaxsida kasbiy refleksiyani namoyon bo‘lishiga o‘zini o‘zi rivojlantirishning ta’sirini o‘rganishga qaratilgan. Ayniqsa, pedagog shaxsida o‘zini o‘zi rivojlantirishning asosiy tarkibiy qismlarining mohiyati hamda kasbiy refleksiyani rivojlanishi bilan aloqadorligi masalalari tahlil qilingan. Shuning bilan birga pedagog shaxsida kasbiy refleksiyani rivojlantiruvchi psixologik omillarning o‘rni ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: refleksiya, kasbiy refleksiya, o‘zini o‘zi rivojlantirish, pedagogik refleksiya, muvaffaqiyat, ma’naviy-qadriyat, axloq-odob, faoliyatli-amaliy, intellektual, hissiy, xarakterologik xususiyat, o‘zini o‘zi anglash, o‘zini o‘zi tahlil qilish, kasbiy sifatlar.

Жураев Нурбек Садуллаевич
Коканский государственный педагогический институт,
проректор по научной работе и инновациям
кандидат психологических наук, профессор
Электронная почта: nurbekjorayev926@gmail.com
ORCID: 0009-0001-3222-9219

ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ РЕФЛЕКСИЯ КАК МЕХАНИЗМ САМОРАЗВИТИЯ БУДУЩЕГО ПЕДАГОГА

Аннотация. Статья направлена на изучение влияния саморазвития на проявление профессионального рефлекса в личности педагога. В частности, в "личности педагога" анализируются вопросы сущности основных компонентов саморазвития и его взаимосвязи с развитием профессионального рефлекса. При этом раскрывается роль психологических факторов, формирующих профессиональный рефлекс в личности педагога.

Ключевые слова: рефлексия, профессиональная рефлексия, саморазвитие, педагогическая рефлексия, успех, духовно-ценностный, этический, активно-практический, интеллектуальный, эмоциональный, характерная черта, самосознание, самоанализ, профессиональные качества.

Joraev Nurbek Sadullaevich
Kokand State Pedagogical Institute,
vice-rector for scientific affairs and innovations
Candidate of Psychology, Professor
Email: nurbekjorayev926@gmail.com
ORCID: 0009-0001-3222-9219

PROFESSIONAL REFLECTION AS A MECHANISM OF SELF-DEVELOPMENT OF THE FUTURE EDUCATOR

Annotation. The article is aimed at studying the influence of self-development on the manifestation of professional reflex in the personality of an educator. In particular, in the personality of the educator, the issues of the essence of the main components of self-development and its relationship with the development of professional reflex are analyzed. At the same time, the role of psychological factors that develop professional reflex in the personality of an educator is revealed.

Keywords: reflection, professional reflection, self-development, pedagogical reflection, success, spiritual-value, ethics, active-practical, intellectual, emotional, characteristic feature, self-awareness, self-analysis, professional qualities.

KIRISH.

So‘nggi paytlarda pedagogika fanida shaxsiy o‘zini o‘zi rivojlantirish muammosi tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Shu bilan birga, zamonaviy pedagogik ta’lim amaliyotida umumiy va xususan, kasbiy pedagogik refleksiyani rivojlantirish muammosiga tobora ko‘proq e’tibor qaratilmoqda. Zamonaviy refleksiv psixologiya refleksiya va shaxsiy o‘zini o‘zi rivojlantirish jarayoni, kelajakdagi o‘qituvchi bo‘lish jarayoni o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni namoyish etadi. O‘qituvchining pedagogik refleksiya darajasining pastligi, qoida tariqasida, unga o‘zi tanlagan kasbida muvaffaqiyatli rivojlanishi va takomillashishiga imkon bermaydi. Refleksiv mexanizmlar insonga yangi ijobiy tajribalarni idrok etish va ularni ijodiy qayta ko‘rib chiqish imkonini beradi. O‘qituvchining pedagogik mahoratini rivojlantirish va takomillashtirish pedagogik ijodsiz mumkin emas. Pedagogik ijod esa, o‘z navbatida, o‘qituvchining faol pozitsiyasini va rivojlangan refleksiv ko‘nikmalarni talab qiladi.

F.N.Gonoblin o‘qituvchining o‘nta kasbiy va shaxsiy xususiyatlarini aniqladi: talabani tushunish, materialni taqdim etish, ijodiy faoliyat, o‘z ishining natijalarini oldindan bilish, ishontirish, tashkiliy, pedagogik xushmuomalalik, pedagogik vaziyatlarga tezda javob berish, o‘z ishining natijalarini oldindan ko‘rish hamda ushbu predmetni bilish qobiliyat.

Shuningdek, u halollik, ishonchlilik va maqsadlilikni muvaffaqiyatli faoliyatini ta’minlaydigan shaxsiy fazilatlar sifatida belgilab berdi [1]. Ammo bu xususiyatlarning rivojlanishi doimiy, uzluksiz refleksiyasiz mumkin emas.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Biz B.Z.Vulfovning “Pedagogik kasbiy refleksiya pedagogik faoliyatning o‘ziga xosligi, o‘z pedagogik tajribasi bilan bog‘liq bo‘lgan mazmundagi kasbiy refleksiyadir” [2] degan fikrga qo‘shilamiz. Bo‘lajak o‘qituvchi birinchi marta universitetda o‘qish bosqichida o‘zining kasbiy faoliyatini baholash, o‘zi o‘qitayotganlarning nazari bilan qarash zaruratiga duch keladi.

O‘qituvchilik amaliyotiga kirgan talaba haqiqatda kelajakdagi kasbiy faoliyatini “sinab ko‘rish” imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ushbu “sinab ko‘rish” ning muvaffaqiyati nafaqat uning kelajakdagi kasbiy rivojlanishining muvaffaqiyatini, balki tanlagan kasbida qolish istagini ham belgilaydi. Bu holat to‘g‘ridan-to‘g‘ri pedagogik faoliyatdagi talaba-o‘qituvchi uchun hozirgi kunga qadar faoliyatda amalga oshirilgan hozirgi kasbiy qobiliyatlarni va yangi vaziyatda namoyon bo‘ladigan potensial kasbiy qobiliyatlarni faollashtiradi.

Zamonaviy psixologik-pedagogik adabiyotlarda oliy kasbiy ta’limning vazifalaridan biri tanlagan kasbida o‘zini ijodiy amalga oshirishga qodir shaxsni rivojlantirish ekanligi haqida ko‘p fikr yuritilmoqda. Ammo bu kasbiy rivojlanishning barcha bosqichlarida o‘zini ob’ektiv baholash qobiliyatisiz, o‘zini takomillashtirish va o‘zini rivojlantirishga intilmasdan, o‘ziga va kasbiy faoliyatiga mo‘ljallangan kishilarning ko‘zlari bilan qarash qobiliyatisiz mumkin emas.

Psixologiya fanidagi so‘nggi paytlarda shaxsning o‘zini o‘zi rivojlantirish jarayonining mohiyati va mexanizmlarini, xususan, kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirishni o‘rganish sezilarli darajada dolzarb bo‘lib qoldi. Insonning o‘zini o‘zi rivojlantirish muammosi ancha vaqt oldin paydo bo‘lgan va hozirda, bizning fikrimizcha, u alohida ahamiyatga ega bo‘ldi, chunki u ta’limni insonparvarlashtirish asosida yotadi. Pedagogik tafakkurning rivojlanish tarixiga to‘xtaladigan bo‘lsak, shuni ta’kidlash mumkinki, o‘qituvchilik kasbi har doim nafaqat eng yuqori kasbiy mahoratni, balki uzluksiz o‘zini o‘zi takomillashtirishni va o‘zini o‘zi rivojlantirishni ham talab qiluvchi kasb sifatida qaralib kelgan.

K.D.Ushinskiy, P.F.Kapterev, L.N.Tolstoy, A.S.Makarenko, V.A.Suxomlinskiy o‘qituvchi shaxsini doimiy ravishda o‘zini o‘zi takomillashtirish g‘oyalari asosida ishladilar. S.L.Rubinshteyn inson rivojlanishini orttirilgan yangi rivojlanish holatining yadrosi sifatida ishlab chiqilgan, sifat jihatidan yangi boshqarish jarayoni bilan birga keladigan operatsiyalar va harakatlarni umumlashtirish va mustahkamlash orqali qobiliyatlarning rivojlanishi sifatida talqin qildi. S.L.Rubinshteyn tashqi ichki qism orqali sinadi, deb yozgan. Boshqacha qilib aytganda, u inson tomonidan tashqi ta’sirlarni o‘zlashtirishning o‘ziga xosligiga, javobning tabiatiga e’tibor qaratdi. Bu inson psixikasining kognitiv, motivatsion-ehtiyoj va ixtiyoriy sohalari, shuningdek, uning butun shaxsi vositachiligida bo‘lib chiqadi [3].

S.L.Rubinshteynning fikricha, psixikaning asosiy xususiyati jarayonlilikdir. Boshqacha qilib aytganda, psixika doimo jarayon shaklida mavjud - doimiy, moslashuvchan, o‘zgaruvchan, insonning atrofdagi voqelik bilan doimiy o‘zaro ta’siri natijasida hosil bo‘ladi.

Psixik jarayon sifatida hech qanday holatda psixik mazmunning passiv oqimi emas, balki sub’ektning dunyoni tahlil qilishga, undagi muhim va ahamiyatsizlikni farqlashga, ob’ektlarning kashf etilgan xususiyatlarini sintez qilishga va umumlashtirishga qaratilgan maxsus aqliy faoliyatidir.[4]. O‘zini o‘zi rivojlantirishni aniqlashga yondashuvlarni tahlil qilib, biz L.N.Kulikovaning nuqtai nazarini tahlil qilish maqsadga muvofiq. U o‘zini o‘zi rivojlantirishni shaxs tomonidan o‘zining ma’naviy-qadriyat, axloq-odob, faoliyatli-amaliy,

intellektual, hissiy, xarakterologik xususiyatlarini maqsadli ijodiy o‘zgartirish jarayoni sifatida tushunadi. Shuning bilan birga uning hayotiy maqsadlariga eng muvaffaqiyatli erishish va inson, ijtimoiy maqsadini yanada samarali bajarishni nazarda tutadi [5]. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, shaxsning o‘zini o‘zi rivojlantirishi ko‘p qirrali shaxsiy o‘zini o‘zi anglash va o‘zini o‘zi o‘zgartirishning integral jarayonidir.

NATIJA VA MUHOKAMA

Mutaxassisning o‘zini o‘zi rivojlantirishi va uning kasbiy refleksiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlik haqida munozarali masala paydo bo‘ladi.

Bir tomondan, uning shaxsi va faoliyatini refleksiyalovchi baholash professionalning o‘zini o‘zi rivojlantirishning harakatlantiruvchi kuchi, muvaffaqiyatli kasbiy shakllanish shartidir. Har qanday refleksiv xulosa, agar u chinakam refleksiya bo‘lsa, faoliyat jarayonida o‘zini o‘zi tahlil qilish va o‘zini o‘zi fikriga asoslangan bo‘lsa, shaxsni xato va yutuqlar tahlilini hisobga olgan holda vaziyatni yanada o‘zgartirishga, uni yaxshilashga hamda tuzatishga undaydi.

Boshqacha qilib aytganda, har qanday kasbiy harakat haqida refleksiya qilish muqarrar ravishda takomillashtirish yo‘nalishini o‘zgartirishga, shaxsiy yoki kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirishga olib keladi.

Boshqa tomondan, o‘zini o‘zi rivojlantirishning har qanday holati, agar erishilgan natijani refleksiv tahlil qilish orqali nazorat qilinmasa, to‘liq va tugallanmagan bo‘ladi. Faqatgina erishilgan natijalarni refleksiv o‘zini o‘zi tahlil qilgandan so‘ng, biz mazmunli, ongli ravishda o‘zini o‘zi rivojlantirish va o‘zini o‘zi takomillashtirish xususida fikr yuritish mumkin.

Shunday qilib, kasbiy fikrlash va kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirish bir-biri bilan chambarchas bog‘liq va bir-birini amalga oshirishning asosiy shartdir. Bunday barqaror munosabatlar bizga kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirishni pedagogik amaliyot jarayonida kelajakdagi o‘qituvchining aksini rivojlantirish mexanizmi sifatida ko‘rib chiqish imkoniyatini beradi. Kasbiy rivojlanish, shaxsiy rivojlanishdan tashqari, uning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, birlashtiruvchi omil sifatida harakat qiladi hamda shaxsiy rivojlanishning o‘ziga xosligini, shu jumladan uning mazmunli tomonini belgilaydi.

Hozirgi bosqichda psixologiya fanida zahiralarni keng izlab topish hamda ulardan foydalanish ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi. Kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirishning asosini o‘qituvchining pedagogik vaziyatning asosiy tarkibiy qismlariga: o‘qituvchining shaxsi, ta’lim faoliyati, talaba shaxsiga qaratiladi. Shunga ko‘ra, kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirishning predmeti inson kasbiy faoliyatini rivojlantirishdir.

V.I.Andreev o‘qituvchi shaxsining ijodiy o‘zini o‘zi rivojlanishi xususida fikr yuritar ekan, ijodiy o‘zini o‘zi rivojlantirish strategiyalari ikkita nuqta bilan belgilanadi:

-kasbiy o‘zini o‘zi takomillashtirish zarurati;

- kasbiy va shaxsiy fazilatlardagi kuchli va zaif tomonlarini anglash va o‘zini o‘zi bilish darajasi [7].

Kasbiy va shaxsiy fazilatlarda o‘zining kuchli va zaif tomonlarini anglash va o‘zini o‘zi bilish shaxsiy va professional refleksiyasiz mumkin emas. Bu holda refleksiya shaxsiy o‘zini o‘zi rivojlantirish vositalaridan biri va uning kasbiy fazilatlaridan biridir.

Yuqorida aytilganlarning barchasidan kelib chiqqan holda, shaxsiy va kasbiy refleksiyani rivojlantirish bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning asosiy vazifalaridan biriga aylanishi kerak. Aynan o‘qitish amaliyoti jarayonida ushbu vazifani amalga oshirish uchun noyob va deyarli cheksiz imkoniyatlar taqdim etiladi. Yuqoridagilarning barchasiga asoslanib, biz refleksiyalovchi shaxsning quyidagi xususiyatlarini aniqladik:

-o‘zini o‘zi bilishga bo‘lgan ehtiyojning yuqori darajasi;

-shaxsiy va kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojning yuqori darajasi;

-o‘z harakatlarini tahlil qilish, o‘z kasbiy faoliyatida o‘zini o‘zi tahlil qilish qobiliyatining yuqori darajasi;

- kuchli e’tiqod tizimiga ega bo‘lish;

- shaxsning yuksak va barqaror axloqiy ustanovkalari;

-shaxsiy nuqtai nazarni anglash va mavjudligi (o‘tmishda, hozirgi, kelajakda o‘z “Men” imidjini va “Men-professional” obrazini ongli ravishda ifodalash);

-analitik ko‘nikmalar;

-ijodiy intilishlar;

- mas’uliyat, qat’iyatlilik, intizom, mustaqillik, tashkilotchilik kabi shaxsiy xususiyatlarning mavjudligi [8].

Universitet o‘quv jarayoni o‘zining barcha haqiqiy muammolari bilan, insonparvarlik yo‘nalishini hisobga olgan holda, inson shaxsini rivojlantirish uchun yangi kontekstdir. Shuning bilan birga kasbiy va shaxsiy o‘zini o‘zi rivojlantirish uchun ko‘plab shart-sharoitlarni ta’minlaydi.

O‘z navbatida, biz refleksiyani insonning o‘ziga nisbatan kuzatuvchi pozitsiyasini egallash qobiliyati, boshqa insonlarning pozitsiyasini tahlil qilish, ularning ichki holatini boshqalarni va o‘zini bilishning ajralmas vositasi sifatida refleksiyalash qobiliyatini tushunamiz.

Biz o‘zini o‘zi rivojlantirishni shaxsiy rivojlanishga, o‘zini o‘zi namoyon qilishga qaratilgan, insonga o‘z hayotiy faoliyatining sub’ekti bo‘lishiga imkon beradigan faoliyat va shunga mos ravishda o‘qituvchi tomonidan o‘zining kasbiy fazilatlari, xususiyatlarini rivojlantirish hamda qobiliyatlari va o‘z kasbiy nuqtai nazarini shakllantirish deb hisoblaymiz [9].

O‘qituvchining kasbiy faoliyatidagi refleksiyalovchi jarayonlar, ayniqsa, pedagogik jarayonda talabalar bilan o‘zaro munosabatlar sharoitida, ularning o‘quv faoliyatini qurish jarayonida, o‘z kasbiy faoliyatini va uning sub’ekti sifatida o‘zini o‘zi tahlil qilish bosqichida aniq namoyon bo‘ladi. Tafakkur, bizning fikrimizcha, o‘qituvchining kasbiy mahoratini rivojlantirish mexanizmi, uning zamonaviy ta’lim amaliyoti sharoitida o‘zini professional sifatida ro‘yobga chiqarishga tayyorligi, asosan o‘zini o‘zi rivojlantirishga qaratilgan.

Kasbiy tayyorgarlik jarayonida talabalarning pedagogik amaliyoti ko‘rib chiqilayotgan jarayonni eng yorqin namoyon bo‘lishini va rivojlanishini ta’minlaydigan holatdir. Kasbiy refleksiyaning rivojlanishi tabiiy ravishda shaxsiy refleksiya rivojlanishi doirasida sodir bo‘ladi. Bu jarayonning natijasi insonning o‘zini o‘zi rivojlantirish va takomillashtirish uchun o‘z shaxsidan ongli ravishda foydalanishidir.

Pedagogik amaliyot davomida talaba amalda birinchi marta uning kasbiy fazilatlarini baholashni talab qiladigan vaziyatga tushadi. Talaba nafaqat kasbiy faoliyatda har qanday qiyinchiliklar mavjudligini bilishi, balki bu qiyinchiliklarning sabablarini tahlil qilish, amalda bir vaqtning o‘zida o‘z faoliyatini to‘g‘rilash kerak.

Tajriba shuni ko‘rsatadiki, refleksiyaning past darajasi ko‘pincha bajarilayotgan faoliyatdagi qiyinchiliklarni bilmaslik bilan bog‘liq. Pedagogik (aslida boshqa har qanday) faoliyat jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni aniqlash, amalga oshirish va tahlil qilishning iloji yo‘qligi, o‘qituvchilik amaliyoti davrida talaba stajyorga qo‘yilgan vazifalarni bajarmaslikni amalda kafolatlaydi.

O‘qituvchilik amaliyoti mutaxassis tayyorlash jarayonida mutlaqo mustaqil va mustaqil emasligini unutmasligimiz kerak. Aksincha, uning maqsad va vazifalari umuman kasbiy ta’limning maqsad va vazifalariga to‘liq mos keladi va amaliyot lahzasining o‘zi talaba uchun o‘zining kasbiy intilishlarini qayta ko‘rib chiqish, tanlangan kasbida o‘zini yanada takomillashtirish tizimini yaratish uchun noyob imkoniyatdir. Shunga ko‘ra, umuman mutaxassisning kasbiy tayyorgarligining muvaffaqiyati amaliyotning muvaffaqiyatiga bog‘liq va o‘zini o‘zi rivojlantirish va mavjud kamchiliklarni tuzatish uchun o‘tkazib yuborilgan imkoniyatlarni tuzatib bo‘lmaydi.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, innovatsion pedagogik texnologiyalar va aksilogik yondashuvning uyg‘unligi ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida oliy ta’lim muassasalarida imkoniyati cheklangan

talabalar va umumiy o‘quv jarayonining sifatini yaxshilashga qaratilgan ilg‘or usullar tahlil qilindi va samarali metodlar ishlab chiqildi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar o‘quv jarayonining interfaolligini oshirishga xizmat qiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interfaol metodlar va individual yondashuv orqali ta’lim samaradorligi oshdi. O‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyati va amaliy ko‘nikmalari rivojlandi. Aksilogik yondashuv ta’lim jarayonida axloqiy va ma’naviy qadriyatlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Talabalarning jamiyatga moslashuvi va kasbiy tayyorgarligi kuchaydi. Ijtimoiy mas’uliyat va madaniy xabardorlik oshdi. Empirik tadqiqot natijalari innovatsion yondashuvlarning samarali ekanligini tasdiqladi. Eksperimental guruh va nazorat guruhi natijalari taqqoslanib, innovatsion yondashuvlar ta’lim sifati va ijtimoiy moslashuvni yaxshilashini ko‘rsatdi. O‘qituvchilarning 85% i interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish muhimligini ta’kidladilar. Oliy ta’lim tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish uchun pedagoglarning malakasini oshirish zarur. O‘quv dasturlariga aksilogik yondashuvni integratsiya qilish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalar va aksilogik yondashuvdan foydalanish ijobiy natijalar berishini ko‘rsatdi. Ushbu metodlarni yanada chuqur o‘rganish va amaliyotga keng tatbiq etish kelajakdagi ta’lim jarayonining sifatini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Vygotsky L.S. Thinking and Speech. Cambridge, MA: The MIT Press, 1987.
2. Dewey J. Experience and Education. New York: Macmillan, 1938.
3. Piaget J. The Psychology of Intelligence. London: Routledge, 1950.
4. Bruner J. The Process of Education. Harvard University Press, 1960.
5. UNESCO. Inclusive Education: The Way of the Future. International Conference Report, 2008.
6. Salomon G. Technology and Pedagogy in the New Era. Educational Review, Vol. 42, No. 2, 2015, pp. 120-135.
7. Siemens G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age. International Journal of Instructional Technology and Distance Learning, 2005.
8. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. "O‘zbekistonda ta’limni rivojlantirish strategiyasi" 2022-yil 12-aprel, PQ-2345-son.
10. Webber C.F. Educational Leadership and Technology: Preparing School Administrators for a Digital Age. Educational Administration Quarterly, 2016.
11. Oliy ta’limda innovatsion pedagogika texnologiyalari: Nazariya va amaliyot. Metodik qo‘llanma. Toshkent: Fan, 2020.
12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. "2023-2030 yillarda inklyuziv ta’limni rivojlantirish dasturi".

Xolmo‘minova Aziza Zafar qizi
Termiz davlat pedagogika instituti doktoranti

GLOBALLASHUV SHAROITIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING AXLOQIY QADRIYATLAIRNI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. Hozirgi kunda globallashuv sharoitida o‘sib kelayotgan yosh avlodning to‘g‘ri tarbiyalanishi hamda axloqiy qadriyatlarga ega bo‘lishi muhim va dolzarb masaladir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy, ma’naviy kamolotga yetkazish esa boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining zimmasiga yuklatilgan vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy qadryatlarini shakllantirish to‘g‘risida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Qadriyat, boshlang‘ich sinf, ta’lim, tarbiya, odon-axloq, o‘quvchi, o‘qituvchi, bilim, ko‘nikma, malaka, shakllantirish.

Холмоминова Азиза Зафар кизи
Докторант Термезского государственного педагогического института

ФОРМИРОВАНИЕ НРАВСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Аннотация. Правильное воспитание и усвоение нравственных ценностей молодым поколением, растущим в современных условиях глобализации, является важной и актуальной проблемой. Содействие нравственному и духовному развитию учащихся начальной школы является одной из задач, возложенных на учителей начальной школы. В данной статье рассматривается формирование нравственных ценностей у учащихся начальной школы.

Ключевые слова: Ценность, начальная школа, образование, воспитание, нравственность, ученик, учитель, знания, умения, навыки, компетентность, формирование.

Kholmo‘minova Aziza Zafar qizi
PhD Candidate at Termez State Pedagogical Institute

FORMATION OF MORAL VALUES OF PRIMARY GRADE STUDENTS IN THE CONDITIONS OF GLOBALIZATION

Annotation. The correct upbringing of the young generation growing up in the conditions of globalization and the acquisition of moral values is an important and urgent

issue. The moral and spiritual development of primary school students is one of the tasks assigned to primary school teachers. This article discusses the formation of moral values of primary school students.

Keywords: Value, primary school, education, upbringing, morality, student, teacher, knowledge, skills, qualifications, formation.

KIRISH.

Bugungi kunda, globallizatsiya jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ma‘naviy-axloqiy xususiyatlarni shakllantirishga juda katta ahamiyat berilmoqda. Buning uchun o‘quvchilar ongida ma‘naviy-axloqiy tushunchalarni shakllantirish, ular ongiga milliy qadriyatlarimizni singdirish, o‘quvchilarning oilaviy muhitiga alohida e‘tibor qaratilishi lozim. Yoshlarga ta’lim-tarbiya berish har doim ham eng dolzarb muammo sanalib kelingan. Jamiyatning taraqqiyoti insonlarning ongiga, aql-zakovati, axloq-odobiga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Yaxshi tarbiya ko‘rgan kishi eng avvalo el-yurtning, xalqning manfaatini o‘ylaydi. Chunki har bir shaxsning baxt-saodati alohida, o‘z holicha amalga oshmaydi. Atrofdagilar baxtli va farovon turmush kechirganlarida huzur-halovat hammaga tatiydi. Bu qoida qadim zamonlardan mavjud bo‘lib, unga turli davrlarda turlicha amal qilib kelingan.

Yosh avlodning ta’lim-tarbiya olishlariga mas’ul bo‘lgan barcha o‘rinlarda xalq pedagogikasi xazinasidan foydalanish hayotiy ehtiyoj darajasiga ko‘tarildi. Yoshlarning ma’naviy- axloqiy tarbiyasi quyi sinflarda ya’ni boslang‘ich sinflarda xalq og‘zaki ijodi namunalaridan samarali foydalanilganda bu darajaga erishish engil amalga oshadi. O‘rta umumiy ta’limning birinchi bosqichi bo‘lgan boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning bilim egallashga bo‘lgan qiziqishlari, havasi asosida aqliy qobiliyatlari shakllantiriladi. Aqliy kamolotga uyg‘un tarzda o‘quvchilarning ma’naviy dunyosi boyitiladi. Axloqiy fazilatlar takomillashtiriladi. O‘quvchilarda mehnatsevarlik, yuksak did, fahm-farosat, nafis his-tuyg‘ular rivojlanib boradi. Boshlang‘ich sinflardayoq iqtisodiy va ekologik tushuncha, ko‘nikma va malakalar tarkib topib boshlaydi. Ta’lim-tarbiya muassasalarida o‘quvchi-yoshlarning har tomonlama kamol topishiga e’tibor qaratiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Bizga ma’lumki, oila muqaddas qo‘rg‘on. Har bir oila jamiyatning bir bo‘lagi hisoblanadi. Shunday ekan, har bir o‘quvchi asosiy tarbiyani o‘z oilasidan oladi. Bola shaxsini rivojlantirishda oilaning o‘rni juda muhim ahamiyatga egadir. Oilada olingan tarbiya bola hayotining ajralmas bo‘lagi hisoblanadi. Maktab ostonasiga ilk qadamqo‘ygan bolada taassurotlar turli xil bo‘ladi. Avvalmbor, o‘qituvchilardan bola ongida maktab muhitini shakllantirish va o‘sha muhitga olib kirish talab qilinadi. O‘qituvchi tomonidan bola tarbiyasidagi kamchilik va nuqsonlar, ijobiy va salbiy xususiyatlari o‘rganiladi va yechim topishga harakat qilinadi. O‘quvchilarni psixik jihatdan to‘la o‘rganish o‘qituvchining pedagogik mahoratiga bog‘liq hisoblanadi. Bu jarayon o‘qituvchidan sabr, mashaqqat va anchagina vaqt talab qiladi. Buning uchun o‘qituvchilar oila bilan hamkorlikda o‘quvchi tarbiyasidagi ma‘naviy-axloqiy, ta‘limiy va tarbiyaviy nuqsonlarni tuzatishga harakat qilishlari lozim. Shundagina bu harakatlar o‘z samarasini beradi. Chunki har bir bola o‘z oilasida o‘zini

yaxshi, baxtli his etsagina uning tarbiyasida ham, ta‘lim samaradorligida ham ijobiy o‘zgarishlar yuz beradi. Bola oilaning yuzi hisoblanadi. Uning tarbiyasi, o‘zini tutishidan oiladiga muhitning qanday ekanligini bilib olishimiz mumkin. Maktab va oila hamkorligi har doim samarali bo‘lgan. O‘quvchining ta‘lim va tarbiya olishi maktab tomonidan to‘la qonli ta‘minlanishi uchun oila hamkorligi kerak bo‘ladi. Boladagi kamchiliklarni o‘qituvchi bilan birga ota-ona ham to‘ldirishi va nazorat qilishi ta‘lim jarayonidagi juda muhim masaladir. Bu hamkorlik o‘quvchidagi muammoli nuqtalarni tezda anqilashga va ijobiy yechim topishga yordam beradi. Shundan keyingin boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘z zimmasidagi vazifalarni bajarishga kirishishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashda milliy qadriyatlarimizning o‘rni beqiyosdir. Ajdodlarimizdan qolgan urf-odatlarimizni, qadriyatlarimizni bolalarga o‘zlarini tilida sodda va ravon qilib tushuntirishimiz va ongiga singdirishimiz lozim. Bu amaliy ishlar o‘quvchilarda Vatanga muhabbat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat kabi tushunchalarni shakllanishida muhim ahamiyatga egadir. Bolaning odobli, axloqli, madaniyatli bo‘lishi zamirida xalqimizning milliy qadriyatlari yotadi. Ajdodlarimiz haqida qanchalik ko‘p bilishsa, faxr tuyg‘usini ko‘proq his qiladilar. Bu esa ajdodlarimizga munosib farzand bo‘lishimiz kerak degan tushunchani shakllanishiga olib keladi. Farobiy inson kamolotida ta‘lim-tarbiyaning muhimligini ta‘kidlab: “Munosib inson bo‘lish uchun odamda ikki imkoniyat ta‘lim va tarbiya olish imkoniyati bor. Ta‘lim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi, tarbiya esa kishilar bilan muloqotda axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yaratishga olib boradigan yo‘ldir...” deydi.Ta‘lim-tarbiya jarayonida shaxsni har tomonlama ma‘naviy-axloqiy shakllantirish, uning qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish hamda ijtimoiy turmush uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish muhim ahamiyatga egadir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy madaniyati xususiyatlari. Pedagogik adabiyotlarda axloqiy madaniyat – shaxsning jamiyat axloqiy tajribalarini egallashi va bu tajribalardan boshqa odamlar bilan bo‘lgan munosabatlarda foydalana olishi sifatida belgilangan.

Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarinings axloqiy madaniyatida quyidagi xususiyatlar bo‘rtib turadi:

1) hozirgi jamiyatimizning ehtiyoji bo‘lgan axloqiy jihatdan rivojlanib borish;

2) muomala odoblariga va axloq qoidalariga rioya etish;

3) faoliyatda o‘zgalar bilan munosabatda me’yorlarga amal qilish.

Shu ma’noda mazkur axloqiy madaniyat asoslari boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarda shakllantiriladi va ular o‘quvchilarning jismoniy, aqliy, ma’naviy hamda ruhiy imkoniyatlariga mos ravishda o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Aynan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari axloqiy madaniyatiga xos bo‘lgan xususiyatlarni idrok etish muhim ahamiyatga ega. Bu bilan ularda axloqiys madaniyatni shakllantirishning nazariy, metodik va texnologik omillariga ega bo‘linadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ***axloqiy fazilatlarni shakllantirish muammosini tadqiq etishda*** muayyan tizimga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Biz mazkur tizimni quyidagicha tasavvur qilamiz:

1) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy fazilatlarni shakllantirishning mazmuni va unda “Tarbiya” o‘quv fani asosida nazariy jihatdan shakllantirish asoslarini ishlab chiqish;

2) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy fazilatlarni shakllantirishning amaliy va inoovatsion tizimlarini ishlab chiqish, ulardan foydalanish shakllarini belgilash;

3) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ahloqiy fazilatlarning shakllanganlik ko‘rsatkichlarini aniqlash indikatorlarini yaratish;

4) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ahloqiy fazilatlarni shakllantirish tizimining amaliy samaradorlik natijalarini aniqlash. Bunday yondashuv qo‘yilayotgan muammoni nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etish imkonini beradi

XULOSA.

Shunday qilib, ta’lim-tarbiya jarayonida shaxsni har tomonlama ma’naviy-axloqiy shakllantirish, uning qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish hamda ijtimoiy turmush uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish muhim ahamiyatga egadir. O‘quvchi shaxsini shakllanishida muhit ham katta ahamiyatga ega. Bola sog‘lom muhitda kattabo‘lishi va kamol topishi tarbiya jarayoniga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Sog‘lom muhit bola uchun kislorod kabidir.Bola sog‘lom muhitda nafas olmasa,s og‘lom muhitli oilada voyaga yetmasa uning kelajagiga rahna soluvchi omillar ko‘payib boradi. Bu holat yillar davomida jamiyat rivojiga ham o‘zining salbiy ta‘sirni ko‘rsatadi. Xulosamiz shundan iboratki, tarbiya inson bolasining ajralmas bo‘lagidir. Inson bolasi ongli mavjudotdir. Tarbiyali inson esa ongli mavjudotning oliy ko‘rinishidir. Shundy ekan bugungi kunda yosh avlodda odob-axloq qoidalarini, axloqiy qadriyatlatni shakllantirish muhim ahamiyatga ega bo‘lgan masala bo‘lib qolmoqda.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Sh.M.Mirziyoyev.”Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. –T.: «O‘zbekiston» NMIU, 2016,14 –bet

2. Insonni tarbiyalamoq–kelajakni tarbiyalamoq. Tursunova Saida Isakovna Termiz davlat Pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi https://doi.org/10.5281/zenodo.6830668

3. B.X.Xodjayev Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. -T. «Sanostandart» nashriyoti, 2017-yil

4. Jabborova O. Boshlang‘ich ta‘‘lim metodikasining yangi nazariy masalalari. – Toshkent, 2022

5. Yuldoshev Tojiddin Abdukarimovich; Urozov Fakhriddin Isokovich; ShomurotovUlug‘bek Melikmurodovich. FORMATION OF A RELATIONSHIP OF RESPONSIBILITYTOTHEFAMILY IN YOUNG PEOPLE. Euro. J. Hum. Edu. Adv. 2023, 4, 38-40.

6.Yuldashev Tojiddin Abdukarimovich, & Shomurodov Ulug‘bek Melikmurodovich. (2022).Art Therapy in Eliminating Aggressiveness in the Individual. Global Scientific Review,

7. PEDAGOGICAL DIRECTION COOPERATION BETWEENFAMILYANDEDUCATIONAL ORGANIZATION. European Scholar Journal (ESJ) Available Onlineat:https://www.scholarzest.com Vol. 2.

Nasimov Sadriddin Xurazboyevich
Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali o‘qituvchisi (PhD)

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI MAKTABGA ADAPTATSIYASIDA DIQQAT SIFATLARINING AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarni maktabga adaptasiyasini psixologik-pedagogik o‘rganishning shakillari, yo‘llari, uslublari samaradorligi va vositalari imkoniyatlarini tahlil qilingan. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini maktabga adaptatsiyasida diqqat sifatlarining ahamiyati amaliy jihatdan yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Adaptatsiya, motivatsiya, ijtimoiy, psixologik, emotsional-irodaviy, qobiliyat, emotsional komponent, adekvat.

Насимов Садриддин Хуразбоевич
Преподаватель (кандидат педагогических наук) Самаркандского филиала Института переподготовки и повышения квалификации специалистов по физической культуре и спорту

ЗНАЧЕНИЕ КАЧЕСТВ ВНИМАНИЯ В АДАПТАЦИИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ К ШКОЛЕ

Аннотация. В статье анализируются возможности форм, методов, способов, эффективности и инструментария психолого-педагогического изучения адаптации детей младшего школьного возраста к школе. Также на практическом уровне подчеркивается важность навыков внимания в адаптации учащихся начальной школы к школе.

Ключевые слова: Адаптация, мотивация, социальная, психологическая, эмоционально-волевая, способность, эмоциональный компонент, адекватная.

Nasimov Sadriddin Khurazboyevich
Teacher of the Samarkand branch of the Institute for Retraining and Advanced Training of Specialists in Physical Education and Sports (PhD)

THE IMPORTANCE OF ATTENTION QUALITIES IN THE ADAPTATION OF PRIMARY STUDENTS TO SCHOOL

Annotation. This article analyzes the possibilities of forms, methods, methods, effectiveness and tools of psychological and pedagogical study of adaptation of children of primary school age to school. Also, the importance of attention qualities in the adaptation of primary school students to school is practically highlighted.

Keywords: Adaptation, motivation, social, psychological, emotional-volitional, ability, emotional component, adequate.

Dunyoda bolalarning maktabga adaptatsiyasi namoyon bo‘lishi o‘qishga bo‘lgan layoqatlarini tarkib toptirish orqali qobiliyatlarini yuzaga chiqarishni takomillashtirish masalalariga oid ilmiy izlanishlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini maktabga adaptatsiyasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining shakllanishi orqali o‘qituvchi, psixolog hamda ota-onalar ishtirokini ta’minlash, bola kamoloti uchun xizmat qiladigan mexanizmlarni yaratishga qaratilgan tadqiqotlarni olib borish zarurati yuzaga kelmoqda.

Ta’lim muassasalarida maktab hayotining dastlabki kunlaridanoq o‘quvchi e’tiboriga, ayniqsa, uning o‘z-o‘zini nazorat qilishi, boshqaruvchanligi nuqtai nazaridan talablar qo‘yiladi. Maktabgacha yosh davrida diqqat ixtiyorsiz bo‘ladi. V.S.Muxina ta’kidlaganidek, diqqatning rivojlanishi tashqi muhit ta’sirlariya yo‘naltirishi, unga hissiy munosabatga bog‘liq, tashqi taassurotlarning mazmuni esa bunday o‘sishni ta’minlaydigan xususiyatlar yoshga qarab o‘zgarib boradi. [2.450]. Diqqatning rivojlanishidagi hal qiluvchi holatni tadqiqotchilar bolalar o‘z diqqatini ongli ravishda tartibga sola boshlashi, uni ma’lum ob’ektlarga yo‘naltirishi va ushlab turishi bilan bog‘liqligini isbotladilar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari diqqatning o‘ziga xosligi shundaki, bola ongli ravishda diqqatini muayyan buyumlarga, hodisalarga yo‘naltiradi, buning uchun ma’lum vosita va usullardan foydalanadi. Boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarda ixtiyoriy diqqatni egallasalar-da, ixtiyorsiz diqqat ustunlik qilib qolaveradi. Bolani uzoq vaqt davomida diqqat va e’tiborini yoqimsiz faoliyatga jalb qilish qiyin. Ular o‘yin faoliyati davomida juda ehtiyotkorlik bilan amalga oshiriladi.

V.S.Muxinaning fikriga ko‘ra, diqqatni rivojlanishi bola nutqning rejalashtirish funksiyasini yaxshilashga yordam beradi. Nutq oldindan og‘zaki muayyan vazifani amalga oshirish uchun muhim bo‘lgan ma’lumotlarni anglash imkonini beradi; bevosita jozibadorligini yoki ajoyib xususiyatlarga ega bo‘lmagan bunday ob’ektlarga e’tibor qaratmasligini ta’kidlaydi. [2.450]. D.B.Elkonin o‘quv faoliyatining xususiyatlarini ko‘rsatib, uni mohiyati, mazmuni va namoyon bo‘lish shakliga ko‘ra ijtimoiyligini ta’kidlaydi. O‘quv faoliyati bu shunday faoliyatki, uning natijasida o‘quvchilarda o‘zgarish yuz beradi. Uning mahsuli turli motivlar asosida ko‘rilgan bo‘lishi muhim. Bu motivlar bevosita o‘quvchi shaxsining o‘sishi va rivojlanishi bilan bog`liq bo‘lishi lozim deb ta’kidlaydi.[1.560]

O‘quv faoliyati ta’lim, o‘qish va o‘rganish degan tushunchalar bilan bevosita bog`liqdir. Ta’lim jarayoni o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligidagi o‘quv faoliyati bo’lib, o‘qituvchining bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘quvchilarga o‘rgatish jarayonidir. Ta’lim jarayoni bevosita muayyan axborot, harakatlar, xulq-atvor shakllarini o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Biz tadqiqotimizda boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning o‘zaro hurmatiga asoslangan emotsional munosabat muhitining yaratilishi, o‘quv topshiriqlarini tushunish, anglash va fikrlarni bayon etish ko‘nikmalarini kuchaytirishi natijasida, ularda o‘quv materiallarini o‘zlashtirishning kognitiv komponentlarini rivojlantirishga qaratildi va “Shulte jadvallari” metodikasining bolalar variantini qo‘lladik. Ushbu metodika diqqatning ko‘chish tezligi, murakkab sharoitlarda kerakli ma’lumotlarni tanlash bo‘yicha ish qobiliyati va uning barqarorligini aniqlash uchun mo‘ljallangan bo‘lib 1 dan 15 gacha sonlarning ixtiyoriy tartibda joylashgan 5 ta oq-qora, jadvallar yordamida o‘tkazildi.

A.Yu. Kozireva bu test yordamida quyidagi ko‘rsatgichlarni hisoblashni tavsiya etadi. Ishning samaradorligi (I.S). Ishlab chiqarish darajasi (I.Ch.D) psixik barqarorlik (P.B).

Yosh	5 ball	4 ball	3 ball	2 ball	1 ball
5-6	25-30	30-35	35-40	40-45	60 va undan ko‘p
7-8	20-25	25-30	30-35	35-40	45 va undan ko‘p
9-10	15-20	20-25	25-30	30-35	35 va undan ko‘p

Test natijalarini izohlashda har bir jadval bo‘yicha xatolar soni, bajarish vaqti asosiy ko‘rsatgich bo‘lib hisoblanadi. Jadval natijalari bo‘yicha “xoldan toyish (toliqish)”, diqqat ish qobiliyati va barqarorligi qonuniyatlarida namayon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi unda ilmiy jihatdan asoslangan, psixologik xizmat yo‘nalishida amaliyotchi mutaxassislar tomonidan keng qo‘llanuvchi metodik vositalar, matematik-statistikaning turli darajadagi (yuqori, o‘rta, past darajalardagi) metodlari kompleks qo‘llangani, respondentlar tanlanma to‘plamining hajmi ijtimoiy psixologik tadqiqotlarda tavsiya etilgan chegaralarda bo‘lgani, ilmiy-nazariy tahlil, natijalar sharhida ishonchli manbalarga asoslanganlik bilan belgilanadi.

Dastlabki Shulte jadvallari shkalasi natijalarini tahlil qilganimizda quyidagi holatlarni kuzatdik. Sinaluvchilarimiz tomonidan eng kam ball olganlar 2 ballni tashkil qilsa, maksimal ball 5 ballni tashkil qildi (1-jadvalga qarang). Olingan natijalar tahlilidan ko‘rinib turibdiki ma’lumotlar normal taqsimlanish qonuniga mos kelmas ekan ($Z=0,058$; $p<0,01$). Demak keyingi bosqichda biz noparametrik me’zonlardan foydalanishimiz maqsadga muvofiqdir.

1 - jadval.

“Shulte jadvallari” metodikasi bo‘yicha birlamchi natijalar tahlili.

	N	Mini-mal	Maksi mal	O‘rta-cha qiymat	Stan-dart og`ish	Assim etriya	ekssess
shulte jadvali	210	2,00	5,00	3,6381	,87083	-,058	-,695

Tadqiqotda biz boshlang`ich sinf o‘quvchilarini maktabga adaptatsiyasining bir qator xususiyatlari, jumladan, “shulte jadvali” bo‘yicha yosh farqlari mavjudligini aniqlash uchun yosh guruhlar tafovutlar (Krusskal Uollis mezoni bo‘yicha umumlashtirildi.

Quyidagi “shulte jadvali” bo‘yicha 6,7-7,0 yoshlarda o‘rtacha rang 41,60, 7,1-7, yoshlarda o‘rtacha rang 45,88, 7,5-8,0 yoshlarda o‘rtacha rang 57,50 (H=5,216; r<0,05) ga teng. Yuqorida keltirilgan maktab o‘quvchilarining diqqat sifatlarini o‘rganish metodikasi bo‘yicha 7,5-8,0 yoshlardagi o‘quvchilarining natijalari yuqoriligi namoyon bo‘ldi.



1-rasm. Shulte jadvali metodikasi bo‘yicha yosh guruhlarlarning tafovutlari (Krusskal Uollis mezoni bo‘yicha)

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini maktabga adaptatsiyasi uchun biz tomonimizdan tuzilgan psixokorreksion dasturda psixoterapiyaning ilg`or ilmiy yo‘nalishlari va maktablari metodologik asos qilib olindi.

Bizning tadqiqotimizda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini maktab ta’limiga muvaffaqiyatli adaptatsiyasining ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlarni yaratish uchun rivojlantiruvchi mashg`ulotlar o‘tkazildi. Bolalarining maktabga muvaffaqiyatli adaptatsiyasini aniqlash tashxisini o‘tkazdik.

O‘quvchilarni maktab ta’limiga adaptatsiyasida, ularda o‘quv motivatsiyasini shakllantirish, muloqot ko‘nikmalari, bir-birini o‘zaro tushunish, sherikchilik, o‘zaro mas’uliyatni sezish kabi xislatlarni, bilish jarayonlari, jumladan diqqat, sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur xususiyatlarini korreksiya qilish va rivojlantirishdir.

O‘quvchilarning bilish jarayonlari va shaxs xususiyatlarini korreksiya qilish; o‘zlashtirishi sust o‘quvchilarning bilish jarayonlarini rivojlantirish; maktab ta’limiga adaptatsiyasi qiyin kechgan o‘quvchilarda o‘quv motivatsiyalarini shakllantirish.

Kutilayotgan natijalar: o‘quvchilarning diqqat, xotira, hayol va tafakkur xususiyatlarini rivojlantirish hamda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish;

O‘quvchilarning jismonan sog`lom bo‘lishi rivojlanishining eng muhim omilidir. Agar bola jismonan sog`lom bo‘lsa, u charchoqsiz barcha vazifalarni bajaradi. Hozirgi vaqtda salomatlik tushunchasi nafaqat kasallik holati, jismoniy nuqsonning yo‘qligi, ruhiy va ijtimoiy farovonlik holati sifatida ko‘rib chiqiladi.

Ijtimoiy adaptatsiya birinchi sinf o‘quvchisining maktab hayotiga faol moslashish jarayoni sifatida, ta’lim muassasasida bo‘lgan birinchi kunlarda muhim va zarurdir. O‘quvchilarning psixologik madaniyatini tarbiyalash, har bir bolaning va umuman jamoaning muvaffaqiyatini shakllantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishning samarali vositasi adaptatsiya hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari maktabga adaptatsiyasining psixologik xususiyatlar orqali biz olingan dastlabki empirik ma’lumotlarni bir necha metodikalar o‘rtasidagi bog‘liqlik qonuniyati (Spirman mezoni) asosida ishlarni olib bordik.

2-jadval.

Metodikalar o‘rtasidagi bog`liqlik qonuniyati (Spirman mezoni asosida n=210)

	odam rasmi	u osh yedi	10 ta nuqta	verbal test	shulte jadvali	10 ta so’z
odam rasmi	1	,161(*)	,060	,022	,106	,191(**)
u osh yedi		1	,082	,046	,127	-,009
10 ta nuqta			1	,248(**)	,287(**)	,202(**)
verbal test				1	,275(**)	-,055
shulte jadvali					1	,352(**)
10 ta so‘z						1

** 0.01 level (2-tailed).* 0.05 level (2-tailed).

Olingan empirik ma’lumotlar asosida odam rasmini chizish metodikalar o‘rtasidagi bog‘liqlik qonuniyati (Spirman mezoni o‘rtasida ma’lum bir korrelyatsion bog‘lanishlar aniqlandi. Jumladan, Shulte jadvali bilan 10 ta so‘z (r=0,352; r≤0,01), xususiyatlar o‘zaro uzviy bog‘liqlik aks etadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida diqqatning ko‘chish tezligi, diqqatning barqarorligi bola xotirasini yaxshi rivojlanganligni va esga tushirilgan so‘zlar o‘qish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Bevosita o‘quvchilarning maktabga moslashishida diqqat bilan eshitib so‘zlarni eslab qolishi muhim hicoblanadi. Shuningdek esga tushirilgan so‘zlar miqdori mnemik jarayonlarning rivojlanish darajasini turli xildagi dars mashg`ulotlar bilan ishlash imkoniyatini oshiradi.

Demak olib borilgan empirik tadqiqotga ko‘ra boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning maktabga moslashish bo‘yicha dastur tuzish maqsadga muvofiqligi aniqlandi, shunga ko‘ra biz tomonimizdan ishlab chiqilgan o‘quvchilarning maktabga moslashtirish dasturining samaradorligi o‘zining ta’sir kuchini isbotladi va mazkur dasturni amaliyotga tatbiq qilish maqsadga muvofiq.

Bu davrda o‘quvchilarini ortiqcha jismoniy zo‘riqishsiz o‘qishga, diqqat-e’tiborli bo‘lishga o‘rgatib borish kerak. Buning uchun oilada, maktabda o’quvchilar bilan olib boriladigan ta’lim jarayonining imkon qadar qiziqarli bo‘lishiga erishish lozim. Bu borada o‘qituvchilar, maktab psixologi va ota- onalarning birgalikdagi sa’y-harakati bolaning o‘ziga nisbatan ishonchini ortishiga olib kelish bilan bir qatorda, uni maktabda muvaffaqiyatli o‘qishini ta’minlashi va ta’lim jarayoniga moslashishida qiyinchiliklarni yengishda yordam berishi mumkin.

Shu bilan birga quyidagi tavsiyalarga amal qilish ta’lim jarayoni samaradorligini ta’minlaydi:

- kichik maktab yoshidagi o‘quvchi dastlabki yillar davomida ko‘proq qo‘llab-quvvatlanishga muhtoj bo‘ladi. Shuning uchun uni doimo qo‘llab-quvvatlash, bola yetuk, o‘ziga ishongan va xotirjam bo‘lib yetishishi uchun uni doimo erishgan yutuqlari uchun

rag`batlantirib borish; o‘quvchilarning ruhiyati va yosh xususiyatlariga mos ravishda munosabatda bo‘lishi; baholash, rag‘batlantirish va jazolashda har bir o‘quvchiga xos ruhiy holatni hisobga olish; har bir bolaning qobiliyati, o‘zlashtirish darajasini inobatga olish; uning savollariga sabr-toqat bilan javob berish; bolani xato qilishga haqqi borligini unutmaslik; bola bilan samimiy va yaxshi munosabatda bo‘lish.

Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini maktabga adaptasiyasi shaxs shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur davrning xarakterli belgilari shundan iboratki, bunda shaxs sifatlari, xarakter xislatlari, bilishga qiziqish, shaxslararo munosabatlarning tarkib topishiga tayanch nuqta vazifasini o‘taydi.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Эльконин Д.Б. К проблеме периодизации психического развития в детском возрасте // Вопросы психологии № 4. 1971. 203 с.

2. Мухина В.С. Возрастная психология: феноменология развития, детство, отрочество – 5 изд., стереотип. / В.С. Мухина – М.: Издательский центр Академия, 2000. – 456 с.

3. Nasimov S. X. **“**Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini maktabga adaptatsiyasining ijtimoiy – psixologik xususiyatlari”. Dissertatsiya. Toshkent 2024 y

4. Овчарова, Р.В. Практическая психология в начальной школе / Овчарова Р.В. –М.: ООО АПРЕЛЬ Пресс, 2010. –208 с.

Allanazarov Sirojbek Bekchan o‘g‘li
Urganch davlat pedagogika instituti
mustaqil izlanuvchisi.
E-mail: sirojbek.allanazarov@bk.ru

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA XORAZMDA IJTIMOIY-MADANIY MUASSASALARNING AHVOLI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ikkinchi jahon urushi yillarida Xorazmda ijtimoiy-madaniy muassasalarning faoliyati, xorazmliklarning urush janggohlaridan ko‘chirib keltirilgan aholiga insonparvarlik yordami hamda aholini urushga da’vat va g‘alaba ruhida olib borilgan targ‘ibot-tashviqotlarning ayrim masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Ikkinchi jahon urushi, Xorazm, teatr, maorif, maktab, yordam, spektakl, gazeta, Xorazm haqiqati, komsomolchilar, targ‘ibot, madaniy-oqartiruv.

Алланазаров Сирожбек Бекчанович
Ургенчский государственный педагогический институт
E-mail: sirojbek.allanazarov@bk.ru

СОСТОЯНИЕ СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫХ ИНСТИТУТОВ В ХОРЕЗМЕ В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

Аннотация. В статье рассматриваются некоторые вопросы деятельности социально-культурных учреждений Хорезма в годы Второй мировой войны, гуманитарная помощь, оказываемая хорезмийцами населению, эвакуированному с полей сражений, мобилизация населения на войну и пропаганда, проводимая в духе победы.

Ключевые слова: Второй мировой войны, Хорезм, театр, образование, школа, помощь, спектакль, газета, правда Хорезма, комсомольцы, пропаганда, культпросвет.

Allanazarov Sirojbek
Urgench state pedagogical institute
E-mail: sirojbek.allanazarov@bk.ru

THE STATE OF SOCIO-CULTURAL INSTITUTIONS IN KHOREZM DURING THE YEARS OF WORLD WAR II

Annotation. This article covers some issues of the activities of socio-cultural institutions in Khorezm during the Second World War, humanitarian assistance to the

population evacuated from the battlefields of Khorezm, and the propaganda campaign carried out in the spirit of calling the population to war and victory.

Keywords: World War II, Khorezm, theater, education, school, aid, performance, newspaper, the reality of Khorezm, Komsomol members, propaganda, cultural enlightenment.

1941-yilning 22-iyun kuni nemislar SSR hududiga bostirib kirdi. Dunyo aholisining beshdan to‘rt qismi qatnashgan Ikkinchi jahon urushi boshlangan paytda Xorazm viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holati O‘zbekistonning boshqa hududlariga nisbatan og‘ir ahvolda bo‘lib, sanoat sust rivojlangan, zamonaviy transport tizimiga deyarli ega bo‘lmagan. Ana shunday bir sharoitda viloyat o‘z iqtisodiyotini harbiy asosda qayta qurishi lozim edi. Bundan tashqari xususiy mulkchilikning tugatilishi va qishloq xo‘jaligini jamoalashtirish siyosatining og‘ir oqibatlari va sovet hukumatining qatag‘onlik siyosatining ayanchli xotiralari hali ham xalqning yuragida saqlanib turgan bir vaqtda erkaklarning urushga jalb qilinishi va barcha narsaning harbiy izga solinishi vaziyatni yanada og‘irlashishiga olib keldi.

Sovet hukumati turli mitinglar, chaqiriqlar bilan janggohlarga ketgan erkaklar o‘rniga ayollarni jalb etishga zo‘r berib targ‘ibot qildi. Xorazm viloyatida ham urushning dastlabki kunlaridanoq ayollar mitinglar, korxona va idoralarda yig‘inlar uyushtirib, barchani bir safda turib, front uchun, frontda jang qilayotgan jangchilar uchun mehnat qilishga da’vat etdilar[7]. Xususan, 1941-yil 22-iyul kuni Urganch shahrida 3 mingdan ortiq kishi ishtirokida bo‘lib o‘tgan shahar mehnatkashlarining katta mitingida Xorazm xotin-qizlari g‘alaba uchun fidoiylarcha mehnat qilib, erkaklar o‘rnini egallashga chaqirildi. Shundan so‘ng, Xorazm viloyat paxta tozalash zavodlariga 366 nafar xotin-qizlar jalb etilib, shulardan 141 nafari yangi kasbni o‘rganib, mutaxassis ishchiga aylandi. 1941-yil oxiriga kelib viloyat sanoat korxonalariga jalb qilingan xotin-qizlar soni 1213 nafarga yetdi[3, B. 14]. Sovet davlati bu jarayonlarga ham mafkuraviy tus berib, viloyatda butun sovet davlatida bo‘lganidek, staxanovchilik va o‘n besh mingchilar harakatlarini avj oldirib yubordi. 1941-yilning iyul-sentabr oylari davomida Xorazm viloyatida sanoat korxonalari va ishlab chiqarish artellariga 700 dan ortiq ayollar jalb qilindi. Ularning ko‘pchiligi “staxanovchi” ishchi sifatida belgilangan rejani ortig‘i bilan bajarganlar. Xullas viloyatda urushdan oldin deyarli mavjud bo‘lmagan sanoat sohalari yuzaga kelib, urush ehtiyojlari uchun eng muhim mahsulotlar ishlab chiqaruvchi sanoat sohalari tashkil qilindi. 1943-yil oxiriga kelib Urganch korxonalarida 1300 ayol kishi ishlagan. Ularning 300 dan ortig‘i urushga ketgan turmush o‘rtoqlarining o‘rnini egallagan edi [6].

Komsomol tashkilotlari ham kolxozlarda siyosiy tashviqotlar bilan shug‘ullandilar. Aholini hamma narsa front uchun degan g‘oya asosida jipslashtirishga urindilar. Urush yillarida komsomolchilar turli devoriy gazetalar chiqarib, kolxoz klubini turli shiorlar bilan bezab turdilar[10]. Urushning birinchi yilida komsomolchi yoshlari to‘rt yakshanba kunini o‘tkazdilar, unda 68548 nafar yigit-qiz qatnashdi. Ular 490 ming rubldan ortiq ishlab, Mudofaa fondiga topshirdilar[5].

1942-yilning 3-yanvar kuni O‘zKP Markaziy komiteti byurosining “Ko‘chirib keltirilgan bolalarni joylashtirish to‘g‘risida Toshkent shahar xotin-qizlarining

O‘zbekistondagi xotin-qizlarga murojaati haqida”gi qarori qabul qilinib, bu kabi muhim tadbirga katta ahamiyat berilishi ta’kidlandi. O‘zbek xalqi orasidan yetim qolgan bolalarni o‘ziga farzand qilib olgan yoki o‘z bolalari qatorida tarbiyasiga olgan minglarda odam topildi[8]. Xususan, Xorazm oblasti ham ko‘chirib keltirilgan bolalarni otaliqqa olish, ularni maktablarga joylashtirish tadbirlari amalga oshirildi. Birgina Hazorasp rayon komiteti ko‘chirib keltirilgan oilalarga har oyda 12 ming so‘mdan yordam ko‘rsatdi. Urganch shahar maktablariga 123 nafar, Gurlan rayon maktablariga 45 nafar, Mang‘it rayoni maktablariga 19 nafar bolalar joylashtirildi[9].

1942-yilning o‘zidayoq birigina Urganch shahridan urush o‘chog‘idan ko‘chirilgan 476 oilaga boshpana berildi. 447 nafar ko‘chib kelganlar zavod va fabrikalarga ishga joylashtirildi. Shahar soveti 71 ta oilaga 5393 so‘mlik moddiy yordam ko‘rsatdilar. Ko‘chirib keltirilgan bolalarning farzandlariga ham alohida g‘amxo‘rlik ko‘rsatilib, 37 nafar bolalar bog‘chalarga joylashtirildi[4].

Xiva rayon Toshyoq qishloq sovetidagi Orjonikidze nomli kolxoz ko‘chib kelgan 6 xo‘jalikni yangi joy bilan ta’minladi. Xiva rayon bo‘yicha jami 128 ko‘chirilgan aholiga yordam ko‘rsatildi. Gurlan rayonida esa ko‘chirilgan aholiga 6800 so‘mlik issiq kiyim bosh ajratildi. Xiva shahar maorifi xodimlari ko‘chirilgan bolalarning 16 nafarini maktabga, 6 nafar bolalar yaslilarga joylashtirildi[14]. Mang‘it rayonida ko‘chirilgan 71 oilaga 4075 so‘mlik issiq kiyim sotib olib berilgan, 78 xo‘jalikning uyi remont qilishgan va 141 kubometr o‘tin bilan ta’minlangan[15].

Maktablarda ham yoshlarni harbiy hayotga tayyorlash, o‘quvchilarni harbiy san’at sirlariga o‘rgatish ishlari olib borildi. Xususan, SSR Markaziy hukumati 1942-yilning 24-oktyabrda 1729-sonli qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq 1942-1943-o‘quv yilidan boshlab to‘liqsiz o‘rta, o‘rta maktablar hamda texnikumlarning 5-10-sinf o‘quvchilari o‘rtasida dastlabki va chaqiruvgacha bo‘lgan harbiy tayyorgarlik joriy etildi[17]. Mazkur qarori yuzasidan O‘zbekiston SSR oblastlari kabi Xorazmda ham bir qator amaliy ishlar qilindi. Misol uchun Urganch shahridagi Kuybishev nomli maktabda qurol aslahalarning maketlari joylashtirilib, sovet armiyasi uchun rezerv xodimlar shakllantirila boshlandi.

Urush yillarida Xorazm oblasti bo‘yicha 1941-yilda maorif uchun 30456 ming, 1942-yilda 21968 so‘m, 1943-yilda 23347 so‘m, 1944-yilda 36049 so‘m sarflandi[1, B. 69].

Urush janglari ketayotgan bir davrda Xiva sharidagi maktab o‘qituvchi va o‘quvchi pionerlar 4700 so‘mlik 25 ta posilka hozirlab, urushga yubordilar. Bundan tashqari mudofaa fondiga 1180 kilo temir-tersak, 1105 butilka, 1500 kilo qog‘oz yig‘ib topshirdilar[11].

Lenin nomli maktabning o‘quvchilari urush yillarida kolxozga 45000 tonna paxta yig‘ib topshirdilar. Mudofaa fondiga 500 kgdan ortiq rangli metall, 730 ta butilka, dori-darmon uchun 25 kgdan ortiq jiyda terib berdilar va urushga posilka jo‘natdilar. Bundan tashqari rus tili fani o‘qituvchi kolxoz bolalariga kuniga 3 soat qo‘shimcha rus tilini o‘rgatdi. Shuningdek, Onajon Atayeva ismli o‘qituvchi 30 ta, Yo‘ldashev 25 ta o‘quvchini savodli qilish uchun harakat qilib, o‘qitdi[12].

Urush yillarida maorif tizimida ayrim o‘zgarishlar amalga oshirildi. 1944-yilgacha o‘quvchilarning bilimi va xulqini baholashda qo‘llanib kelingan sotsialistik musobaqa usuli bekor qilinib, uning o‘rniga yangi besh ballik baholash tizimi joriy qilindi [1, B. 88].

1943-yildan boshlab ishchi yoshlarni ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o‘qishga jalb qilish uchun kechki ishchi-yoshlar maktablari tashkil qilindi. Bu maktablarda zavod, fabrika, jamoa xo‘jaligi va boshqa sohalarda ishlayotgan juda ko‘plab yoshlar o‘qidilar [16, B. 155].

Mehmondo‘st va azaldan mehr-oqibatli bo‘lgan o‘zbek xalq urushdan zarar ko‘rgan SSSR hududlarini tiklash ishlariga o‘z hissasini qo‘shdi. Xususan, 1943-yil oxiriga kelib, ozod qilingan SSSR rayonlariga yordam tariqasida Xorazm viloyatidan 130 ta ot, 201 ta ho‘kiz, 1446 ta qo‘y, 675 ta echki va 7954 s don mahsulotlari yuborildi.

Urush yillarida viloyatda ikkita teatr (Urganch va Xivada) bir qancha truppa va havaskorlik to‘garaklari mavjud edi. Teatr va truppalarning repertuarlari urush mavzusi bilan almashtirildi. Bu teatrlarda “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin”, “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Tohir va Zuhra”, “Arshin mol-olan” kabi spektakllar bilan birga urush mavzusidagi “O‘lim bosqinchilarga”, “Qasos”, “Jaloladdin” kabi spektakllar ham munosib o‘rin oldilar.

Viloyat musiqali drama teatri urush mavzusiga ham qo‘l urdi. Dramaturg Sobir Abdulla hamda shoir Chustiy tomonidan yaratilgan “Qurbon Umarov” nomli spektakl sahna yuzini ko‘rdi. Urush mavzusiga bag‘ishlangan ushbu spektaklda urushda jon bergan Qurbon Umarov hayoti aks ettirildi[13]. 1943-yilda Sobir Abdulla tomonidan “Tohir va Zuhra” spektakli sovet mafkurasiga moslab qayta ishlandi va Xorazm oblast teatrida sahnalashtirildi. Asarning namoyishi yuzasidan Xorazm haqiqati Egam Raxim qalamiga mansub maqolada Tohir va Zuhra pyessasi ular o‘rtasidagi sevgi-muhabbat muammosi xalqning razolatga qarshi haqiqat uchun yovdan qasos olish jihati bilan uzviy bog‘lanishi asarning davrimiz bilan hamohangligini yanada oshirgan[2].

Urush yillarida matbuotning roli yanada ko‘proq o‘sdi. Sovet hukumati matbuotdan urushga ilhomlantirish vositasi sifatida foydalandi. Gazetalarda Stalinning dushman ustidan g‘alaba qozonishga yo‘l ochadigan ko‘rsatmalarini bajarishga chaqirish, mamlakat ichkarisidagi kolxozchi va ishchilarni fidokorona mehnat qilishga undash hayqiriqi yangradi. Urush yillarida Xorazmda oblast bo‘yicha “Xorazm haqiqati” gazetasi hamda oblastning Gurlan rayonida “Kolxozchilar ovozi”, Qo‘shko‘pir rayonida “Paxta uchun kurash”, Mang‘itda “Stalinchi”, Hazoraspda “Stalin yo‘li”, Xonqada “Qurilish”, Xivada “Kommunaga”, Shovotda “Shovot haqiqati” hamda Yangiariq rayonida “Lenin yo‘li” kabi gazetalar nashr etilib turdi[18]. Ularda asosan urush mavzusidagi maqolalar chop etilib, hamma narsa front uchun degan g‘oya ostida ish olib borildi. “Xorazm haqiqati” gazetasining urush yillaridagi sahifalarida frontdagi ahvol, jangchilarning qo‘lga kiritayotgan g‘alabalari yangrab turdi. Paxta dalalaridagi kolxoz va sovxozchilarning mashaqqatli mehnati va komsomolchi yoshlarning yordamlariga bag‘ishlangan maqolalar bilan gazeta sahifalari to‘ldirildi. Gazeta sahifalarida Said Nazarning “Mardlar qo‘shig‘i”, R.Rajabning “Ko‘klam”, “Chaqiriq”, Nurmat Yashinning “Qasos” kabi urushga chaqiriq she’rlari bosilib turdi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ikkinchi jahon urushi yillarida yoshlarni ishlab chiqarishdan ajratmasdan kechki ishchi yoshlar maktablarining tashkil etilishi urush harakatlari ketayotgan bir davrda ham ta’lim-tarbiya masalalari muhim ahamiyat kasb qilganligidan dalolat beradi. Ammo bu davrdagi yaratilgan asarlar va teatr sahna asarlari ham aynan hukmron partiya manfaatlari xizmat qilganligini bilan ajralib turadi.

Urush ziyolilarni ham sinovdan o‘tkazib, madaniy jarayonlar asosan urushga chaqiriq ruhida kechdi. Urush tufayli pedagoglarning ham urushga jalb etilishi maorif sohasida katta qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Билолов Г. Хоразм халқ маориф тараққийси. – Т.: Ўқитувчи, 1969.

2. Эгам Раҳим. Тоҳир ва Зуҳра – Хоразм саҳнасида // Хоразм ҳақиқати. 1944 йил, 23 август. №.165 (4735).

3. Jumaniyazova F. J. Ikkinchi jahon urushi yillarida Xorazm xotin-qizlari hayoti va faoliyati // Tarix fanlari bo‘yicha diss. avtoref. – Urganch: 2024.

4. Кўчирилган аҳолига ҳартарафлама ғамхўрлик қиламиз // Хоразм ҳақиқати газетаси. 1942 йил, 1 январь. №1 (4009).

5. КПСС в резолюциях и решениях съездов, конференций к Плекумов ЦК.Изд. 8-е. 6. М., 1972, е.л. 118.

6. Муминова И. М. История Хорезма. С древнейших времен до наших дней. Под ред. акад. АН УзССР. Т., «Фан», 1976.

7. “Хорезмская правда”. 20 июля 1941 год. № 171.

8. Хоразм ҳақиқати газетаси. 1941 йил, 14 январь, №11 (4019).

9. Хоразм ҳақиқати газетаси. 1941 йил, 16 январь, №11 (4021).

10. Хоразм хақиқати газетаси, 1942 йил, 7 январь. №4 (4013).

11. Хоразм ҳақиқати газетаси, 1942 йил, 8 январь. №8 (4016).

12. Хоразм ҳақиқати газетаси, 1942 йил, 24 январь. №20 (4028).

13. Хоразм хақиқати газетаси, 1942 йил, 19 апрел. № 93.

14. Хоразм хақиқати 1942 йил, 24 ноябрь. № 271 (4279)]

15. Хоразм хақиқати 1942 йил, 19 ноябрь. № 267 (4275)]

16. Хоразм тарихи. II жилдлик. 2-жилд. Масъул муҳаррир М. Матниёзов. – Урганч: Хоразм, 1997.

17. O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘zMA), 94-fond, 5-ro‘yhat, 4294-yig‘majild, 2-varaq.

18. O‘zMA, 1619-fond, 11-ro‘yxat, 883-yig‘majild, 8-varaq.